

R.X.Akbarov

QO‘QON XONLIGI TARIXI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX KAFEDRASI

“QO‘QON XONLIGI TARIXI”

maxsus kursidan

B 5120300 – “Tarix” (mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha) yo‘nalishi talabalari
uchun

O‘QUV-USLUBIY KO‘RSATMA

Farg'ona - 2015

Tuzuvchi

- **R.X.Akbarov** o'qituvchi

Taqrizchilar:

- **R.A.Arslonzoda**, t.f.n. FarDU tarix kafedrası katta o'qituvchisi

- **A.A.Komilov**, t.f.n., FarPI O'zbekiston tarixi kafedrası dotsenti

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e'lon qilingandan so'ng davlatchiligimiz tarixini teran o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etdi. Shuni hisobga olgan holda Farg'ona davlat universiteti tarix yo'nalishida "Qo'qon xonligi tarixi" deb atalgan maxsus kurs joriy etildi. Mazkur kurs chuqur nazariy bilimlarga ega bo'lgan tarixchi bakalavrlar tayyorlashga yordam beradi. Bundan tashqari, bu maxsus kurs O'zbekiston tarixini o'lka tarixi bilan bog'liq holda o'rganish imkoniyatini yaratadi. Sovet davrida Qo'qon xonligi tarixini o'rganishga yetarli e'tibor berilmaganligi ham bu kursning joriy etishini taqozo etdi. Mazkur ishchi dastur talaba yoshlarga Qo'qon xonligi tarixining turli qirralarini teran o'rganish imkoniyatini beradi.

Uslubiy qo'llanma Farg'ona davlat universiteti Ilmiy Kengashining 2015-yil 25-dekabrda 4-sonli yig'ilishida nashrga tavsiya etilgan.

1-mavzu: Qo‘qon xonligining tashkil topishi

Reja

- 1. Maxsus kursning predmeti, maqsad va vazifalari**
- 2. “Qo‘qon xonligi tarixi” maxsus kursi manbashunosligi**
- 3. Qo‘qon xonligining tashkil topishi**
- 4. Erdonabiy va Norbo‘tabiy hukmronliklari davrida Qo‘qon bekligi**

1. Maxsus kursning predmeti, maqsad va vazifalari

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng o‘zbek davlatchiligi tarixini o‘rganish, diyorimizda qadimgi zamonda hamda o‘rta asrlarda mavjud bo‘lgan davlatlar tarixini tadqiq etish muhim ilmiy va siyosiy ahamiyat kasb etdi. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti I. A. Karimov o‘zining “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” nomli risolasida o‘zbek davlatchiligi tarixini o‘rganish olimlarimiz oldida turgan ustivor vazifalardan biri ekanligini ta’kidlab o‘tdi. Shuning uchun ham istiqlol yillarida respublikamizning oliy o‘quv yurtlarida “O‘zbek davlatchiligi tarixi”, “Amir Temur davlati tarixi”, “Somoniy davlati tarixi” kabi maxsus kurslar kiritildi. Ana shu xayrli ishlarning davomi sifatida Farg‘ona davlat universiteti “Tarix” yo‘nalishi talabalari uchun “Qo‘qon xonligi tarixi” maxsus kursi joriy etildi. Shubhasiz, bu maxsus kurs o‘zbek davlatchiligi tarixini yanada teran idrok etish imkoniyatini beradi.

Mazkur kursning predmeti – bu XVIII asrning boshi va XIX asrning uchinchi choragiga qadar mavjud bo‘lgan, nafaqat Farg‘ona vodiysi, hozirgi Qirg‘iziston va Tojikiston Respublikalari va Qozog‘istonning janubiy hududlarini o‘z ichiga olgan Qo‘qon xonligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidir. Ushbu davlat tarixining turli qirralarini o‘zaro dialektik birlikda ilmiy asosda o‘rganish o‘zbek davlatchiligi tarixini yanada chuqurroq idrok etishga ko‘mak beradi. Maxsus kursning asosiy maqsadi ham xuddi shundan iborat. Mavjud tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida ushbu davlat tarixini o‘rganish talabalarning tarixiy tafakkurini kengaytiradi, ularga O‘zbekiston tarixini yanada teranroq bilib olish imkoniyatini beradi.

“Qo‘qon xonligi tarixi” maxsus kursini o‘qitish jarayonida bir necha vazifalarni hal etish nazarda tutilgan. Birinchidan, kursni o‘rganish jarayonida talabalar ushbu davlat tarixini yorituvchi birlamchi manbalarni o‘qishlari va bilib olishlari zarur. Ikkinchidan, Qo‘qon xonligi tarixiga bag‘ishlangan ilmiy asarlar – maqolalar, risolalar va monografiyalar bilan yaqindan tanishadilar. Bu esa ularning ilmiy tasavvurlarini yanada kengaytiradi. Uchinchidan, maxsus kurs O‘zbekistonda davlatchilik uzoq tarixga va an‘analarga ega ekanligini ko‘rsatib, xorijdagi ba’zi siyosatdonlarning bu boradagi noto‘g‘ri aqidalarini rad etishga yordam beradi.

2. “Qo‘qon xonligi tarixi” maxsus kursi manbashunosligi

Qo‘qon xonligi XVIII-XIX asrlarda rivojlangan hudud sifatida doimo olimlarning e‘tiborini jalb qilgan. Farg‘ona vodiysiga umumiy holatda ko‘plab sayyohlar kirib kelib, mazkur hudud

haqida mavjud ma‘lumotlarni o‘z asarlarida qayd qilganlar.

Farg‘ona vodiysidagi XVIII-XIX asrlar tarixi ko‘pgina tadqiqotchilar merosidan o‘rin egallagan. Ular yashagan va ijod qilgan vaqtga qarab mavjud manbalarni shartli ravishda bir necha davrlarga ajratish mumkin: 1. Saroy tarixchilarining asarlari; 2. Mahalliy

mualliflarning xonlik tarixini o'zida aks ettirgan asarlari; 3. XVIII-XIX asrlar davomida xonlikka tashrif buyurgan rus va yevropalik sayyohlar, harbiylar, elchilar va savdogarlarning safarnoma va esdaliklari; 4. arxiv hujjatlari.

Qo'qon xonligi tarixi eng avvalo, birlamchi manbalar, ya'ni o'sha zamonlarda yaratilgan tarixiy asarlar asosida o'rganiladi. Bunday manbalar qatoriga Muhammadhakimxon To'ra "Muntaxab at-tavorix"¹ asarini kiritishimiz mumkin. Mazkur asarda xonlik tarixiga oid XVIII asr o'rtalaridan – 1843-yilgacha bo'lgan ma'lumotlar berilgan.

Xonlikning asos solinishi, tashkil topishi va rivoji haqida Xudoyorxonzodaning "Anjum at-tavorix" asarida ham o'ziga xos ma'lumotlar berilgan². Bu asarning qimmati shundaki, asar muallifi bevosita minglar sulolasiga mansub shaxs bo'lib, avlodlari ma'lumotlaridan keng foydalangan. Shu bilan birgalikda, Mulla Olim Maxdumxoja, Ishoqxon Ibrat, Mirzo Olim Mushrif, Muhammad Yahyoxon, Muhammad Aziz Marg'iloniy kabi mualliflarning asarlari ham xonlik tarixini o'rganishda muhim manbalardan hisoblanadi³.

Qo'qon xonligi tarixi davri to'g'risida muhim ma'lumotlar bergan original tarixiy manba – bu Xudoyorxonzoda qalamiga mansub "Anjum at-tavorix" ("Tarixlar yulduzi") nomli tarixiy asardir. Uning muallifi Xudoyorxonzoda minglar sulolasiga mansub bo'lgan. "Anjum at-tavorix" asarining dastlabki qismi xonlik haqidagi afsona "Oltin beshik" haqida, umuman minglarning kelib chiqishi tarixi haqida qimmatli voqealar bayon etiladi. Xudoyorxonzoda ushbu voqealarni bayon etishda unga ma'lum bo'lgan sulolaviy ma'lumotlardan to'liq foydalanganligi shubhasiz. Asarning keyingi qismlarida ham xonlik tarixiga oid qimmatli ma'lumotlarni berib o'tgan.

Mullo Olim Maxdumxojaning "Tarixi Turkiston" asari o'zbek tili va kirill alifbosida nashr etilgan. Asarning boshlang'ich qismida XVIII asr tarixi haqida qisqacha ma'lumot berilib, asarning asosiy qismi XIX asrdagi xonlik tarixini yoritishga bag'ishlangan. Ayniqsa, Olimxon o'tkazgan harbiy islohot haqida ham qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Umuman xonlik tarixiga oid juda ko'plab asarlar yaratilgan. Mahalliy tarixchilar tomonidan xonlik tarixiga oid 30 dan ortiq asarlar yaratilgan. Ushbu asarlarda xonlik tarixiga oid "Oltin beshik" afsonasidan boshlanib, xonlik tarixi turli davrlari yoritilgan.

Qo'qon xonligi tarixi eng avvalo shu yerlik tarixnavislarning asarlarida o'z aksini topgan. XIX asr va XX asr boshlarida saroy tarixchilari hamda saroyda yashamagan muarrixlar yaratgan qator tarixiy va adabiy asarlarda Qo'qon xonligining tashkil topishi, bu yerda hukmronlik qilgan xonlarning faoliyati, xonlikdagi siyosiy ahvol, xo'jalik va madaniy hayot bayon qilingan. Mahalliy tarixnavislarning asarlari xonlik tarixini o'rganishda birinchi darajadagi ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy manbalar hisoblanadi.

Musulmon mualliflari va ular qatorida Qo'qon tarixnavisligi maktabi vakillari tarixni "boshidan", ya'ni olamning, Yer va unda hayotning yaratilishidan, Odam Ato va Momo Havoning paydo bo'lishidan to o'zlari yashagan davrgacha yoritish zarur deb hisoblaganlar. Shuning uchun ham ko'pincha Qo'qon xonligi tarixiga bag'ishlangan asarlar "olamning

¹ Мухаммадҳақимхон Тўра. Мунтахаб ат-таворих. Тошкент. Янги аср авлоди. 2010.

² Худоёрхонзода. Анжум ат-таворих. Тошкент. 2014.

³ Мулла Олим Махдумхожа. Тарихи Туркистон. Қарши. Насаф. 1992., Исҳоқхон Иброт. Фарғона Тарихи, Т. 1991., Мирзо Олим Мушриф. Ансоб ус – салотин ва таворихи ал-ҳавоқин. Т., 1996., Мирзо Олим Махдумхожа. Тарихи Туркистон. Тошкент. "Янги аср авлоди". 2008., Мухаммад Яҳёхон. Туркистон хонлари тарихи//Ватан газетаси. 1994. 10-17 август., Мухаммад Азиз Марғилоний. Тарихи Азизий. Тошкент. Маънавият. 1999,

yaratilishi”dan boshlanib, ularda payg‘ambarlar, xalifalar, davlatlar tarixi sulolaviy-xronologik tartibda bayon etiladi va asarning so‘nggi fasllarida bevosita xonlik tarixi yoritiladi.

Qo‘qon xonligi muarrixlari o‘z asarlarini yaratishda oldingi zamonlarda musulmon Sharqida yozilgan tarixiy asarlarga tayanganlar. Shu bilan birga mualliflarning o‘sha zamonda yashaganligi, ko‘p tarixiy voqealarni shohidi va ishtirokchisi bo‘lganliklari ham ular uchun boy materiallar bergan.

Mahalliy tarixnavislarning asarlari o‘z manbaviy ahamiyati nuqtai nazaridan bir xil emasdir. Saroy tarixchilari yoki hukmdor sulolaga yaqin muarrixlarning asarlari Qo‘qon xonligi o‘tmishiga oid ishonarli faktlarga boydir, chunki mualliflar mamlakatda ro‘y bergan voqealar xususida yetarli darajada xabardor bo‘lganlar. Ammo poytaxtdan yiroqda yashab ijod etgan tarixchilar esa ba’zi hollarda tarixiy voqealar haqida boshqalardan eshitganlarini yozganlar, shuning uchun ularning asarlarida talay noaniqliklar uchraydi (Ibrat, Muhammad Aziz Marg‘iloniy va b.).

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, musulmon mualliflari tarixga teologik (diniy) nuqtai nazardan yondashganligi sababli ko‘pincha voqealarning asosiy sabab va oqibatlarini to‘g‘ri talqin qilmaydilar. Tarixiy shaxslar faoliyatiga baho berishda ham ularning ijtimoiy mavqei muhim rol o‘ynagan. Jumladan, hukmdorlarni maqtab, ularning siyosatiga tanqidiy jihatdan yondashmaslik saroy tarixchilari asarlariga xos bo‘lgan nuqsonlardir.

Qo‘qon tarixnavislari asarlarini asosan ikki guruhga bo‘lish mumkin: 1) tarixiy-adabiy asarlar. Bu asarlarda tarixiy voqealar bayoni birinchi o‘rinda turadi; 2) adabiy-tarixiy asarlar. Bu asarlarda tarixiy voqealar sabablariga asosiy e’tibor qaratiladi.

Mahalliy tarixnavislarning Qo‘qon xonligi tarixiga bag‘ishlangan asarlari asosan o‘zbek va fors-tojik tillarida yozilgan.

3. Qo‘qon xonligi tashkil topishi

Qo‘qon xonligi tarixi haqida fikr yuritganda eng avvalo yodimizga mahalliy mualliflar tomonidan yozib qoldirilgan “Oltin beshik” afsonasi keladi. Xo‘sh “Oltin beshik” afsonasi mazmuni nima va u qanchalik tarixiy haqiqatga

ega? degan savollar tug‘ilishi tabiiy.

Ushbu afsonaning mazmuni quyidagicha⁴: Zahiriddin Muhammad Bobur Shayboniyxondan yengilib, Hindiston tomon ketayotib, safar asnosida xotini tug‘adi yer (manbalarda Farg‘ona hududi deb ko‘rsatiladi). Safarni go‘dak bilan davom ettira olmasligi uchun Bobur bu yerga go‘dakni javohirlar bilan beshigi bilan bir yigitni qorovul qilib tashlab ketadi. Bu atrofda yashagan uch o‘zbek qabilasi bolani o‘zlariga oladilar. Buni bir ayolga topshiradilar va unga Oltin beshik ismini qo‘yadilar. Voyaga yetgach, uni bir qizga uylantiradilar bu nikohdan Sulton Edik (*yoki boshqa manbalarda Ilik*) ismli farzand tug‘iladi. Undan Xudoyor ismli farzand qolgan, undan esa Abulqosim, undan esa Shohmastbiy, ikkinchi ismi esa Jamoshbiy, Shohmastbiy, Jamoshbiydan Shohruhbiy va undan Hojibiy, undan esa Ashurbiy tug‘ilib, Ashurbiydan esa bizga mashhur Shohruhbiy tavallud topgandir. Oltin Beshik bilan Qo‘qon xonligiga asos solgan Shohruhbiy orasida 10

⁴Бу ерда мавзумизнинг асосий мазмуни бошқа бўлганлиги учун афсонанинг фақатгина қисқача мазмуни берилди. Батафсил маълумотлар ҳақида манбаларга қаранг: Мулла Олим Махдумхожа “Тарихи Туркистон”; Ибрат “Тарихи Фарғона”, Муҳаммадхакимхон Тўра “Мунтахаб ат-таворих” ва бошқа манбалар. Афсонанинг тўлиқроқ қисми Б.М.Бабаджановнинг китоби асосида биров кейинроқ берилди.

ta avlod almashgan. “Oltin beshik” haqidagi afsona haqida B.M.Babadjanov⁵, V.V.Nalivkin⁶ va Xudoyorxonzoda⁷ asarlarida batafsil ma’lumot berilgan.

Oltin Beshik haqidagi afsonaning qisqacha mazmuni shunday. Aslida bu afsona bilan Zahiriddin Muhammad Boburning hech qanday aloqasi yo‘q. Qo‘qon xonligining tashkil topishida Ming urug‘ining muhim o‘rin tutganligi, uning dastlabki vakillari xususida ilmiy tadqiqotlarda ham, qo‘lyozma manbalarda ham turlicha qarashlar mavjud.

Qo‘qon xonligi tarixi haqidagi yozilgan “Oltin beshik” haqidagi boshqa afsonalardan birida minglarning hokimiyat tepasiga kelishini 1702-1707-yillar mustaqil bo‘lgan Balxning afsonaviy hukmdori Muhammad Muqimxon nomi bilan ham bog‘lanadi. Unga ko‘ra, Muhammad Muqimxon Boburning to‘rtinchi avlodi bo‘lib, bir vaqtlar Qobulni boshqargan. Keyinchalik Xurosonga, u yerdan Buxoroga, Vali Muhammadxon huzuriga keladi. Valimuhammadxon unga ajdodlari hududi bo‘lgan Farg‘onani beradi. Lekin Imomqulixon uni mag‘lubiyatga uchratadi. Muhammad Muqimxon esa Targavaga yashirinadi. U yerda Niso begimga uylanadi. Bu nikohdan bir farzand tug‘ilgan, lekin tez orada Niso begim vafot etadi. Muqimxon Andijonni bosib olishni orzu qilgan, lekin o‘limi orzusining amalga oshishiga xalaqit bergan. Undan qolgan farzandni esa shu yerdagi to‘rtta qabila boqib katta qiladi. Afsonaning qolgan qismi ham yuqoridagi syujet bo‘yicha davom etadi. Umuman Qo‘qon xonlari shajarasi haqida bir necha faraz mavjud bo‘lib, bu haqida B.M.Babadjanov o‘zining kitobida batafsil ma’lumot bergan.

Shu bilan birga Umarxon davrida xonlar shajarasini ulamolar sinfi bilan ham bog‘lash masalasiga e’tibor berilgan va bu borada bir qancha farazlar yaratilgan. Lekin bu faktlarning barchasi Qo‘qon xonlari shajarasining Boburga bog‘lanishini tasdiqlay olmaydi. Chunki, birinchidan, Boburning Shayboniyxonga qarshi kurashi asnosida farzandi bo‘lganligi haqida biror bir manbada ma’lumot berilmaydi. Ikkinchidan, Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining “Boburnoma”sida ham Farg‘onada uning o‘g‘li qolganligi haqida ma’lumot bermaydi. Shularni asos qilib olganda Qo‘qon xonlari shajarasining Boburga bog‘lashdan hech qanday ma’no yo‘q. Shu yerda haqli savol tug‘iladi. Nima uchun Qo‘qon xonlari haqidagi asar yozilayotganda shajarani albatta Zahiriddin Muhammad Boburga bog‘lashadi? Buning sababi nima?

Qo‘qonning birinchi hukmdori xususida Mirzo Olim Mushrifning “Ansob us - salotin va tavorixi al-xavoqin” asarida “Muntaxab ut-tavorix”dan farq qiluvchi ma’lumotlar mavjud. “...Xaloyiqni ittifoqi bilan Ashurquli otaliq otasini masnadig‘a o‘lturdi. Bir necha yillar hukmronlik qilib, olamdin o‘tdi. Andin Shohruhbiy yodgor qoldi. Taxti saltanatda o‘lturib o‘n uch yil podshohlig‘ qilib qirq yoshda olamdan o‘tdi” - deb qayd etiladi. Ushbu ma’lumotdan Shohruhbiyga hukmronlik otasi Ashurqulibiydan qolganligi, Ashirqulibiy ham bir necha yil taxtda o‘tirganligini anglash mumkin. Bunday ma’lumotni Ishoqxon To‘raning “Farg‘ona tarixi” asarida ham uchratish mumkin. Shu o‘rinda alohida qayd qilish lozimki, barcha manbalarda Qo‘qon xonlari shajarasi “Oltin beshik” orqali Zahiriddin Muhammad Boburga bog‘lanadigan rivoyat bayon etiladi. Ashurqulibiy hamda uning shajarasi “Oltin beshik” rivoyati bilan bog‘liq. Biroq Ashurqulibiy va uning avlodlari dastlabki vakillarining hukmronlik qilganligini tasdiqlovchi ishonchli biror - bir dalil, hujjat yo‘q. Bu o‘rinda, bizning fikrimizcha, T.Beysembiyev va Sh.Vohidovlar haqdir. Bu olimlarning “Oltin

⁵ Бабаджанов Б.М. Кокандская ханство: власть, политика, религия. Ташкент-Токио. 2010.

⁶ Наливкин В. Краткая история Кокандского ханства. Казань. 1886.

⁷ Художонзода. Анжум ат-таворих. Тошкент. 2014.

bashik” rivoyati orqali Qo‘qon xonlari o‘z hukmdorliklarini huquqiy jihatdan asoslash va mustahkamlash maqsadida keltirib chiqarishgan, degan fikrlari haqiqatga yaqindir.

Bizga ma‘lumki, turli manbalarda Shohruhbiyning xojalardan hokimiyatni kuch bilan tortib olganligi haqida ma‘lumot beriladi. Aslida ham shunday bo‘lganmi? Bu savolga javob berish uchun avvalo Chodak xojalari tarixini qisqacha ta‘rif etish lozim bo‘ladi deb o‘ylaymiz. Manbalarga ko‘ra, xo‘jalar yoki xo‘jagon sulolasi - ruhoniynasab Sharqiy Turkistonning hokimlari bo‘lgan. Sulolaning asoschisi Maxdumi A‘zamxo‘ja Ahmad ibn Sayyid Jaloliddin bo‘lib, u “Xo‘jagon” tariqatiga mansub. U hijriy 956-yili tavallud topib, milodiy 1542-yili vafot etgan. Bu xo‘jalar Sharqiy va G‘arbiy Turkistonda hukm surgan chig‘atoy hokimlari davrida katta mansab va vazifalarga ega bo‘lib, iqtisodiy-siyosiy kuchlarga ega bo‘lganlar. Sulolaning buyuk namoyandalari bo‘lmish Offoqxo‘ja Qoshg‘ariydan (XVIII asr) Sharqiy Turkiston hamda Farg‘onada faoliyat ko‘rsatgan xo‘jalar kelib chiqqan. Offoqxo‘ja o‘g‘illari Xonxo‘ja (Xo‘ja Yahyo ibn xo‘ja Hidoyatulloh ibn xo‘ja Muhammadyusuf ibn Xo‘ja Muhammadamin ibn Maxdumi A‘zam Dahbediy va Kunxo‘ja (Xo‘ja Burhoniddin) Sharqiy Turkistondagina emas, O‘rta Osiyoda ham katta obro‘ga ega bo‘lgan.

Bu xo‘jalar - Oqxo‘jalar va qoraxo‘jalarga bo‘lingan. Qoraxo‘jalardan bo‘lmish Offoqxo‘ja Sin hukumatini tan olgan. Maxdumi A‘zamning o‘g‘li Muhammadamin Oqxo‘jalarga mansub bo‘lib, Sin hukumatini tan olmagan. Uning avlodlari Xitoy Sharqiy Turkistoniga bostirib kirganida G‘arbiy Turkiston, ya‘ni Qo‘qon xonligiga kelib qoladi.

Qo‘qon bekligi, keyinchalik xonlik deb atalgan yangi davlatning paydo bo‘lishi va taraqqiyoti taxminan XVII asrning boshlaridan - 1876-yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrda Farg‘ona hududi Ashtarxoniylar sulolasidan alohida ajralib chiqishga harakat qilgan. Bu narsa nafaqat ashtarxoniylar sulolasining inqirozi bilan, balki shu davrda eronliklarning g‘arbdan va sharqdan jung‘or (qalmiqlar) deb atalgan qabilalarning Movarounnahrda hujumi bilan ham bog‘liq bo‘lgan. Hududdagi qabilalar o‘rtasidagi o‘zaro kurashlar ham siyosiy vaziyatni yanada chigallashtirgan.

Minglar sulolasi hokimiyat tepasiga kelmasdan oldinroq, XVIII asr boshlarida Farg‘ona vodiysining g‘arbiy qismida mustaqil hokimlik - O‘ratepa hokimligi tashkil topgan edi. Ushbu hokimlik Ashtarxoniylardan rasman mustaqil bo‘lgan hokimlik edi.

Bundan oldinroq, Farg‘onaning shimolida Chodak xojalari mustaqilliklarini e‘lon qilgan edilar. Ular asosan Namangan viloyatining shimoliy va shimoliy-g‘arbiy qismini (Koson, Asht va Chodak) o‘z ichiga olgan edi. Shunga o‘xshash xojalar hokimiyati Qoshg‘arda (XVII asr oxiri – XVIII asr boshlarida) va Toshkentda ro‘y bergan edi.

Ularning hokimiyati asosan diniy xarakterda bo‘lib, dunyoviy ahamiyat kasb etmagan. Ular asosan soliq sohasidagina hokimiyatlarini o‘rnatgan edilar. Qo‘qonda xojalar hokimiyati xonlik darajasida emas edi, masalan ular yangi davlat suvernitetining asosiy belgisi tanga zarb etish yo‘lga qo‘yilmagan edi. Boshqa tomondan birorta xoja o‘zlariga dunyoviy xarakterdagi titullar – “xon” yoki “sulton” titulini olmagan edilar.

Ba‘zi tarixchilar Minglarning ajdodlarini Chamach/Chamanbiy deb ataydilar. U qalmiqlar amiri Tog‘ayqulibiy tomonidan tarbiyalangan. Lekin bu ma‘lumot tarixiy manbalarda u qadar o‘z tasdig‘ini topmagan. Lekin har holda xonlik asoschisi Shohruhbiy bo‘lgan. Qo‘qonning Ashtarxoniylardan mustaqil bo‘lish holati bugungi kungacha bahsli masalalar sirasiga kiradi. Hujjatlarda Ashtarxoniylar hukmdori Abulfayzxonning nomi ko‘p keltiriladi. Shohruhbiy davrida barcha masalalar Abulfayzxon nomi bilan hal etilar edi. Shohruhbiy “Otalik” nomi bilan atalib, bu unvon unga Abulfayzxon tomonidan berilgan edi.

Bu davrda Qo‘qonda deyarli mustaqil siyosat yuritilsada, vodiydagi tovar-pul munosabatlarida asosan “buxoro valyutasi” yoki Xorazmda zarb etilgan falslar (mis pullar) muomalada yurar edi. Bunday pullar hatto Olimxon davrigacha muomalada yurgan.

Qo‘qonning birinchi hukmdori sifatida tan olingan Shohruhbiy tavalludi taxminan 1669-1670-yillarga to‘g‘ri keladi. Uning yoshlik yillari Ho‘qand yaqinidagi Targ‘ova, Chomoch, To‘rong‘i, Saroy qishloqlarida o‘tadi. O‘sha davrlarida Ashtarxoniylar davlatidagi to‘sto‘polonlar natijasida ba‘zi bir kishilar Buxoroni tashlab ketishga majbur bo‘lgan edilar. Shohruhbiy yoshlik yillarida mash‘hur olim Mahdud Buxoriy qo‘lida ta‘lim olgan. Shohruhbiy har tomonlama yetuk shaxs bo‘lib kamolotga yetgan. Uning yoshlik yillari Ashtarxoniylar davlati tanazzuli davriga to‘g‘ri kelgan. Ushbu jarayonda Farg‘ona ushbu davlat tarkibidan tamomila ajralib chiqdi. Lekin yaxlit davlat shakllanmagan, har bir muzofot, har bir beklik mustaqillik uchun harakat qilar edi. Vodiy va uning atrofidagi hududlarni birlashtirish harakati XVII asr oxirida ikki guruh tomonidan bir vaqtning o‘zida boshlandi. Ushbu guruhlardan biri Xojagon jamoasi bo‘lib, mazkur jamoa mash‘hur so‘fiy, xalqda Maxdumi A‘zam nomlari bilan tanilgan Ahmad ibn Mavlono Jaloliddin hojagi Kosoniyning avlodlari edi. Xojagon jamoasining asosiy qarorgohlaridan biri Chodak bo‘lib xojalar Xo‘jand vohasini o‘z tasarruflariga olgach, uni o‘sha yerdan turib boshqarar edilar.

XVIII asr boshlariga kelganda umumiy siyosiy ahvol shu qadar keskinlashdiki, bu davrda Ashtarxoniylardan Samarqand, Balx va bir qator hududlar mustaqil bo‘lib olgan edilar. Bundan tashqari, Minglar sulolasi joylashgan hudud Ashtarxoniylardan mustaqil bo‘lish uchun qulay bo‘lish bilan birga, qo‘shni yarim mustaqil bo‘lgan hududlar (Chust, Chodak, Xo‘jandning bir qismi va boshqa hududlar)ni bosib olish uchun ham qulay sharoit vujudga kelgan edi. Bu hududlarni bosib olish ashtarxoniylarga qarshi tura olish bilan birga, Minglar sulolasi ichida qabila boshliqlari qarshiligini yengish uchun ham zarur bo‘lgan. Masalan, Shohruhbiy hokimiyat tepasiga kelmasdan oldin, otasi va amakisi o‘rtasida taxt uchun kurash bo‘lib o‘tgan edi.

Shohruhbiyning yoshligi davrida Minglar egallagan bir qancha shaharlarini qo‘ldan boy berishga majbur bo‘lgan. Voyaga yetgan Shohruhbiy qo‘ldan ketgan yerlarini egallashga va hududini kengaytirishga harakat qilgan. Dastlabki maqsad mustaqilliklarini e‘lon qilgan vodiyning shimolidagi Chodak xojalari hokimiyatini tugatish bo‘lgan. Niyoz Muhammad ma‘lumotiga qaraganda, Chodak xojalari to‘y munosabati bilan mehmonga chaqirilib, qatl qilinadi. Bu ma‘lumotni “Tarixi Turkiston” asari muallifi ham tasdiqlaydi.

Shu tariqa 1709-yilda Shohruhbiy taxtga kelgan va poytaxt sifatida Xo‘qand shahrini tanlagan. Ho‘qand o‘rnida yangi qal‘a, qo‘rg‘on va saroy, ya‘ni o‘rda qurdirgan. Shundan keyin Shohruhbiyni taxtga ko‘tarish marosimi bo‘lib o‘tgan. Uning qasri Eskiyo‘rg‘ondan Qo‘qonga ko‘chiriladi. “Ansob us-salotin tavorixi al-xavoqin” asarida esa bu haqida quyidagicha ma‘lumot berilgan: “Shohruhbiy Ko‘k to‘nlik otada bir qal‘a barpo etdi va u yerda 1121/1709-10 yilda taxtga o‘tirdi”. Ko‘p manbalarda Ko‘k to‘nlik ota mavzesi haqida ma‘lumot berilgan. Ko‘k ko‘nlik ota mavzesi Qo‘qondan shimoliy-g‘arbda unchalik uzoq bo‘lmagan joyda, hozirgi gaz ombori o‘rnida joylashgan. Bu yerda unchalik baland bo‘lmagan tepalik mavjud bo‘lib, mahalliy aholi uni shu nom bilan yoki boshqacha aytganda aziz-avliyolar moziri sifatida “Ko‘k to‘nlik azizlar” nomi bilan ataydi.

Tarixchilarning guvohlik berishlaricha, Shohruhbiy adolatli hukm yurguzib, fuqarolarning olqishiga sazovor bo‘lgan. XVI-XVII asrlarda Turkiston o‘lkasida Xojagon jamoasining ta‘siri kuchli bo‘lib, hatto hukmdorlar ham ular bilan hisoblashishga majbur edilar. Shohruhbiy bunday holga befarq qaray olmaydi. U xojalarning cheksiz hukmronligiga

qarshi chora ko'ra boshlagan. Shariatda belgilanmagan to'lovlar, majburiyatlar, bid'at marosimlar bekor qilinadi. Shohruhbiyning bu tariqa diniy-ma'naviy siyosati haqiqiy ruhoniylar tomonidan ma'qul topilsa-da, soxta ruhoniylarda norozilik uyg'otadi. Buni biz Shohruhbiy o'limi haqidagi afsonadan ham bilib olishimiz mumkin.

Shohruhbiy 12 yil davomida beklikni boshqargan, hukmronligining o'n uchinchi yilida, hijriy 1133-yil, milodiy 1721-yil ellik ikki (52) yoshida vafot etgan. U Namanganda vafot etganligi uchun uni shu yerdagi Sari-Mozor degan qabristonga dafn etilgan.

Shohruhbiyning hukmronligi Qo'qon xonligining shakllanishi va mamlakatda hukm surgan ma'lum bir darajadagi osudalik davriga to'g'ri keladi. Shohruhbiy davrida shakllana boshlagan davlat hududi u qadar katta bo'lmagan. Shohruhbiy siyosati minglar siyosiy hokimiyatini kuchaytirishni boshlanishi bilan xarakterlanadi. Shohruhbiyning hudud kengaytirish yo'lidagi urinishlari keyinchalik mualliflar tomonidan ko'plab afsonaviy voqealar bilan boyitilgan. Shohruhbiy Chodak xojalari hokimiyati ostidagi yerlarni birlashtirishi bilan hududi Chodak, Chust va Namangangacha kengayadi. Yanayam to'g'rirog'i, Qo'qon davlatining shimoliy chegarasi Namanganning Shohidongacha cho'ziladi. Lekin Shohruhbiy hukmronligi davrida Farg'onani birlashtira olmagan. Masalan, O'sh, O'zgand va Xo'jand mustaqilligicha qolgan. U faqat vodiyning markaziy qismlarinigina o'z ichiga olgan bo'lib, bu hudud yangi davlat - Qo'qon xonligiga asos bo'lgan.

Shu bilan birgalikda, mustaqil bo'lgan Farg'ona vodiysi ravnaq topib, taraqqiy topdi. Bo'ysundirilgan hududlarga hokimlar tayinlanib, ma'muriy islohotlar o'tkazildi. Xarbiy sohada boshqaruv izimi joriy qilinib, qo'shinni qurol-aslaha bilan ta'minlash yo'lga qo'yildi.

Shohruhbiy hukmronligi davri boshlanishi bilan mustaqil tangalar zarb qilinganligi ta'kidlangan bo'lsada, boshqa manbalarda Shohruhbiyning mustaqil tanga zarb etganligi haqidagi ma'lumot tasdiqlanmagan.

Shohruhbiydan uch farzand qolgan: Abdurahimbiy, Abdukurimbiy, Shodibiylar va ismlari noma'lum bo'lgan ikki qiz qolgan. Otasining o'rniga taxtga Abdurahimbiy o'tiradi.

Abdurahimbiy hijriy 1110/milodiy 1690-yilda tug'ilgan. Bolalik yillari Targ'ova va Chamochda o'tgan. Otasi hukmronligi davrida Namangan viloyatida hokim vazifasini bajargan. 1722-yil 1 yanvar kuni Qo'qon axtiga o'tiradi. Bizga ma'lumki, Turkiston o'lkasida xonlik taxtiga shaxs o'tqazilishi paytida 92 bovli o'zbek urug'i vakillari hozir bo'lar edi. Farg'ona vodiysi hududiy jihatdan katta bo'lmaganligi uchun bu yerda hukmdor taxtga o'tqazilishi paytida 40 ta urug' vakillari hozir bo'lgan.

O'sha paytdagi qulay siyosiy va geografik vaziyat Shohruhbiy va uning vorislariga hududlarini kengaytirish siyosatlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi. Abdurahimbiy taxtga o'tirgach, dastlab, o'ziga yangi poytaxt hududini tanlaydi. U o'ziga Dehqon-to'da degan joyda qal'a qurdiradi va u yerga o'rinishadi.

Abdurahimbiy manbalarda sohi-qiron sifatida tasvirlanib, mualliflar u haqida saxovatli va mehribon hukmdor bo'lish bilan birga, qat'iyatli va shafqatsiz bo'lganligi, shuning uchun sipohiylar va unga bo'ysunganlar doimo qo'rqib turardilar deya ma'lumot beriladi.

Abdurahimbiy hokimiyatga kelgach, asosiy diqqat-e'tiborini mamlakat hududini kengaytirishga qaratgan. Abdurahimbiy tashqi siyosatda asosiy e'tiborini g'arbiy hududlarga qaratadi. Bu paytlarda Buxoroda ichki kurashlar avj olib, mamlakat

parokandalikka uchragan edi. Abdurahimbiy paytdan foydalanib, 1725-yilda 20 ming kishilik qo'shin bilan Xo'jandni zabt etadi. Xo'jandda u Muhammad Rahim otaliqning o'g'li Oqbo'tabiy va uning ikki yosh o'g'lini qatl qildiradi. Xo'jandni egallagach, u yerga hokim qilib ukasi Abdulkarimbiyini, kichik ukasi Shodibiyni esa Marg'ilon hokimligiga tayinlaydi.

Xo'jandni bosib olgandan bir yil keyin O'ratepaga yurish qilib, u yerni bosib oladi. Bu paytda O'ratepada yuz urug'i hukmronlik qilar, bu urug'ga Qalikabiy asos solgan edi. Abdurahimbiy hokim Qalikabiyni (boshqa manbalarda Qulika deb yozilgan – *muallif, ta'kid bizniki R.A.*) O'ratepani bosib olinishi tarixini Muhammad Yahyoxon 1726-yil deb belgilaydi.

O'ratepa bosib olingandan keyin Abdurahimbiy butun e'tiborini mamlakat obodonchligini mustahkamlashga qaratgan.

Oradan olti yil o'tgach 1732-yilda Samarqandga yurish qilgan. Shahar bir necha kunlik qamaldan keyin taslim bo'ladi. Shu yili Samarqandda Buxoro xoni va Abdurahimbiy o'rtasida sulh tuziladi. Sulhga ko'ra, Samarqand va Kattaqo'rg'on Qo'qon bekligi ta'sirida deb tan olinadi, evaziga Abdurahimbiy u yerdan u yog'iga o'tmaslik majburiyatini oladi.

Abdurahimbiyning bu yurishi bo'lajak mang'itlarning asoschisi Abulfayzxonning regenti Muhammad Rahimbiy va mustaqillikka intilayotgan Kenagaslarga ham qo'l keladi.

Qo'qonliklarning bu harbiy yurishda dastlabki maqsadlari Miyonqol bilan Yangiqo'rg'onning markazi bo'lib, Abdurahimbiy u yerlarni qiyinchiliksiz egallaydi. Ammo Shahrisabzda hokimlik qilayotgan kenagaslarning bo'ysundirish Minglarning keyingi taqdirida katta o'zgarishlarga sabab bo'lgan. Shahrisabz hokimi Hakim Bukri (boshqa manbalarda Shahrisabz hokimining ismi Olimbek bo'lganligi qayd etilgan) Abdurahimbiy bilan tinchlik shartnomasini tuzadi va unga o'z ukasi Ibrohimbiyning qizi Oychuchuk oyimni xotinlikka taklif etadi.

Oradan hech qancha vaqt o'tmasdan (taxminan 3 yoki 6 oydan keyin) Samarqand yana buxoroliklar tomonidan egallanadi. Abdurahimbiy yana Samarqandga yurishga majbur bo'ladi. Lekin yo'lda ketayotib, Xo'jandda kasallikka chalinadi va u yerda vafot etadi. Abdurahimbiydan Erdona ismli o'g'il va 3 qiz qoladi. Qizlari ichidan Oyjonoyim ismli qizi keyinchalik Kenagas oyim nomi bilan mash'hur bo'lgan.

Manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra, Abdurahimbiy gavdali, qad-qomati baland, bug'doyrang, istarasi issiq odam edi. Abdurahimbiy umri davomida uch marotaba uylangan bu nikohlardan 9 nafar farzand tug'ilgan bo'lib, ulardan ikki nafari o'g'il va yetti nafari qizlardir.

Abdurahimbiy vafotidan keyin taxtga Abdulkarimbiy o'tirgan. Abdulkarimbiy 1703-yilda tug'ilgan bo'lib, Shohruhbiyning To'lg'onoy ismli xotinidan. Akasi davrida Namangan viloyati hokimi vazifasini bajargan.

Abdulkarimbiy 1733-yil 30 yoshida Qo'qon taxtiga o'tirgan. Hukmronligining dastlabki olti yilida otalaridan qolgan Tepaqo'rg'onida istiqomat qilgan. Akasi davridagi ma'murlarni birortasini ham amalidan olmagan. Hukmronligining oltinchi yilida u shahar markazida Ark qurdirgan. Shahar atrofini devor bilan o'rattirgan. Shahar to'rt darvozali bo'lgan. Bular quyidagicha nomlangan Isfara, Qatag'on, Marg'ilon va Haydarbek. Uning hukmronligi davrida, ya'ni 1740-yilda jung'orlar (qalmoq/qalmiqlar) Farg'ona vodiysiga bostirib kiradilar. Ular Farg'ona vodiysining sharqiy tomoniga bostirib kiradilar.

Jung'orlarning Farg'onaga navbatdagi 1745-yildagi yurishi yanada qonli bo'lgan. Bu safargi yurishda qalmoq sarkardalari Septen va Xotollarga qarshi vodiydagi barcha ming,

yuz, qipchoq, qirg'iz va boshqa elatlar birligi tuziladi. Chet elliklarga qarshi kurash hududdagi siyosiy va iqtisodiy vaziyatni o'zgartirdi va xonlikning bundan keyingi uzoq davrda ekspansiya siyosati to'xtadi.

Tashqi ekspansiyaga qarshi qabilalarning birlashishi uzoq davom etmadi. Abdulkarimbiy davrida markaziy hokimiyatning kuchsizlanishi, qabilalar o'rtasida hokimiyat uchun kurashning yangidan boshlanishiga sabab bo'ldi. Bunday voqealar janubiy qirg'izlar va markaziy hokimiyat o'rtasida ham kechadi. Qirg'izlarning bunday isyoni paytida hatto Abdulkarimbiy kichik ukasi Shodibiy halok bo'ladi.

Shunday qilib, vodiydagi yirik qabilalarni kuch bilan yoki vaqtinchalik ittifoqchi ko'rinishida markaziy hokimiyatga bo'ysundirish siyosati olib borildi. Lekin yirik qabilalar Minglar hokimiyatni qonuniyligini hali tan olmagan edilar. Shuning uchun minglar yana ham tahlikali ammo muvaffaqiyat bilan tugagan yo'lga qo'l urdilar, ya'ni ular yirik qabilalarga qarshi kurashda markaziy hokimiyat harbiylarining asosiy yadro kuchi bo'lgan tog'li tojiklar (*g'alcha*), qalmoqlar, afg'on va boshqalardan tuzilgan qo'shinga tayandilar.

Abdulkarimbiy hukmronligi asosan ichki nizolarni tinchitish bilan o'tgan. Abdulkarimbiyda ajdodlarida mavjud bo'lgan shijoat, harbiy salohiyat yo'q edi. Lekin shunday bo'lsada, u mamlakat mudofaasini tashkil etishga muvaffaq bo'ladi. Vodiya istiqomat qiladigan o'zbeklar, tojiklar, qirg'izlar, qipchoqlar va boshqa elatlarga odam yuborib, lashkar to'plab, bir qancha vaqt qalmoqlar bilan janglar olib boradi. Nihoyat Qaynar qishlog'i yaqinida bo'lib o'tgan jangda qalmoqlar Xo'qand sarhadlaridan uloqtirib tashlanadi. Lekin, Chin davlatining Jung'oriyaga hujumi davom etib, qalmoqlarning yangi to'dalari vodiya tomon oqib kelaveradi. Abdulkarimbiy o'z hukmdorlik yillarining asosiy qismini qalmoqlarga qarshi kurash bilan o'tkazadi.

Nihoyat, 1749-yilda Abdulkarimbiy va qalmoqlar o'rtasida sulh tuziladi. Sulhga ko'ra qalmoqlar o'z vatanlariga qaytib ketish imkoniyati paydo bo'lguncha qozoq dashtlarida istiqomat qilib turish imkoniyatini qo'lga kiritadilar. Qo'qon hukumati qish paytlarida ularga oziq-ovqat bilan yordam berish majburiyatini oladi. Qalmoqlar esa vodiya bostirib kirmaslik majburiyatini oladilar.

Sulh shartlarini mustahkamlash va kafolatlash maqsadida tomonlar o'z xonadonlaridan bir necha kishini ikkinchi tomonga oq uylik tarzida garovga yuboradilar. Jung'or - Qalmoqlar tomonidan jung'or podshosi Chavan Rabtanning nabira jiyani Qachin Charay Qo'qonga yuboriladi. Qo'qondan esa Abdulkarimbiyning katta o'g'ili Bobobek qalmoqlar qarorgohiga yuboriladi. Abdulkarimbiy 1750-yilda vafot etadi. Undan bir o'g'il farzand - Abdurahmonxon qolgani ma'lum, xolos.

Uning o'rniga taxtga o'g'ili Abdurahmonbiy o'tqaziladi. Lekin oradan to'qqiz oy o'tgach, u taxtdan tushirilib, Marg'ilon hokimligiga yuboriladi va Erdonabiy taxtga o'tqaziladi. Xuddi shu vaqtda qalmoqlar yurtidan qaytib kelgan Bobobek mayorat tizimiga muvofiq, sulolaning eng yoshi ulug' vakili sifatida taxtga o'tqaziladi. U Qo'qon taxtida taxminan 10 oy vaqt davomida o'tirgan. Keyinchalik O'ratepaga yurish paytida Beshariqda fitna yo'li bilan o'ldirilgan. Taxtga yana Erdonabiy o'tiradi (1753). Erdonabiy 1720-yilda tug'ilgan. U o'z singlisi Oyjon oyimni taxtning muxolifi bo'lgan Abdurahmonbiyga turmushga beradi. Erdonabiy bu yo'l bilan birinchidan, taxtni regent sifatida boshqarish, ikkinchidan esa sulolaning Temuriylarga bog'lash yo'lidagi legitimatsiyani amalga oshirish bo'lgan.

Shu tariqa XVIII asrning birinchi yarmida Farg'ona vodiysida keyinchalik mustaqil davlatga aylangan Qo'qon bekligiga asos solinadi. Dastlabki davrda beklilik Buxoro

xonligiga vassal hudud bo'lgan bo'lsa, XVIII asrning ikkinchi yarmidan deyarli mustaqil siyosat olib bora boshlagan. Bu ayniqsa, Erdonabiy va Norbo'tabiy hukmronliklari davrida yaqqol namoyon bo'ladi.

**4. Erdonabiy va
Norbo'tabiy
hukmronliklari davrida
Qo'qon bekligi**

1750-yil Abdulkarimbiy vafot etgach (u taxminan 1750-1751-yil 49 yoshida vafot etgan), o'zbek qabila boshliqlari taxtga uning kichik yoshdagi o'g'li Abdurahmonni (u Oychuchuk oyimning ikkinchi eri Abdulkarimbiydan tug'ilgan farzandi) o'tqaziladi. Lekin tez orada u taxtdan ag'darilib, Marg'ilon hokimligiga

tayinlanadi. Taxtga Abdurahimbiyning kichik o'g'li Erdonabiy o'tiradi. Lekin shu paytda jung'orlarga asirlikda bo'lgan Bobobek taxtga da'vogarlik qiladi. Noma'lum sabablarga ko'ra, o'zbek qabila boshliqlari Bobobekni taxtga o'tirishiga qarshilik qilmaydilar. Shunday qilib, hijriy 1166, milodiy 1752-yilda Bobobek Qo'qon taxtiga o'tqaziladi. Qalmoqlar ichida o'tgan bir necha yillik hayot Bobobekka ta'sir qilib ulgurgan edi. Bobobek, garchi mamlakat sarhadlarini jung'orlar uchun ochib qo'ygan bo'lmasada, uning hayot tarzidagi va usuli idorasidagi majusiylarga xos bir qancha qiliq va tadbirlari fuqaroga ham, a'yonlarga ham ma'qul kelmadi. Bobobek Qo'qon taxtini 10 oy davomida boshqaradi. Bunday holatga norozi bo'lgan qabila boshliqlari fitna uyushtirib, O'ratepaga yurish paytida Beshariqda o'ldiradilar. Erdonabiy ikkinchi marta taxtga o'tiradi. Uning davrida Qo'qon xonligi quyidagi viloyatlardan iborat bo'lgan: Andijon, Namangan va Qo'qon. Qo'qon shahri xonlikning poytaxti bo'lgan. Erdonabiy davrida Isfara va Xo'jand Qo'qonga qo'shib olinadi.

Hukmronligining dastlabki davrida Erdonabiy qabilalarni tinchlantirish, ya'ni, tashqi ekspansiyani qabilalar bilan birgalikda amalga oshirgan. U dastlab O'ratepaga yurish qiladi. Lekin mag'lubiyatga uchraydi.

Bir yildan so'ng Erdonabiy Fozilbiydan Xo'jandni qaytarib oladi. Shundan so'ng darhol O'ratepaga yurish boshlab, u yerni bosib oladi. U yerda juda katta qirg'in uyushtiradi.

Yuzlarga nisbatan bunday vahshiyliklar nafaqat Erdonabiy raqiblarini, balki uning yaqinlarini ham hushyor torttirib qo'ydi. Erdonabiy birinchi navbatda o'ziga xavf sifatida amakivachchasi Abudrahmonbiy (Abdulkarimbiyni o'g'li)ni ko'radi. Abdurahmonbiy Isfaradagi Chahorkuh qal'asida o'zining mustaqilligini e'lon qiladi. Erdonabiy va raqibi o'rtasidagi kurash 7 yil davom etadi. Oxir-oqibat Erdonabiy Abdurahmonbiyni o'zaro kelishuv uchun Qo'qonga taklif etib, uning hayotiga xavf yo'qligiga kafolat beradi. Lekin hiyla bilan uni opasi bilan birga qatl etishga muvaffaq bo'ladi. Otasi qatl etilgan kuni o'g'li Norbo'tabiy buvisi Oychuchuk oyim bilan bo'lganligi sababli o'limdan qutulib qoladi va Shahrizabzga ketib, taxtga chiqquniga qadar u yerda yashaydi. Abdurahmonbiy qatl etilgach, uning butun mulki ham musodara qilinadi. Undan uch o'g'il qolganligi ma'lum, ulardan Norbo'tabiy Kenagas oyimdan (*Ochuchuk oyimning qizi Oyjonoyim nazarda tutilayapti*), Shohruh va Hojibeklar chorkuh qabilasidan bo'lgan xotinidan tug'ilgan farzandlari edi. Qo'qon xonligi qonuniy taxt vorisi o'ldirilganda taxminan 23-25 yoshlarda edi.

Norbo'tabiy Shahrizabzda ikki yilga yaqin yashagan va shundan so'ng O'ratepaga keladi. Fozilbiy esa uni Qizli qal'asi hokimi etib tayinlaydi.

Bu paytda Erdonabiy O'ratepa va Xo'jandni qaytarib olish, Farg'ona vodiysining g'arbiy tomonidagi raqiblari isyonini bostirish uchun kurash boshlasa-da, bunga muvaffaq bo'la

olmadi. Uning hukmronligi oxirgi yillarida Oʻrta Oʻrda yerlariga Xitoy qoʻshinlari bostirib kiradi va Jungʻor xonligi magʻlubiyatga uchratiladi. Xitoyliklar Toshkentga shimol tomondan yurishlarini davom ettirib, sharqda Oʻshni bosib oladilar. Andijon, Margʻilon va Namangandagi mahalliy hokimlar Sin syuzerenligini rasman tan oladilar. Hatto Erdonabiy ham soʻzda syuzerenlikni tan olishga majbur boʻladi. Lekin bu syuzerenlik oʻzaro elchilik va sovgʻalar joʻnatish bilan cheklangan.

Erdonabiyning hukmronligi davrida amalga oshirgan eng muhim ishi Xitoyga qarshi Oʻrta Osiyo davlatlarining rasman boʻlsa-da ittifoq tuzishi edi. Taxminan 1758-yilda amalga oshirilgan bu ish Xitoyning Oʻrta Osiyoga yurishini toʻxtatgan.

Shu bilan birgalikda, Erdonabiy davrida Fargʻona vodiysida davlatchilik asoslarini shakllantirish siyosati ham davom etgan. Masalan, Erdonabiyning ichki siyosati, xususan, soliq tizimi boshqaruvi borasida olib borgan siyosati mamlakat fuqarolariga yengilliklar yaratish bilan bir qatorda ularning davlatga va hukmron doira vakillariga boʻlgan ishonchining ortib borishiga xizmat qildi. Bu hukmdorning soliq undirishga mutasaddi amaldorlar oʻboshimchaliklariga qarshi koʻrgan chora-tadbirlari natijasida soliq tizimi tartibga solindi. “Tarixi Shohruhiy” asarining muallifi bergan maʼlumotlarga koʻra, Erdonaxon oʻrtacha, yaʼni “foydali kelishuv” tarzida soliq olgan amaldorlarni qattiq jazolagan. Erdonaxonning bu harakatidan uning maʼmuriy-boshqaruv tizimidagi xizmatchilarning mansabini oʻz maqsadi yoʻlida suisteʼmol qilishlariga va boshqaruv tizimidagi taʼmagirlik, poraxoʻrlikka qarshi qattiq kurash olib borganligini anglash mumkin.

Erdonabiy 1762-yil 43 yoshida vafot etgan. Erdonabiydin oʻgʻil farzand qolganligi haqida hech qanday maʼlumot yoʻq. Mirza Olim ibn Mirza Rahim Toshkandiy “Erdonaxon oʻn toʻrt yil hukmronlik qilgan, qirq ikki yoshida narigi dunyoga koʻchgan”. Erdonabiyning necha yil taxtda oʻtirgani va qancha vaqt hukmronlik qilgani haqida “Muntaxab at-tavorix” asarida esa boshqacha maʼlumot berilgan: “Umri muddati oʻttiz olti yil, hukmronlik davri oʻn yil boʻldi”. Undan beshta qiz farzand qolgan.

Erdonabiyning vafot etishi taxta uchun kurashning boshlanishi va siyosiy parokandalikka olib kelishi mumkin edi. Shuning uchun saroy amaldorlaridan biri, Norboʻtabiy otasining qotili Irisqulibiy Sulaymonbiyni taxtga oʻtqazadi. Sulaymonbiyning otasi Shodibiy yoshlik chogʻlarida koʻchmanchilar bilan boʻlgan Yozyovondagi jangda halok boʻlgan. Mamlakat zodagonlari oʻzaro kelishib, taxtga Shodibiyning 30 yoshli oʻgʻili Sulaymonxonni taxtga oʻtqaziladi. U taxtga nomunosib shaxs boʻlib, vaqtini oʻyin-kulgi bilan oʻtkazgan. Bunday shaxsning taxtda uzoq vaqt qolishi mumkin emasdi. Shuning uchun baʼzi manbalarga koʻra, uch oy, baʼzi manbalarga koʻra olti oy taxtda oʻtirgan. Saroy zodagonlari hatto uning regenti Irisqulibiyni ham fitnaga koʻndiradilar. Shundan soʻng Sulaymonxon fitna natijasida oʻldirilib, taxtga 14 yoshli Norboʻtabiy oʻtqaziladi. Yuqoridagi fikrlardan koʻrinadiki, Oʻrta Osiyoda taxtga oʻtqazish masalasida koʻpincha mayorat tizimiga amal qilingan. Lekin taxtga oʻtqazilgan hukmdor saroy amaldorlari bilan hisoblashmasa, u taxtdan agʻdarilishi hech gap emas edi. Sulaymonbiyning taqdiri buni yaqqol koʻrsatadi.

Sulaymonxonni fitna natijasida oʻldirilgach, taxtga 14 yoshli Norboʻtabiy oʻtqaziladi. Norboʻtabiy 1749-yilda tugʻilgan. Norboʻtabiyning yoshlik yillari Qoratepa (Moʻyi Muborak mavzeida) qishlogʻida oʻtgan. Norboʻtabiy yosh boʻlganligi uchun unga regent sifatida qarindoshi Abdulloh Qushbegi tayinlanadi. Norboʻtabiy regenti yordamida dastlab Chustni egallab, isyon boshligʻini qatl ettiradi. Shundan soʻng Norboʻtabiy Namanganga yurish boshlaydi. Bu yerda otasining qotili Irisqulibiy boshchiligida oppozitsiya mavjud boʻlgan. Lekin toʻsatdan Irisqulibiy hukmdorga elchi joʻnatib sulhni taklif qiladi. Sulh

garovi sifatida Norbo‘tabiyga o‘zining nevarasi Ming oyimni xotinlikka taklif etadi. Harholda Mingoyimning aristokratik kelib chiqishi Norbo‘tabiyga o‘rtadagi dushmanlikni unutishga majbur qiladi. Norbo‘tabiy taklifni qabul qiladi va Mingoyimga uylanadi. Undan Olimxon va Umarxonlar (ularning ikkisi ham keyinchalik xonlik taxtida o‘tirganlar) tug‘ilgan.

Norbo‘tabiyning hokimiyatini mustahkamlash va kengaytirish uchun kurashining ikkinchi davri Farg‘ona vodiysining g‘arbiy qismi - yana Xo‘jand va unga chegaradosh bo‘lgan O‘ratepani egallash bilan davom etgan. Chunki, Xo‘jand hokimi etib tayinlangan Hojibiy Xudoyorbiyga shaharni boy bergan edi.

1766-yil Norbo‘tabiyning akasi Shohruhbiy vafot etadi. Uning o‘rniga To‘raqo‘rg‘on hokimi etib, Xo‘jand hokimligini sharmandalarcha topshirgan Hojibiyi tayinlaydi. Hojibiy To‘raqo‘rg‘onga kelishi bilan mayorat tizimiga ko‘ra, sulolaning eng yoshi katta vakili sifatida Norbo‘tabiyga nisbatan oppozitsiyasini e‘lon qiladi. Norbo‘tabiy o‘zaro jangda Hojibiyi mag‘lubiyatga uchratadi. Hojibiy dastlab Kosonga, undan keyin Chotqolga, keyinchalik esa Toshkentga ketadi. O‘z akalaridan qutulgan Norbo‘tabiy Samarqanddan ona tomonidan qarindoshi bo‘lgan Xonxo‘jani Samarqanddan chaqirtiradi va unga To‘raqo‘rg‘on hokimligini beradi. Shu bilan Norbo‘tabiyning hokimiyat uchun kurashining ikkinchi davri ham tugaydi.

Buxoro va Qo‘qon o‘rtasidagi munosabatlar chalkash edi. Aslida Farg‘ona vodiysi Buxoro xonligining rasman vassal o‘lkasi bo‘lgan. XVIII asr oxiriga kelganda Farg‘onaning Buxoroga vassaligi rasman cheklanadi. Buni biz Erdonabiyning qo‘shni davlat Xitoy bilan mustaqil munosabat o‘rnatganligidan ham ko‘rishimiz mumkin. O‘ratepa esa Buxoro amirligi va Qo‘qon o‘rtasida bo‘lingan olma misoli edi.

Norbo‘tabiyning hokimiyatini mustahkamlash va kengaytirish uchun kurashining ikkinchi davri Farg‘ona vodiysining g‘arbiy qismi – yana Xo‘jand va unga chegaradosh bo‘lgan O‘ratepani egallash bilan davom etgan. Chunki, Xo‘jand hokimi etib tayinlangan Hojibiy Xudoyorbiyga shaharni boy bergan edi.

1762-yil hokimiyat tepasiga kelgan Norbo‘tabiy Qo‘qon xonligida alohida iz qoldirgan. Shu tariqa mamlakat chegaralarini mustahkamlab olgach, Norbo‘tabiy yana e‘tiborini mamlakat xo‘jalik sohasiga qaratadi. Norbo‘tabiy davrida mamlakat xo‘jaligi shu qadar rivojlanadiki, mamlakatda mo‘l-ko‘lchilik bo‘ladi. Natijada xonlikda texnika ekinlari ham ekilishi yo‘lga qo‘yildi. Buning natijasida to‘qimachilik va u bilan bog‘liq kasb-hunarlar ham taraqqiy etadi.

Surunkasiga bir necha yil davom etgan arzonchilik shu darajaga yetganki, bozordan oz miqdorda mahsulot xarid qilish imkoni bo‘lmay qoldi. Yani, masalan, bir pulga o‘nta non olish imkoni bo‘lgan. Kichik bir ro‘zg‘or uchun o‘nta non olish isrof hisoblangan. (O‘sha davrlarda pul tizimi quyidagicha bo‘lgan: 1 tillo – 21 tanga; 1 – tanga 4 miri; 1 – miri 2 pul. U davrdagi pulni boshqa davlatlar puli bilan qiyoslash imkoniyati yo‘q. XIX asrning o‘rtalariga kelib, Qo‘qonning bir tillosi Rossiyaning 3 so‘m 80 tiyin kumush puliga, 1 tanga esa 20 kumush tiyininga to‘g‘ri kelgan). Bozordagi bunday “maroqli” mushkullik yanada maydaroq pul birligini joriy etish zaruratini kun tartibiga qo‘ydi. Norbo‘tabiy moliya sohasidagi amaldorlar bilan bamaslahat, “Qorafulus” deb nomlangan mayda chaqa pul zarb etishga farmoni oliy berdilar. Ikki qora fulus muomalada bir pulga tenglashtirilgan. U davlat birligini mustahkamlabgina qolmasdan, xonlik tarixida birinchi marotaba mustaqil ravishda tanga zarb ettirdi. 1776-1777-yillarda Norbo‘tabiy birinchi mustaqil tangasini zarb ettirgan. Uning zarb ettirgan falsi shu qadar katta qiymatga ega bo‘lganki, bir falsga bitta qo‘y

bergan. Garchi, bu tanga qo'shnilarning bu kabi tangalaridan sifati, tarkibi jihatidan ancha past bo'lsada, xonlikning real suverniteti uchun qo'yilgan katta qadam edi. Tanga sifatining past bo'lishi va tarkibi Qo'qon xonligidagi iqtisodning hali u qadar rivojlanmaganligidan darak beradi.

Mamlakat iqtisodining rivojlanishi, ayni paytda, qo'shni mamlakatlardagi iqtisod inqirozi, u mamlakatlardan ko'plab aholini vodiy hududidag ko'chib kelishiga sabab bo'lgan. Masalan, Qorategin, Badaxshon, Mastchoh, Yettisuv, Oloy, Qoshg'ar, Buxoro tomondan odamlar yakka tartibda va karvon bo'lib ko'chib kela boshladilar. Ularga xalq tomonidan ham, hokimyat tomonidan ham qarshilik bo'lmadi. Ko'chib keluvchilar uchun sug'oriladigan va bahorikor yerlar, yaylovlar ajratib berildi. Boshqa hududlardan ko'chib keluvchilarning ko'payishi natijasida, vodiy hududida xalqlar va qabilalar nomi bilan ataluvchi manzilgohlar paydo bo'lgan. Masalan, Turkman, Qoshg'ar, Urganji, Nayman kabi qishloqlar shular jumlasidandir. Xiva xonligi, qalmoqlar va qozoq xonliklari tomonidan ta'qibga uchrab, vatanlaridan mahrum bo'lgan qoraqalpoq xalqining bir qismi ham Norbo'tabiy davrlarida vodiya panoh topdi.

Norbo'tabiy O'ratepa masalasini ijobiy hal etgach, mamlakat hududini vorislariga taqsimlab beradi. Katta o'g'li Madaminbekni Marg'ilon, o'rtancha o'g'li Olimbekni To'raqo'rg'on hokimligiga tayinlaydi. Xo'jand hokimligi esa eshon Xonxoja topshiradi. Lekin katta o'g'li Madaminbek uzoq vaqt yashamagan. U Marg'ilonida 8 yil davomida hokimlik qilgan. Kasallikka chalinib, 1797-yil, 28 yoshida vafot etadi.

O'g'lining o'limidan bir yil o'tgach, Norbo'tabiy falaj kasalligiga chalinib vafot etgan (1798 yil, iyun). U vafot etganda qirq sakkiz yoshda bo'lgan. Undan olti nafar o'g'il va besh nafar qiz qolgan. Katta o'g'li Madaminbek (onasi qalmoq), ikkinchisi Olimxon, uchinchisi Umarxon, qizi Oy Podshoh oyim (onalari Mingoyim), to'rtinchi o'g'li Rustambiy, beshinchisi Fozilbiy, oltinchisi esa Yodgorbiylar (bu uch shahzodalarning onasi kanizlardan bo'lgan). Norbo'tabiyning qolgan qizlari haqida mualliflar ma'lumot bermaydilar. Shunday qilib, Nlorbo'tabiyning hukmronlik davri Qo'qon xonligi shakllanishi tarixida alohida o'rin tutadi. Buning sababi, aynan uning davrida shakllanayotgan xonlik qo'shni davlatlar bilan mustaqil tashqi siyosat olib bora boshladi, hatto, mis tanga bo'lsa-da o'zining mustaqil tangasini zarb qildi. Shu bilan birgalikda, aynan uning davrida Farg'ona vodiysida qishloq xo'jaligi yanada taraqqiy etdi, buning natijasi o'laroq, bu yerda aholi turmush tarzi yanada yaxshilanib, bu yerga boshqa hududlardan aholining ko'chib kelishi yanada kuchaydi.

Tayanch iboralar

Minglar, davlatchilik, tarixiy manbalar, tarixiy tadqiqotlar, rasmiy hujjatlar, kompilyativ asar, original manba, monografiya, "Oltin beshik", Chodak xojalari, boyzoq.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Nima sababdan o'zbek davlatchiligi tarixini o'rganish zarur?
2. Qo'qon xonligi tarixi o'zbek davlatchiligi tarixida qanday o'rin tutadi?
3. Maxsus kursning asosiy maqsadi nimadan iborat?
4. Qo'qon xonligi tarixini o'rganish jarayonida qanday vazifalar hal etiladi?
5. Qo'qon xonligi tarixiga doir qanday manbalarni bilasiz?
6. "Anjum at-tavorix" asarida Xorazmshohlar davlati tarixi haqida qanday ma'lumotlar mavjud?
7. Qo'qon xonligi tarixiga oid qaysi manbada xonlik tarixi chuqurroq yoritiladi?

8. Muhammadhakimxon to‘raning “Muntaxab at-tavorix” asari nima sababdan original tarixiy manba sanaladi?
9. Qo‘qon xonligi tarixiga oid ilmiy asarlar yozgan tarixchi olimlar va ularning asarlarini sanab o‘ting.
10. Qo‘qon xonligi tarixini o‘rganish qanday ahamiyatga ega?

2-mavzu: XIX asrning birinchi yarmida Qo‘qon xonligi siyosiy taraqqiyoti

Reja

1. Qo‘qon xonligi Olimxon va Umarxon davrida
2. Madalixon davrida Qo‘qon xonligi
3. Qo‘qon xonligida Sheralixon hukmronligi davri

1. Qo‘qon xonligi Olimxon va Umarxon davrida

Norbo‘tabiy vafot etgandan so‘ng hokimiyat uchun kurashda minglar g‘olib chiqib, taxtga hukmdorning katta o‘g‘li Olimxonni o‘tqazadilar. Olimxon hokimiyat tepasiga kelgach dastlabki ishi o‘ziga qarshi isyon ko‘targan hududlar isyonini bostirishga kirishadi. Singlisi Oy podshoh oyimning kuyovini Isfara hokimligiga tayinlaydi. Lekin eski hokim Isfaradan bir farsax uzoqlikdagi Zumradshoh qal‘asida istiqomat qilgan Boybo‘ta qalmoq hokimiyatni topshirmaydi. Buni eshitgan Olimxon tezda Isfaraga yurish uyushtiradi. Boybo‘ta masalasini hal etgach, Qo‘qonga qaytadi.

Olimxon yosh bo‘lishiga qaramasdan, qat‘iyatli va muvaffaqiyatli hukmdor bo‘lib, tog‘li tojiklardan tuzilgan yollanma armiyasiga tayangan holda xonlikda tartib o‘rnata olgan. Shaxsiy gvardiyaning tuzilishi qabila raislari va saroy amaldorlaridan mustaqil ravishda siyosat yuritishiga yordam bergan. Saroy amaldorlari va qabila raislarining fitnalariga javoban Olimxon qat‘iy harakat qilishga majbur bo‘lgan. Shundan so‘ng Olimxon hokimiyat uchun kurashishi mumkin bo‘lgan o‘z yaqinlarini qatl ettiradi. Bu vaqtda amakisi Hojibiy, shu sulolaning yana bir a‘zolari Dovudbiy va Bekbo‘tabiylar ham hayot edilar. Ukasi Rustambiy esa Konibodom hokimi edi. Olimxon bularning barchasini qatl ettiradi. Hojibiydan uch o‘g‘il farzand bo‘lib, ular Ulug‘bek, Sheralibek va kenjasi Beko‘g‘libek edi. Ulug‘bek va Sheralibeklar qirg‘izlar orasiga surgun qilinadi. Lekin bir qancha vaqt o‘tgach, Ulug‘bek bir tasodif tufayli devor ostida qolib halok bo‘ladi. Sheralibek esa uzoq yillar qirg‘izlar orasida yashagan. Dovudqulibek Buxoroga surgun qilinadi. Rustambiy esa bir qancha vaqtdan keyin sirli ravishda o‘ldiriladi.

Olimxon taxtga da‘vogarlar masalasini hal qilgach, o‘z hududini kengaytirish siyosatini boshlab yuboradi. Mualliflarga ko‘ra, xonlikda hudud kengaytirish siyosatining eng ko‘p qismi Olimxon hissasiga to‘g‘ri keladi. Olimxon butun hukmronligini qo‘shni hududlarga harbiy yurishlar bilan o‘tkazgan.

Uning dastlabki yurishi Xo‘jandga amalga oshirilgan. Qo‘qon qo‘shinlariga Xonxoja sarkardalik qilgan. Olimxonning yurish boshlaganini eshitgan Toshkent hokimi Yunusxo‘ja o‘z qo‘shinlari bilan qo‘qonliklarga qarshi yurish boshlaydi. Qorasuv mavzeida har ikki qo‘shin o‘rtasida jang bo‘lib o‘tadi. Jang toshkentliklar g‘alabasi bilan tugallanadi. Jang asnosida chekinayotgan Xonxo‘ja otining munkib ketishi natijasida asirga tushadi. Yunusxo‘ja garchi o‘zining hokimiyat tepasiga kelishida katta yordami tekkan bo‘lsada, Xonxo‘jani qatl ettiradi.

Olimxonning toshkentliklarga qarshi birinchi yurishi muvaffaqiyatsizlik bilan tugagan edi. Bu muvaffaqiyatdan ruhlangan Yunusxo‘ja kichik o‘g‘li Hoshimxo‘janing to‘yini Qo‘qonda o‘tkazishni mo‘ljallab, Farg‘onaga yurish boshlaydi. Olimxon esa mag‘lubiyatdan keyin poytaxtda katta mashvarat chaqiradi. Mashvaratdagi maslahatga ko‘ra, qo‘qonliklar Toshkent qo‘shinini mag‘lubiyatga uchratish uchun dastlabki yurishlarini Quramaga, ya‘ni Toshkentning janubidagi ittifoqchilariga qaratadi. Qo‘qonliklarni osongina mag‘lubiyatga uchratish xayoli bilan kelayotgan toshkentliklarga

Qo‘qon qo‘shini G‘urumsaroyda (Farg‘ona vodiysining shimoliy-g‘arbiy qismidagi hudud) kutilmagan bir paytda hujum qiladilar. Bunday hujumni kutmagan toshkentliklar sarosimaga tushadilar va mag‘lubiyatga uchraydilar. Bu jangda Rajab devonbegi, Yunusxo‘ja tomonidan qatl etilgan Xonxo‘ja o‘g‘illari Yunusalixo‘ja va Yusufalixo‘jalar muhim rol o‘ynaganlar.

1806-yilning oxiri 1807-yil boshida Olimxon Xo‘jand shahrini ishg‘ol etgan. Shu paytda Buxoro amiri Haydar O‘ratepani egallaydi. Bu xabarni eshitgan Olimxon O‘ratepaga yurish boshlaydi. 1806-yil 4-may kuni qo‘qonliklar O‘ratepani egallaydilar. Bu yerga amir Haydar tarafidan qo‘yilgan barcha lavozimdagi kishilarni qatl ettirad.

Bu voqealardan so‘ng amir Haydar katta qo‘shin bilan O‘ratepani qamal qiladi. Buni eshitgan Olimxon O‘ratepaga yurish boshlaydi. Shu yurish paytida Jizzaxni ham qamal qiladi. Jizzax qamali paytida bosh vazir Rajab devonbegi bilan Olimxon o‘rtasidagi munosabat buziladi. Rajab devonbegi o‘z hayotidan xavfsirab, Buxoroga qochadi. Aslida voqea quyidagicha bo‘lgan edi: O‘ratepa qamali paytida xalq ko‘ngillilaridan tuzilgan qil-quyruq nomli qo‘shin ixtiyoriy ravishda qamalni tashlab chekinadilar. Bu xiyonat Olimxonda atrofida qilarga nisbatan shubha uyg‘otadi. Hatto bosh vazir Rajab qushbegi (aslida devonbegi)ga nisbatan ham shubha uyg‘otadi. Rajab devonbegi Olimxon bilan munosabatini qaytadan tiklanishini kutib o‘tirmasdan, Buxoroga qochadi.

Olimxon O‘ratepani uzil-kesil o‘z hokimiyatiga kiritish uchun hal qiluvchi yurishga otlanadi. Olimxon O‘ratepa qamalini boshlatgach, hokim Mahmudxon bardosh bera olmasdan, sulh so‘raydi va ikki o‘rtada sulh tuziladi. Mahmudxon “oq uylik”⁸ qilinadi. Buxorolik saroy amaldorlari Qo‘qonga jo‘natilib, u yerda qatl etiladi.

Olimxon O‘ratepani to‘liq bo‘ysundirish uchun jami o‘n ikki marotaba yurish qolgan. So‘nggi yurishida o‘n sakkiz kunlik qamaldan keyin shaharni egalladi. “Bir kundan so‘ng amir Olimxon shahar xalqiga tegmaslik haqida buyruq berdi”.

Olimxon Toshkentni bosib olish uchun Xonxojadan keyin taxminan 1806-yil Umarxonni qo‘shin bilan jo‘natgan edi. O‘sha paytda vafot etgan Yunusxoja o‘rniga Toshkent taxtiga o‘tgan Sultonxo‘ja dastlab o‘zining tobeligini bildirgan, lekin o‘z so‘zidan qaytgan edi. Shundan so‘ng Qo‘qon qo‘shinlari va Toshkent lashkarlari o‘rtasida jang sodir bo‘ladi. Jangda Umarxon qo‘shinlari g‘olib chiqsalarida, Toshkentni egallay olmaydilar.

Umarxon Toshkentning kaliti hisoblangan Niyozbek qal‘asini egallaydi. Qamal natijasida toshkentliklar mag‘lubiyatga uchrashi aniq bo‘lgach, ular Umarxondan sulh so‘raydilar. Umarxon esa Xomidxoja shaxsan kelib avf so‘rab, qo‘lini o‘pishini talab qiladi. Talab bajo keltirilgach, Umarxon Toshkentga kiradi.

Nihoyat shu voqealardan keyin Toshkent hokimi Homidxoja taslim bo‘ladi va Toshkent Qo‘qon tarkibiga kiritiladi. Umarxon esa katta o‘ljalar bilan Qo‘qonga qaytib keladi. Lekin Xomidxoja mustaqil siyosat yuritish maqsadida Qo‘qon xoniga bo‘ysunmaydi. Bundan xabar topgan Olimxon katta qo‘shin bilan Toshkentga yurish boshlaydi. Qo‘qonliklar shaharga janubi-sharq tomondan yaqinlashib, qamalni boshlaydilar. 11 kunlik qamaldan keyin shahar taslim bo‘ladi. Xomidxoja Buxoroga qochadi. Olimxon bu yerda bir oy davomida vaziyatni tartibga soladi. Toshkent hokimi etib Said Alibekni tayinlaydi. Asirlarni bir qismini qatl etadi, bir qismini esa asir sifatida Qo‘qonga jo‘natadi. Shunday qilib, 1806-yil Toshkentda xojalar hokimiyati tugatiladi va shahar Qo‘qonga qo‘shib olinadi. Shunday

⁸ “Оқ уйлик” – гаровга олиниб, бошқа жойга олиб кетилгандан сўнг уларга хурмат кўрсатилади. Улар кўпинча оқ ўтовларда яшаганлари боис шундай дейилган. Қора уйликлар эса асирга олинган, ҳақ-хуқуқсиз душман томон//Мухаммадҳакимхон Тўра. Мунтахаб ат-таворих. Тошкент. Янги аср авлоди. 2010. Б. 193.

qilib, Olimxon o‘z hududini ikki barobar kengaytirib oladi. Sirdaryoning butun o‘ng sohili bo‘ylab joylashgan Qurama viloyati, Toshkent va uning atroflari Qo‘qonga qo‘shib olinadi. Bu hududlar Qozoq dashtlari va Rossiya bilan savdo ishlarida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan hududlar edi. Bu Olimxonning muhim strategik g‘alabasi edi. Lekin bu hududlarni to‘liq bo‘ysundirish Olimxonga nasib etmagan. Shundayki, O‘ratepa yana isyon ko‘tarib, mustaqilligini tiklagan. Umuman Olimxon O‘ratepani bo‘ysundirish uchun 15 marotaba yurish uyushtirgan edi.

Olimxon diniy jihatdan ham yaxshi ta‘lim ko‘rgan inson bo‘lgan. U Mavlaviy tariqatida bo‘lib, har kuni xufton mahalidan keyin jahr tushardi. Mana shunday jahr kunlaridan birida, bir yosh yigit tomonidan pichoqlanadi. Garchi manbalarda uning og‘ir yarador qilinganligi haqida ma‘lumot berilsa-da, aslida u yara u qadar og‘ir bo‘lmagan.

Hokimiyatini mustahkamlab olgan Olimxon qisman hozirgi Afg‘oniston va Tojikiston Respublikasida joylashgan Darvoz, Ko‘histon, Ko‘loblik tojiklaridan iborat yollanma nomli qo‘shin tuzgan.

Olimxon taxtga kelgandan boshlab yosh bo‘lishiga qaramasdan xonlikda tartibni o‘rnatishga muvaffaq bo‘ldi. Tog‘lik tojiklardan tuzilgan yollanma armiyasiga tayangan holda saroy amaldorlari, turli qabila va urug‘ boshliqlarining ta‘siridan xoli bo‘la oldi. Umri davomida xonlik hududining kengaytirish siyosatini olib bordi. Shu bilan birgalikda, 1805-yilda davlat tarixida birinchi bo‘lib, o‘ziga “xon” titulini oldi. 1806-yilda xonlik tituli bilan kumush qoplamali dinorini zarb ettira boshladi. Bu davrgacha bo‘lgan Olimxon tomonidan zarb ettirilgan tangalarda uning ismi “bek” (“biy”) unvoni bilan yoki unvonsiz berilgan edi. Olimxonning mustaqil tanga zarb etish ishi 1806-yilda Qurama va Toshkentni bosib olinishi sharafiga amalga oshirilgan edi. Hukmdor tomonidan zarb etilgan yangi tangalar o‘zining vazni, legendasi (tangadagi yozuvlar) va rasmiylashtirilishi bilan o‘sha davrdagi standartlarga to‘laqonli javob berar edi. Bu yangi tangananing butun xonlik hududi va tashqarida ham muomalada yurishini ta‘minlar edi. Eng asosiysi ushbu tipdagi tangalarning zarb etilishi xonlikdagi moliviy va soliq munosabatlarni tartibga solishga yordam berar edi. Bu tanga zarb etish Qo‘qonning uzil-kesil suverniteti simvoli edi.

Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, Olimxon Toshkentni 1806-yilda xonlik tarkibiga qo‘shib olgan edi. Endigi navbat Qo‘qon xonligining Rossiya bilan savdo-sotiq aloqalarini yo‘lga qo‘yishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan Toshkentning shimoliy va shimoliy-g‘arbida joylashgan Chimkent, Sayram va Turkiston hududlarni xonlik hududiga qo‘shib olishda edi. shuning uchun Olimxon tezlikda bu yurishga tayyorgarlik ko‘radi. Yurish noqulay paytda boshlanadi. Bu yanvar oyining oxiri fevral oyining boshlariga to‘g‘ri kelgan. Saroy munajjimi yurishning yaxshi oqibatga olib kelmasligi haqida ogohlantirsada, Olimxon ogohlantirishga qaramasdan, o‘z so‘zida qat‘iy turib oladi. U yurishga tayyorgarlik ko‘rishga buyruq beradi. Yurishga qatnashishdan bo‘yin tovlash yoki qarshilik qilganlarning mol-mulki musodara qilinib, o‘limga hukm qilinishi haqida buyruq beriladi.

Ushbu safar davomida To‘y tepada muhtasham bir ov tashkil etiladi. Hakimxon to‘raning yozishicha, bu ovda Umarxon va Olimxonning o‘g‘li Shohruhxon tomonidan ikkita yo‘lbar ovlanadi. Ovdan so‘ng ikki-uch dam olingach, Olimxon Irisqulibiy va Jumaboy Qaytoqiylarni qo‘shinga lashkarboshi tayinlab, shimolga, ya‘ni qozoqlar yurtiga bosqinga yuboradi. Aslida bu yurishning asl sababi qozoqlarni bo‘ysundirish bo‘lgan. Lashkarboshilar ko‘plab asirlar va katta o‘ljalar bilan qaytgach, Olimxon olingan o‘ljalarni lashkarga taqsimlashni Umarxonga buyuradi. Fozilbek ismli tarixchining ta‘kidlashicha, o‘ljalar Irisqulibiy tomonidan taqsimlangan. O‘ljalar taqimlanib bo‘lingach, amirlar bilan

Umarxon xon huzuriga keladilar. Faqat hukmdor oldiga kirishdan oldin Umarxon bir hiyla o‘ylab topadi. Bu hiyla quyidagicha bo‘lgan: Olimxonga ikki sarkarda ustidan shikoyat qiladi. Olimxon Umarxon so‘zi bo‘yicha lashkarboshilarga: “...sizlar yana bir qozoq jamoasini qasddan qochirib yuborgansiz, endi, o‘sha tomonga qaytib borib, ularning ustiga bostirib borishingizga to‘g‘ri keladi”, dedi”.

Albatta lashkarboshilar bundan norozi bo‘ladilar. Chunki bu payt jadiy (dekabr-yanvar) oyli bo‘lib, havo harorati juda sovuq bo‘lgan. Olimxondan norozi bo‘lgan lashkarboshilar unga qarshi fitna tayyorlana boshladilar. Albatta, bunday ishni Umarxondan yashirincha amalga oshirishlari mumkin emasdi. Lashkarboshilar go‘yoki qozoqlar ustiga yurishga ketayotgandek bo‘lib, Umarxon bilan maslahatni bir yerga qo‘yib, Qo‘qon tarafga qarab yo‘lga chiqadilar.

Aslida Olimxonga qarshi bunday fitnaning sodir bo‘lishi asl sababi bizningcha, Olimxonning o‘zidir. Chunki, mualliflarning ma‘lumot berishlaricha, o‘sha yili qish qattiq kelgan bo‘lib, qalin qor yoqqan, havo nihoyatda sovuq bo‘lgan edi. Xon esa lashkarboshilar sovuqni bahona qilayapti degan o‘y bilan Umarxonga qozoqlarni o‘zlari atayin qochirib yuborganlar. Shuning uchun Olimxon Zuhur devonbegi boshchiligidagi qo‘shinni Sayram tomonga, ya‘ni, qozoqlar ustiga talonga jo‘natadi. Shu paytda bunday sovuqda bekordan-bekorga o‘lib ketishni istamagan askarlar tarqalib ketadilar.

Bu paytda Olimxon Chirchiq daryosi bo‘yida qurultoy chaqirgan edi. Umarxon esa kechasi Irisqulibiy va Jumaboy Qaytoqiylar bilan kelishgan holda o‘rdu (garnizon)ga borib, “Olimxon o‘ldirildi, Umarxon xon bo‘ldi” deya ovoza tarqatadilar. Shundan so‘ng, qo‘shin Qo‘qon tarafga qarab yo‘l oladi. Umarxon esa Ohangaron cho‘lga yetib borib, Kirovchi qal‘asiga o‘zining odamlaridan Xushvaqt sardorni qo‘yib, o‘zi ham Qo‘qon tomonga qarab yo‘l oladi.

Umarxon tezlik bilan poytaxtga yetib borib, taxtga o‘tiradi. Hakimxon ta‘biri bilan aytganda, “fuqaro hayratdan barmog‘ini tishlagan” edi. Olimxon bu haqda hali Umarxon yo‘ldaligidayoq eshitgan edi. shuning uchun Sayram tomonga yuborgan Zuhur devonbegiga chopar ortiga qaytishni buyuradi. Bizningcha, Olimxon taxtni jang bilan qaytarib olishni mo‘ljallagan bo‘lishi kerak. Lekin uning istagi aks ta‘sir ko‘rsatadi. Sobiq xondan norozi bo‘lgan askarlar undan yuz o‘giradilar. Xon Toshkentga hokim qilib Alibekni, unga yordamchi sifatida Arslonbekni tayinlaydi. Olimxon 200 kishilik yaqin kishilari va xarami bilan yo‘lga chiqsada, safarning ikkinchi kuni uning oldida juda ozchilik qoladi. Yo‘lda hatto unga tog‘liklar hujum qilmoqchi bo‘ladilar, lekin Olimxonning nomini eshitgan xalq hujumni to‘xtatadi.

Bu vaqtda Olimxon atrofida o‘z yaqinlaridan 40 kishi atrofida odam qolgan edi. Ular o‘zaro maslahatlashishgach, ularni kutib turgan Xoliqul mirzo hokimlik qilayotgan Xo‘jandga borishga qaror qiladilar. Lekin shu payt go‘yoki Umarxon Xo‘jandni ham egallagani, hokimni qamoqqa olinganligi haqidagi xabar keladi. Qo‘qon hokimiyatidan butunlay umidini uzgan Olimxon Toshkentni ham qo‘ldan chiqarmaslik maqsadida u yerga o‘g‘li Shohruhxonni hokim sifatida tayinlab, yorliq bilan u yerga jo‘natadi.

Yo‘lda ular Bodom Chashma (Ohangaron vodiysidagi bir qishloq nomi)da to‘xtaydilar. Olimxon bu yerda haramini Muhammadhakimxon to‘raga topshirib (bu paytda u 7 yoshda edi), o‘zi Qo‘qon tarafga qarab yo‘l oladi. Bu paytda sobiq xonni ta‘qib qilishi ishi Umarxonning qaynotasi, Andijon hokimi Rahmonqulibiyga topshirilgan edi. Umuman imkoniyati qolmaganligiga qaramasdan Olimxon Sirdaryoni kechib o‘tib, Qo‘qonga kirib borishni mo‘ljallaydi. Bu paytda uning yonida besh nafar yaqinlari bo‘lib, ular xonga

O‘ratepa hokimi Mahmudxon Ahroriy yoniga borishni maslahat beradilar. Lekin Olimxonni kechagi dushmani yoniga borishni o‘ziga ep ko‘rmagan.

Muhammadhakimxon ma‘lumoticha, Umarxon Olimxonning barcha qaytish yo‘llariga tuzoq qo‘ygan bo‘lib, ushbu tuzoqchilarga qaynotasi Rahmonqulibiy boshchilik qilar edi. Tuzoqchilar Olimxonning qaytib kelayotganligini eshitgach, qarshilash uchun harakat boshlaydilar. Shunda 10 nafar qipchoq ulardan oldinga o‘tib, Olimxonga hujum qiladilar. O‘zaro jang paytida Olimxon ulardan besh nafarini o‘ldirgan. Lekin ularning ichidan birisining miltig‘idan otilgan o‘q Olimxonni halok bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Muallifning ma‘lumot berishicha, bu voqea Qo‘qondan bir farsax (6-7 km) uzoqlikda bo‘lib o‘tgan. Rahmonqulibiy yetib kelib, voqeaga ko‘zi tushgach, qattiq iztirob chekadi. Jasadni aravaga ortib, shaharga olib keladi. Ta‘ziya marosimlari o‘tkazilgach, xilxonasiga dafn etadilar. Amir Olimxon o‘n ikki yil hukmronlik qilgan va halok bo‘lgan paytda 36 yoshda edi. Undan uch o‘g‘il, Shohruhxon (shu paytda 18 yoshda bo‘lgan), Otaliq nomi bilan tanilgan Ibrohimxon, Murodixon va uch qiz: Oyimxon, Uluqxon va Oftobxonlar qolgan edi.

Umarxonning akasiga nisbatan fitnani uyushtirishi va taxtga o‘tirish sanasi 1809-yil taxminan mart oyiga to‘g‘ri keladi. Chunki, Umarxonning “xon” tituli bilan zarb ettirgan kumush qoplamali tangasi aynan shu yilga to‘g‘ri keladi. Bunday tipdagi tangalar zarb etish 1817-1818-yilgacha davom etgan. Demak, Umarxonning Qo‘qon xonligi taxtiga o‘tirgan yili 1810-yil emas, balki 1809-yildir.

Endi, bevosita Olimxonga nisbatan uyushtirilgan fitnaning asosiy sababiga keladigan bo‘lsak, birinchidan, Umarxonda taxtga bo‘lgan qiziqishi, ikkinchidan, xonlik qo‘shinidagi tog‘li tojik va mahalliy qo‘shinlar hukmdorlari o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni sabablar sifatida ko‘rsatishimiz mumkin. Nima bo‘lganda ham Olimxon Qo‘qon xonligi tarixida chuqur iz qoldirgan hukmdorlardan biri sifatida tarixda qoldi. Uning o‘tkazgan islohotlari, mamlakatni xonlik deb e‘lon qilishi, quyi tabaqalarga moddiy yordamlarning berilishi, diniy islohoti, harbiy islohoti xonlikning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o‘ynadi.

Umarxon taxtga kelgandan keyingi dastlabki ishni taxtga da‘vogar bo‘lishi mumkin bo‘lgan shaxslarni qatl etishdan boshladi. Olimxon tomonidan Toshkentga hokim tayinlangan katta o‘g‘li Shohruhxonni olib kelish uchun Bahodirxoja va Nazarbekni jo‘natadi. Ular shahzodani olib kelayotib, Ohangaronda bo‘g‘ib o‘ldiradilar va uni Payg‘ambar oto qabristoniga dafn etadilar. Undan uch o‘g‘il Haydarxon, Sarimsoqxon, Kattaxon va bir qiz farzand qolgan. Ikkinchi o‘g‘li Ibrohimni qachon va qayerda o‘ldirilganligi haqidagi ma‘lumot saqlanib qolmagan. Uchinchi o‘g‘li Murodixon uzoq vaqt yashagan va 1842-yil Sheralixon davrida isyon ko‘targanligi uchun qatl etilgan.

Umarxon taxtga chiqqach, 1809-yil sanasi bilan kumush qoplamali mis dirham zarb ettirgan. Tanganing old tarafida “Muhammad Umar Bahodurxon”, tanganing orqa tarafida “1224, Xuqand, dirham” legendalari yozilgan. Umarxon nomidan tanga zarb etilishi uning hokimiyatining rasmiyligini mustahkamladi. Shundan so‘ng muxoliflarga bo‘lishi mumkin bo‘lgan ikki shaxs (Olimxonga uyushtirilgan fitnaning tashkilotchilari va o‘zining eski maslahatchilari) Irisqulbiy va Jumaboy Qaytoqiylarni akasining qotillari sifatida qatl ettiradi.

Olimxon davrida yuksak mansablarni egallagan tog‘li tojiklar masalasida Umarxon biroz boshqacha yo‘l tutdi. Ularning ba‘zilarini mansabidan bo‘shatadi, ba‘zilarini esa

byurokratik apparatda muqobillikni saqlash sifatida joyida qoldiradi. Lekin ularni nazorat qilishni ming qabilasidan Kalla Bahodir Tubuga topshiradi.

Umuman Umarxon akasi davrida quvg'in qilingan amaldorlarning ko'pini yaxshi kutib olgan va ularga yaxshi yuqori mansablarni bergan edi. Masalan, bu davrda Buxoroga ketib, Shahrisabzda yashayotgan Rajab Devonbegi – tojik Umarxonga xat yo'llaydi. Umarxon uni yaxshi kutib oladi va hatto uni Toshkentga hokim etib tayinlaydi. Rajab Devonbegi Buxorodan “bo'sh qo'l” bilan kelmagan edi. U amir Haydar bilan do'stlik aloqalarni yaxshilash uchun mujda keltirgan edi. Shu munosabat bilan Umarxon elchi sifatida amir Haydar huzuriga sayyid Eshon To'raxo'ja (Maxdumi A'zamning avlodi bo'lib, 1834-yilda vafot etgan)ni jo'natadi. Umarxonning elchisi amir Haydar tarafidan yaxshi kutib olinadi. Bu elchilik orqali Buxoro va Qo'qon o'rtasida do'stlik aloqalari tiklanadi. Elchi qaytayotganda O'ratepaga, ya'ni Mahmudxon xoja huzuriga tushadi. U Xo'jand hokimi bo'lgan akasi Sultonxo'ja bilan Mahmudxon xo'ja Umarxonga xizmat qilishga rozi bo'ladi. Shunday qilib, Umarxon tinchlik yo'li bilan O'ratepani o'zining syuzerenetiga aylantiradi.

1810-yil yozining boshida Umarxon Jizzaxga yurish qiladi. Lekin bu yurish muvaffaqiyatli chiqmagan. Bu yurishning asl sababi shu ediki, O'ratepa hokimi Mahmudxon xo'janing Qo'qonga bo'ysunganligini eshitgan amir Haydar shaharni qaytarib olish maqsadida bu yerga yurish uyushtirgan edi. Lekin o'sha yili Buxoroda hosil bo'lmaganligi sababli qo'shin orasida ochlik boshlanadi va amir Haydar orqasiga qaytib ketishga majbur bo'ladi. Aynan mana shu sabablar Umarxonning Jizzaxga yurish uyushtirishiga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin. Buning yana ikkinchi sababi O'ratepani Buxoroga qarshi uzil-kesil ittifoqchisiga aylantirish edi. Umarxon Jizzaxni uch kun mobaynida qamal qiladi, lekin uni ololmay orqasiga qaytadi. Zotan, bu yurishning asl sababi Jizzaxni bosib oish emas, balki, amirga qarshilik qilish edi. Umarxon shu yurish asnosida marhum akasining Xon Otaliq va Murodxon ismli o'g'illarini Qoratepinga, ya'ni shoh Abdulazizxon huzuriga jo'natib yuboradi.

Ikki oydan keyin amir yana yurishni takrorlaydi. Amir Haydar O'ratepaning g'arbida joylashgan Peshog'ar qal'asini tiklab, u yerda qurultoy o'tkazadi. Buni eshitgan Umarxon amirga qarshi yurish boshlagan. Lekin bu paytda amir Samarqandga qaytib ketgan edi. Shundan keyin Umarxon Xo'jandga qaytib keladi.

1812-yil bahorida Umarxon Dashti Qipchoqqa yurish uyushtiradi. Hukmdorning bu yurishiga qozoq biylaridan biri Odilto'ra hamrohlik qilgan. Uning bu yurishi quyidagi marshrut bo'ylab edi: Qurama-Kerovchi-To'ytepa-Qo'yliq. Umarxon bu yurish davomida mahalliy hokimlarga yorliqlar beradi, zolimlarni esa jazolaydi.

Toshkentda Rajab Devonbegi “Agar meni shahar hokimligidan bo'shatib, Qo'qonga olib ketsangiz, Yassi viloyatini fath etaman” deya va'da beradi. Umarxon shu davrda Buxoro protektoratida bo'lgan Turkistonni fath etish uchun Rajab devonbegini jo'natadi. Rajab devonbegining harakatlari natijasida 1815-yil Turkiston shahri Umarxon tarafidan fath etiladi. Umarxon shaharga kelgach, Ahmad Yassaviy maqbarasini ziyorat qiladi. Maqbaradagi Amir Temur tomonidan qo'yilgan qozonga 70 qo'y bilan to'ldiradi.

Aynan shu davrda, ya'ni 1814-1815-yil Umarxonning Dashti Qipchoqqa yurishi paytida ulamolar “Agar kimki, 12 ming jangchini maosh va nafaqa bilan ta'minlay olsa, u kishi “Musulmonlar amiri” deb e'lon qilinishi” haqida fatvo chiqaradilar. Bu paytda Umarxon ma'muriyatidan maosh oladiganlar ro'yxati tuzilgan bo'ib, ularning soni qirq ming kishini oshgan edi. Shu munosabat bilan Umarxon nomiga “Amir ul-muslimin” unvoni qo'shib, uning nomiga tanga zarb ettiriladi. Aslida, bu ishning asl tashabbuskori Umarxonning o'zi

bo'lib, bu voqea 1817-1818-yil bo'lgan edi. o'sha paytda Umarxon qo'li ostida 25 ming jangchisi bo'lgan. Shundan so'ng, Chingizxon kabi amallarni o'z amirlariga taqismlab beradi. O'z yaqinlari va amaldorlariga quyidagi mansablarni beradi: eshon To'raxo'ja va Sultonxo'ja Ahroriyga xoja kalonlik, muallif otasiga shayxulislomlik, muallifga naqiblik, Mirzo Oxunga qozi kalon, Rahmonqulibiyga otaliq, Eshon To'rani o'roqi kalon⁹, Mirzo Qalandarga qozi askar, Eshonxon Mavlaviyga fayziy¹⁰, To'raxon va Xonxo'jaga miri asad¹¹, Umaralixoja va Podshohxonga sadr, Qosimbek va Ishoqbekka devonbegi, Muhammadqulibekka mirzo, Rajab, Sayyidqulibek, Ernazarbek va Sayyid Altbeklarga parvonachi, Lashkar (Lashkar qushbegi)ga inoqi kalon¹², Sulton Sayyidxoja va Maqsud xojalarga sudur¹³, Mahmud xojaga jilov qushbegi¹⁴, Mirzo Malla, Abdulvali, Shohiy, Mirzo Rahim va Dovullarga dodxoh, Azimboyga to'pchiboshi, Muhammadsobirga dasturxonchi mansablariga tayinlaydi.

Shundan so'ng, Umarxon Buxoro amirligiga qarashli Samarqand shahriga yurish boshlaydi. O'ratepada hokim tomonidan yaxshi ziyofat bilan mehmon qilingan hukmdor noma'lum sabablarga ko'ra, yurish fikridan qaytib, Urmitan viloyatiga qarab yo'l oladi. Bu yerda huzuriga kelgan Shahrisabz hokimi Niyozali va Urgut hokimi Kattabiy parvonachilarga katta in'omlar beradi. Bu yerda hukmdorga Niyozaliga otaliq, Kattabiyni esa parvonachi lavozimlar bilan siylaydi.

Shu davrda amir Haydarning ukasi Mir Husaynxon akasi bilan kelisha olmay Qo'qonga keladi. Umarxon yaxshi kutib oladi. Undan Samarqand va xitoy-qipchoqlar yashayotgan hududlarni qo'lga kiritishda foydalanishni mo'ljallab, qo'shin berib, Shohruhiya qal'asiga qo'mondon qilib tayinlaydi. Lekin, Mir Husaynxon ushbu ishni amalga oshira olmay, bir yildan keyin Qo'qonga qaytib keladi. Ammo, Umarxon u bilan yaxshi munosabatda bo'lmaydi va Mir Husaynxon Shahrisabzga qaytib ketadi.

Nima bo'lganda ham Umarxon bunday vaziyatning oldini olish uchun O'ratepaga qarab yo'l oladi. Umarxonning niyatidan bexabar bo'lgan Mahmudxon xo'ja hukmdorni shahardan 4 farsax uzoqlikda qarshi oladi. Mahmudxon xo'jani ochiq yuz bilan qarshi olgan Umarxon uni hiyla bilan qo'lga oladi. Shaharni talon-taroj qilgan qo'qonliklar, shaharning aslzodalarini Shahrixonga oq uylik qiladilar. Bu voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgan Dilshodi Barno o'zining "Tarixi muhojiron" asarida qo'qonliklar ark maydonida 400 ta odamni qatl qiladilar va 13 ming odamni asir qilib, Andijonga ko'chirib yuboradilar deya qayd etadi. Dilshodi Barno o'z asarida bunday vahshiyliklari uchun Umarxonni "zolim" deb ataydi. Umarxon bu ishlarni 1815-yilda amalga oshirgan edi. O'shanda Umarxon sayyidlarning mol-mulkini musodara qilib, ularni o'zlarini "oq uylik" qilishni mo'ljallagan edi. Chunki, 1754-yilgacha Qoshg'ar hokimi bo'lgan Kunxoja o'g'li Sarimsoqxo'janing farzandlari aynan O'ratepada yashar edilar. Ular Umarxon hokimiyati uchun xavf bo'lishi mumkin edi. Buning oldini olish uchun Umarxon bunday ishni amalga oshirgan bo'lishi mumkin. O'sha paytlarda 16 yoshlarda bo'lgan Muhammadhakimxon to'ra voqeani to'la idrok qila olmagan va noto'g'ri talqin qilgan bo'lishi mumkin.

⁹ Катта ўроқ. Вақф мулклари устидан назорат киладиган диний амал ва унвон. Белгиси саллага тақилган ўроқча бўлган.

¹⁰ Саййид ва хожаларга бериладиган унвон. Вақф мулклари мутассадиси.

¹¹ Миршаблар бошлиғи.

¹² Саройдаги иноқларнинг улуғи. Хон қабулига масъул амалдор.

¹³ Вақф мулклари нозири.

¹⁴ Сафар ва юришлардаги қўшбеги, ҳарбий қўшиннинг бошлиғи, қўмондон.

Umarxon O‘ratepa ishini hal etgach, bu yerga hokim etib Qosimbek otaliqni tayinlaydi va o‘zi Qo‘qonga qaytadi. Shu paytda Peshog‘ar qal‘asida bo‘lgan Muhammadrahim devonbegi (Yuz qabilasining boshlig‘i Xudoyorbiyning o‘g‘li, 1830-yilda vafot etgan) Yom qal‘asiga kelib, O‘ratepa atrofini talaydi. Qo‘qonliklar buni eshitib, dushmanga qarshi jang qiladi. Lekin jang qo‘qonliklar uchun muvaffaqiyatsiz tugaydi. Muhammadrahim devonbegi Yom qal‘asiga qaytib ketadi. Shundan keyin Umarxon Qosimbek devonbегining o‘rniga hokim qilib Rajab devonbегini tayinlaydi. Qo‘qonliklarni ehtiyotkorlikni unutganligini ko‘rgan Muhammadrahim devonbegi kechasi O‘ratepani egallaydi. Rajab devonbegi shahar arkiga qamalib qoladi faqat uning o‘gay o‘g‘li Mirzo Rahim parvonachining qahramonligi tufayli qutuladi. Lekin O‘ratepa baribir Muhammadrahim devonbegi tomonidan egallanadi.

O‘ratepani qaytarib olish uchun Umarxon u yerga qo‘shin tortadi. Ikki o‘rtadagi jangda Umarxon qo‘shini g‘alaba qozonadi. Lekin hukmdor kasalligi tufayli qo‘qonliklar ortga qaytishga majbur bo‘ladilar.

Bu davrda Umarxonning “Amir ul-muslimin” unvonini olishi, O‘ratepani jangsiz egallashi qo‘shni Buxoro amiri Haydar va Xiva xoni Muhammad Rahimxon I ning noroziligiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun amir Haydar O‘ratepani qaytarib olish uchun Mahmudxon xo‘ja bilan munosabat o‘rnatishga harakat qiladi. 1818-yil boshlarida Umarxonning yaqinlari Mahmudxon xo‘janing amir Haydar bilan muzokaralar olib borishga tayyorlanayotganligi haqidagi ma‘lumotni yetkazishadi. Dastlab bu xabarga ishonmagan Umarxon oxir-oqibat bunga ishonishga majbur bo‘ladi. Muhammadhakimxon to‘ra bu ma‘lumotni yolg‘on deb aytisada, aslida bunday muzokaralar bo‘lishi tabiiy edi. Chunki, amir Haydar bunday imkoniyat bo‘lsa qo‘ldan chiqarishi mumkin emas edi.

Shuning uchun qo‘shni Buxoro hududlaridan O‘ratepaga berilayotgan yordamning yo‘lini to‘shish maqsadida Zomin va Jizzax tomonlarga yurish qiladi. Bu yurish yashirin ravishda tayyorlanadi. Qo‘qonliklar go‘yo ovga ketayotgandek Marg‘ilon taraflariga yurib, u yer orqali Jizzax tomonlarga boradi. Jizzax qo‘qonliklar tomonidan uch kun qamal qilinadi. Jizzaxni qo‘lga kiritishga muvaffaq bo‘linmasada, u yerdan juda katta o‘ljalar bilan qaytib kelinadi. Aslida bu yurishdan asl maqsad o‘sha paytda Hisor hokimi bo‘lgan Muhammad Rahimbiy Yuzni zaiflashtirish uchun qilingan edi. chunki, O‘ratepa qo‘qonliklarni zaiflashtirishga urinayotgan barcha muxolif kuchlar u yerdan madad olar va mag‘lubiyatga uchragach u yerdan panohtopar edilard.

Umarxon faoliyati davomida doimiy harbiy yurishlar va sababsiz qatllar amalga oshirilganligini guvohi bo‘lamiz. Bunday ishlardan biri Rajab devonbегining qatl etilishidir. Rajab devonbегining qatl etilishi Qo‘qon xonligidagi qabila va urug‘lar o‘rtasidagi hokimiyat uchun kurashning yorqin namunasi. Rajab devonbегining qatl etilishiga sabab sifatida ikkita taxmin ko‘rsatiladi. Birinchisi, Muhammadhakimxon to‘ra asarida yozilishicha, go‘yoki Rajab devonbegi marhum Olimxonning Qorategin viloyatida Shoh Abdulaziz huzurida yashayotgan o‘g‘illariga yashirincha odam yuborib, ularni taxtga chiqarishga tayyorlanayotgan edi. Muallif ma‘lumoticha, Rajab devonbегining dushmanlari, yolg‘ondan xat tayyorlab, sovundan qushbegi muhrini tayyorlab, xat ostiga bosadilar. Ikki odamni tayyorlab, uni ushlaydi. Ular ham Rajab devonbегining odamlari ekanliklarini tan oladilar. Shu tariqa Rajab devonbегining bu fitnani amalga oshirayotganligiga Umarxonni ishontiradilar. Shunda Umarxon Rajab devonbегini o‘zining huzuriga kelishini talab qiladi. Fitna haqidagi ma‘lumotdan xabar topgan Rajab devonbegi xon huzurida tiz cho‘kib, o‘zining aybsizligini aytadi. Umarxon go‘yoki bunga ishonganday bo‘lib, unga to‘n sovg‘a qiladi. Umarxon uni To‘raqo‘rg‘onga Ernazarbek saroyiga xizmatga yuboradi.

Ernazarbekning maxsus to‘rt xizmatkori bo‘lib, ular Rajab devonbegining o‘ldiradilar va Axsida uning jasadini qopga solib, tosh bog‘lab Sirdaryoga tashlab yuboradilar. Nima bo‘lganda ham bu qatl ko‘pchilikni qo‘rquvga solgan. Bu voqea saroy shoirlaridan biri Mavlono Xoziq tomonidan “taqdir charxpalagi” deya baholanadi. Umarxon tarafdorlaridan bo‘lgan tarixchi Mulla Avaz Muhammad bu voqeani oqlash uchun Umarxon bu qarorini qattiq mast paytida bergan, u paytda oqilona qaror qabul qilish imkoniyati yo‘q edi, deya baholaydi.

Rajab devonbegi qatl etilishidagi ikkinchi taxmin Mulla Niyoz Muhammad tomonidan keltiriladi. Bu taxminga ko‘ra, O‘ratepaning oxirgi qamalida Rajab devonbegi Muhammad Rahim bilan shartnoma tuzishga intilgan emish. Bu Umarxonning Rajab devonbegidan voz kechishi uchun yetarli edi. Umarxon O‘ratepaga boshqa hokim, ya’ni Ernazarbiyni jo‘natadi va unga yashirincha Rajab devonbegini o‘ldirib, jasadini Sirdaryoga tashlashni buyuradi. Qatl amalga oshiriladi.

Lekin bu ikki taxminning qaysi biri to‘g‘riligi aniq emas. Har qanday holatda ham bunday ishlar O‘ratepa masalasini hal eta olmaydi. Bunday vaziyatdan foydalangan Yuz qabilasi O‘ratepada yana hokimiyatni qo‘lga olishga muvaffaq bo‘ladi. Umarxon O‘ratepani hokimiyati ostiga kiritish uchun yana ikki marta yurish qilishga majbur bo‘ladi.

Qo‘qon xonligi butun hukmronligi davrida Buxoro bilan doimiy diplomatik va iqtisodiy aloqada bo‘lgan. Hududlar uchun o‘zaro kurashlar hech qachon to‘xtamagan. Chunki, Qo‘qon xonligi mustaqil davlat sifatida tashkil topgan paytda Buxoro xonligi tarkibida edi. Buxoro hukmdorlari doimo Farg‘ona vodiysini qayta qo‘lga kiritishga harakat qilganlar. Amaldagi Qo‘qon hukmdorlariga muxolifatda bo‘lgan shaxslarni doimo qo‘llashga harakat qilganlar. Jumladan, Qo‘qon xoni Umarxon davrida ham bunday siyosat davom etgan.

Umarxon taxtga kelgan dastlabki yiliyoq, ya’ni 1810-yilda Buxoro amirligiga qarashli bo‘lgan Jizzaxga qarshi yurish uyushtirgan. Keyingi yili yana Buxoro amirligiga qarshi yurish uyushtirgan. Bu yurishlarning sabablarini yuqorida aytib o‘tgan edik. 1814-1815-yillar davomida Buxoro amirligiga qarashli bo‘lgan Turkiston va Sayram yerlari bosib olingan. Buning sababi, Olimxon davrida boshlangan, Umarxon davrida davom ettirilgan Rossiya bilan savdo munosabatlarini yo‘lga qo‘yish uchun amalga oshirilganligini aytib o‘tdik. O‘ratepa esa ikki davlat o‘rtasidagi asosiy bahs mavzuiga aylangan. Umarxonning O‘ratepani oxirgi marta qamal qilishi ham muvaffaqiyat keltirmagach, Qo‘qonga qaytib keladi. Bu voqealar taxminan 1818-yilning kuzida sodir bo‘lgan edi.

1819-yil Umarxonning Turk sultoni Mahmud huzuriga jo‘natilgan elchisi hoji Mir Qurbon qaytib kelgan edi. Elchilik qaytib kelayotganda Xorazmga Muhammad Rahimxon I huzuriga tushadi. Xiva xoni o‘z elchiligini ham Qo‘qon elchilariga qo‘shib jo‘natgan. Qo‘qonga kelgan Xiva elchilari bilan kelishuv muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. Ularni mamlaakatlariga kuzatib qo‘yish uchun Abdulxoliq Qorovulbegi boshchiligida guruh beriladi. Keyinroq Umarxon Namangan taraflarida dam olish uchun borganida xonning ikkinchi marta Turkiya sultoniga jo‘natilgan elchiligi qaytib keladi. Bu ikkinchi elchilikka ham hoji Mir Qurbon boshchilik qilgan edi. Elchilik bilan sultonning Umarxonga yuborilgan sovg‘alari va yorlig‘i ham keltirilgan edi. Sovg‘alar bezakli bir qilich, ikkita to‘ppooncha, ikkita sifatli soat, ikki dona durbin va turkcha atlasdan tikilgan bir to‘p kiyim-kechakdan iborat edi. Elchilik bilan yana bir muhim yorliq, ya’ni, Umarxonga “Xoni xonon” unvoni berilgan bir yorliq mavjud edi.

Qo‘qon xonligi tarixida “oq dog”lardan biri bo‘lgan bir tarix borki, uni ko‘pchilik tarixchilar bu voqeaga har xil baho beradilar. Bu voqea shundan iboratki, Umarxonning

kanizi yoki Muhammadhakimxon to'ra asarida aytilganidek, xotinlaridan biri Xonposhsho oyimdir. Tarixchilar Umarxon Xonposhsho oyimga uylanmagan. Kanizlari qatorida tutgan, desalarda, Muhammadhakimxon to'ra Umarxonning unga uylanganligi haqidagi ma'lumotni aniq keltiradi. Xonposhsho oyim aslida Umarxon tarafidan Shahrixon shahriga surgun qilingan sayyidlaridan biri G'ozī O'ratepagiyning qizi bo'lib, Umarxonning unga uylanishiga kanizlaridan biri, Shahrixon hokimining xotini sabab bo'lgan edi. O'ratepagiy dastlab bu nikohga qarshi bo'ladi, hatto qizimni biriga fotiha qilganmiz, deb aytadi. Lekin keyinchalik ushbu nikohga xonning g'azabidan qo'rqib, rozi bo'lgan. Shunday qilib, Muhammadhakimxonning ta'kidlashicha, Umarxon Xonposhsho oyimga uylangan. Buni u asarining xonning o'g'li Abdullhoning to'yini qilish uchun Toshkentga borganida o'zi bilan olib ketganligidan ham bilib olishimiz mumkin.

Buxoro amirligi bilan aloqalarning yomonlashuvi natijasida Umarxon Toshkentda o'zining ishongan vakilini tayinlash zaruratini keltirib chiqargan. Shuning uchun 1820-yili Umarxon 14 yoshli o'g'li Abdullohni Toshkentda uylantiradi.

1820-yilda Muhammadhakimxon to'raning qarindoshlaridan biri Eshon Sultonxo'ja xoja kalonning bir qizi bo'lib, Umarxon u qizga uylanishni istagan. Ma'sumxon shayxulislom bunga qarshilik bildirsada, bu ish amalga oshadi. Bu ishni tashkillashda asosiy rol o'ynagan sayyid Mahmudxon Xo'jand va O'ratepa orasidagi hududlar hokimi etib tayinlanadi.

1821-yil Buxoroda amirga qarshi xitoy-qipchoqlar qo'zg'oloni ko'tarilgan. Qo'zg'olon va Turkiyadan kelgan elchilik ta'siri ostida Umarxon Buxoroga qarshi yurishga o'tlanadi. Umarxon 20 ming doimiy va 20 ming ko'ngilli, jami 40 ming kishilik qo'shin bilan yurishni boshlagan. Umarxon amirga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olondan foydalanib, Jizzaxga yurish boshlaydi. Bu davrda Samarqandni g'arbiy tomondan qamal qilayotgan qo'zg'olonchilar shaxsan Jizzaxga qarshi ketayotgan Umarxonga yordam shoshiladilar. Xitoy-qipchoqlar Shahrisabzliklar bilan birga harakat qilishgan. Jizzax qamali paytida Umarxon xitoy-qipchoqlarning elchisini qabul qiladi va ularga ham sovg'a jo'natadi. Umarxonning shaxsan o'zi Jizzax qamalida yarador bo'ladi.

Jizzax qamali cho'zilganligi uchun qo'qonliklar orasida ochlik boshlanadi. Qo'qonliklar orasida tamaki yetishmovchiligini aytib o'tgan. Tamaki shunchalik darajada qimmat bo'ladiki, bir chimdim tamakisi bor odam uni yuz tilloga sotar edi deb yozadi. Albatta bu mubolag'a bo'lishi kerak. Shundan so'ng Umarxon xitoy-qipchoq va amir Husaynning (amir Haydarning ukasi) iltimosi bilan Samarqandga yurish boshlaydi. Lekin yarim yo'lda xitoy-qipchoqlarning O'ratepa hokimi bilan ham muzokaralar olib borganliklari haqidagi ma'lumotni eshitib, Qo'qonga qaytadi.

Muhammadhakimxon to'raning akasi Jahongirxo'ja 1759-yilda qo'ldan ketgan Qoshg'arni qaytarib olish uchun yurish qilgan edi. Manbalarda keltirilishicha, bu voqea taxminan 1813-yilda sodir bo'lgan edi, lekin muvaffaqiyatsizlik uchrab, 1819-1820-yilda Qo'qonga qaytib ketishga majbur bo'lgan edi. Umarxon uni Qoshg'arga qaytib ketishini oldini olish uchun qamab qo'yadi. Jahongirxo'ja shu qadar bangi ediki, unga tamaki bermaganliklari uchun xumori tutib, holdan ketadi. Muhammadhakimxon akasiga chilim berganligini yashirmay asarida keltirgan. Asirlar bir imkoniyatini qilib, Qoshg'arga qochishga muvaffaq bo'ladilar. Qochoqlar 500 nafar qirg'izni o'z tomoniga og'dirishga muvaffaq bo'ladilar va Qoshg'ar hududiga kiradilar. G'oziyarlar qirg'izlar bilan jangga kirganlarida xitoyliklar zambaraklaridan ikki marta otilgach, qirg'izlar orqa-oldiga qaramasdan qochadilar. To'g'ri muallif asarida mahalliy aholi keyinchalik g'oziyarlar haqiqatan ham kelganliklari haqidagi ma'lumotni to'g'ri ekanligini aniqlab, qilgan

ishlaridan afsus chekadilar. Lekin bu vaqtda kech bo‘lgan edi. Shunday qilib, Jahongirxo‘ja va Haqqulilar Andijonga qaytib kelishga majbur bo‘ladilar. Ana shunda Umarxon ularni uy qamog‘iga mahkum qilgan va yuqorida aytgan voqea sodir bo‘lgan edi.

1821-yilda Umarxon O‘ratepani uzil-kesil mamlakatga qo‘shib olish va hududini kengaytirish maqsadida Zomonga yurish uyushtiradi. Umarxon jiyani Muhammadhakimxon to‘ra va o‘g‘li Muhammadalixonni Xo‘jandda qoldirib, o‘zi Zomini qamal qilishga yo‘naldi. Qamal 20 kun davom etadi. Qo‘qon askarlari orasida ochlik boshlanadi, buning ustiga havoning issiqligi qamalni yanada qiyinlashtiradi, shunda qo‘qonliklar unga yaqin bo‘lgan qal‘a, Zominchani egallaydilar. Xuddi shu davrda xitoy-qipchoqlar va qoraqalpoqlarning vakillaridan iborat bo‘lgan elchilar Umarxon huzuriga keladilar. Ular Umarxonni takroran Samarqandni egallashni, shahar butun Movarounnahr uchun kalit bo‘lishiga ishontirishga urinadilar. Lekin Umarxon bunday taklifni rad etib Xo‘jandga qaytadi.

Yurish tugab Qo‘qonga qaytib kelgan Umarxon bu yerdagi davlat ishlarini tartibga soladi. Biz bilamizki, Umarxon juda go‘zal she‘rlar bitgan va hatto devon tuzgan edi. Muallif ham o‘z asarida bu haqida shunday yozadi: “...she‘r bitish ishlariga jiddiy kirishdi va yozgan she‘rlaridan turkiy va forsiy namunalarni o‘z ichiga olgan juda go‘zal bir devon tuzdi”.

Shu yili kuz faslida Umarxon ov uchun Marg‘ilon va Andijon tomonlariga borishga qaror qiladi. Lekin hukmdorning ko‘p ichkilik iste‘mol qilishi natijasida kasal bo‘lishi bu ovning to‘xtatilishiga sabab bo‘lgan. Nima bo‘lganda ham Umarxonning Zomin taraflariga qilgan yurishi oxirgi harbiy harakati bo‘lib, o‘n yetti kun kasal bo‘lib yotgach, 1822- yil 12-yanvar juma kuni, quyosh chiqishi mahali vafot etadi.

Umarxon vafot etgach Ma‘sumxon to‘ra barchani yig‘ib, amirlar va a‘yonlarni Muhammadalixonga ba‘yat qildiradi. Marhum dafn etilgach, yetti kun davomida xalqqa osh berilib, yettinchi kun Muhammadalixon taxtga o‘tiradi.

2. Madalixon davrida Qo‘qon xonligi

Muhammad Alixon taxminan 1806-yilda tug‘ilgan. To‘liq ismlari: yoshliklaridagi rasmiy nomlari va unvonlari Muboriziddin Muhammad Alixon tarzida, xonlik taxtiga o‘tirgandan so‘ng Abulmuzaffar val Mansur Sayyid Muhammad Ali g‘oziy Bahodur xon binni Sayyid

Muhammad Umarxon valna‘mi tarzida yozib kelingan. Xalq orasida Madalixon nomi bilan mashhur edilar. Bu nom oddiy qisqartma bo‘lmay, “adlu adolat manbai” deganidir.

Yoshlik yillari asosan Marg‘ilon va Qo‘qonda o‘tgan. Bir qancha muddat Xo‘jand hokimi vazifasini bajargan. Umarxon vafot etgach, Yusuf mingboshi Qoshg‘ariy harakati bilan taxtga o‘tqazilgan. Mirzo Olimning xabariga ko‘ra esa, xonlikdagi ulamolar, shayxlar, oqsoqol va amirlar o‘zaro kelishib, o‘sha paytda 17 yoshda taxtga o‘tirgan.

Manbalarga ko‘ra, Muhammadalixon bilan akasi Sulton Mahmud orasidagi munosabat yaxshi bo‘lgan. Lekin saroy amaldorlari Sulton Mahmudni hokimiyat uchun kurashayotganligiga xonni ishontirishadi. Shu vaqtda xonning yana bir akasi Abdullohbek saroyga yashirincha chaqirilib, o‘ldiriladi. Boshqa bir manbaga ko‘ra, Abdullohbek Toshkentda noma‘lum shaxslar tomonidan o‘lasi qilib kaltaklanib, o‘ldiriladi. Bundan shubhalangan Sulton Mahmudxon Shahrizabzga qochishga majbur bo‘ladi. Bizningcha, ikkinchi taxmin to‘g‘riroqdir. Chunki, Madalixon hukmronligining dastlabki davrida hokimiyat to‘laligicha uning qaynotasi “tog‘lik” laqabli Yusuf mingboshi qo‘lida edi. Lekin

ikki yil keyin saroy intrigalarida ikkinchi bir “partiya”, yuz qabilasidan bo‘lgan Haqquli mingboshi g‘alaba qozonadi. Madalixonning qaynotasi dastlab Marg‘ilonga hokim qilib tayinlanadi, keyinchalik haj safari paytida vafot etadi.

Umarxon davrida ta’sirga ega bo‘lgan ruhoniylar guruhlarini o‘zlarining pozitsiyalarini yo‘qota boshladilar. Bulardan dastlabkisi, shayxul islom Ma’sumxon To‘ra va uning o‘g‘li Hakimxon bo‘ldi. Xon dastlab ularga yaxshi munosabatda bo‘lsa-da, ular xonlik tashqariiga quvg‘in qilinib, mulklari musodara qilinadi. Ota-bolaning o‘zlari xonlik hududidan surgun qilinadi.

Bundan shunday xulosa qilishi mumkinki, xonlikda hatto, hokimiyatga tinch yo‘l bilan kelingan paytda ham saroy amaldorlari orasida dushmanlik kayfiyatlari hukm surar edi. Bu esa oldingi xon davrida yirik amallarni egallagan shaxslarni xonlikdan quvg‘in qilinishi bilan tugar edi. Qo‘qon xonligida Madalixon hukmronligining dastlabki davridagi taloto‘plar sababi ham shunda edi. Saroy amaldorlari taxtga doimo o‘zlariga qarashli shaxsni hokimiyatga kelishiga harakat qilar edilar. Qo‘qon xonligida taxtga o‘tirishning aniq bir tartibi o‘rnatilmaganligi bunday saroy intrigalarining kelib chiqishiga sabab bo‘lar edi.

Bunday voqealarga qaramasdan Madalixon hukmronligi davri amakisi va otasining davridagi jangovarlik va tashqi siyosat borasidagi voqealardan farq qilmadi. Uning davrida bir necha marotaba muvaffaqiyatli yurishlar amalga oshirilib, yangi xon hududini Issiqko‘l etaklarigacha cho‘zishga muvaffaq bo‘ldi. Uning birinchi yurishi Umarxon davrida to‘liq bo‘ysundirilmagan O‘ratepani butunlay bo‘ysundirish uchun amalga oshirilgan. O‘ratepaga dastlabki yurish 1824-yilda amalga oshirilgan. Lekin bu yurish muvaffaqiyatsiz chiqqan. 1826-navbatdagi yurish vaqtida esa O‘ratepa buxoroliklardan tortib olinadi.

Madalixonning eng yirik harbiy harakati Qoshg‘arga amalga oshirilgan. Madalixonning Qoshg‘arga yurishining asl sababi otasi davridan beri Qo‘qonda asirlikda saqlanayotgan Jahongirxo‘janing takror Qoshg‘arga qochishi edi. Manbalarga ko‘ra, Qo‘qon xonlari Jahongirxo‘jani Qo‘qonda saqlab turganliklari uchun Xitoydan ming yombi (boshqa manbalarga ko‘ra 200 yombi) kumush olib turganlar. Jahongirxo‘ja va uning yaqinlari Umarxon davrida Qo‘qonda O‘rdada qamog‘ida saqlangan bo‘lib, ularga yaxshi muomala qilingan. Lekin Madalixon ularga yaxshi muomala qilinmagan. Ularga davlat tomonidan moddiy yordam berilmagan. Natijada ular hayoti biroz og‘irlashgan. Shunda Jahongirxo‘ja o‘z jiyani To‘raxon to‘ra bilan birgalikda Qoshg‘arga qochishga muvaffaq bo‘ladi. Lekin ular Andijonning tog‘li hududlarida ushlab, Qo‘qonga qaytarib olib kelinadi. To‘raxon to‘ra qo‘yib yuboriladi, Jahongirxo‘jani esa qamoqda saqlanishi davom etadi. Lekin shu vaqtda, ya’ni 1824-yil Farg‘ona vodiysida qattiq zilzila bo‘ladi. Muhammadhakimxon to‘ra esa bu zilzilani 1822-1823-yilda bo‘lgan deb ma’lumot beradi. Jahongirxo‘ja zilziladagi tartibsizliklardan foydalanib, yana qochadi. Bu safar qochish uning uchun omadli keladi. Jahongirxo‘ja bu safar Balx va Badaxshon taraflarga qochadi. U yerda mahalliy hokimning qiziga uylanadi va mahalliy hokimlar bilan o‘zaro ittifoq tuzib, kuch to‘plagach, ikki ming kishilik qo‘shini bilan 1825-yil mart oyida Qoshg‘arga yurish boshlaydi. Uning qo‘shini tarkibida hatto 12 ta ingliz ham bo‘lgan. Hatto butun O‘rta Osiyo hududidan Jahongirxo‘ja qo‘shiniga kelib qo‘shilganlar bo‘lgan. Lekin yurish davomida qiyinchiliklarga bardosh bera olmagan qirg‘izlar orqaga qaytadilar.

1826-yil bahorida Jahongirxo‘ja qo‘shinlari Sotuq Bug‘roxon qabri joylashgan mozorgacha bo‘lgan yerlarni egallaydilar. Bu mozor ularning qarorgohiga aylanib, u yerga Sin imperiyasi siyosatidan norozi bo‘lgan butun qoshg‘arliklar kela boshlaydilar.

Xitoyliklarning bu yerga jo'natgan armiyasi mozorni qurshab olib g'oziyarlarni mag'lubiyatga uchratadilar, lekin Jahongirxo'ja bir qabrga yashirib olganligi uchun tirik qoladi. Albatta bu yurish Madalixonning roziligi bilan amalga oshirilgan. Madalixon bu yurishga 10 ming kishilik qo'shin jo'natgan. Bu yurish Madalixon uchun unchalik katta bo'lmagan muvaffaqiyat bilan tugaydi. Shundan so'ng 1243/1827-1828-yil Madalixon o'ziga "G'oziy" unvonini oladi. Madalixonning 1243/1827-1828-yilda zarb ettirgan kumush tangasidan bu haqida bilib olishimiz mumkin. Ushbu yilda zarb etilgan tanganing old tarafida "Muhammadalixon G'oziy" unvoni yozilgan.

Madalixon Qo'qonga qaytgach, qoshg'arliklar xitoyliklarga qarshi urushni davom ettirib, Sintszyanning butun g'arbiy qismini (Yangihsor, Yorkent, Xotan) bosib oladi va g'arbga qarab yurishni davom ettiradilar (Turfan, G'ulja, Oqsuv).

Shundan keyin Jahongirxo'janing Qoshg'ardagi hokimiyati tiklanib, u yerda ancha vaqt hukmronlik qiladi. Umuman Muhammad Alixon ham, o'zidan oldin o'tgan hukmdorlar kabi, faol tashqi siyosat olib bordi. Qo'shni hudud Qoshg'arda yuz bergan voqealar uni bu hududda harakat qilishi va oqibatda Xitoy bilan munosabatlarining keskin tus olishiga olib keldi. Qayd etib o'tish kerakki, 1692-yildan 1760-yilga kadar Qoshg'arda Mahdumi A'zamning avlodlaridan bo'lgan xrijalar hukmronlik qilgan edilar. Shu avlodga mansub Sayyid Xidoyatullox xoja (Ofoqxoja) avlodidan bo'lgan Jahongirxon To'ra Qoshg'arni qayta qo'lga kiritish maqsadida 1826-yilda Qo'qondan Qoshg'arga qarab yo'l oladi. Jahongirxon To'ra Qoshg'arni Xitoy hukmronligidan ozod etib o'z hukmronligini o'rnatgandan so'ng Muhammad Alixon ham Qo'qon ko'shini bilan Qoshg'arga kirib keladi va unga hokimiyatni mustahkamlashda yordam beradi. Lekin bu hukmronlik 9 oygina davom etib, Xitoy xurujidan so'ng barham topadi.

Jahongirxo'ja va uning yaqinlari 1829-yil yozida Xitoy qo'shinlari tomonidan asirga olinib, Pekinda qatl etilgan edi. Xitoyliklar bu vaqtda Madalixonga elchi jo'natib, uni xojalarni ularga qarshi qurollantirmasligi uchun kelishishga harakat qiladilar. Lekin Madalixon xitoyliklar taklifini rad etib, Qoshg'arga yurish uyushtiradi. Manbalarda bu yurishning sababi sifatida xonlikka qarashli hududlardan soliqni o'z vaqtida yig'ilmayotganligi, navbatdagi yurish uchun xazinani to'ldirish sifatida ko'rsatiladi. Shu yili Qo'qonga Xitoy elchisi keladi. Qo'qonda Xitoy elchisi taklifi muhokama qilinib, Pekinga A'lam pochcha boshchiligidagi elchilar jo'natiladi. Elchi Pekinda katta dabdabalar bilk qabul qilinadi. Mahalliy muarrixlar ma'lumotiga ko'ra, Madalixon Xitoy imperatoriga quyidagi talablarni jo'natgan edi: 1) Pekinda asirlikda tutilayotgan sayyid (xoja)larni ozod qilish (chunki ular Payg'ambar avlodidan); 2) Yetti shahar/Qoshg'ardagi musulmonlarni shariat asosida boshqarish uchun topshirish; 3) Har yili Xitoydan 10 ming yombi miqdorida kumushni bojxona solig'i sifatida bo'lash.

Madalixonning Qoshg'arga ikkinchi yurishi 1830-yilda sodir bo'ladi. Bu yurish davrida qo'qonliklar qo'shini 40 ming atrofida bo'lgan (ba'zi manbalarda esa 60-65 ming deb ko'rsatiladi). Bu yurish paytida qo'qonliklar bir qator g'alabalarga erishadilar, lekin Gulbog'ning qamal qilinishi 4 oyga cho'ziladi. Lekin boshqa g'alabalar haqida manbalarda ma'lumot berilmagan. Natijada Madalixon Pekinga elchilar yuborgan. Bu elchilik bilar paralell ravishda diplomatik madad olish Rossiyaga ham elchilar yuborilgan. Elchilik muzokaralari natijasida Madalixon 70 mingga yaqin qoshg'arliklarni Farg'onaga ko'chirgan.

Madalixonning Qoshg'arga ikkinchi yurishi haqida mahalliy tarixchilar rus va xitoylik tarixchilardan boshqacharoq fikr beradilar. Ikkinchi yurish arafasida Madalixon

Jahongirxo‘janing akasi Haqquli mingboshiga yurishni tashkil etish, qo‘shin to‘plashni buyuradi. Bu yurish Madalixon uchun ancha muvaffaqiyatli kechadi. Lekin Qoshg‘arning markazi bo‘lgan Gulbog‘ qamal qilinsada, muvaffaqiyatli tugamagan. Shunga qaramasdan, Madalixon bu yurishdan katta boylik bilan qaytib kelgan. Qoshg‘arda qolishni istamagan qoshg‘arliklar ular bilan birga qaytadilar. U boshqa dindagi odamlarga zakot va xiroj to‘lashni yuklab, budda ibodatxonalarini masjidga aylanitiradi. Lekin bu ma‘lumotlar bu yurishdan ancha yillar keyin yozilganligi uchun buni unchalik ham to‘g‘ri deb bo‘lmaydi.

Bu yurish katta muvaffaqiyat keltirmagan bo‘lsa-da, siyosiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Chunki yurishdan bir yil keyin, ya‘ni 1832-yil Qo‘qon uchun Qoshg‘ardagi savdo ishlarida manfaatli savdo shartnomasini tuzish taklifi Xitoy hukumati tomonidan bildiriladi. Bu shartnomaga muvofiq, Qo‘qon amaldorlari musulmon savdogarlaridan soliq yig‘ish huquqini olganlar, qo‘qonlik savdogarlarning konfiskatsiya qilingan mahsulotlari qaytarib beriladi. Bundan tashqari, aynan shu yili Madalixon o‘ziga “Abulg‘oziyxon”, ya‘ni “Din uchun kurash otasi” degan unvon oladi.

Bu davrda Olimxonning o‘g‘li Otaliqxon Buxoro amirining buyrug‘i bilan Hisora orqali Qorategin tomonga qo‘shin tortadi. Buni eshitgan Madalixon Muhammadsharif otaliq boshchiligida Qorategin tomonga qo‘shin yuboradi. U yerda mavjud bo‘lgan buxorlik askarlar qo‘qonliklar qarshi jang qiladilar. Bu voqealar 1250/1834-1835-yilda sodir bo‘ladi. Shu yillarda Madalixon Qorategin, Darvoz, Ko‘lobni egallaydi.

Muhammad Alixon hukmronligining so‘nggi davrlarida xonlikda mavjud davlatchilik an‘analaridan chekindi. Buni tarixiy manbalardagi Muhammad Alixon o‘z hukmronligining so‘nggi yillarida davlatni boshqaruvning mutloq, yakka hokimlik uslubida boshqarishga harakat qilgani, hukumat ishlarini hal qilishda amaldorlar va ulamolar fikri bilan hisoblashmaganligi haqidagi ma‘lumotlar tasdiqlaydi. Shuningdek, bu hukmdorning markaziy boshqaruvda yuqori mavqega ega bo‘lgan ayrim mansabdorlarni qatl ettirishi va mamlakatdan badarg‘a qilishi hokimiyatning zaiflashuviga, muxolifat kuchlarning mamlakat tashqarisida birlashib harakat qilishiga imkon yaratdi. Xususan, bu hukmdorning so‘nggi yillardagi faoliyati xaqida «Tarixi Farg‘ona» asarida «Muhammad Alixon fuqarolardan beparvo bo‘lib, musohiblari ulamo va fuzalolardan bo‘lmay, pandu nasihat eshitmay, eshitsa ham quloqg‘a olmay, xusus, keyingi asrida lahv u la‘ab ilan bo‘lib, ulamoyu fuzalo va ayonlardan pandu nasihat qilsalar ba‘zilarini o‘ldurub va ba‘zilarini Farg‘onadan chiqarib, Buxoroga badarg‘a qilib, nasihat olmay qolgan ekan», - deb qayd etiladi .

Manbalardagi ma‘lumotlarga ko‘ra bu davrda markaziy hokimiyatda guruhbozlik yuzaga kelganligini ham anglash mumkin. Muxolif guruh a‘zolari dastlab bosh vazir lavozimida faoliyat yuritayotgan Xaqquli mingboshiga nisbatan tuhmat uyushtirib uni yo‘qotishga muvaffaq bo‘ldilar. Muhammad Alixon xonlik markaziy boshqaruvidagi teran fikrlovchi, kuchli siyosatdon vazirini yo‘qotganini anglamadi.

Qo‘qon xonligi markaziy hokimiyatida vujudga kelgan bunday vaziyatdan muxolif kuchlar foydalanib, Buxoro amiri Nasrulloxonni (1826-1860) gij-gijlab, uning Qo‘qonga qarshi qo‘shin tortishiga muvaffaq bo‘ldilar. Buxoroning bosqinchilik harakati 1842 yilda sodir bo‘lib, uning natijasida Muhammad Alixon va ukasi Sulton Mahmudxon hamda hukmron sulolaning bir necha vakillari qatl qilindi.

Amir Nasrullo Ibrohim dodhohni Qo‘qonga o‘zining noibi etib tayinlab, Buxoroga qaytadi. Ibrohim dodhoxning Qo‘qondagi faoliyati xususida manbalarda ham qarama - qarshi ma‘lumotlar mavjud. “Tarixi Aziziy” asarida Ibrohim xayolning adolatlik hukmlar

bilan siyosat yurgizayotgani bayon qilinsa, “Tarixi Turkiston” asarida aksincha, aholi ahvolini yanada og‘irlashtirib yuborgan deb izoh beriladi. Bu o‘rinda Muhammad Aziz o‘z asarida otasidan eshitganlarini yozganini, “Tarixi Turkiston” asari esa Rossiya imperiyasi senzurasiga moslashtirilganligini e‘tirof etib o‘tish lozim.

**3. Qo‘qon xonligida
Sheralixon
hukmronligi davri**

Nasrulloxonning Qo‘qonga noib qilib tayinlagan Ibrohim xayol parvonachi ismli vakili bu yerda qattiq qarshilikka uchraydi. Ibrohim xayol aholining mol-mulkini musodara qilib, soliq zulmini kuchaytiradi. Bu esa aholining noroziligini uyg‘otmasdan qolmas edi. “Mirotul-futuh”

muallifi yozishicha, buxoroliklar o‘rnatilgan amaldagi soliqlardan tashqari barcha mol-mulkni ro‘yxatga oladilar. Amir Nasrulloxon amaldorlari butun mol-mulkdan 1/5 miqdorida soliq to‘lashni talab qiladilar. “Tarixi jahonnomayi” asari muallifi ma‘lumoticha, buxoroliklar har bir daraxt uchun ham soliq talab qilganlar, shu bilan birgalikda, chahor puli, panj puli va hatto hovlida ekilgan arzimasi ekinlar uchun ham soliq talab qilganlar.

Buxorolik jangchilarning vayrongarlik harakati nafaqat mahalliy aholini, balki, mahalliy feodallarning ham noroziligini uyg‘otadi. Chunki, soliq siyosatining kuchayganligi ularning ijaraga beradigan yerlaridan oladigan daromadini kamaytirgan. Bu norozilikni vujudga keltirgan eng asosiy sabab edi.

Mahalliy dunyoviy va diniy amaldorlar o‘zlarining lavozimlaridan bo‘shatiladilar, ularning o‘rnini buxoroliklarning vakillari tayinlanadi. Harbiy va harbiy amaldorlarga berilgan qishloqlar, barottan oladigan daromadi va otlari olib qo‘yiladi. Shuning uchun “Mirotul-futuh” muallifi yozadiki, butun xalq qandaydir o‘zgarish bo‘lishini kutaib yashayotgan edi.

Bu ahvoldan qirg‘iz va qipchoq qabila boshliqlari foydalanadilar. Ular Norbo‘tabiyning jiyani, Olimxon tomonidan o‘ldirilgan Hojibiyning o‘g‘li Talosga qochgan Sheralixonni taxtga o‘tqazishga qaror qiladilar. Farg‘onada buxoroliklar askarining kamligi, butun aholining noroziligidan foydalanib, “ovsar” nomini olgan Sheralixon osonlik bilan Namangan, To‘raqo‘rg‘on, Chust va Sirdaryoning chap qirg‘oqlarini bo‘ysundiradi. Vodiyning shimoliy hududlarini osonlik bilan bo‘ysundirishining asosiy sababi shuki, bu yerda yashovchi butun qirg‘izlar oralaridagi doimiy aloqalar tufayli ularni qo‘llab-quvvatlaganliklari edi. Zotan 35 yildan buyon Talosdagi qirg‘izlar orasida yashayotgan Sheralixon taxtni qo‘lga kiritishning qulay vaqtini kutib yashayotgan edi. Namangandan qirg‘o‘g‘il urug‘ining vakillari Yusuf boshchiligidagi vakillar jo‘natadilar.

Sheralixonning To‘raqo‘rg‘onga yaqinlashishi bilan markaziy va sharqiy hududlardagi sobiq harbiylar qirg‘izlar va qipchoqlar bilan birgalikda amir nasrulloxon tomonidan qo‘yilgan butun vakillarni qirg‘in qiladilar. Sheralixon qo‘shinlari poytaxt yaqinidagi Navbahor qishlog‘ida jang qiladilar. Jang buxoroliklarning mag‘lubiyati bilan tugaydi. Ibrohim xayol unchalik ko‘p bo‘lmagan odamlari bilan Buxoroga shoshilinch ravishda qochadi.

Sheralixonning kirib kelishi arafasida mahalliy aholi arkdagi 2-3 ming kishilik buxorolik harbiylarni qamal qiladilar. Jazolash shu qadar qattiq bo‘lgan ediki, voqealar ishtirokchisi bo‘lgan “Tarixi jahonnomayi” muallifining fikriga ko‘ra, mang‘itlarning jasadlari har bir ko‘chada yotar edi. Tirik qolganlari esa qirg‘iz va qipchoqlar tarafidan bozorda qul sifatida sotiladi. Lekin ularni hatto bir dirhamga bo‘lsa ham sotib oluvchi topilmadi. Shuning uchun ularni ham qatl etadilar. Boshqa joylardagi buxorolik askarlar taqdiri ham shunday tugadi.

Butun bo'lgan hodisalar shuni ko'rsatadiki, bosqinchilarga qarshi kurashning butun og'irligi xalq zimmasiga tushgan. Mulla Mirza Olimning xabar berishicha, kurashni tashkil etish uchun xalqdan qurol-yarog', miltiq puli va ulov puli soliqlari olinadi.

Sheralixon Buxoro amirining hujumidan saqlanish maqsadida birinchi navbatda poytaxtni mustahkamlaydi. Sheralixon taxtga kelgan kundan boshlangan devor qurilishi shimol, janub va g'arbdan tomondan 18 (ba'zi ma'lumotlarga qaraganda 15 kunda) kunda tugallanadi. Devor qurilishi tugallanishi arafasida buxoroliklar yurishi haqida xabar keladi. Shaharning g'arbiy tomoni esa chim bilan himoya qilinadi. Buxorolik askarlarning hujumi shaharda sarosimaning boshlanishiga sabab bo'ladi. Shahar aholisining bir qismi Qoshg'arga, bir qismi esa Farg'onaning sharqiy taraflariga ketadi.

Vaziyat jiddiylashadi: g'arb tomondan Nasrulloxon qo'shinlari, Toshkent tarafdin esa amir buyrug'i bilan toshkentliklar hujum boshlaydilar. Sheralixon o'z kuchlarini ikkiga bo'lishga majbur bo'ladi. Qo'qon qo'shinlarining avangard qismi Konibodomda buxoroliklar bilan, Sirdaryo bo'yidagi Ashtda esa toshkentliklar bilan janglar olib boriladi. Ashtda qo'qonliklar mag'lubiyatga uchraydilar. Sirdaryoning o'ng sohili toshkentliklar qo'liga o'tadi. Sheralixonning mag'lubiyatga uchragan sarkardasi Muhammad Nazarbek tog'li hududlardagi qirg'izlarning masruk urug'i orasida yashiringan bo'li, tez orada qaytadan kuch to'plab, xonlikning shimoliy hududlarini qaytadan bosib oladi. Bu vaqtda Buxoro amiri o'zining asosiy qo'shinlarini Qoratepa qishlog'ida to'playdi. Bu yerda uch marotaba asosiy janglar davomida buxoroliklar mag'lubiyatga uchraydi. Birinchi jang Mo'yi Muborak deb ataluvchi Qoratepa qishlog'ida, Umarxon tarafdin qurilgan "Shoh chaman" deb ataluvchi bog'i atrofida, uchinchi jang esa To'qaytepa nomli qishloqda bo'lib o'tadi. Uchchala jangda ham qo'qonliklar g'alaba qozonadilar. Qo'qonning hali qurib bitirilmagan himoya devorlari ostida 40 kun davomida ayovsiz janglar bo'lib o'tadi. Qo'qonliklar bu qadar uzoq davom etgan qurshovga bardosh beradilar. Bu vaqtda Sirdaryoning o'ng sohili orqali ba'zi amirlar oziq-ovqat bilan Sheralixonga yordam beradilar. Qamal paytida bosqinchilarga qarshi eng qattiq qarshilik ko'rsatganlar shaharning mahalliy aholisi bo'ldi.

Oziq-ovqatning yetkazib berilishiga qaramasdan qamal shaharliklar uchun og'ir bo'ldi. Chunki, oldingi yurish paytida amir xazinani butunlay Buxoroga olib ketgan edi. Harbiylarga pul o'rniga yorliqlar berilgan. Lekin bu yorliqlar kunimizga qadar yetib kelmagan. Yorliqlarni yozish asosan munshi va mirzalarga yuklatilgan. Mulla Mirza Olim ham ular orasida bo'lganligi uchun bu haqida ma'lumot qoldirgan.

Qo'qonga to'qqiz marta qilingan hujum ham qo'qonliklar qarshiligini sindira olmadi. Bu vaqtda Xiva xoni Olloqulixon Buxoroga hujumini boshlaydi. Bu esa Nasrulloxonni Qo'qon qamalini to'xtatib, Buxoroga qaytishiga majbur qiladi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, qo'qonliklar iltimosiga ko'ra, yordam tariqasida bu hujumni amalga oshirgan. Bu esa qo'qonliklarning buxoroliklar ustidan g'alaba qozonishida muhim rol o'ynagan.

Nasrulloxonning Qo'qon xonligiga qilgan yurishi og'ir oqibatlariga olib kelgan. Nasrulloxon Konibodomda 300 asirga olingan qo'qonliklarni qatl etadi. Zulm shu darajaga yetdiki, hech bir zamonda bunday zulm bo'lmagan edi. Bu xabarni eshitgan Sheralixon asirga olingan barcha buxoroliklarni qatl ettiradi. Asirga olinib, qatl etilganlarning soni uch ming kishini tashkil etgan.

1258 (1842-1843)-yil Sheralixon Toshkentni egallash maqsadida o'g'li Mallaxon Bahodir va qirg'izlardan Yusuf mingboshi boshchilida qo'shni jo'natadi. Bir necha janglardan so'ng Toshkent egallanadi. Shundan so'ng Bo'ka qal'asi bosib olinadi.

Nasrulloxon hujumi paytida buxoroliklar tomoniga o'tgan Muhammadsharif otaliq qo'qonliklar tomonidan asir olinib, keyinchalik qatl etiladi. Shunday qilib, oldin Qo'qon xonligiga bo'ysundirilgan janubiy Qozog'iston yana xonlik tarkibiga kiritiladi.

1258-yili Xo'jand jangsiz Qo'qonga qaytarib olinadi. Dastlab, Xo'jandga hokim etib Xudoyorbiyni, bir oydan so'ng esa o'g'li Abdurahmon devonbegini shaharga hokim etib tayinlaydi.

1259 (1843)-yil Ibrohim otaliq (Olimxonning o'g'li) Beshariqda xonlikka qarshi isyon ko'taradi. Isyon bostirilib, Ibrohim otaliq qatl etiladi.

Butun Qo'qon xonligida isyonkor amirlarning harakatlari bostirilsa-da, hokimiyat uchun ichki siyosiy kurashlar to'xtamadi. Madalixon davrida Qo'qon xonligi o'zining eng rivojlangan davri bo'lib, uning davrida xonlik hududi 5 ming kvadrat milyaga, aholisining soni esa taxminan 2 million kishiga yetgan edi. Shu bilan birgalikda, XIX asrning 40-60-yillarida Buxoro amirligi bilan kurash xonlikda boshbashdoqlik va qulashining eng asosiy sabablaridan biri bo'lgan. Lekin, bu xonlik inqirozining yagona sababi bo'lmagan. Xonlikdagi ijtimoiy-iqtisodiy inqiroziga sabab qisqacha qilib aytganda, Buxoro amirligi hujumi va ichki siyosiy kurashlar xonlik inqiroziga sabab bo'lgan omillardan edi. Bunday ahvolning eng asosiy sababi o'troq aholi orasidagi aristokratlar bilan ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi aristokratlari orasidagi kurash edi.

Madalixon davridayoq hukmron tabaqa vakillari orasida o'zgarishlar amalga oshirilgan edi. Buxoro amirining hujumi esa saqlanib qolgan eski feodal hukmron tabaqa vakillari hukmronligiga batamom barham berdi.

Xonlikda iqtisodiy hokimiyat uchun o'zbek va qirg'iz zodagonlari, bir tomondan o'zbek-qipchoq zodagonlari orasida ayovsiz kurash boshlandi. Qipchoqlar nafaqat markaziy boshqaruvda, balki viloyatlar boshqaruvida ham asosiy mansab egalari aylana boshladi. "Mirotul-futuh" muallifi "...shaharlardagi asosiy boshqaruv qipchoq va qirg'izlar qo'liga o'ta boshladi", deb yozadi. Bu kurash bir necha yillar davomida ayovsiz kurashga aylandi.

Mahalliy va rus mualliflari ma'lumotlariga ko'ra, qipchoqlar asosan Farg'ona vodiysining sharqiy hududlarida yashaganlar. "Mirotul-futuh" muallifi qipchoqlarni "...Andijon va O'sh oralarida yashaydilar", qipchoq va qirg'izlardan iborat bo'lgan jublig'ish qabilasi Ikki suv orasida yashaydi, deb yozadi. O'sh qirg'iz-qipchoq qabilasi yashaydigan asosiy markaz edi.

Qipchoqlar ko'p urug'li qabila bo'lgan. Mulla Shavqiy o'zining "Jangnoma" asarida yozishicha, ular orasida qulon urug'i Qo'qon xonligi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida XIX asrning 40-yillari va 50-yillari boshida muhim rol o'ynagan. Mashhur mingboshi Musulmonqul shu urug'dan bo'lgan. Qo'qon xonligi hujjatlarida o'lmas nomli qipchoq urug'i haqidagi ma'lumotlar uchrab, bu urug'dan xonlik siyosiy sahnasiga Hotamqul chiqqan. Bu urug' asosan Sirdaryoning chap qirg'og'ida yashagan. Qipchoqlarning navbatdagi urug'i elatan bo'lib, bu urug'dan xonlik siyosiy hayotida muhim rol o'ynagan arboblardan biri O'tambiy yetishib chiqqan. Qipchoqlarning yashik nomli urug'idan esa Mirzod chiqqan. Mulla Xolbek va Muhammadyorlar iti qashqa nomli urug'dan chiqqan bo'lib, ular xonlikda qonli to'qnashuvlar va qardoshlar o'rtasidagi kurashlarning asosiy ishtirokchilari bo'lganlar. Bu urug' vakillari yetti yil davomida Namangan viloyatini boshqarganlar, hatto Shahrixon shahrini butunlay vayron bo'lishida faol ishtirok etganlar. Mashhur Aziz parvonachi ham qipchoqlardan bo'lib, u lo'liyon urug'iga mansub edi.

Millatning shakllanishida qipchoqlar muhim rol o'ynaganlar. Qipchoqlar yarim ko'chmanchi aholi bo'lganlar. Ular xonlikning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy haytida muhim rol o'ynab, qo'shinning asosiy qismini ham qipchoqlar tashkil etgan.

Qipchoqlar oldingi davrlarda ham xonlik haytida muhim rol o'ynaganlar. Masalan, XVIII asr Abdulkarimbiy davri qalmlqlarning Farg'onaga yurishlarida qipchoqlarning yosh jangchilaridan biri uch kun mobaynida qahramonona jang qiladi va halok bo'ladi. Halok bo'lgan qahramon jangchi Qo'qondagi O'tab bakovul bog'iga dafn etiladi. Uning sharafiga keyinchalik mozar yeri vaqfqa beriladi va unga "kalon go'riston" nomini oladi.

Qipchoqlar jangda oxirigacha qahramonona jang qilganlar va jang maydonida chekinmaganlar. Ular Parvona dashtidagi jangda Jaloliddin Manguberdi foydalangan uslubda jang qilar edilar.

Xonlikda yerga va boshqa manbalarga ega bo'lish uchun kurash natijasida qipchoq aslzodalari bir qancha shafqatsiz voqealarga ham sababchi bo'lganlar.

Masalan, Sheralixon hukmronligining birinchi yilida Abdurahmonbek (Sarimsoqbek) boshchiligidagi qipchoqlar Xo'jand va Nav tumaniga O'ratepani bo'ysundirish uchun yuborilgan edi. Lekin qipchoq jangchilari O'ratepaga yurishni davom ettirishdan bosh tortadilar. Shunda Abdurahmonbek poytaxtga qaytishga majbur bo'lgan.

Qo'qonning o'zida qipchoq zodagonlari orasidagi norozilik kundun-kun ortib borayotgan edi. Sheralixonning vaziyatni o'nglash uchun qilgan harakatlari behuda ketgan. Qipchoqlarning ochiqdan-ochiq qarshi chiqishlari xonni yanada jiddiyroq chora ko'rishga harakat qilishiga majbur qiladi. Xonning oxirgi ko'rgan chorasiga javoban asirlikda tutilayotgan qo'qonlik va qirg'iz aslzodalari kechasi poytaxtdan chiqib, Andijon va Shahrixonga to'planadilar. U yerga yuborilgan Sheralixonning elchilari Abdurahmonbek va Yusuf mingboshilar Musulmonqul boshchiligidagi qipchoqlar bilan muzokaralar olib boradilar. Xonning vakillari o'zaro muzokaralarda qipchoqlar shartlarinig bir qismi qabul qilinadi. Xonning o'zi esa qipchoqlarga nisbatan munosabatini o'zgartirishga majbur bo'ladi. Bu esa boshqa feodal guruhlarining noroziligiga sabab bo'ladi. "Mirotul-futuh" muallifining ma'lumotiga ko'ra, bu feodal guruhlar Olimxon va Umarxon avlodlari ichidan xonlik taxtiga nomzodlar izlashga kirishadilar.

Yusuf mingboshining poytaxtga qaytib kelgach, amalidan olinib, Marg'ilonga hokim qilib jo'natiladi. Uning o'rniga mingboshi etib farg'onalik tojiklardan Shodi dodxoh tayinlanadi. "Tarixi jahonnomayi" muallifi ma'lumotiga ko'ra, yangi bosh vazir juda shafqatsiz bo'lib, u kimni yomon ko'rsa, uni o'ldirishi mumkin edi. Mulla Olim u haqida, uning davrida soliq zulmi yanada oshgan edi, deb yozadi.

Bu davrda xon hokimiyati sezilarli darajada zaiflashdi, tez orada esa butunlay qo'yotildi. Buni shu bilan tushuntirish mumkinki, Sheralixon qipchoqlar isyonini bostira olmasdan, ketma-ket yon bera boshladi. U qipchoqlar tazyiqi ostida xonlikning iqtisodiy-siyosiy hayotida muhim rol o'ynaydigan bir qancha aslzodalarning yerlarini musodara qiladi. Yangi bosh vazir sifatida qipchoqlarning ashaddiy tarafdorlaridan biri Karimqul mehtarni Andijon hokimi, harbiy rahbar etib Musulmonqulni tayinlaydi. Qipchoqlar va andijonlik harbiylar Namangan viloyatini butunlay qo'lga kiritadilar. Xonlikni qardoshlarning o'zaro qonli urushlari qamrab oladi. Musulmonqulning isyonida qirg'iz va qipchoqlardan tashqari, Ikki suv oralig'ida yashovchi yuz va qurama qabilalari ham qatnashadilar. Musulmonqul qipchoq, qoraqalpoq, qirg'iz, shu bilan birgalikda, junbog'ish, turk, tojik, arab va boqa xalqlarga yordam so'rab murojaat qilib, yordam evaziga ularga turli va'dalar berib, turli

shaharlarga hokim etib tayinladi. Isyonda qatnashgan qabila va urug'lar Musulmonqul va'dasi yoki yanada aniqrog'i zo'rlik bilan isyonda qatnashishga majbur bo'lganlar.

1260 (1844)-yil Sirdaryo bo'yidagi Chustdagi bo'lgan ikki jangda Shodi mingboshi va kichik yoshda bo'lgan Xudoyorxon boshchiligidagi xon qo'shinlari mag'lubiyatga uchraydi. Toshkentdan kelgan yordamchi kuchlar esa poytaxtni qamal qiladilar.

“Mirotul-futuh” muallifi ma'lumoticha, Musulmonqul o'z harakatlarini oqlash maqsadida, go'yoki bu harakatlari xonga qarshi emas, balki bosh vazirga qarshi qaratilgan. Go'yoki, xon o'zi unga yorliq jo'natib, uni devonbegi (Abdurahmon – Sheralixonning katta o'g'li) va Shodi dodxohdan qutqarishni so'ragan emish. Aholining qipchoqlarga qarshi harakati natijasiz tugab, poytaxt egallanadi.

O'rda qurshab olingandan so'ng Sheralixon qipchoqlar tomonidan oq kigizga o'tqazilib, ikkinchi marta xon deb e'lon qilinadi, ammo butun hokimiyat to'lig'icha Musulmonqul qo'lga o'tadi. Markaziy va viloyatlardagi butun hokimiyat qipchoq aslzodalari qo'lga o'tadi. O'tambiy qipchoq Marg'ilon hokimi etib, Ko'r Siddiq Andijon hokimi etib, Mirzat Namangan hokimi etib, Sher Kirovchi hokimi etib, Normuhammad Toshkent hokimi etib, Norbaxshi Xo'jand hokimi etib tayinlanadi. Karimqul mehtar esa dasturxonchi, Qulbobo esa udaychi lavozimlariga tayinlanadilar. Musulmonqul boshchiligidagi qipchoqlarning o'zboshimchaliklari butun hudud bo'ylab tarqaladi. Qipchoqlar tomonidan mulk, sun'iy sug'orish tizimi va yerlarning o'zboshimchalik bilan egallab olinishi, madrasalardan ulamolarning quvg'in qilinishi, mullalarning xo'rlanishi, kitoblarning yoqilishi aholining noroziligiga sabab bo'lgan.

Musulmonqul harakatidan norozi bo'lgan qirg'izlar xonlikning sharqiy hududlarda, ya'ni O'sh va Oloy tog'lari tarafda isyon ko'taradilar. Isyon ko'targan ko'plab qirg'izlar Modu manzilida to'planib, O'sh va uning atroflariga hujum qiladilar. Bu isyonga bargi qabilasidan Olimbek dodxoh, kasik qabilasidan Saidbek dodxoh, tuylus qabilasidan Po'lat dodxoh va boshqa qirg'iz aslzodalari boshchilik qilganlar. Lekin isyon Musulmonqul tomonidan bostiriladi. Feodallar orasidagi o'zaro kurashlar, Sheralixonga ishonchsizlik qipchoq feodallari orasida fitna uyushtirilishiga sabab bo'ladi. Ular Sheralixonning poytaxtda yo'qligidan foydalanib, 1261/1845-yil Olimxonning o'g'illaridan biri Murodxonni xonlik taxtiga o'tqazadilar.

Voqealar rivojining bunday tus olishi Sheralixonning isyonkorlarga nisbatan qat'iy pozitsiya olmaganligida edi. Murodxon hokimiyat tepasiga kelishi bilan Sheralixon qatl etiladi.

Tayanch iboralar

Farsax, islohot, zindiqiy, diniy islohot, yollanma q o'shin, xon tituli, fitna, xilxona, Rajab devonbegi, Ahmad Yassaviy maqbarasi, amir al mo'minin, otaliq, o'roqi kalon, qozi askar, fayziy, miri asad, sadr, inoqi kalon, sudur, jilov qushbegi, Qoshg'ar, g'azavot

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Olimxon hukmronligi davrida qanday islohotlar o'tkazishga harakat qilgan?
2. Olimxon o'tkazgan harbiy islohotning mohiyatini qanday izohlaysiz?
3. Olimxon tomonidan o'tkazilgan diniy islohotning mohiyati nimadan iborat?
4. Qo'qon xonligi tomonidan Toshkentning bosib olinishi sabablari haqida nimalarni ayta olasiz?
5. Olimxonga uyushtirilgan fitnaning sabablari haqida nimalarni bilasiz?
6. Umarxon hukmronligi dastlabki davrida qanday siyosat yuritgan?

7. Qo‘qon xonligi tarixiga oid qaysi manbada Umarxon davri tarixi chuqurroq yoritilgan?
8. Umarxonning qo‘shni davlatlar bilan diplomatik munosabatlari sabablarini aniqlang?
9. Muhammad Alixonning taxtga o‘tirishi voqeasi manbalarda qay tarzda yoritilgan?
10. Muhammad Alixon va Xon Poshsho oyim o‘rtasidagi munosabatlar manbalarda qay tarzda yoritilgan?
11. Muhammad Alixonning Qoshg‘arga yurishi va uning sabablarini aniqlang.
12. Muhammad Alixon hukmronligining inqirozi va uning sabablarini aniqlang.

3-mavzu: XIX asrning o'rtalari va ikkinchi yarmida Qo'qon xonligi. Xonlikning tugatilishi

Reja

- 1. Qo'qon xonligida Xudoyorxon hukmronligining birinchi davri**
- 2. Mallaxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligi va Toshkentning bosib olinishi**
- 3. Xudoyorxon hukmronligining uchinchi davri va xonlikning tugatilishi**

<p>1. Qo'qon xonligida Xudoyorxon hukmronligining birinchi davri</p>

Murodxonning taxtga kelishidan norozi bo'lgan qipchoqlar, qirg'izlarning abaxat urug'i va poytaxt aslzodalari Andijonda Sheralixonning kichik yoshdagi o'g'ili 14 yoshli Xudoyorxonni taxtga o'tqazadilar. Xudoyorxon u davrda Namangan hokimi edi. Murodxon esa bor-yo'g'i 11 kun xonlik taxtida o'tirgan. U Musulmonqul tarafidan qatl etiladi. Uning qisqa vaqt hukmronligi davrida tarafdorlari nafaqat o'rda taladilar, balki aholidan xiroj yig'ishga ham ulgurgen edilar.

Murodxonni taxtga kelishida poytaxt aslzodalaridan tashqari, Musulmonqulga qarshi bo'lgan qirg'iz urug'i vakillari ham asosiy rolni o'ynagan edilar. Hokimiyat uchun kurash qabilalar o'rtasidagi kurashga aylanib ketdi. Qipchoqlarga qarshi kurashuvchi guruhlar muvaffaqiyatga erisha olmadilar.

Qipchoqlarga qarshi kurashda ruhoniylar sinfi ham faol rol o'ynadi. Yirik mulla va shayxlar qipchoqlarga qarshi jabha olganliklari uchun qatl etildilar. Masalan, Rahmatillo mingcha dodhoh, Sotiboldi dodxoh, Oxun dodxoh va hokazolar. Namanganlik shayxulislom Zokir xoja, juma masjidi mudarrisi Xalfa Safo, Xolmuhammad rais domulla, Xo'jamquli a'lam domulla, mavlaviy Ahmad Qashshoq Andijoniy o'g'li Sulaymon xoja va hokazolar ham qatl etiladilar. Aholining asosiy qismini tashkil etgan dehqonlar ommasi esa bu kurashdagi fatnashuvi umuman sezilmagan. Masalan, yangi xon Murodxonga qasamyod qilish uchun o'rdaga hech kim bormagan, aholi unga qasamyod qilishdan bosh tortib, boshqa hududlarga ko'chib ketgan.

Atigi 14 yoshida taxtga chiqqan Xudoyorxonning hokimiyati nomigagina edi. Markaziy va viloyatlardagi butun hokimiyat qipchoq aslzodalari qo'lida edi. "Jangnoma" muallifiga ko'ra, qipchoqlarga xon hokimiyatiga qarshi urush e'lon qilgan edilar. Xudoyorxon Musulmonqulning qat'iy nazorati ostida edi. Nafaqat xon, balki, xonga yaqin bo'lgan odamlar ham mustaqil harakat qilish imkoniyatidan mahrum qilingan edi. Masalan, Sheralixonning o'g'illaridan biri Mallaxon Musulmonqulga bo'ysunuvchi Jabborquliga tobe 200 kishilik otryadga rahbarlik maqomida edi xolos.

Musulmonqul bosh vazir maqomini egallab, Xo'jand va Toshkentni jangsiz qo'lga kiritadi. Qo'qonga muzokaralar uchun kelgan Abdurahmonbek qatl etiladi. Muslmonqul boshchiligidagi qipchoqlarning o'zboshimchaliklari xonlikning butun hududiga tarqaladi. Shavqiyning ma'lumotiga ko'ra, qipchoqlar mutavalli mansablarini egallab, masjid, madarasa va mozorlarga tegishli vaqf yerlari daromadlarini o'zlashtira boshlaganlar.

Shavqiyning ma'lumotiga ko'ra, qipchoqlarga boyish bo'yicha juda mohir bo'lib ketdilar, ular oltin qilich tutib yuradigan, qimmatbaho sallalar o'raydigan, baxmal kiyimlar kiyadigan, bezaklar taqib yuradigan, san'atkarona yasatilgan uylarda yashaydigan, qimmatbaho otlarda sayr etadigan bo'ldilar. Xalqning yetishtirgan mahsulotlarini ham tortib

oladigan, hatto chorvog'ida bitta terak o'sib turgan bo'lsa o'shanga ham ko'z olaytiradigan bo'ldilar.

Nalivkinning ma'lumotiga ko'ra, qipchoqlar Qo'qon atrofidagi manzillarga ko'chib kelishlari kerak edi. Mahalliy aholi joylaridan quvg'in qilinib, bo'sh yerlar qipchoqlar zo'rlik bilan tortib olindi. Qipchoqlar boshqa urug' qizlariga uylanishgan vaqtda va'da qilingan qalin pulini ham bermaydigan bo'ldilar. Ariqlar qipchoqlarning shaxsiy mulki deb e'lon qilindi, dehqonlar ariqlardan foydalanganliklari uchun qipchoqlarga soliq to'lashlari kerak edi. Hatto cho'ldagi yerlarni ham o'z holiga qo'ymanlar. Musulmonqulning boshboshdoqligi haddan oshib ketgan edi. Masalan, 1261/1845-yil Qo'qonda Eski O'rdadagi bozorlardan (yangi bozor) biri hududida joylashgan yuzlab odamlarning xususiy mulki bo'lgan do'konlar joylashganligiga qaramasdan, ularni sotib yuborgan.

Qipchoqlar juda katta yer-mulklarga ham egalik qilar edilar. Masalan, 1261, 1263, 1269-yillarda Musulmonqul Andijon va Ikki suv oralig'idagi hududda, Andijonagi Avushka masjidi, Mingtuttdagi madrasa (Yangiqishloq hududida) yerlarini vaqfqa had'ya qilib, ularni soliqdan ozod qilgan. Qipchoqlar orasida bu paytda o'troqlashuv jarayoni nihoyasiga yetgan. Bu davrda Farg'ona vodiysida qipchoqlarning o'troqlashuvini ko'rsatadigan "Qishloq qipchoq qo'rg'on", "Mavze qipchoq qo'rg'oni" yoki qisqacha qilib aytganda, "Qipchoq qishloq" nomli manzilgohlar paydo bo'la boshladi.

Musulmonqulning bunday harakati hatto qipchoqlar yirik amaldorlari orasida ham norozilik uyg'otgan. Masalan, 1846-yilda qipchoqlarning yirik amaldorlari O'tambiy qushbegi, Muhammadyor dodxoh, Mulla Karimqul dasturxonchi, Qulbobo risolachi, Mulla Xolbek parvonachi va boshqalar Musulmonqulni hokimiyatdan chetlatishadi. Musulmonqul o'rniga Mulla Xolbek o'tqaziladi va unga qushbegi unvoni beriladi.

Qipchoqlarning butun hukmronligi davrida xonlik hududida o'zaro urushlar to'xtovsiz davom etgan. Xalq soliq og'irligidan aziyat chekkan. Bunga qarshi 1847-yilda Toshkentda isyon ko'tariladi.

Mulla Xolbek vaziyatni yumshatish uchun ba'zi bir islohotlarni o'tkazishga harakat qilgan. Masalan, ilgarigi ruhoniylar sinfiga oid bo'lgan ba'zi mulklarni egalariga qaytarib bergan. Lekin bu vaziyatni yumshatmagan. Musulmonqul tarafdorlari hokimiyat uchun kurashni davom ettirganlar.

1847-yildagi o'zaro urushlar natijasida Musulmonqul yana hokimiyat tepasiga qaytib keladi. U mingboshi lavozimiga tayinlanadi.

Bu davrda Qo'qonning g'arbiy qo'shnisi bo'lgan Buxoro amirligi bilan munosabatlari yaxshi emasdi. Madalixon davrida qo'ldan berilgan O'ratepa ikki marta uyushtirilgan yurish natijasida ham qo'lga kiritilmagan edi. Musulmonqulning ikkinchi marta hokimiyat tepasiga kelishi bilan Buxoro amiri Qo'qonga yurish uyushtiradi. Buxoroliklar Xo'jandni qamal qilib, atrofdagi aholini talaydilar. Faqat Musulmonqulning kelishi buxoroliklarni chekinishga majbur qiladi. Buxoroliklarning chekinishi sababi sifatida Mulla Mirza Olim shunday fikr bildiradi: Musulmonqul Sirdaryoning chap sohilidagi Jiydalik qishlog'iga kelib, Buxoro amiriga tobelik haqida maktub yozadi va shu sababli buxoroliklar Xo'jand qamalini to'xtatib, chekinadilar.

Musulmonqul askarlari buxoroliklar ketganidan so'ng O'ratepani qamal qilsalar-da uni egallay olmaydilar. Shundan keyin O'ratepaga ikki marta yurish qilinadi va oxir-oqibat O'ratepa Qo'qonga bo'ysundiriladi.

O'ratepa hokimligiga Isabek tayinlanadi. Lekin tez orada u xonlikka qarshi isyon ko'taradi. Musulmonqul unga qarshi ikki marta yurish qilishga majbur bo'ladi.

1848-1849-yillarda o‘zaro feodal urushlari natijasida Musulmonqul guruhi ikkinchi marotaba hokimiyatdan ag‘dariladi. Musulmonqul Chust hokimligiga tayinlanadi. Bosh vazirlikka Muhammadyor dodxoh tayinlanadi. Bundan foydalangan O‘ratepa aholisi yana isyon ko‘taradi. Lekin qo‘zg‘olon yangi mingboshi boshchiligidagi qo‘shin yordamida bostiriladi.

Qo‘qonning O‘ratepaga har bir yurishi ko‘plab odamlar hayotini tugashi va juda katta moliyaviy sarflarga sabab bo‘layotgan edi. O‘sha 1265/1848-1849-yillarda O‘ratepaga qilingan yurish haqida ma‘lumot qoldirgan “Tarixi jahonnomayi” muallifi O‘ratepa zindonida 200 ta qo‘qonlik qamalanganligi, ular havoning juda issiqligidan kasallikka chalinib vafot etganliklari, asir tushgan 900 ta o‘ratepaliklarning kallasidan minora yasalganligi va muallif uni o‘z ko‘zi bilan ko‘rganligini yozib qoldirgan. Lekin O‘ratepa hokimi qarshilik qilishni davom ettirgan. 1849-1852-yillari Qo‘qon xonligida asirlikda yashagan sibirlik Milyushin va Batarishkinlar ma‘lumotlariga qaraganda, 1850 va 1851-yillari qo‘qonliklar O‘ratepaga 5 marta yurish qilganlar. Lekin har safar muvaffaqiyatga erisha olmaganlar. Faqat 1852-yildagina O‘ratepa o‘z hohishi bilan Qo‘qonga bo‘ysungan.

Musulmonqulni hokimiyatdan ketishi bilan ham markaziy hokimiyat uchun kurash to‘xtamagan. Mingboshi lavozimi uchun kurashga Musulmonquldan tashqari, Muhammadyor mingboshi, Mulla Xolbek, Rahmonquli dodxoh ham qo‘shilganlar.

Musulmonqul hokimiyatni qaytarib olish maqsadida Chustdan o‘z qo‘shini bilan yo‘lga chiqadi, lekin mag‘lubiyatga uchrab, Andijonga jo‘natiladi. U shu yerda hokimiyat uchun kurashni davom ettirgan. Musulmonqul hokimiyatni qaytarib olish uchun endi kurashga musulmon ruhoniylarini ham jalb etadi.

Masalan, o‘sha davrdagi yirik eshonlardan biri bo‘lgan Xoja Xalfa Safoni jalb etadi. Bu shayx vodiya juda katta obro‘ga ega bo‘lib, uning uyida juda katta amaldorlar mehmon bo‘lishar edi. Keyinchalik Muhammadyor mingboshi aynan shu xoja uyida zaharlab o‘ldiriladi.

Shuni aytib o‘tish o‘rinliki, Musulmonqulning hokimiyatga aralashmasligi Xudoyorxonning mustaqil xonligini kuchaytirar edi. Shuning uchun Xudoyorxonni imkoni boricha Musulmonqul dushmanlarini qo‘llashga intilar edi.

1265/1849-yilda Musulmonqul yana hokimiyat tepasiga qaytib keladi. Shunday qilib, Musulmonqul Xudoyorxon davrida uch marta hokimiyatdan ketib, uch marta uni qaytarib olishga muvaffaq bo‘ladi. Musulmonqulning hokimiyat tepasiga qaytib kelishi ham o‘zaro feodal urushlarni to‘xtatmaydi. Musulmonqul dushmanlari tez-tez ko‘cha janglariga chiqib, uni hokimiyatdan ag‘darishga harakat qilganlar. Lekin yakunda hokimiyat uchun kurashda Musulmonqul g‘alaba qozonadi. Muhammadyor zaharlab, Mulla Xolbek va Jumaboy va boshqalar qatl etish yo‘li bilan o‘ldiriladi.

Tez orada Musulmonqul raqiblari Toshkentga keladilar va shahar hokimi Normuhammadbek qushbegi bilan birlashib isyon ko‘taradilar. Isyonchilarga qarshi uch marotaba qo‘shin yuborilsada, Musulmonqul qo‘shinlari mag‘lubiyatga uchraydi va ko‘plab askarlarini yo‘qotadilar. Bu uch mag‘lubiyat oxir-oqibat qipchoqlar hokimiyatini ag‘darilishiga sabab bo‘lgan.

Musulmonqulning Toshkentga uchinchi yurishi 1268/1852-yilda sodir bo‘lgan. Bu yurish Qo‘qon xonligi qo‘shinlarining butunlay mag‘lubiyatga uchrashi bilan yakun topadi. Musulmonqul zo‘rg‘a qutulib, Chotqol tomonlarga qochadi. Sibirlik kazak Maksimovning so‘ziga qaraganda toshkentliklar Musulmonqulning qolgan barcha qo‘shinlarini Chirchiq daryosi bo‘yida mag‘lubiyatga uchratadilar va ko‘plab askarlar suvga cho‘ktiriladi.

Musulmonqul mag‘lubiyatga uchratilgach, Xudoyorxonning mustaqil hukmronligi boshlandi. Faqat xonlikning yuqori darajadagi amaldorlari Xudoyorxon oldiga qat‘iy talab qo‘yadilar, ya‘ni yarim ko‘chmanchi bo‘lgan qipchoqlar hokimiyatini butunlay tugatishni, ilgorigi yirik yer egaligini o‘rnatishni talab qiladilar.

Shundan so‘ng xonlik markazida alohida otryadlar qipchoqlar hukmronligiga qarshi isyon ko‘tara boshlaydilar. 1268-yilda Xudoyorxonning yaqinlaridan biri Xudoyqulibekning o‘g‘illaridan biri Abdullabek o‘z atrofida to‘plangan odamlar yordamida Qo‘qon o‘rdasini talaydilar.

Toshkentdan qaytib kelgan qipchoq qo‘shinlari Abdullabekni mag‘lubiyatga uchratadilar. Ular asirga olingan Abdullabek va saroy shoirlaridan biri bo‘lgan XIX asr I yarmi haqida muhim tarixiy asar yozgan Qori Qunduziyni qatl etadilar.

Yirik yer egalari va shahar yetakchilari Xudoyorxonga tayangan holda qipchoqlar hokimiyatiga qarshi isyonga tayyorlana boshlaydilar. Bunda Musulmonqulni Toshkentda mag‘lubiyatga uchrangani muhim rol o‘ynagan. Xudoyorxon qipchoqlarga qarshi kurashga toshkentliklarning yuqori darajadagi amaldorlarini ham tortishga harakat qilgan.

“Tarixi jahonnomayi” asari muallifining xabariga qaraganda, Xudoyorxon Qo‘qonga qaytib kelgach, Toshkent, Namangan, Andijon, Marg‘ilon shaharlariga qipchoqlarni ommaviy qirg‘in qilish haqida buyruq bilan elchilar yuborgan. Buyruqda “Butun yer yuzidagi qipchoqlarni qirib tashlash” buyurilgan edi.

Mulla Niyoz Muhammadning xabar berishicha, toshkentlik yirik amaldorlar qipchoqlarga qarshi mustaqil ravishda qarshi chiqqanlar, Xudoyorxon bo‘lsa dastlab betaraf pozitsiyada turgan. o‘sha davr mualliflaridan birining xabar berishicha, Xudoyorxon uzoq vaqtgacha Musulmonqulning taqdirini qanday hal qilishda ikkilanadi. Xalq uni qatl etishni talab qilayotgan edi. oxir-oqibat Xudoyorxon Musulmonqulni zindonga tashlashga majbur bo‘ladi. Lekin xalq ommasi bundan qoniqmagan. Natijada Xudoyorxon uni qatl etishga majbur bo‘ladi. Lekin o‘zining rahnamosini qatl qilganligi uchun gunohini yuvish maqsadida uning o‘g‘li Abdurahmon oftobachiga keyinchalik katta ehtiromlar ko‘rsatgan.

Shubhasiz shunday haqiqatni unutmash kerakki, Xudoyorxon bunday ustomon siyosatchini yo‘qotishni istamagan. Lekin butun xalq ommasining ta‘siri ostida Musulmonqulni qatl etishga majbur bo‘lgan edi.

Toshkentlik amirlar (ikkita ponsod) Qo‘qonga kelib, qipchoq qo‘shinlarini qamal qiladilar va qipchoqlarning ommaviy qirg‘ini boshlanadi. Keyingi yetti yil davomida qipchoqlarning amalga oshirgan ishlari ular uchun balo bo‘ladi. Qipchoqlar qayerga yashiringan bo‘lmasinlar, ularni topib qatl etadilar. Butun Qo‘qon xonligi hududida qipchoqlarni qirg‘in qilish boshlanadi. Masalan, Marg‘ilonda Mallabek boshchiligida qipchoqlarning 30 ta yirik vakili qatl etiladi.

Faqat qipchoqlarning bir qismigina qochib qutulishga muvaffaq bo‘ladilar. Xalq ommasi ko‘ringan qipchoqni joyida qatl etadilar. Shavqiyning ma‘lumoticha, odamlar qipchoqlarni qochayotgan tovuq kabi ovlaganlar.

Qipchoqlar qirg‘inidan keyin butun hukumat tarkibi ham o‘zgaradi. Bosh vazir etib Qosim ponsod, Toshkent hokimi etib Muhammad Niyoz ponsod tayinlanadi.

Xudoyorxon qo‘shimcha kuch to‘plab qipchoqlarning qochib qutulgan qismini ta‘qib uchun ular yashiringan joy Ikki daryo oralig‘idagi Bilqillamaga yo‘l oladi. Bu yerdagi jangda har ikki tomondan minglab odam halok bo‘ladi. Halok bo‘lganlar ichida Xudoyorxonning qaynotasi va mashhur jo‘ybor shayxlari avlodidan bo‘lgan Eshon Qozoq xoja ham bo‘lgan. Shunday qilib qipchoqlarga qarshi bu kurashda nafaqat eski yirik

amaldorlar, balki musulmon ruhoniylari ham qatnashadilar. Qiyinchlik bilan bo'lsada Xudoyorxon bu yerda g'alaba qozonadi.

Qipchoqlarga qarshi kurash Xudoyorxon talabi bilan Musulmonqulni asir olish bilan tugaydi va u poytaxtga olib kelinadi. Mulla Mirza Olimning xabar berishicha, shahar darvozasidan o'rdagacha har yuz-ikki yuz qadamda besh-o'nta qipchoq so'yib turiladi. Musulmonqul ko'z o'ngida uch kun mobaynida shahar markazida tayyorlangan maydonda har bir yoki ikki soatda uch yoki beshta qipchoq qatl etib turiladi. To'rtinchi kuni Musulmonqul qo'y bozorida dorga osiladi.

Maksimovning ma'lumot berishicha, odamlar shu qadar vahshiylik ketgan edilarki, hatto homilador ayollar ham qatl etiladi. Qipchoqlarni ommaviy ravishda qirg'in qilishda eng oldingi saflarda bo'lganlardan biri Baliqchi hokimi Abdulqahhor dodxo juda qattiqqo'llik qilgan. Uning buyrug'i bilan bir kechada 1500 ta qipchoq so'yib tashlanadi. Qipchoqlar qochgan joylarida ham ochlik va qurg'oqchilikdan qirilib ketadilar. Hech qaysi odam qipchoqlarga joy berishga haqqi yo'q edi.

“Tarixi jahonnomayi” asari muallifining ma'lumot berishicha, qipchoqlar qirg'inidan keyin Xudoyorxon Abdulqahhor dodxohni Ikki daryo oralig'iga maxsus yorliq bilan jo'natadi. Bu yorliqda u yerda qolgan barcha qipchoqlarni tutish va poytaxtga olib kelish topshirilgan edi. Dodxoh xonning buyrug'iga ko'ra, voyaga yetganlar bilan birga voyaga yetmaganlarni ham poytaxtga olib keladi. Abdulqahhor dodxoh qipchoqlarni tutishda g'ayrioddiy yo'l tutadi. U odamlarga “bug'doy” so'zini aytishni buyuradi. Agar odamlar bu so'zni “budoy” deb talaffuz qilsa uni darhol qamoqqa olganlar. Chunki qipchoqlar “bug'doy” so'zini hech qachon o'z holicha talaffuz qila olmaganlar. Bir rus sayyohining ma'lumot berishicha, qo'qonliklar qipchoqlarni qayerda tutib olsalar, uni shu yerning o'zida qatl qilganlar. Ular ayol, qariya, bolalar, kasallarga ham rahm qilmaganlar. Qipchoqlar qirg'ini uch oy davom etadi va shu davr mobaynida 20 000 qipchoq qirg'in qilinadi.

Nalivkinning yozishicha, Namanganda bir bola vahshiyliklar sodir etilgan paytdagi dahshatlarni ko'rib, uzoq vaqtgacha qo'rquvdan ko'chaga chiqa olmagan, bir necha kun davomida uxlay olmagan. Uning ko'z o'ngida dorga osilayotgan yoki so'ib yuborilayotgan odamlarning tipirchilashlari gavdalanavergan.

Qipchoqlar qirg'inidan keyin butun hokimiyat Xudoyorxon qo'lida to'planadi. Xonlikdagi butun hokimiyat tizgini, shu bilan birga xon xonadonidagi mansablar butunlay yirik yer egalari va shahar amaldorlari qo'lga o'tadi.

Qipchoqlar qirg'ini va davlat mansablariga boshqa odamlarning qo'lga o'tishi ichki siyosiy kurashni to'xtatmagan. 1269/1853-yilda Xudoyorxon tomonidan O'ratepa hokimligiga tayinlangan yuz urug'idan bo'lgan G'afforbek isyon ko'taradi. Xonning katta akasi Toshkent hokimi Mallabek ham isyon ko'taradi va Kerovchi qal'asini qamal qiladi. Xudoyorxon O'ratepaga yurishni to'xtatib, Toshkentga qo'shin yuborishga majbur bo'ladi. Toshkent isyoni bostiriladi va Mallaxon Buxoroga qochishga majbur bo'ladi. Shu bilan birga O'ratepa qo'zg'oloni bostirilib, Yom va Zomin ham Qo'qonga bo'ysundiriladi.

Bu davrda musulmon ruhoniylari ham boylik to'plash dardiga tushgan edilar. Chunki ularning hali ham xonlik fuqarolari va xon ustida ta'sirlari kuchli bo'lgan. Masalan, qipchoqlar qirg'inidan keyin Andijon hokimligiga tayinlangan Isobek xalqdan soliq sifatida yiqqan 3000 tilla miqdoridagi pulni Xudoyorxon tomonidan tayinlangan islom ruhoniysi Eshon Xalfa Oltmishga saqlash uchun topshiradi. Isobek uni qaytarib olishni istagan paytda eshon uni qaytarib berishni istamaydi va uni saroy to'ntarishini qilishda ayblaydi. Xudoyorxon uning so'ziga ishonib, Isobekni qatl qiladi.

Ma'lumki, XIX asrning 40-yillarida Rossiya Qo'qon xonligiga shimoliy hududlariga bosqinni kuchaytiradi. XIX asrning 50-yillarida rus qo'shinlari shimoliy Qozog'istondagi xonlikka qarashli yerlarni bosib olgan edilar. Qozog'iston hududidagi Oygerik vodiysidagi chumeev va chiklik urug'lari xonlikka zakot to'lashni to'xtatgan edilar. Shuning uchun Oqmachit begi Yoqubbek 1851-yilda bir necha marotaba yurish qiladi. Har bir yurish minglab chorvaning yo'q qilinishi va odamlarning qatl etilishi bilan tugaydi. O'z navbatida rus qo'shinlari ham xonlik qo'shinlariga qarshi bir necha marotaba jang qiladilar.

Xudoyorxon Rossiya bilan aloqalarni yaxshilash uchun 1853-yilda sovg'a va yorliq bilan elchi jo'natadi. 1853-yil iyul oyida elchi Omsk shahriga keladi. Elchilik Qo'qon xonligi va Rossiya o'rtasida do'stlik aloqalari davom ettirilishi haqidagi kelishuvga erishishga ishontiriladi.

Lekin rus imperatori maxsus buyruq bilan Qo'qon elchilarining bundan buyon Omskdan u yog'iga o'tkazmaslikni buyuradi. Hatto xonning yorlig'i va sovg'alari ham shundayligicha qoladi.

1269 (1852-1853)-yilda Perovskiy boshchiligidagi rus qo'shinlari Oqmachitni bosib oladilar. Rus qo'shinlari Oqmachitga yaqinlashib kelib, Yoqubbekdan ko'chmanchilardan talangan 12 ming kumush tangani qaytarib berishni talab qiladi. Lekin Yoqubbek bu talabni rad qiladi. Natijada ikki o'rtada jang boshlanib, Oqmachit ruslar tomonidan bosib olinadi. Oqmachitni bosib olinishi natijasida Sirdaryo chizig'i tashkil etiladi va Oqmachit bundan keyin O'rta Osiyoni bosib olishni davom ettirishda tayanch qal'a vazifasini o'tay boshladi.

Shunday qiyin ahvolga qaramasdan na xon, na Toshkent hokimi Mallabek Oqmachit yordam yubormaydilar. Shu davrda Toshkentga yangi hokim etib tayinlangan Shodmonxoja bir necha minglik Toshkent, Qurama va Qo'qon qo'shini bilan 1270/1853-yilda Oqmachitga qarab yo'lga chiqadi. Lekin bu yurish muvaffaqiyatsiz tugaydi.

Shu yili dekabrda Xudoyorxon yana bir necha minglik qo'shinni 17 zambarak (boshqa ma'lumotlarga qaraganda 15 ta zambarak) va bir necha yuzta "qora qunduz" nomli miltiq bilan qurollangan Qosim mingboshi boshchiligidagi qo'shin jo'natadi. Yo'lda ularga Qurama va Ohangaron qo'shinlari ham qo'shiladi. Toshkentliklarning yurishni bahorgacha qoldirib turish haqidagi qattiq iltimoslariga qaramasdan xon yurishni to'xtatmaydi. Oqmachitga bu safargi yurish ham muvaffaqiyatsiz tugaydi.

Bor-yo'g'i ming kishilik rus qo'shinlari qo'qonliklarga to'satdan hujum qilib mag'lubiyatga uchratadilar. Qo'qonliklar yaradorlar va butun qurol-yarog'larini jang maydoniga tashlab chekinadilar.

Qo'qonda endigina rus qo'shinlari haqida ob'ektiv baho berila boshlanadi. Shuning uchun Xudoyorxon har ikki yurishdagi mag'lubiyat uchun amirlarni jazolamaydi, ular g'olib deb hisoblanib, o'z mansablarida qoldiradi, hatto ularga qimmatbaho kiyimlar taqdim etiladi.

Shu davrdan boshlab, Xudoyorxonning mustaqil hukmronligi boshlanadi. Xudoyorxon shimoliy viloyatlardan iborat alohida o'lka tashkil qilib, uni boshqarishni Mirza Ahmadga topshiradi. U o'zining qattiqqo'lligi bilan qirg'izlarda qahr-qazab uyg'otadi. Buning natijasida 1857-yilda xonlikning shimoliy qismi qo'zg'olon bilan qurshab olinadi.

Umuman qozoq cho'llaridagi ko'chmanchilar bir necha marotaba Qo'qon xonligining soliq zulmiga qarshi isyon ko'taradilar. Masalan, shulardan biri 1274/1858-yilda sodir bo'ladi. "Tarixi jahonnomayi" asari muallifi bu voqealar haqida shunday yozadi: "Mirza Ahmad parvonachi (Toshkent hokimi) aholidan hatto qush puli, ko'k puli kabi soliqlarni talab qiladi, aholi buning uchun yosh qiz va o'g'illarini sotishga majbur bo'ladilar. Har bir

qabila va urug' soliq siyosatiga qarshi turadilar, ular soliq to'plovchilarga talab qilingan soliqni bermaydilar".

Muhammad Solihning ma'lumotiga qaraganda, ko'chmanchilarning ko'plab yilqilari bo'lib, ular yilqilar uchun soliq to'lamaganlar. Soliqchilar esa bu yilqilar uchun soliq talab qilganlar. Bundan norozi bo'lgan aholi kechasi Mirzabiy (Mirza Ahmadning amakivachchasi) soliq to'plovchilari bilan birgalikda o'ldiradilar. Dashti Qipchoq aholisi Qo'qon xonligiga bo'ysunishdan bosh tortadi. Ular dirham va falsda bo'lsin soliq to'lashdan bosh tortadilar. Dashti Qipchoqdan Turkiston shahrigacha bo'lgan hududlardagi aholi xonlikka qarshi qo'zg'olon ko'taradi.

Mirza Ahmad 1274/1858-yilda qo'shin to'plab, qo'zg'olonchilar ustiga yurish qiladi. U Olmaotada to'xtab, So'ftay biyga qarshi beshta ponsod boshchiligida Pishpekka qo'shin yuboradi, lekin bu qo'shin qo'zg'olonchilar tomonidan mag'lubiyatga uchratiladi. Ko'chmanchilar Mirza Ahmad parvonachi turgan Avliyootani qamal qiladilar. Toshkentlik vazir Mirzabiy boshchiligida zakot to'plash uchun Chimkentga yuborilgan qo'shin siparquli (sirg'ali bo'lishi mumkin), qo'ng'iro't va boshqa qabilalar tomonidan mag'lubiyatga uchratiladi. Mirzabiy va yaqinlari o'ldiriladi. Mirza Ahmadning Avliyootaga kelishidan keyin butun Dashti Qipchoq aholisi qo'zg'olon ko'taradilar. Arg'un, dug'lat, barlos, qo'ng'iro't, besh tamg'a, sanjiqli, sirg'ali, qang'li, qoraqalpoq va boshqa qabilalar Mirza Ahmad turgan qal'ani har tomondan qamal qiladilar.

Xudoyorxon Ahmad parvonachini qutqarish uchun Shodmonxo'ja va akasi Mallabek boshchiligida qo'shin jo'natadi. Xudoyorxon akasi Mallabekka shimoliy viloyatlardagi barcha qo'shinlar ustidan hukmronlikni qabul qilishni topishiradi. Qo'zg'olon qozoq ko'chmanchilari talablarini qisman bajarish bilan bostiriladi.

Xonlik hokimiyati mavqeining pasayishi va Oqmachitdagi ikki marotaba ruslardan mag'lubiyat yuqori tabaqalarda norozilikni kuchaytirib yuboradi. Mirza Ahmad parvonachi Toshkentdagi norozilikni bir qadar pasaytirish uchun bir necha islohotlar o'tkazadi. Shu maqsad bilan shaharda Payg'ambarimiz mo'ylari saqlanayotganligi haqida ovoza tarqatiladi va shu nomda 1859-yilda Mo'yi Muborak nomli maqbara qurdiradi. Yana Toshkentning eski shahar qismida katta ariq qazdiradi. Ariq Taxtapullik Jumanbiy boshchiligida hashar yo'li bilan barpo etilgan va vaqflarga qarashli bir qancha yerlarni suv bilan ta'minlash imkonini beradi. Mirza Ahmad shu yo'l bilan islom ruhoniylarining noroziliklarini bir qadar pasaytirishga muvaffaq bo'ladi.

Xudoyorxon hukmronligi turli voqealarga, jumladan, siyosiy ahvolning murakkablashuvi, markaziy hokimiyat uchun kurashning kuchayishi va Sharqiy Turkistonda xalq harakatining faollashuvi bilan xarakterlanadi. Xalq harakatining kuchayishi va o'n minglab odamlar emigratsiyasi xonlikning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotiga ta'sir etmasdan qolmasdi.

Nalivkinga ko'ra, sobiq qo'zg'olonchi va xonning qaynotasi Musulmonqulning qatl etilishi Xudoyorxonga xonlikni mustaqil ravishda boshqarish imkonini beradi. Xudoyorxonning yoshligi va tajribasizligi butun ko'rinishlari bilan namoyon bo'ladi. Natijada xon avlodlari va to'ralar davlat markaziy hokimiyatiga intilishlarini davom ettiradilar.

1271 (1854-1855)-yil Xudoyorxonning Andijonga yurishida Qo'qonda Maxdumi A'zamning avlodlaridan biri ona tomonidan Norbo'tabiyga bog'langan Rustam to'ra isyon ko'taradi. Isyondan oldin u o'z odamlari orqali viloyatlardagi yuqori darajadagi amaldorlarga o'zini qo'llash haqida maktublar yuborgan edi. Lekin mingboshi

boshchiligidagi qo‘shin yordamida isyon bostiriladi. Shu davrda poytaxtda ham xonga qarshi isyon ko‘tariladi. Xon amaldorlaridan shahardan ba‘zilarini quvib yuboradilar, ba‘zilarini esa qatl etadilar. V.Nalivkin poytaxtdagi qo‘zg‘olon sababi sifatida qipchoqlarga tegishli yerlarni xon tomonidan kuch bilan bilan bo‘lsada sotib yuborilishida edi deb izohlaydi. Poytaxtdagi qo‘zg‘olonga kelib chiqishi haqida manbalarda hech qanday ma‘lumot bo‘lmagan Mirza Munavvar boshchilik qilgan. Faqat shunisi aniqki, u bir qancha vaqt yashirib yurishga va keyinchalik poytaxtga qaytib kelib, Xudoyorxon qo‘shinida mirzaboshi sifatida ishlagan, keyinchalik Toshkentga jo‘natilib, u yerda qatl etiladi. Qo‘zg‘olonning shafqatsizlarcha bostirilishidan keyin ko‘plab aholi o‘z shaharlarini tashlab ketishga majbur bo‘ladilar. Rustamxon to‘ra bo‘lsa xonlik hududidan chiqib ketishga majbur bo‘ladi, faqat Mallaxon davridagina qaytib keladi.

1272 (1855-1856)-yilda kelib chiqishi Qorateginlik bo‘lgan Safar to‘ra qatl etiladi. U umrining oxirida shaharning Degrez mahallasida yashagan edi. U xonga tegishli bo‘lgan bir necha soxta muhr orqali viloyat hokimlariga xat yo‘llab ulardan juda katta pul va qimmatbaho tovarlar to‘plagan edi.

Siyosiy ahvoning murakkablashuvi, feodallarning hokimiyat uchun kurashining kuchayishi, chegarasi yo‘q qotilliklar, qatllar va xalq ommasini talashlar manbalarda yetarlicha o‘z aksini topgan.

Qipchoqlar qirg‘inidan keyin ham xalq ommasining ahvoli yaxshilanmadi. Xonning xalqqa nisbatan shafqatsizligi, shaxsiy boylik orttirish uchun qattiq harakat qilishi va bu yo‘lda xalqning qattiq ekspluatatsiya qilishi, mahalliy amaldorlar o‘rtasidagi hokimiyat uchun kurashlar hatto xon xonadoni a‘zolari o‘rtasida ham norozilikni kuchaytirib yuboradi.

Nalivkinga ko‘ra, “Xudoyorxon hukmronligi davrida yuqori darajadagi amaldorlarning noroziligi va qo‘zg‘olonlari kundan-kunga kuchayib borayotgan edi. Hokimiyat uchun kurashda xonlikning deyarli barcha darajadagi amaldorlar qatnashayotgan edi. Bu narsa xonlikda anarxiyaning kuchayishiga sabab bo‘layotgan edi. Natijada xonlikda qattiqqo‘llik, qattiqqo‘llik esa norozilikni kuchaytirayotgan edi. Xonning yosh bo‘lishidan foydalanib, hokimiyat doimo turli qo‘llarga o‘tayotgan edi. Ular esa o‘z foydalari uchun xalqni hohlagan ahvollariga solayotgan edi”.

Shunday qilib, XIX asrning 50-yillari oxirida xonlikning ichki va tashqi ahvoli og‘irligicha qolayotgan edi. Oqmachit qal‘asida xonlik qo‘shinlarining mag‘lubiyati, ruslarning mamlakat shimoliy hududlariga kirib kelishi xalqning noroziligini yanada kuchaytirib, muxolif kuchlarning faollashuviga olib keldi. Xon qo‘zg‘olonlarni bostirishga muvaffaq bo‘lsa-da, shimoliy hududlarda aholining noroziligi kuchayib borayotgan edi.

Bu davrda Buxoro amiri ham xonlikning ichki ishlariga aralishish uchun qulay payt poylayotgan edi. Qipchoqlarning yuqori tabaqalarining amallaridan olinishi va qipchoqlar qirg‘ini aholi uchun hech qanday yengillik keltirmadi. Bunga misol sifatida Rustamxon to‘ra qo‘zg‘olonini ko‘rsatish mumkin. Bu davrda nafaqat qipchoqlar, balki qirg‘iz amaldorlari ham amallaridan olingan edi.

Xonlikning ichki va tashqi ahvoli og‘irligiga, xazinaning bo‘shligiga qaramasdan shaxsiy boylik orttirishga intilishi ham xalqning qahru-g‘azabini kuchaytirayotgan edi.

Bularning barchasi Xudoyorxon hokimiyatining kuchsizlanishiga olib keladi. 1274 (1857-1858)-yilda O‘ratepada Rustamxon to‘ra yana xonga qarshi isyon ko‘taradi. Xonlik qo‘shinlari xon boshchiligidagi qal‘ani qamal qiladilar. Shahar qamalga bardosh beradi. Chekinishdan keyin xonlik qo‘shinlari Oqsuv vohasida mag‘lubiyatga uchratiladi. Faqat chuqurlikka tushib o‘ldirilganlarning o‘zigina ming kishini tashkil etgan edi. O‘ratepaga

yurishdan oldin qoraqalpoq Fozilbek mingboshi lavozimiga tayinlangan edi. Mingboshi 600 ta jangchisi bilan o'ratepaliklarga asir tushib, Buxoroga jo'natiladi va u yerda qatl etiladi.

Muhammad Solihning xabar berishicha, Xudoyorxonning bu yerdagi yo'qotishi 12 ming kishini tashkil etgan edi. O'ratepaliklarga asirga tushgan qo'qonliklar keyinchalik har biri 250 tilla tangadan tovon evaziga qaytariladi.

Xudoyorxon o'z qo'shinini tashlab, o'zi poytaxtga qarab qochadi. Poytaxtga yetib kelgach o'ziga tarafdor guruhni axtarishga tushadi va bu maqsadda o'zini Xalifa Oltmishning muridi deb e'lon qiladi.

Shundan so'ng Xudoyorxon markaziy hokimiyatga shafqatsizligi bilan nom chiqargan shaxslarni tayinlay boshladi. Masalan, bosh vazir etib Toshkentning sobiq hokimi toshkentliklar juda yomon ko'rgan, qozoq cho'llari ko'chmanchilarining ashaddiy dushmani Ahmad parvonachini, dasturxonchi etib yaqinlaridan biri Do'stmuhammadni tayinlaydi.

Xudoyorxonning O'ratepadagi mag'lubiyati amir Nasrulloxonga qo'l keladi. U O'ratepani qo'lga kiritib, Xo'jandni qamal qiladi. Xudoyorxon poytaxtni himoya qilishga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Bunday vaziyat xonning akasi Mallabekka qo'l keladi. Xudoyorxondan norozi bo'lgan amirlar, ayniqsa qirg'iz va qipchoqlar Mallabekni quvvatlaydilar. Mallabek yordam so'rab Qorasuvdagi yirik qirg'iz feodallaridan biri Olimbiy ibn Hasanbiyga murojaat qiladi. U Mallabekka rozilik beradi. Jiddiy yordamni qo'lga kiritgan Mallabek Qo'qonga yurish qiladi. Yo'lda unga xonlikning sharqiy hududlaridagi amirlar ham qo'shiladilar. Yormozorda o'sha davrning yuqori darajadagi amaldorlari tomonidan xon deb e'lon qilinadi.

2. Mallaxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligi va Toshkentning bosib olinishi

Mallaxon shimoliy viloyatlar qo'shini qo'mondoni bo'lib olgach, qo'zg'olonchilarning gunohidan o'tish, ularni avf etishni ma'lum qiladi. O'lponlarni olib tashlaydi. Natijada Toshkent va butun shimoliy hududlarda yaxshi mavqega ega bo'lib oladi. U ko'p o'tmay xonlikni boshqarishda o'z huquqlarini

ochiqdan-ochiq bildiradi va qo'shinini yig'ib, poytaxtga yurish boshlaydi. Mallaxon va Xudoyorxon o'rtasidagi jang Rashdan qishlog'i yaqinida sodir bo'ladi va jang natijasida Xudoyorxon mag'lubiyatga uchraydi. U poytaxtga keladi va bir necha kundan keyin poytaxt Mallaxon qo'shinlari tomonidan qamal qilinadi. Qamalning 21-kuni Xudoyorxon o'z amirlari bilan Buxoroga qochadilar.

1275/1858-yilda Mallaxon Qo'qon xonligi taxtini egallaydi. Mallaxonning hokimiyat tepasiga kelishi bilan qipchoq va qirg'izlarning yuqori darajadagi amaldorlari hokimiyat tepasiga qaytib keladilar. Masalan, Xo'jand hokimligiga qirg'iz Saidbek doxoh, Andijonga qirg'iz Olimbiy doxoh, Nov qal'asiga qirg'iz Mulla Qosimlar tayinlanadilar. Mallaxonning harbiy sarkardalari nomlari orasida qipchoqlarning nomlarini uchratishimiz mumkin: O'tambiy qushbegi, Irisali, Normuhammad qipchoq va hokazolar.

Mallaxon hokimiyat tepasiga kelgan paytda Xo'jandgacha bo'lgan yerlar Buxoro amirligi tomonidan bosib olingan edi. Shuning uchun eski hududlarini qaytarib olish maqsadida Mallaxon 1276/1860-yilda Qoratepinga Marg'ilon hokimi Qanoatshoh boshchiligida qo'shin jo'natadi. Mallaxon shu bilan birgalikda yangi amirlik taxtiga chiqqan Muzaffarxonga qarshi kurashni ham boshlaydi. O'sha davrda Shahrisabz yangi amirga qarshi isyon ko'tarib, mustaqilligini e'lon qilgan edi. Bu kurashlar oxir-oqibat O'ratepagacha bo'lgan yerlarni Qo'qon xonligiga qaytarib olish bilan yakunlanadi.

1277/1861-yilda Mallaxon Toshkentga shimoldan kelayotgan rus qo‘shinlariga qarshi kurash uchun qo‘shin jo‘natadi. Mallaxon Olimbiy dodxoh, Shodmonxo‘ja, Qanoatshohlar boshchiligida 15 mingdan ortiq kishilik qo‘shin jo‘natadi. Lekin yurish davomida sarkardalar bir-birlari bilan kelisha olmaydilar va yakunda qo‘qonliklar ruslardan mag‘lubiyatga uchraydilar.

Xonlik ichidagi kelishmovchiliklar va noroziliklar tufayli Mallaxon ruslarga yon berishga majbur bo‘ladi. Lekin 1278/1862-yilda Xo‘jand orqali ruslarga qarshi yurishga tayyorlanadi. Lekin qo‘shinning qarshiligi tufayli bu yurish qoldiriladi. Bu vaqtda Xudoyorxon Mallaxonga qarshi yurish uchun Zominni egallaydi. Sarkardalarning Mallaxonga qarshiligi kuchayib boradi. Tez orada 1862-yil fevral oyida Mallaxon fitna oqibatida o‘ldiriladi. U mamlakatni 3 yilu 4 oy boshqaradi.

Mallaxon haqida turli mualliflar turlicha ma‘lumot beradilar. “Tarixi jahonnomayi” asarida u islom ruhoniylarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlaganligi, ularga turli tortiqlar berganligi, uning davrida din yaxshi rivojlanganligi haqida ma‘lumot beradi. Asarda yana uning davrida harbiylarga nisbatan qattiq sisat yuritilgan bo‘lsa, ruhoniylar, savdogarlar, hunarmandlar va dehqonlar yaxshi turmush kechirganlar.

Muhammad Solih ham Mallaxonning ruhoniylar sinfiga yaxshi munosabatda bo‘lganligi, ularning mashhurlarini turli yuqori lavozimlarga tayinlaganligi, xalqqa qarshi bo‘lgan amaldorlarni qattiq jazolaganligi haqida yozgan.

Boshqa bir rus muallifi Mallaxon haqida uni o‘ta shafqatsiz ekanligi, uning hukmronligi davrida shariatga rioya qilish juda qattiq nazorat qilinganligi, xotin-qizlarning ko‘chaga chiqishi qat’iyan ta’qiqlanganligi, erkaklarning sallasiz yurishlari mumkin emasligi, ichkilik ichish qattiq jazolanganligi, agar ichkilik ichgan odam tutib olinsa, uning bo‘yniga shishani osib butun shahar bo‘ylab sazoyi qilinar, keyin esa uni qatl etar edilar.

“Tasnifi g‘aribi” asari muallifining xabar berishicha, Mallaxon davrida har bir davlat amaldori mutlaqo shariatdan tashqari ishlar yuritishi mumkin emas edi. U hamma uchun majburiy bo‘lgan maxsus farmon chiqarib, shariat asosida bolalarni maktabga berish, savdogarlarni erkin savdo qilishlarini ta‘minlash, ulamo, mullalar va shayxlarni, kichiklar kattalarni hurmat qilish haqida qat’iy buyurgan edi. U o‘g‘rilikka qarshi qat’iy kurashgan. Bozorlarda narxlar arzonlashgan, qarzdorlarni o‘z vaqtida qarzlarini qaytarishlari nazorat qilingan. Shariatni buzganlar, harbiy xoinlar shariat bo‘yicha qattiq jazolangan.

1277 (1860-1860)-yil O‘ratepaga yurishdan keyin Mallaxon ingliz va qobullik elchilarni qabul qiladi. Qo‘qonda bo‘lgan tatar savdogari Fattoh Xidirov xabar berishicha, ingliz va afg‘on elchilari xon huzurida bo‘lgan, lekin xon ularning asl maqsadlarini bilmaydi, go‘yoki ular xonga narxi yigirma ming tillaga teng bo‘lgan oltin parchalarini olib kelganlar. Xon maxsus buyrug‘iga ko‘ra, Qanoatshoh elchilardan bahorgacha ikki ming pistolet va uch mingta pilt miltiq, uchta maxsus mutaxassis yuborishlari iltimos qilgan.

Qo‘qon xonligining siyosiy hayotida sobiq mingboshi Musulmonqulning o‘g‘li, qipchoqlar boshlig‘i Olimqul paydo bo‘ladi. Shu davrdan boshlab mamlakatda qipchoqlarning roli yanada kuchayadi. Xudoyorxon davrida qipchoqlardan tortib olingan barcha yerlar avvalgi egalariga qaytarib beriladi. Mallaxon hukmronlik qilgan davrda Qorategin viloyati Qo‘qonga tobe bo‘ladi va Xitoy bilan diplomatik aloqalar o‘rnatishga harakat qilinadi, lekin muvaffaqiyatga erishilmaydi. Bu vaqtda esa Rossiya qo‘shinlari qo‘qon xonligiga qarshi harbiy tazyiqni kuchaytirib, To‘qmoq, pishpek va boshqa qal’alarni bosib oladi. Mallaxon qo‘ldan ketan qal’alarni qaytarib olishga harakat qilgan, lekin bu harakatlari behuda ketgan.

1862-yil o'rtalarida Mallaxon bir necha fitnachilar tomonidan o'ldiriladi. Mallaxon fitna natijasida o'ldirilgach, uning o'rniga 17 yoshli Sheralixonning nabirasi Shohmurod xon deb e'lon qilinadi. Shohmuroidxon bobosi qotillarini ayovsiz qirg'in qiladi. Toshkent hukmdori Qanoatshoh hayoti xavs ostida ekanligini bilib, Toshkentni mustahkamlaydi va xonlik taxtini qaytarib berishni va'da berib, Xudoyorxonni taklif qiladi. Shohmurod xonlik taxtini saqlab qolishga urinsada, bunga muvaffaq bo'la olmaydi. Xudoyorxon ikkinchi marta Qo'qon taxtini egallaydi.

Mallaxon o'ldirilgach, taxtga Sheralixon nabiralaridan biri Sarimsoqbekning o'g'li Shohmurod o'tqaziladi. Bu voqelik xonlik ichida va tashqarisida ham norozilikka sabab bo'ladi. Bunday vaziyatni kutib turgan Xudoyorxon harakatni boshlaydi. Toshkentning yuqori darajadagi amaldorlari va ruhoniylari bu paytda Turkistonda turgan Qanoatshoh bilan birga yangi xonga qarshi turadilar.

Qo'qon xonlarining eski dushmanlaridan biri, O'ratepaning sobiq hokimi, bu paytda Sangzor qal'asi qo'mondoni Abdulg'affor Buxoro amiri nomidan Yom, Zomin va O'ratepani egallaydi.

Shohmurod vaziyatni o'nglash maqsadida Toshkentga yurish boshlaydi. U Toshkentga kelib shahar atrofida lager quradi va shaharni qamal qiladi. Shaar aholisini og'ir ahvolga solish maqsadida shaharni suv bilan ta'minlovchi kanalni buzib tashlaydi.

Shohmurodga yordam berish maqsadida Turkiston va Avliyoota hokimlari kelishadi, lekin ular shaharni taslim qila olmaydilar. "Tarixi jahonnomayi" asari muallifi bu voqeani quyidagicha izohlaydi: birinchidan, shahar mudofaasiga Qanoatshoh boshchilik qilayotgan bo'lib, u shaharni mudofaa qilishni yaxshi tashkillagan edi; ikkinchidan, Mulla Solih boshchiligidagi shahar ruhoniylari Shohmurodni Mallaxo nning qotili sifatida shahar aholisini mudofaaga tashviq eta oladilar. Nihoyat, Xudoyorxonning iltimosi bilan Buxorodan yo'lga chiqqan Muzaffarning qo'shinlari Shohmurodni shahar qamalini to'xtatib, qaytishga majbur qiladi. Qaytishda (Xo'ja Yagona degan joyda) farg'onalik amirlar o'rtasida janjal chiqadi, janjal natijasida bir necha sarkardalar qatl etiladi.

Toshkentdan Xudoyorxon, O'ratepadan amir Muzaffar yo'lga chiqadilar va Oqtepa (Sirdaryoning chap qirg'og'idagi joy) birlashadilar va Xo'jandni jangsiz qo'lga kiritadilar. Xudoyorxon tez orada Qo'qonni egallaydi.

Shahar qo'lga qiritilgach, ko'plab qipchoq va qirg'izlar qatl etiladilar. Ularning bir qismi qochishga muvaffaq bo'ladi.

Shunday qilib, 1278 (1862-yilning o'rtalari)-yilda Xudoyorxon ikkinchi marta taxtga qaytib keladi. Faqat Farg'onaning sharqiy hududlarida hokimiyatini o'rnatishga muvaffaq bo'la olmadi.

Buxoro amiri yordami tufayli Qo'qon honining o'ziga nomigagina bo'lsa-da tobe bo'lishini istar edi. Shu maqsadda u Aziz bin Rizo Marg'inoniyni Qo'qonga elchi sifatida jo'natadi. U 1278 (1862)-yilda maxsus yorliq bilan xon huzuriga keladi. Aziz Marg'inoniyning fikrlariga ishonadigan bo'lsak, Xudoyorxon amirga tobeligini tan oladi. Shunga qaramasdan, Buxoro va Qo'qon o'rtasidagi munosabatlari keskinligicha qoladi. Hatto Xudoyorxonning Buxoroga yuborgan elchisi Qanoatshoh qatl etiladi.

Xudoyorxonning eng katta dushmanlari bo'lgan qipchoq va qirg'izlar Olimqul (sobiq lashkarboshi) va Shodmonxo'ja (sobiq mingboshi) boshchiligida Xudoyorxonga qarshi kurashni davom ettiradilar. Ularning kuchlari asosan Quvada joylashgan bo'lib, dastlabki janglarda Xudoyorxon qo'shinlari mag'lubiyatga uchraydilar. Jangda har ikki tomondan

jami 6000 kishi halok bo‘ladi. Xudoyorxon atigi 800 kishi bilan qolib, Qobil (Quva atrofidagi qal’alardan biri)da saqlanishga majbur bo‘ladi.

Assakda o‘sha davr hujjatlariga ko‘ra, qal’a devorlarini qurgan hunarmandning o‘g‘li bo‘lgan Hayit Muhammad qipchoqlardan 20000 kishini to‘plab, o‘zini Muhammadalixonning o‘g‘li deb e’lon qiladi. Shunday qilib, xonlikda soxta xonlar paydo bo‘lgan.

Shu vaqtda Xudoyorxonga Eshonxon o‘zining ko‘p sonli muridlari bilan yordamga keladi. O‘zaro qonli urushlar uch oy davom etadi. Qipchoq, qirg‘iz va shahrixonliklar jang maydonini to‘satdan tark etib, himoyasiz qolgan poytaxtni bosib oladilar. Lekin Xudoyorxonning qiyinchilik bilan bo‘lsa-da poytaxtni qaytarib oladi. Tashviqot natijasida aholi qipchoqlarni qirg‘in qilishga kirishadi. Ahvol shu darajaga yetadiki, ba’zi o‘ralar qipchoqlarning jasadlari bilan to‘ladi. Qayerda qipchoq va qirg‘izni asirga olsalar, o‘sha yerdayoq qatl etish boshlanadi.

Bir necha qonli janglardan keyin qipchoq va qirg‘izlar o‘rdani vayron etadilar va Assakka chekinadilar. Ular yo‘lda duch kelgan aholi manzilgohlarini vayron qiladilar. Qipchoq va qirg‘izlar keyinchalik xonlikning shimoliy hududlari bo‘lgan Namangan, To‘raqo‘rg‘on va Kosonda ham bir necha marotaba bosqinchilik ishlarini amalga oshirganlar.

G‘arbda esa Isfara va Chaxorkuxa hokimi Bobobek xonga qarshi yurish boshlaydi. Isyon asosan So‘xda ko‘tarilgan. Mualliflarning ma’lumot berishlaricha, bu qo‘zg‘olonlarda asosan qipchoq va qirg‘iz amaldorlari muhim rol o‘ynaganlar. Ular Toshkent aholisi va feodallariga xat yo‘llab, ularni xonga qarshi isyon ko‘tarishga, hokimiyatni o‘z qo‘llariga olishga da’vat etadilar. Ularning Toshkentga yo‘llagan xatlarining mazmuni taxminan quyidagicha bo‘lgan: “Butun qipchoq, qirg‘iz, qozoq, qorqalpoq va boshqa uluslarning kelib chiqishi birdir. Bizning homiyimiz Shahruxon agar hokimiyatga kelsam, har bir ko‘chmanchi qabila va urug‘ boshliqlariga muhim mansablarni beraman deb va’da berdi”. Ular Toshkentni qanday yo‘l bilan bo‘lmasin, qo‘lga kiritishni, atrofdagi o‘troq dehqonchilik vohalarini talashni ta’minlash iltimos qilinadi.

Ko‘chmanchilar Toshkentni qamal qiladilar. Qamal qiluvchilar Beshyog‘och dahasidan shaharga kirishga muvaffaq bo‘ladilar, lekin aholi qiyinchilik bilan bo‘lsa-da qipchoqlarni shahar tashqarisiga surib chiqarishga muvaffaq bo‘ladilar.

Ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholi Xudoyorxon hukmronligidan shu qadar norozi edilar ki, toshkentliklar xonni shaharga taklif etganlarida Chinoz yaqinida qoraqalpoqlar xonni shaharga kirishiga to‘sqinlik qiladilar. Xudoyorxonga bunga qarshi qoraqalpoqlardan bo‘lgan bahodirboshi Do‘stmuhammadni jo‘natadi. U aholining yordami bilan xon buyrug‘ini bajaradi.

Toshkentda esa mahalliy aholi o‘rtasida hokimiyat uchun kurash kuchaygan edi. Mahalliy amaldorlardan biri Yo‘ldoshbek ko‘chmanchilar yordami bilan Toshkent hokimiyatiga kelmoqchi bo‘ladi. Unga yirik ruhoniylardan biri Mulla Solih oxun yordam beradi. Faqat Do‘stmuhammad va shahar aholisi yordami bilan bu qarshilik ham bostiriladi. Bu voqea shaharning o‘zida sanoqsiz davom etgan kurashlardan biri edi xolos.

“Xulosatul ahvol” asari muallifi ma’lumot berishicha, Mulla Solihbek aka-ukalar Qurbonbek va Yuldashbeklarni (shahar hokimi Rustambekning ukalar) Toshkent shahar hokimligiga keltirish maqsadida ko‘chmanchilarning biylarini yordamga chaqiradi. Ularning har biriga qimmatbaho sovg‘alar berib, Buxoro amiri va Qo‘qon xoni Xudoyorxonga maktub yozishga, aka-ukalarni Toshkent hokimligiga keltirishni so‘rab

maktub yozishga ko'ndiradi. Ammo Xudoyorxon bu maktubga javoban Do'stmuhammad bahodirni Toshkentga jo'natadi. aka-ukalar Mulla Solih bilan birgalikda 200 ta ko'ngilli (qora-kaltak) qattiq qarshilik ko'rsatadilar, hatto Do'stmuhammadni asir olishga muvaffaq bo'ladilar.

Ammo shu paytda Yo'ldoshbekka dushman guruh bo'lganlar Yusufbiy, Gadoy sarkor, Norjo'ja eshon (Toshkent qozisi otasi), Abulqosim sarkorlar boshchiligida unga qarshi kurash boshlaydilar. Ular Farg'onadan kelgan Sohibzoda eshon boshchiligida 12 ming kishilik ko'ngilli askarlar bilan qo'zg'olonchilarga qarshi kurash boshlaydilar. Qattiq janglar natijasida Yuldashbek chekinadi. Qarshilik qilganlar o'rdani egallab, Do'stmuhammadni ozod etadilar va qo'zg'olonchilar qo'shinlari mag'lubiyatga uchratadilar.

Xonlik xonadoni a'zolarining deyarli barchasi har doim xonlik taxtini egallashga harakat qilganlar. Bir paytlar Madalixonning o'g'li Qalandarbek Xorazmga asirlikka jo'natilgan edi. Amir Nasrullo uni ozod qilib, Buxoroga keltirgan edi. Qo'zg'olon ko'targan qipchoq va qirg'iz biylari o'zlari xon deb tan olgan Shohruhxon atrofida to'plana boshladilar. Lekin Shohruhxonning xonlik taxtiga o'tirishga hech qanday yuridik asosi bo'lmaganligi sababli, isyonchilar Madalixon o'g'li Qalandarbekni xonlik taxtiga munosib deb topadilar va unga 20 kishilik elchilik jo'natiladi. Qalandarbekka savdogar qiyofasi kiydirilib, Turkiston orqali Toshkentga olib kelmoqchi bo'ladilar. Lekin Xudoyorxon tarafdorlari buni o'z vaqtida payqab, ularni elchilari bilan birgalikda Turkistonda qatl etadilar.

To'xtovsiz davom etayotgan kurashlar tinch xalqni bezdirgan edi. Keng xalq nafaqat o'troq aholi, balki ko'chmanchilar ham bu hokimiyat uchun kurashni to'xtatishni talab qila boshladilar. Ular isyonchilardan bu kurashni to'xtatishni qat'iy ravishda talab qila boshladilar. Hokimiyat uchun kurash markazida bo'lgan qipchoqlarning quyi tabaqalari urushni to'xtatib, tinch, o'troq hayotga qayta boshladilar.

Lekin qipchoq va qirg'iz biylari qarshilikni davom ettirdilar. Qalandarbek qatl etilgandan so'ng isyonchilar Mallabekning 10 yoshli o'g'li Sulton Saidbekni xon deb e'lon qiladilar. Hatto Xudoyorxonning yaqinlari ham unga qarshi chiqib, Sulton Saidbek tomonga o'tadilar. Isyonchilar Andijon shahrini ishg'ol qiladilar. Isyonchilar uch oy ichida 40 ming ko'ngilli jangchi to'plashga muvaffaq bo'ladilar. Ko'ngillilar asosan o'shlik, aravonlik va oloylik qipchoq, qirg'izlardan iborat bo'lgan. Isyonchilar Andijon atrofidagi hududlar: Baliqchi, Quva, Assaq, Shahrixon, O'sh, Poytug' va boshqa shahar-qishloqlar aholisidan qo'shimcha soliqni kuch bilan oladilar. Ko'p oylik kurashlardan so'ng siyonchilar Marg'ilonni zabt etishga muvaffaq bo'ladilar va Qo'qonga qarab harakat boshlaydilar.

Jang bo'layotgan hududlar olov ichida qolgan, ekin maydonlari payhon qilingan, ko'plab gunohsiz odamlar o'ldirilgan edi. Qipchoqlarning Marg'ilonni olmaslaridan oldingi holat ham Xudoyorxonga qarshi bo'lgan edi. Masalan, xonlik qo'mondoni etib tayinlangan Mirza Ahmadga qarshi keng xalq ommasi norozi bo'lgan edi. Mirza Ahmad Marg'ilonga kelgach, Olimquli kabi noroziliklarga qarshi kichik-kichik otryadlar jo'natadi. Qipchoqlar bu yerlarni o'zlariga tezroq bo'ysundirish maqsadida va tinch aholi qarshiligini pasaytirish uchun suv yo'llarini buzgan va ekin maydonlarini payhon qilgan edilar. Natijada joylarda qimmatchilik boshlanadi. Masalan, 4 bog' beda 1 tanga, bir chaksa gurunch 4 tanga, bir chaksa un 2-2,5 tanga edi. O'sha davrga nisbatan otlar bozorlarda nihoyatda qimmat narxda sotilgan edi. Xalq ommasi bu qiyinchiliklardan shunchalik to'ygan ediki, butun xalq qo'zg'olonga chiqqan edi. Shaharning Qozi-guzar mahallasida qushbegi o'z qo'shini bilan isyonni bostirmoqchi bo'lgan paytda xalqni ko'rib fikridan qaytadi va qo'zg'olon

to'xtatilsa, isyonchilar talabalarini bajarishga va'da berib, u qo'shini bilan Qo'qonga qaytadi.

Bu paytda xonlikning deyarli barcha yerida xalq ommasining keng qarshilik harakati boshlangan edi. Masalan, butun ko'chmanchilar Xudoyorxonga qarshi qo'zg'algan edilar. 1863-yilning boshida jonis qabilasi boshlig'i Mo'minbek Chuybakov Chimkentni bosib oladi. Natijada Toshkent va Qo'qonning Avliyoota va Merka bilan aloqasi uziladi. Ba'zi qirg'iz urug'lari 300 ta ovuldan iborat bo'lgan Xudoyorxonning onasi mansub bo'lgan sora urug'iga hujum qiladilar. Buning natijasida Katta O'rda va Qo'qon xonligi o'rtasidagi savdo munosabatlari va karvon qatnovlari butunlay to'xtaydi.

Butun xalq ommasining keng noroziligi va ichki siyosiy kurashlar Qo'qon xonligi zaiflashtiradi. Natijada Xudoyorxon amir Muzaffardan yordam so'rashga majbur bo'ladi. Amir Muzaffar Xo'jandni egallaydi va 20 ming kishilik qo'shinni Qo'qonga jo'natadi. Lekin bu yetarli bo'lmay, amir Muzaffarxonning shaxsan o'zi Qo'qonga kelishga majbur bo'ladi. U Xudoyorxon bilan birlashib, Quvada joylashib olgan isyonchilarga qarshi yurish boshlaydi. Tarixchilar Mulla Niyoz Muhammad va Mulla Mirza Olimlar xabar berishlaricha, qo'zg'olonchilar O'zgarda qarab chekinadilar va Qora G'uljada istehkom quradilar.

Isyonchilarni kuch bilan ola olmasligini bilgan ikki hukmdor ular bilan tinchlik muzokaralarini boshlaydilar. Uzoq davom etgan muzokaralar natijasida isyonchilar o'zlariga qarshi kuchni ikkiga bo'lishga muvaffaq bo'ladilar. Xudoyorxon qo'shinlari bilan Xo'jandga chekinadi. Isyonchilar Buxoro amiriga tezda Farg'ona vodiysini tark etish talabani qo'yadilar. Voqealarning bunday rivojida isyonchilar talabini bajarishni ma'qul ko'rgan sarkardalar muhim rol o'ynagan edi.

Buxoro amirining Farg'onaga kelishi mutlaqo beg'araz bo'lmay, bu yurishda o'z davlatining qiziqishi muhim rol o'ynagan edi. Xudoyorxon o'zining ittifoqchisiga ishonmasa-da, hokimiyatining kuchsizligi amirga suyanishga majbur etgan edi.

Qo'qonda amir o'zini bu yerning mutlaq hukmdori sifatida tutgan, davlat yuqori lavozimlariga o'z odamlarini qo'ygan. Masalan, Andijon hokimligiga xo'jakalonni qo'ygan edi. Isyonchilar endi muzokaralarni Xudoyorxon bilan emas, Buxoro amiri bilan yurita boshladilar. Xudoyorxon mustaqil xon sifatida o'z faoliyatini deyarli to'xtatgan edi. V.Nalivkin ma'lumotiga ko'ra, Qo'qon xonligi Buxoro amirligi bilan qo'shilishi xalqqa e'lon qilindi.

1280 (1863)-yil boshida Muzaffarxon isyonchilar talabini bajarib, Xudoyorxon bilan Buxoroga qaytadi va 14 yoshli Shohmurodni xon deb e'lon qiladi. Lekin u qaytishda Qo'qonning mashhur ulamolarini, mashhur hunarmand va san'at ustalarini, shu bilan birgalikda Qo'qonda yashayotgan buxorolik savdogarlarni Buxoroga majburan olib ketadi. Bundan tashqari, buxoroliklar xonlik harbiy aslahalari va xazinaning butun boyligini olib ketadilar.

Shu bilan birgalikda, bu buxoroliklarning Farg'onaga yurish xarajatlari ham xarob bo'lgan aholi zimmasiga yuklatiladi. Natijada xalq ommasining noroziligi ortib ketadi. Qo'qonliklar va shahar atrofi aholisi buxoro otryadlariga hujum qila boshladilar. Buxoro amirligi qo'shinlariga qarshilik ortadi. Tez orada Shohmurodxon qipchoqlar tomonidan qatl etiladi.

Shunday qilib, ikki yil davom etgan qirg'inbarot urushlar xonliq iqtisodini butunlay vayron qiladi. Yana hokimiyat qipchoq va qirg'iz biylari qo'liga o'tadi. Hokimiyat uchun ikki o'rtadagi kurash ko'plab xalq ommasining qirg'in qilinishi bilan tugadi. Anarxiya

shunchalik avj oladiki, xonlik xonadoniga mansub shaxslar hokimiyatni boshqarishni yo‘lga qo‘ya olmaydigan darajaga yetadi.

Tinch aholining o‘zaro feodal urushlardan shu qadar tinkasi qurigan ediki, qipchoq va qirg‘izlar oxir-oqibat Xudoyorxon va Buxoro amiri ittifoqining taxtdan ketishi bilan tugallandi. Oqibatda amir vodiyni tashlab chiqadi.

1863-yil iyul oyi Marg‘ilonda Sulton Said Qo‘qon xoni deb e‘lon qilinadi. Olimquli boshchiligidagi Marg‘ilon ruhoniylar tabaqasi yangi xonni tan oladilar. Olimquli “amirul umaro” unvonini oladi. Olimquli hokimiyat tepasiga kelgach, qipchoqlar foydasiga ko‘plab shaxslarni lavozimidan chetlashtiradi. 1864-yil 4-yanvarda Sibir korpusi generali Dyugomelning Harbiy vazirga yuborgan hisobotida shunday so‘zlar yozilgan edi: “Qo‘qondagi tartibsizliklar to‘xtatilgandan so‘ng, xonlikda qipchoqlar ta‘siri kuchaymoqda. Sobiq sart amaldorlari o‘rnini asta-sekinlik bilan qipchoq va ...qirg‘izlar egallamoqda”. Toshkent hokimligiga qirg‘izlarning xo‘ja urug‘idan 67 yoshli Shodmonxo‘ja, u Olimquli tomonidan qatl etilgach, o‘rniga Normuhammad, Kerovchiga Yoqubbek, Turkistonga qo‘qonlik tojik, o‘rta yoshlardagi qattiqqo‘l Mirza Davlat tayinlanadi.

Aynan shu davrda Qo‘qon bozorlaridagi rus va ingliz tovarlari o‘rtasidagi raqobat kundan-kunga kuchayib bormoqda edi. XIX asrning 50-yillarida (1858-yil) keltirilishi qiyin bo‘lishiga qaramasdan bozorlar ingliz va rus tovarlari bilan to‘ldirila boshlandi. Qiyinchiliklarga qaramasdan Mashhaddagi yarmarkalar narxlar bilan rus tovarlarining narxi bir xil bo‘lgan. Faqat metall buyumlar: temir, cho‘yan, po‘lat va ulardan tayyorlangan mahsulotlar Rossiyadan keltiriladi edi. Ko‘plab ist‘emol tovarlarini Rossiya va boshqa mamlakatlardan keltirilishi Qo‘qon xonligining boshqa mamlakatlar iqtisodiga bog‘liqligini kuchaytirib bormoqda edi. Buning ustiga rus qo‘shinlari asta-sekinlik bilan Qo‘qon xonligi shimolidagi hududlarni birin-ketin bosib olmoqda edi. 1864- yilda Toshkent bekligiga qarashli bo‘lgan Merka qal‘asi ruslar tomonidan bosib olindi. Bir necha kundan keyin Avliyoota ham ruslar tomonidan bosib olindi. 1864-yilning yoz va kuzida birin-ketin Olmaota, Turkiston, Chimkentlar ham bosib olinadi.

1865-yil bahor va yozida esa rus qo‘shinlari Toshkentni qamal qilib, uni bosib oladilar. Sulton Saidxon Toshkentdan poytaxtga qaytib olti oy davomida dushmanga qarshi kurashga qattiq tayyorgarlik ko‘rgan.

Toshkent mudofaachilariga boshchilik qilgan Olimquli 1865-yil 22-may kuni yarador bo‘ladi. Toshkent himoyachilari esa jang maydonini tark etadilar. Qipchoq va qirg‘iz jangchilari esa oldinroq jang maydonini tark etib, Quramaga chekingan edilar. Toshkentliklar Buxoro amiridan yordam so‘raydilar. Buxoro amiri esa yordam uchun toshkentliklarning yuqori lavozimdagi 10 dan ortiq shaxslarini garovga berishni talab qiladi. Garovga talab qilinganlar ro‘yxati ichida Sulton Saidxon ham bo‘lgan edi. Uzoq mulohazalardan keyin Sulton Saidxon Buxoro amiriga taslim bo‘lishga rozi bo‘ladi. Lekin endi kech bo‘lgan edi. Buxoro qo‘shinlari yetib kelguncha Toshkent ruslar tomonidan bosib olinadi (1865-yil 29-iyun).

3. Xudoyorxon hukmronligining uchinchi davri va xonlikning tugatilishi

Omon qolgan qipchoq va qirg‘izlar Sirdaryo bo‘yida to‘planib, Shodibekning o‘n ikki yoshli o‘g‘li Xudoyqulibekni xon deb e‘lon qiladilar va poytaxtni egallaydilar. Keyinchalik Xudoyqulibek Belbog‘chi deb ham ataganlar. Mingboshi lavozimiga Muhammadbek tayinlanadi. Mirza Olimning xabariga ko‘ra, bu voqeaga

qipchoqlardan tashqari qo‘qonlik bir qancha sarkardalar ham hissalarini qo‘shadilar.

Lekin qipchoqlarga qarshi aholining noroziligi yangi xonni 14 kunlik hukmdorlikdan so‘ng mamlakatni tashlab chiqib ketishga majbur qiladi.

Xalq xon o‘rdasiga hujum qilib, uni talaydilar. Xalq qo‘zg‘oloniga o‘sha davrda yangi xonning 100 ming tilla miqdorida aholiga harbiy soliq solinishi sabab bo‘lgan.

Shunday qilib, xonlik taxtiga ikkinchi marta qaytib kelgan Xudoyorxon uzoq vaqt hukmronlik qila olmaydi. Buning yagona sababi esa, o‘sha davrda xonlikda mavjud vaziyat, bu vaziyatdan chiqish uchun islohotlar o‘tkazish, xalq ommasini talabalarini bir qismini bajarish o‘rniga Buxoro amiridan yordam so‘rashi, xalq ommasining qipchoq va qirg‘izlar hokimiyatdan aziyat chekkanligi, Xudoyorxonning esa bunga qarshi hech qanday tadbirlar olmaganligi sabab bo‘lgan edi.

Xudoyqulibek atigi 14 kun hukmronlik qilgan. So‘ngra barcha qimmatbaho narsalarini olib, Qoshg‘arga qochib ketadi. Xudoyorxon tezda hech qanday qarshiliksiz Qo‘qonni egallaydi.

Xudoyqulibekning poytaxtni tashlab ketganligi, mamlakatda ro‘y bergan parokandalikdan foydalanib, Xudoyorxon taxtni uchinchi marta egallashga harakat qiladi. Bu vaqtda u Buxoroda bo‘lib, yillik foydaning $\frac{1}{4}$ qismini berish sharti bilan taxtni egallashga yordam berishini so‘raydi. Amir Muzaffar qo‘shini bilan Jizzaxga keladi, Xudoyorxon esa uning buyrug‘i bilan Xo‘jandga yurish boshldi. Amir Muzaffar esa o‘z qo‘shini bilan Qo‘qonga yurish boshlaydi va 1865-yil 15-iyulda uni jangsiz egallaydi. Qipchoq va qirg‘izlar bu paytda Marg‘ilonda edi.

Amir Muzaffarning qipchoq va qirg‘izlarga qarshi jo‘natgan qo‘shini Moda qal‘asigacha ularni ta‘qib qiladilar. Shundan keyin Muzaffarxon Xudoyorxon boshchiligidagi qo‘shinni qipchoq va qirg‘izlarga qarshi jo‘natadi. Jangda qipchoq va qirg‘izlar yengiladilar va 3-4 ming atrofidagi qirg‘izlar Qoshg‘arga, Yoqubbek huzuriga ketadilar, qolganlari bo‘lsa Xudoyorxonga taslim bo‘ladilar. Rus mualliflarining ma‘lumotlariga qaraganda Xudoyorxon bu safar qarshilikda qatnashgan barcha qipchoq va qirg‘izlarni qatl ettiradi.

Lekin amir Muzaffarxon butun Farg‘onani bo‘ysundira olmaydi. Xudoyorxonni taxtga o‘tqazgach, xonlik harbiy aslahalari, xazinani, shu bilan birgalikda 400 nafar xotin-qizni olib Buxoroga qaytadi. Ma‘lumotlarga qaraganda, Muzaffarxon Qo‘qonda hech qanday qimmatbaho ashyo qoldirmaydi. Bu narsa xalq ongida uzoq vaqtgacha saqlanib qolgan va bu narsa xalq ongida Xudoyorxonni yaxshi inson sifatida saqlanib qolmasligiga sabab bo‘lgan.

Lekin bu bilan Xudoyorxon xonlikdagi qipchoq va qirg‘izlarning hokimiyatini tugata olmaydi. Xudoyorxon Marg‘ilon va O‘shda xonlik xazinasi uchun soliq olishi muvaffaqiyatsiz tugaydi. Qipchoq va qirg‘izlarning ko‘pchiligi endi xonlikka qarshi kurash uchun ruslar tomoniga o‘tadi. Umuman xonlikda qipchoq va qirg‘izlarning o‘zaro hokimiyat uchun kurashlari 27 yil davom etgan.

Xonlikdagi og‘ir vaziyat Xudoyorxonni yana amir Muzaffarga ruslarga qarshi birgalikda kurashish haqida murojaat qilishga majbur qiladi. Amir Muzaffarxon Jizzax va Xo‘jand yo‘nalishida Sirdaryo bo‘yidagi ruslarga qarshi yo‘lga chiqadi. Xudoyorxon amirga elchi sifatida kasonlik Bahodirxon to‘rani qimmatbaho sovg‘alar bilan jo‘natadi. Xudoyorxonning o‘zi esa Qo‘qondan qo‘shini bilan yo‘lga chiqadi. Amir Muzaffarxon Xudoyorxonni so‘zsiz bo‘ysunishini taxmin qilib, unga qo‘shini Jizzaxga kelishini buyuradi. Lekin bu paytda xonlikda avj olgan o‘zaro kurashlar, ruslardan mag‘lubiyatga uchrasa, hokimiyatni butunlay qo‘ldan ketishini istamagan Xudoyorxon ikkilanadi. Buning

ustiga, keyinchalik Sankt-Peterburga Qo‘qon elchisi bo‘lib ishlagan Mirza Hakim parvonachi maslahatiga ko‘ra, ruslarga qarshi kurashish aqlsiz ish ekanligi, Buxoro amiriga 10 000 kishilik qo‘shin jo‘natish bilan yetinish kerakligi haqidagi maslahati bilan o‘zining dastlabki qaroriga qarshi boradi.

Shundan keyingi ruslar bilan munosabatlarda Xudoyorxon faqat yon bergan. Hatto general-mayor Romanovskiya yozgan xatida “...mening bitta tilagim bor, u ham bo‘lsa oq poshsho meni haqiqiy do‘sti deb bilsin” degan fikrni aytgan edi. Hatto K.P fon Kaufman Turkiston general-gubernatori etib tayinlanganda, yuborilgan elchisi orqali Qo‘qon xonligi hech qachon ruslarga qarshi hech qachon urushga tayyorgarlik ko‘rmaydi, deb aytgan edi. Ruslar oldidagi qo‘rquv uning amirga bergan va‘dasiga to‘sqinlik qiladi.

Amirning dastlabki mag‘lubiyatidan keyin ruslar harakatlarini davom ettirib, 1866-yil bahor-kuzida Xo‘jand, O‘ratepa, Jizzaxni bosib oladilar va Samarqandga yurishga tayyorgarlik ko‘ra boshlaydilar.

Xudoyorxon uchinchi marta amir yordami bilan hokimiyatga qaytib kelgan bo‘lsa-da ruslarga qarshi amir tomonida turmaydi, ya‘ni va‘dasini bajarmaydi. Hatto ruslar Xo‘jandni bosib olganlaridan keyin Romanovskiya “tabrik va do‘stlik haqida” xat yozadi.

Rossiyaning Qo‘qon xonligiga nisbatan siyosatini va Orenburg general-gubernatori Krijanovski munosabatini Maksheev juda yaxshi ifodalagan edi: “urush, tinchlik emas”. Krijanovski Romanovskiya “Xudoyorxonni shaxs sifatida Rossiyaga vassallikka bo‘ysundirishga, agar qarshilik qiladigan bo‘lsa, uni tugatishni“ maslahat bergan edi.

Bu voqea Buxoro va Qo‘qon o‘rtasidagi aloqalarni butunlay uzib yuboradi. Buxoro ulamolari qo‘qonliklarni ruslarga qarshi kurshda yordam bermaganliklari uchun dindan qaytgan deb e‘lon qiladilar.

Yuqorida aytganimizdek, Xudoyorxon ruslar tarafidan Nov, Xo‘jand, O‘ratepani bosib olganlaridan keyin Toshkentga tabrik xatini yo‘llagan edi. Shu paytda Buxoro amiri tinchlik sulhini tuzish uchun kelish kerak edi. Krijanovski amirga sulh tuzish uchun quyidagicha shart qo‘yadi: amir qo‘llari bog‘langan holda kelishi kerak va Qo‘qonning Buxoroga emas, balki Rossiya protektoratida ekanligini tan olishi kerak edi. Bu shart bajarib bo‘lmas shart edi.

Ammo Xudoyorxon so‘zsiz Kaufmanning taklifiga rozi bo‘ladi va savdo shartnomasini tuzadi. Bu shartnoma Kaufman va Buxoro amiri o‘rtasida tuzilgan shartnomadan 6 oy avval tuzilgan edi. Ya‘ni taxminan 1867-yilning oxirida tuzilgan bo‘lib, u xonlikda o‘zaro kurashlarni to‘xtatishga va savdo ishlarini rivojlantirishga mo‘ljallangan edi. Shartnoma “Tinchlik va savdo shartnomasi” deb nomlangan edi. Unga ko‘ra, rus savdogarlari xonlik hududida hohlagan yerida savdo nuqtalari ochishlari, musulmon savdogarlari kabi 2,5 foiz miqdorida boj to‘lashlari haqida kelishib olindi. Shu bilan birga rus savdogarlarining xavfsizligi kafolati Qo‘qon xoni zimmasiga yuklatilgan edi. Lekin bu bilan ham xonlikdagi o‘zaro kurashlar to‘xtamagan. Qipchoq va qirg‘izlarning bir qismi Xudoyorxonga bo‘ysunishni istamay, amir Muzaffarxonga murojaat qilib, Sulton Saidni qaytarib berishni iltimos qilishga harakat qilganlar.

Shunday qilib, katta yo‘qotishlar evaziga bo‘lsada xonlikda tinchlik o‘rnatiladi. Hatto Xudoyorxon mustaqil tashqi siyosat olib borishdan voz kechadi. Kaufman bunday rozilik uchun Xudoyorxonga I darajali Stepan ordeni bilan mukofotlaydi.

Lekin bu tinchlik uzoq davom etmaydi. Mulla Olimning so‘zlariga ishonadigan bo‘lsak, xonlik ichidagi noroziliklar kundan-kun kuchayib boradi. Bunday tartibsizliklarning bosh sababi sifatida tadqiqotchilar katta hududini yo‘qotgan xonlik soliq sistemasining

buzilganligi, ya'ni xazinaning yetarli darajada to'lmaganligi edi. Yana ikkinchi sababi Xudoyorxon turli o'yin-kulgi, ko'ngilochar mashg'ulotlarining ko'pligi natijasida xazinaga katta zarar kelishi edi. Xazinani to'ldirish uchun aholini majburlash yo'li bilan soliq olinar edi. Xudoyorxon va uning atrofida soliqning bunday miqdorda ko'payishi sababi sifatida Rossiyaga to'lanadigan tovonni ko'rsatar edilar. Xudoyorxon, ayniqsa qirg'izlardan zakot solig'ini olishni izchilligini ta'minlash maqsadida soliq to'lashni istamagan odamlarni yakka tartibda qatl etishni yo'lga qo'ydi. Lekin qirg'izlar qarshilikni davom ettirganlar. Hatto bu kurashga Xudoyorxon siyosatidan norozi bo'lgan va Qoshg'ardan qaytib kelgan qo'qonliklar ham faol rol o'ynaganlar.

Bunday sharoitda xonlik sarf-xarajatlarini kamaytirish maqsadida Xudoyorxon armiyani qisqartirishga o'tadi. Qo'qon xonligi armiyasi u paytda yaxshi ixtisoslashmagan, sifati past qurollar bilan qurollangan, askarlarga juda kam maosh to'lanadigan holatda edi. Muhammad Aziziyning ma'lumotiga qaraganda, o'sha davrda xonlik armiyasi soni taxminan 25 ming kishini tashkil etar edi. Askarlar asosan o'q otar qurollar bilan qurollangan, askarlarga harbiy ishni Turkiya, Afg'onistondan taklif etilgan va qochoq rus mutaxassisleri o'rgatar edilar. Xonlik armiyasi asosan xonlik taxtini qo'riqlash va davlat siyosatini amalga oshirishga yordam beruvchi, Xudoyorxon siyosatidan norozi bo'luvchilarni bostirish bilan shug'ullanuvchi tashkilot darajasida edi.

Xonlikning doimiy armiyasi Andijon garnizoni bilan birgalikda qo'zg'olonlarni bostirish va asirga olinganlarni qatl etish bilan shug'ullanar edi.

Lekin shunga qaramasdan qirg'izlarning doimiy norozilik chiqishlari hech ham to'xtamagan. Masalan, qirg'izlarning Munduz qabilasi 1873-yil bahorida Ma'murbiy boshchiligida qo'zg'olon ko'taradilar. Qo'zg'olonning asosiy sababi zakotning oshirilishi edi. Ma'murbiy ko'p joylarni qo'lga oladilar. Lekin Xudoyorxonning kichik ukasi Sulton Murodbek boshchiligida jo'natgan qipchoqlardan iborat qo'shini bu qo'zg'oloni bostiradi.

Aholi xususan Xudoyorxon hukmronlik qilgan davrda ayovsiz soliqlarga duchor qilinadi. Xudoyorxon davrida yana yangi soliqlar o'ylab topiladi: ekilgan barcha mevasiz daraxtlarga, ko'mirga, tog'dagi yondirib yuborilgan son-sanoqsiz burganlarga, yoqilg'i uchun yig'ib olingan turli-tuman shox-shabbalarga, tikanaklarga, qamishlarga va tikanli yovvoyi o'simliklarga, pichanga, markazga tashib keltirilgan, bozordan sotib olingan va sotilgan har bir narsadan ham bir qancha chek (2 tiyin) olindi. Bularning hammasi metall va yuk tashish uchun xizmat qiladigan hayvonlarga solingan ilgarigi soliqlar ochko'z, xasis xonning qanchalik bitmas-tuganmas boyish manbai bo'lgan bo'lsa, fuqarolarning bor-yo'g'ini shilib, talab, yig'ishitirib olishi ular noroziligining kuchayishiga sabab bo'ldi.

Bu davrda yana bir qirg'iz lideri Musulmoqul Qirg'iz xonlikka qarshi qo'zg'olon ko'taradi. U keyinchalik bir necha qirg'iz qabilalarini birlashtirib qo'zg'oloni davom ettiradi. Hatto Buxoro amiriga elchi jo'natib, u yerda yashayotgan Po'latxonni (Olimxonning nabirasi) Qo'qon xoni bo'lishga ko'ndirishda yordam berishni so'raydi. Lekin Po'latxon ularga rad javobini beradi. Po'latxon qirg'izlarga ishonmaydi. Chunki Qalandarbek ularga kerak bo'lmay qolganda qatl etganlarini xotirlatadi. Bu elchilikning keyinchalik soxta Po'latxonni qay tariqa qo'zg'olon ko'tarishga rozi qilganligi manbalardan ma'lum.

Boshqa bir holatda Qo'qon xonligi fuqarolari hisoblangan qirg'izlarning bir yarim ming o'tovdan iborat bo'lgan 42 urug'idan o'sha vaqtdagi Xo'jand komendanti Nolde huzuriga elchilik keladi.

Lekin Turkiston general-gubernatorligi Qo‘qonning qonuniy hukmdorlariga nisbatan kelishuv yo‘lini tanlaydi. Ularni taxtdan ag‘darish uchun qirg‘izlarga yordam bermaydi.

Shunga qaramay qirg‘izlar Musulmonqul boshchiligida qo‘zg‘olonni davom ettiradilar. Xudoyorxon ularga qarshi amiri-lashkar Abdurahmon Oftobachi va Mulla Iso avliyolarni jo‘natadi. Xon qo‘shinlari 1873-yil sentyabr oyida qo‘zg‘olonchilar otryadini tor-mor etadi va ularni qatl etadilar.

1873-yilda Xudoyorxon tog‘larda o‘sadigan yovvoyi mevali daraxtlarni o‘rab olib, boj soladi va bu bojlarni yig‘ib olish uchun O‘shga ishonchli odamlarini yuboradi. Xalq bunga norozi bo‘ladi va soliqchilar haydab yuboriladi. Xudoyorxon bularga qarshi o‘z sarbozlarini yuboradi. Lekin qo‘zg‘olon bostirila olinmaydi. Qo‘zg‘olonchilar uzoq tog‘larga ketib qoladilar. Qo‘zg‘olonni bostirishga mas‘ul bo‘lgan Abdurahmon Oftobachi ular bilan muzokara olib boradi. Buning natijasida qo‘zg‘olonchilar Xudoyorxoniga 40 ta odamni vakil qiilib yuborishga qaror qiladilar. Abdurahmon Oftobachi qo‘zg‘olonning jiddiyligini tushunib, Xudoyorxoniga ilova xati – maktub yuborib, uni qanday bo‘lsa ham vakillar a‘zolarini tirik qoldirish va imkoniyati boricha ularning talabalarini qondirishni so‘raydi. Lekin Xudoyorxon shunga qaramasdan vakillar a‘zolarini o‘limga buyuradi, buning natijasida qo‘zg‘olon yangi kuch bilan birdan kuchayib ketadi.

Ana shundan keyin qirg‘izlarning qarshiligi kuchayib, soxta Po‘latxonni qo‘zg‘olonga da‘vat etadilar va shu tariqa Po‘latxon qo‘zg‘oloni kuchayib ketadi.

Qirg‘izlar qo‘zg‘oloni kundan-kunga kuchayib boradi. Qirg‘izlar xonlikning barcha yeridagi qarshilikni qo‘llay boshladilar. Shu bilan birgalikda Xudoyorxoniga qarshi Abudarhamon Oftobachining ham qarshiligi kuchayib boradi. Abdurahmon Oftobachi o‘sha Xudoyorxoniga yozgan xatidan keyin Laylakda yashovchi chapkunlik urug‘iga ansub qirg‘izlar ham Xudoyorxoniga qarshi qo‘zg‘olon ko‘taradilar. Ular Abdulakarimbek avlodlaridan biri Sarimsoqbekning o‘g‘lini xon etib ko‘taradilar. Xudoyorxon ularga qarshi 7 ponsoddan iborat qo‘shin jo‘natadi va qo‘zg‘olonni bostiradi. Lekin qirg‘izlar bu bilan to‘xtamay, Xudoyorxonning o‘ldirilgan akasi So‘fibekning o‘g‘li Nazarbiyni xon deb e‘lon qiladilar va qo‘zg‘olonni davom ettiradilar. Lekin bu qo‘zg‘olon ham bostiriladi.

Shu davrda O‘zgandda ham Xudoyorxoniga qarshi qo‘zg‘olon boshlanadi. Bu qo‘zg‘olonga o‘zbek, tojik va qirg‘izlar urug‘lari boshliqlari ham qo‘shiladilar. Qarshilik shu qadar kuchli ediki, turk, o‘zbek, qirg‘iz va tojiklar bir yerga to‘planadilar va Po‘latxonni xon deb e‘lon qiladilar. Xuddi shu davrda O‘zgandda turgan Abdurahmon Oftobachi va Mulla Iso Avliyolar ham qo‘zg‘olonchilar tomoniga o‘tadi. “Tasnifi g‘aribi” asari muallifi ma‘lumoticha, Abdurahmon Oftobachi va Mulla Iso avliyolar Po‘latxonga maktub yo‘llab, o‘zlariga bosh vazirlik va devonbegi lavozimlarini so‘raydilar.

Abdurahmon Oftobachi va Mulla Iso avliyolar qo‘zg‘olon ko‘targan qirg‘izlar va voqealar rivojidan norozi bo‘lgan Nasriddinbek kuchlarini birlashtirish maqsadida ularni bir yerga to‘plashga harakat qilgan. Hatto ular marg‘ilondan Sulton Murodekni ham taklif qiladilar. Uning xonlik taxtiga qiziqishini pasaytirish maqsadida Abudarhamon Oftobachi unga qizlaridan birini nikohlab beradi.

Xudoyorxon qo‘zg‘olonchilarga qarshi tura olmaydi. Chunki hatto uning atrofidagi eng ishonchli shaxslari ham birin-ketin qo‘zg‘olonchilar tomoniga o‘ta boshlaydilar. Masalan, qoraqalpoqlardan bo‘lgan bosh vaziri Zulfiqor bek, xon xonadoni boshliqlaridan biri Mahmudxo‘ja, yirik harbiy sarkardalardan biri, turk qabilasidan bo‘lgan Xolnazar va boshqalar.

1875-yilning iyul oyida voqealar shu qadar rivojlanadiki, qo‘zg‘olonchilar xonga qarshi ayovsiz kurash boshlaydilar. Natijada, Xudoyorxonning poytaxtda qolishi ham xatarli bo‘lib qoladi. Shuning uchun xon butun o‘zi eng ishongan odamlarini olib, qochishga majbur bo‘ladi. Hatto Xudoyorxonning o‘g‘illari Nasriddinbek va Sulton Murodbeklar ham qo‘zg‘olonchilar tomoniga o‘tadi. Dastlabki davrda buni o‘tkinchi deb hisoblagan Xudoyorxon voqealarning bunday rivoji xonlik taxtini butunlay qo‘ldan ketganligini, endi hech qachon xonlik taxtiga o‘tira olmasligini hatto xayol ham qila olmasdi.

Tayanch iboralar

Qipchoqlar hukmronligi, regentlik, hokimiyat uchun kurash, qipchoqlar qirg‘ini, ruslar bosqini, soliq siyosati

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Qo‘qon xonligida qipchoqlar hukmronligidagi boshboshdoqliklar haqida nimalarni bilasiz?
2. Qipchoqlar o‘rtasidagi hokimiyat uchun kurash oqibatlarini sanang.
3. Qo‘qon xonligidagi qirg‘ini natijalarini haqida nimalarni ayta olasiz?
4. Qo‘qon xonligidagi qirg‘ini haqida manbalarda qanday fikrlar berilgan?
5. Nima uchun Xudoyorxon hokimiyatdan ketishga majbur bo‘ldi?
6. Qo‘qon xonligi tarixida Mallaxon qanday o‘rin tutgan?
7. Sulton Saidxon haqida nimalarni bilasiz?
8. Qo‘qon xonligi tarixida Aliquli Amirilashkar qanday o‘rin tutgan?
9. Qo‘qon xonligi tarixida Xudoyorxonning uchinchi hukmronligi qanday kechgan?

4-mavzu: Qo‘qon xonligida qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti

Reja

1. Qo‘qon xonligi qishloq xo‘jaligida ekiladigan ekinlar
2. Xonlikda chorvachilik taraqqiyoti
3. Xonlikda yer egaligi turlari
4. Xonlikda irrigatsiya tizimi
5. Xonlikda soliq va hashar ishlari

1. Qo‘qon xonligi qishloq xo‘jaligida ekiladigan ekinlar

Farg‘ona vodiysi qadimdan o‘zining tabiiy sharoiti, tuprog‘ining unumdorligi va aholisining mehnatkashligi bilan dong taratgan. Shu bilan birga hunarmandchilik va chorvachilik bu yerda qadimdan rivojlangan. Bu haqda A. Middendorf “Ocherki Ferganskoy doliny” asarida

Farg‘ona vodiysidagi iqlimga juda yaxshi ta‘rif bergan. Farg‘ona aholisi o‘troq dehqonchilikda juda mehnatsevar, “madaniy ekinlardan boshqali ekinlar”ni yetishtirishda tengsiz bo‘lgan. Farg‘ona aholisi yerlarni o‘zlashtirishda, sariq yerda dehqonchilik qilishda, tuproqni qayta ishlashda shu qadar charchoq bilmas mehnat qilganki, unga qoyil qolmasdan iloj yo‘q. Bir necha ming yillar davomida qo‘l mehnati bilan o‘zlashtirilgan yerlar o‘z hosildorligini saqlab qolgan. Bu sababdan aholi yerlarni qayta ishlash davomida qo‘l mehnati bilan suv inshootlari qurilgan. Bu suv inshootlari yordamida minglab gektar yerlar sug‘orilgan. Sug‘oriladigan yerlarda mevali va mevasiz daraxtzorlar, o‘rmonlar vujudga keltirilgan. Bunday mevali va mevasiz daraxtzor va o‘rmonzorlar hudud iqlimiga ham ta‘sir o‘tkazgan. Chunki bu yerda vujudga keltirilgan o‘rmonzorlardagi daraxtlar har biri alohida namlikni talab qilar edi.

Qo‘qon xonligida asosiy yetishtiriladigan qishloq xo‘jalik mahsuloti bu bug‘doy edi. Oloy hududida bug‘doy yetishtirish o‘ziga xos tarzda rivojlangan bo‘lib, bu yerda bug‘doy la‘lmi dehqonchilik asosida yetishtiriladi. Suv yetib borgan joylarda esa arpa, tariq, beda ekinlari ekilar edi.

XIX asrning 30-yillarida bu hududa aholisi faol ravishda bog‘dorchilik bilan shug‘ullangan, ipakchilik juda yaxshi rivojlangan, paxtachilik va paxta matolari, shu bilan birgalikda kustar hunarmandchilikda ishlab chiqarilgan mahsulotlari savdosi bilan tanilgan edi. Qo‘qon va uning atroflarida bug‘doyning turli navlari yetishtirilgan.

Umuman Turkiston o‘lkasida bug‘doyning ikki turi yetishtiriladi. O‘troq aholi sug‘oriladigan bug‘doy yetishtirsa, qirg‘izlar esa la‘lmi bug‘doy yetishtiradilar.

Qo‘qon xonligiga qarashli Avliyoota atroflarida asosan tuyachi-bug‘doy (tuya tishi) yetishtirilib, unga chumchuqlar hujum qila olmaganlar. Bu bug‘doy turini yetishtirish asosan xonlikning shimoliy hududlarida keng tarqalgan.

Bug‘doyning ikkinchi turi luchchak bug‘doy bo‘lib, undan asosan oq un tortilgan. Bu bug‘doy shirin bo‘lganligi uchun chumchuqlar unga juda qattiq hujum qilganlar. V.V.Nalivkin ma‘lumotiga qaraganda bu bug‘doy turi yashil-qoramtir boshqali bo‘lgan.

Turkistonda bug‘doyning quyidagi turlari mavjud bo‘lgan: 1) Qayroqi – tog‘li yerlarda yetishtiriladigan bug‘doy; 2) La‘lmi – bu bug‘doy turi asosan yomg‘ir ko‘p yog‘adigan, toqqa yaqin yerlarda yetishtirilgan; 3) Bogara – bu ham la‘lmi bug‘doy turlaridan biri bo‘lib, oq va qizil rangda bo‘lgan; 4) Taramog‘i – kuzgi bug‘doy, bu bug‘doy turi ham oq va qizil rangda bo‘lgan. Namangan uezdida bu bug‘doy turi kuzgi deb nom olgan.

1, 2, 3 raqamdagi bug'doylar asosan la'limi bug'doylar hisoblangan. Qizil bug'doy deganda asosan la'limi va kuzgi bug'doyni tushunish kerak. Uning doni ingichka va uzun bo'lib, don uchi biroz zangoriroq bo'ladi. Oq bug'doy yevropaliklar bug'doyi bilan bir xildir. Qora suli bug'doyining esa doni biroz kichikroq, qoraqosh don bo'lib, uni narxi arzonroq bo'ladi va asosan otga yemish sifatida foydalaniladi. Lizilik (bahorgi bug'doy) – bu bug'doy turini yetishtirish vaqti juda qisqa va osonligi bilan ajralib turadi. Bug'doylarning biz fikr yuritgan oxirgi ikki turi asosan yovvoyi holda ko'proq uchraydi.

Namanganning janubiy va o'rta qismida asosan bahorgi bug'doy ekiladi. Ekish vaqti oktyabr oyining boshlarida boshlanib, noyabr oyining oxiriga qadar davom etadi. Xonlik yerlarida bug'doy, jo'xori, paxta va boshqa ekinlar ekilgan. Bug'doy asosan ehtiyoj uchun ekilgan.

2) Arpa – bu ekin turi otlarning eng sevimli yemishi hisoblangan. Bu ekin turi o'sishi qulay bo'lganligi uchun hohlagan yerga ekish mumkin bo'lgan. Bahorgi arpa turi ham ko'plab ekilgan. Arpa bilan birgalikda qora bug'doy ham ekilgan. Bu ekin turlari asosan xonlikning shimoliy hududlari hisoblangan Yettisuv va Kazalinsk tomonlarda ko'plab ekilgan. Ushbu ekinlar turlari XIX asrning ikkinchi yarmida esa asosan Farg'ona vodiysini chegaralab turgan tog'li joylarda ekish ommalashgan.

3) Tariq – Farg'ona vodiysida bu ekin turining ikki turi ekilgan: qo'noq va mayda donli bug'doy sifat tariq. O'sish vaqti qisqa bo'lganligi uchun bu ekin turi asosan tog'oldi hududlarda ekilgan. Nanay atroflarida tariq juda ko'p ekilib, tariqdan tayyorlangan nonlar qirg'izlarning sevimli yemishi hisoblangan.

Tariq asosan bahorda, ya'ni aprel oxiri – may boshlarida ekilib, bug'doyni yig'ishtirib olinganidan keyin, iyul-avgust, kechi bilan sentyabrda o'rib olinadi.

Tariqning oq, qizil va cho'qay kabi navlari bor. Oxirgi nav boshqa navlarga qaraganda serhosil bo'lib, vaqtliroq pishgan.

Tariqdan mast qiladigan, pivoga o'hshash ichimlik tayyorlangan. Bunday ichimlik tayyorlash qiyin bo'lib, u mo'ng'ul qabilalari orasida bo'za nomi bilan mashhur bo'lgan. Bu o'tkir ichimlik bo'lib, Qur'onda ta'qiqlangan.

Tariq – jo'xori. Bu boshqa ekinlarga nisbatan daromadliroq bo'lgan, lekin uni yetishtirish ancha mashaqqatli hisoblanib, uni yetishtirish uchun dalalarni ko'proq o'g'itlash kerak bo'lgan. Agar uni yaxshi parvarishlansa, kichikroq makkajo'xori poyasidek bo'y cho'zgan. Shar shaklida o'sib, bo'yi 2-3 futga yetgan. Bu ekin turi makkajo'xorini eslatib, mahalliy aholi orasida sevimli yemish hisoblangan, lekin uni yetishtirish ancha mashaqqatli bo'lgan. G'ulja (Farg'ona)da uning doni 2-3 funtga, Zarafshonda esa 5 funtgacha yetgan.

Jo'xori doni tariq doniga nisbatan ikki barobar katta bo'lib, yaxshi ozuqa hisoblangan. Jo'xori kambag'allarning asosiy yemishi bo'lib, uning tarkibida shakar mavjud bo'lib, arpa bilan qo'shib yanchilib ist'emol qilinganida shamollashdagi kasalliklarga dori hisoblangan. Jo'xori yaxshi ishlov berilganida arpaga nisbatan 1/3 ko'p hosil bergan.

Jo'xori unchalik issiq talab emas, hatto Rossiyaning Xersonos guberniyasida ham ko'p hosil berishi mumkin edi. Lekin uning parvarishlar 7-9 oyga cho'ziladi. Turkiston shaharlarida uni odatda sentyabr oyida yig'ib oladilar. Uning doni maydalanmagan holda saqlanadi. Uni ekilganidan keyin darhol sug'orish kerak. 1 desyatina yerdan $\frac{3}{4}$ pud hosil olish mumkin.

5) Makkajo'xori – bu ekin turi Amerikadan keltirilgan bo'lib, sharqqa venetsiyaliklar tarafidan ommalashtirilgan. Uning donini unga aylantirish qiyinroq. Uning pishmagan doni juda shirin bo'ladi.

Makkaxo‘xori Farg‘onada nisbatan kam tarqalgan. U asosan sug‘oriladigan yerlarda va shamollar kamroq bo‘ladigan yerlarda kengroq tarqalgan.

6) Sholi – sholi sharqliklarning eng sevimli yemishlaridan biri, undan palov tayyorlaydilar. Uning tarkibida 85% kraxmal bo‘lib, uni qo‘y yoki tovuq go‘shtidan tayyorlanganida juda kuchli ovqat bo‘ladi. Gurunch jo‘xoriga nisbatan qimmat, chunki jo‘xori kambag‘alda umid uyg‘otadi. Ammo shunga qaramasdan, sholi qadimdan ma‘lum bo‘lib, hatto Aleksandr Makedonskiy Baqtriyada u haqida eshitgan.

Madaniylashtirilgan sholi asosan botqolik va qamishzor yerlarda ekilgan va u yerlarda juda serhosil bo‘lgan.

Uni yetishtirish 4 oy davom etadi. Odatda sholikorlik va paxtachilik uchun bir xil issiqlikdagi temperatura lozim bo‘ladi. Sholining juda serhosil navlarini Yangiqo‘rg‘on volostiga nisbatan ko‘proq Namangan uezdida ko‘rish mumkin.

Xudoyorxonga tegishli yerlarda ko‘proq sholi ekilgan. Ijarachi – chekchi va chorikorlarga gurunchning eng a‘lo navi – “samarqand” nomli devzira sholi berilgan. Sholi xonning ishonchli shaxslari bo‘lgan (inoq va uning ijaradorlari) tomonidan ijarachilarga tarqatilgan. Ijarachilar sholi urug‘larini olgan chorikorlarga tarqatganlar. Xonning ishonchli kishilari va urug‘ning rahbarlari chorikorlarga rahbarlik qilganlar. Tarqatilgan sholi urug‘lari qattiq nazorat qilingan. Xon devonxonasidagi yozuvlarda qaysi qishloqqa, kimga qancha sholi urug‘i berilganligi qayd etilgan. Masalan, “Tursun Muhammad Inoqqa Amirobod, Qizilmusht, Qirqlar, Dang‘ara qishloqlariga tarqatish uchun 35,5 chorak urug‘ berilgan. Xoja Ali Muhammad Inoqqa Tegirmonboshi, Qizilmusht, Dang‘ara, G‘umayli qishloqlariga tarqatish uchun 38 chorak urug‘ berilgan”. Inoqlar olingan urug‘larni ijaradorlarga berganlar. Ijaradorlar esa o‘zlarining korandalari orasida tarqatganlar. Agar qishloq katta bo‘lsa, bu yerda ikkita inoq ham boshchilik qilishi mumkin edi. Masalan, Qizilmusht va Dang‘arada ikkitadan inoq mavjud bo‘lgan.

Gurunchning quyidagi turlari mavjud: qizil (eng sevib ist‘emol qilinadigan navi), tukli va tuksiz navi.

Yetishtirilgan sholining narxi esa quyidagicha bo‘lgan: ikki chorak va ikki chaksa sholi bir tilla hisoblangan.

Sholidan tashqari, xonlik yerlarida bug‘doy, jo‘xori, paxta va boshqa ekinlar ekilgan. Paxta va jo‘xori urug‘ini tarqatish bilan asosan sipohiy, oqsoqol, amin, eshon va savdogarlar shug‘ullangan. Shunday qilib, xon yerlarini ishlash uchun dehqonlarga qarz evaziga urug‘lik berilgan.

Agar dehqonda yerni ishlash uchun mehnat qurollari va hayvonlar bo‘lmasa, xonlik hisobidan ta‘minlangan va evaziga hosildan pay olingan.

Dehqonga berilgan ssudalar yil oxirida natural soliq tarzida xonlik xazinasiga qaytarilgan. Xossa yerlarida asosan sotish uchun qulay va O‘rta Osiyoda mashhur bo‘lgan devzira gurunchi ekilgan.

Gurunch bug‘doydan keyin ikkinchi o‘rindagi sevib ist‘emol qilinganidan taomlardan biri hisoblangan. Eng ko‘p diqqatni chekadigan navi tog‘ sholisi bo‘lib, u Kavkazda ham tarqalgan. Uning navi Fransiyadan keltirilgan. U mahalliy navlardan biroz baland bo‘lib, bir tanobdan mahalliy navlardan 22 pud, undan esa 40 pudgacha hosil olish mumkin. Namanganda bu xil nav sholilar iyul oyidayoq pishib yetiladi. Bu yerda yerlardan o‘g‘itlashsiz 44 pudgacha hosil olish mumkin.

Lekin sholini yetishtirishda eng qiyin ishlardan biri uni kurmaklardan tozalashdir. Chunki, kurmakning poyasini sholi poyasidan ajratish qiyinroq. Ularning poyasi bir xildir.

7) Mosh. Mosh o'zining to'yimliliği va tarkibida yog'ning ko'p bo'lishi bilan ajralib turadi. Mosh 3 oyda yetilib, parvarish vaqtida uni bir marta sug'orish yetirlidir. Yerli aholi moshdan ovqatga qo'shiladigan dorivor, qayla sifatida ishlatgan.

Mosh quruqlik va sovuqqa chidamli o'simlik hisoblanadi. Ammo hashorotlar va sichqonlar moshga juda zarar yetkazadilar.

8) Kunjut. Uni yerli aholi tarkibida 75% yog'i va yog'ining shirin bo'lganligi uchun sevishadi. Poyasi tarkibining $\frac{3}{4}$ yoki $\frac{3}{5}$ qismi yog' hisoblanadi. Undan olingan yog' nihoyatda qimmatbaho hisoblanib, 1 funti – 20 kopeek, bir audi 3 rubl 60 kopeekdan 7 rubl 20 kopeekkacha sotilgan.

Kunjutdan olingan kunjaradan chorva yem sifatida, poyasidan esa o'tin sifatida foydalanilgan.

9) Ko'knori. 1873-yili Samarqandda bangilar uchun 12 ta ko'knorixonona mavjud bo'lgan. O'shandan buyon bunday ko'knorixonalar yopilgan. Farg'ona vodiysida bunday joylar ancha ommalashgan edi.

XIX asrning oxiriga kelganda bunday joylar va ko'knori yetishtirish batamom ta'qiqlangan. Lekin vodiy aholisi ko'knoridan opium sifatida foydalanmagan. Germaniyada o'tkazilgan vistavkada aniqlanishicha, oddiy ko'knori tarkibida 17% kokain bo'lsa, "turk" ko'knorisida esa 6-10% kokain bo'lar ekan.

10) Zig'ir. Bu o'simlik Farg'ona vodiysi janubida yetishtilib, undan asosan yigiruv matosi va yog' olinadi. Bu o'simlik asosan tog' yonbag'irlarida, Namangandagi Nanay qishlog'i atroflarida yetishtirilgan. Savdogarlar uni 1 pudini 60-72 kopeekdan sotib olishgan.

Urug'ini bahorgi bug'doydan oldin ekilib, iyul oyining oxirida, shimoliy qismlarda esa avgust oyi oxirida yig'ib olinadi.

Nalivkin ma'lumotiga ko'ra, uning uch xil navi mavjud: qora, sariq va qizil zig'irlar. Hatto qishki zig'ir ham mavjuddir. Zig'ir poyasidan olingan 1 funt yog' 10 kopeek turgan.

11) Kanop. Ushbu o'simlik asosan yigiruv uchun yetishtirilgan. Uning yog'i esa mast qiluvchi opium tayyorlashda ishlatilgan. Kanop o'simligi qadimdan ma'lum bo'lib, uni hatto Gerodot asarlarida ham eslatilgan. O'simlikning gulidan yog' tayyorlangan, poyasidan esa yigirish ishlarida foydalanilgan. Hatto uning gulidan mast qiluvchi yog' olingan. 1873-yil Zarafshon vohasida 1000 desyatina yerga kanop ekilgan.

12) Paxta. Bu o'simlik oldin Hindistonda yetishtirilgan. Dastlab, Eron va Misrga, milodning boshlaridan boshlab, O'rta Osiyoda ham qimmatbaho o'simlik sifatida qadrlana boshlagan. XIX asr uchinchi choragigacha bu yerda asosan mahalliy navlar yetishtirilgan. Bu davrdan boshlab, bu yerda paxtaning Amerika navi ommalashtirila boshlangan. Amerika navi mahalliy navlarga nisbatan tolasi ikki barobar uzun va yumshoq bo'lgan. Chigitdan oson ajralgan. Paxtaning sortlariga qarab, to'qiladigan matolar bir-biridan farq qilgan. Masalan, birinchi sortdan to'qilgan matolar sovuq iqlimda ham o'z xususiyatini yo'qotmagan. Ikkinchi sortdan to'qilgan matolar esa biroz dag'alroq bo'lgan. Lekin Qo'qon xonligida paxta va boshqa ekinlar nisbatan kamroq yerlarga ekilgan. XIX asrning 50-yillarida paxta nisbatan kam yerga ekilgan bo'lsa, ushbu asrning 70-yillaridan xonlikda paxta yetishtirish rivojlana boshlagan. Aynan shu davrdan boshlab xonlik qishloq xo'jaligida kartoshka yetishtirish ham yo'lga qo'yilgan.

1871-yildan boshlab, amerika navi mahalliy sharoitga moslashtirila boshlangan. Middendorf birinchi marta Farg'ona vodiysiga kelganida hali amerika navi o'zlashtirish

ishlari to'liq tugallanmagan edi. 1875-yildan boshlab Zarafshon okrugida paxtaning amerika navi dastlabki hosilini bera boshlagan.

Bu davrda paxtani qayta ishlash uchun Jin nomli mashina ishlatilgan. Ushbu mashina bir kunda 25-30 pud paxtani chigitdan ajrata olar edi.

Paxtaning tolasi to'qimachilik sanoati uchun asosiy xom ashyo bo'lsa, uning chigitidan yog' olingan. Paxta chigitining 30%i yog' hisoblanib, undan olingan yog'ning bir pudi 30 kopeekdan sotilgan. Chigitning yog'dan qolgan qismi esa chorva uchun boy ozuqa hisoblangan.

13) Tamaki. Tamaki ist'emol qilish qadimdan mavjud bo'lgan. O'rta Osiyoda tamakining asosiy navi Qarshidan tarqalgan. Ikkinchi o'rinda esa tamakining buxoro navi turgan. Farg'ona navi esa o'zining sariq rangli bo'lganligi uchun ancha qui o'rinda turgan.

1876-yil tamakining turk navi Farg'onaga keltirilgan. Lekin ikki yil o'tgach, umuman yo'qolib ketdi. Farg'onada yevropacha, amerikacha va turkcha navi aralashmalaridan yangicha nav yaratilgan va u o'zining a'lo sifati bilan yuqoridagilarni ortda qoldirgan. U shunchalik ommalashganki, keyinchalik uning bir desyatinasidan 1400 rubl foyda olganlar. O'rta Osiyoda yevropadagi hidlovchi tamaki unchalik keng tarqalmagan.

13) Beda. Ikkinchi nomi ionushka. Beda ekilgandan boshlab 9 yilgacha hosil berishi mumkin. Ekilgandan uchinchi yildan boshlab yuqori hosil bera boshlaydi. O'rtacha bir desyatina yerdan 300, ba'zan 1200 pudgacha hosil berishi mumkin. Yil davomida 4 marotaba o'rib olinadi. O'rim orasida tabiiy holatga qarab 1-2 marta sug'oriladi. Yil davomida 8 martagacha sug'oriladi. Ba'zi bir joylarda, masalan, Nanayda bedani yil davomida ikki marta o'rib olish mumkin, xolos. Bu yerda bir desyatina yerdan atigi 30-50 pudgacha hosil olish mumkin.

Beda bahorning ilk o'simliklaridan biri. 8-mart arafasida dastlabki ko'katlarini ko'rsatishi, bo'yi bir qarichga yetishi mumkin. Bir yillik bedaning bo'yi 25-aprelda bir tirsakdan baland bo'ladi. Ruslar Qo'qon xonligini bosib olgunlariga qadar Farg'onada bir g'aram bedaning narxi 1 rubl 60 kopeek (Toshkentda 1 rubl 20 kopeek) bo'lgan. Aprel oyida Middendorf bir bog'lam bedani 3-4 rubldan sotib olganligini yozib qoldirgan. Marg'ilonda esa bir necha kunlik yomg'irdan keyin bir g'aram bedaning narxi 10 rublgacha yetardi. Qo'qonda esa uning narxi biroz pastroq bo'lar edi. Bundan chayqovchilar unumli foydalanganlar. Ularning aravalarga bedani ortib qimmat yerlarga olib borishi, u yerlarda narxning biroz tushishiga sabab bo'lar edi. Umuman bedani bir g'aramining narxi o'rtacha 2 rubl hisoblangan.

Beda odatda bahorda ekilib birinchi yilda uch marta (iyun, iyul va avgust) o'rib olinadi. Ikkinchi yili esa 4-5 martagacha o'riladi.

14) Yo'ng'ichqa. Bedaga o'xshash o'simlik. Faqat sovuq joylarda yaxshi o'sganligi uchun bedaning o'rniga ba'zi joylarda yo'ng'ichqa ekishadi.

15) Qovun. Uning assoiy ikki turi mavjud: tez pishadigan (handalak), kichik, yumaloq va kechroq pishadigan qovunlar. Qovun uzunchoqroq va qattiq, shirin va go'shtliligi bilan ajralib turadi. qovunning navlari haqidagi tadqiqotlarni G.Smirnov amalga oshirgan.

Namanganda tez pishadigan qovun yetishtirilib, ular odatda mart oyining oxirida va aprel oyining boshlarida ekiladi. May oyining o'rtalarida ilk handalaklar, iyun oyining o'rtalarida esa dastlabki qovunlar pishadi. Kech pishar qovunlar esa avgust oxiri va sentyabr boshlarida pishib yetilgan. Bir desyatina yerdan taxminan 9 mingtagacha qovun olinishi mumkin bo'lgan.

Qo‘qon xoniga qarashli xossa yerlarida ham qovunlar ekilgan. Arxivlarda faqatgina bir yozuv, Nizomiddin korandaning xonga yozgan iltimosnomasi, unda saqlanayotgan qovunlarni nima qilish kerakligi, issiq havo tufayli ularning tez kunda aynib qolishi haqidagi yozuvi saqlanib qolgan xolos. Bundan ko‘rinadiki, xonga tegishli xossa yerlarda joylashgan bog‘chalarda mevali daraxtlar bilan birga xon saroyi uchun maxsus qovunlar yetishtirilgan.

Shunday qilib, Farg‘ona vodiysi qishloq xo‘jaligida asosan yuqorida sanab o‘tgan ekin turlari ekilgan. Ammo bundan tashqari, boshqa ekin turlari ham ekilgan, lekin boshqa ekin turlari yuqorida sanab o‘tilgan ekin turlariga qaraganda biroz kamroq bo‘lgan. Yuqorida sanab o‘tgan ekin turlari ichida paxta xonlik davrida kam yerlarga ekilgan bo‘lsa-da, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, paxta ekin maydonlari kengaya boshlagan. Bunga asosan Rossiyada kuchayib borayotgan yengil sanoat talabi edi. Bu esa o‘z navbatida donli ekinlar maydonini kamaytirib yuboradi va keyinchalik vodiya aholining ko‘plab norozilik chiqishlarini kuchayishiga sabab bo‘lgan.

2. Xonlikda chorvachilik taraqqiyoti

O‘rta Osiyo aholisining qishloq xo‘jaligi turlari bilan shug‘ullanishini tadqiq etish natijalariga qaraganda shunday xulosa kelib chiqadiki, tojiklar qadimdan o‘troq dehqonchilik bilan shug‘ullanishgan, kelib chiqishi turkiylarga borib taqalgan xalqlar esa qadimdan chorvachilik bilan shug‘ullanishgan. Miloddan avvalgi IV asrda bu yerga kelgan Aleksandr Makedonskiy So‘g‘diyoning 4000 mingta oti bilan qo‘shinini ta‘minlagan. Qadimgi manbalarda Darvats deb nomlangan hudud ham otlari bilan mashhur bo‘lgan.

Xitoy manbalari ham qadimgi Farg‘onadagi otlarning mashhurligi haqida ma‘lumot beradilar. Xitoy manbalariga ko‘ra, Kang‘uy (Samarqand) aholisi bu yerga ko‘p miqdorda otlar sotib olish uchun kelishar edi.

XIII asr oxirida Osiyoga sayyohat qilgan Marko Polo Badaxshon haqida bu yerning havosi sovuqroq, lekin juda yoqimli, odatiy bo‘lmagan otlari bilan mashhurligi, otlarining tuyoqlari qattiq, taqaga hojat yo‘qligi haqida ma‘lumot bergan edi.

Hatto F.Nazarov elchi sifatida (1814) bu yerga kelganida, O‘sh yaqinidagi askar oti uchun ajratilgan xona, xotini uchun ajratilgan xonadon yaxshiroq bo‘lganligi haqida ma‘lumot bergan.

Farg‘onada keng tarqalgan tog‘ oti 2 arshindan baland bo‘lmasligi, ingichka suyaklari, toblangan eti uni boshqarishda alohida e‘tiborni talab qiladi. Bu otdan asosan tog‘larda va o‘tilishi qiyin bo‘lgan joylarda foydalanilgan.

Farg‘onada keng tarqalgan otlarning ikkinchi turi bu kelib chiqishi turkman otlariga borib taqaluvchi qorabayir otlaridir.

Leikin otlarning bu turi ancha kam uchraydi. “Qon bilan terlaydigan” bu otlarni barvasta otlar deb atash mumkin.

Farg‘onada eng ko‘p tarqalgan otlar turi bu yuk tashuvchi otlardir. Bu otlar o‘zining kichik bo‘yi, ot minishni mashq qilish uchun qulayligi bilan qirg‘izlar orasida mashhurdir. Bu otlar noqulay yo‘llarda va tog‘ daralarida ham yuklarni tashiy oladi. Ushbu ot to‘xtovsiz ravishda 25 dan 30-40 pudgacha va hatto 60 pudgacha yukni tashishi mumkin. Bu otlar nafaqat tog‘larda yukni bir joyda tutib tura oladi, balki ba‘zi joylarda yuklarni orqaga ham suruklashi mumkin.

Shunday qilib, otlar janubiy-gʻarbiy Osiyoda qadimdan qoʻlga oʻrgatilgan hayvon sifatida mashhurdir. Minglab yillar davomida undan yuk tashishda, balki boshqa maqsadlarda ham foydalanilgan.

Qadimdan arab otlari Fargʻonaning qoʻpol otlari bilan chatishtirilib, qorabayir zotlari yaratilgan. Fargʻonada oʻtroq aholi bir necha toyni boqishi, qirgʻizlar esa koʻplab otlarni parvarishlari imkoniyati mavjud edi.

Fargʻonada otlarning odatda bahorning ilk kunlarida, yaʼni mart oyining oxirlarida koʻpayishi boshlanadi. Otlarni yaxshi parvarishlash uchun beda boʻlishi kerak, u boʻlmasa, ularni togʻ yaylovlariga oʻtlatgani olib boriladi. Bir ot odatda bir kunda har biri 6-7 funt ogʻirligidagi 3-4 bogʻ beda istʼemol qiladi. Bunda tashqari, agar otdan ogʻir mehnatda foydalanilmasa uning ratsioniga yana 6 funtdan ortiqroq arpa, arpa boʻlmasa uning oʻrniga bir xil miqdorda aralashtirilgan tariq-joʻxori berilishi mumkin. Otga beda berilganidan bir soat keyin arpa, ertasi kuni yana shu ratsionni qaytadan takrorlash mumkin.

Qoʻqon xonlariga tegishi boʻlgan chorva mollari orasida asosiy oʻrinlardan biri otliq qoʻshin uchun yetishtiriladigan otlar tutgan. Qoʻshinni ot bilan taʼminlashdan tashqari, otboqarlar otlarning eng mashhur zotlarini maxsus koʻrgazmali chiqishlar uchun tayyorlar edilar. Xon otlari ichida alohida nomlarga sazovor boʻlganlari ham boʻlgan. Masalan, bir otning laqabi “Bam-bosh koʻk” edi. Otlarning eng mashhuri “qorabayir” zotlari boʻlib, ular egasiga katta foyda keltirar edi. Masalan, Yangiqoʻrgʻon (Namangan okrugi) oqsoqoli qorabayiri uning uchun musobaqada 100 tilla tanga, 10 ot va 50 qoʻy yutib olishiga sabab boʻlgan edi.

Xon oʻzining otxonasini doimo yaxshi otlar bilan toʻldirib turar edi. Mamlakatdagi butun yaxshi otlar xon nazoratida edi. Agar biror joyda yaxshi ot boʻladigan boʻlsa, hukmdor unga odam yuborsa ot egasi albatta uni berishi shart edi. Mamlakatdagi eng yaxshi otlar xonga zakot sifatida berilar edi. Bu albatta, ot egalarining noroziligini uygʻotar edi.

Ammo bugungi kungacha xonning otlarni kuch bilan tortib olganligi haqidagi birorta fakt topilmagan. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mamlakatdagi eng yaxshi otlar albatta xonga tegishli boʻlishi kerak edi. Ot egalari xon amaldorlari qoʻygan narxga albatta otlarini sotishga majbur edilar. Aks holda otlar hech qanday ogohlantirishlarsiz egasidan kuch bilan tortib olinar edi. Shuning uchun otni sotib olish haqidagi xabar kelganda ot egasi albatta oʻz otini aytilgan shaxsga berib yuborar edi.

Yuzlab kishilar xon xonadoniga tegishli otlarni boqish bilan shugʻullanar edilar. Otni parvarishlash qiyin boʻlgani uchun uning bahosi ham shunga yarasha qimmat boʻlgan. Ruslar Fargʻonani bosib olgach otlarning bahosi yanada qimmatlashgan.

Shu bilan birga Fargʻona vodiysida shoxli hayvonlar ham boqilar edi. Shoxli hayvonlar asosan uch turga mansubdir: 1) havorang – ukraincha tip; 2) qizil yoki qizil olarang – qalmiq tipi; 3) qora – kelib chiqishi sibirliklarniki bilan ayni boʻlgan shoxdor hayvonlar.

Shoxdor hayvonlar asosan goʻsht va sut mahsulotlari uchun parvarishlangan. Fargʻona vodiysi oʻtroq hududlarida hayvonlarni boqish qiyinligi uchun kuchliroq, yaʼni yer haydashda kerak boʻladigan hoʻkizlar koʻproq qirgʻizlardan sotib oladilar.

Ishchi hayvonlar (hoʻkiz, tuya, otlar), sigir va qoʻylarni boquvchilar – xon xizmatkori hisoblangan va choʻpon (podabon) deb nomlangan.

Sut uchun parvarishlanadigan sigirlarning vazni biroz ozroq boʻlib, ularning vazni 500 funtdan oshmaydi. Suyaklari ingichka, shoxlari qisqaroq va yarim oysimon.

Qirgʻiz sigiri asosan goʻsht yetishtirish uchun parvarishlanadi. Qirgʻizlar yashaydigan hududlarda toʻngʻiz, echki va qoʻylar koʻp boʻlganligi uchun baʼzan sigirlar sut olish uchun

ham parvarishlangan. Qirg'izlarning sigiri baland va baquvvat bo'lib, yarim chelak sut bera olgan. Farg'onadagi mahalliy o'troq aholi orasida tarqalgan sigirlar esa qirg'izlarning sigiri bergan sutning 1/3 qismini bergan xolos. Qirg'izlarning sigiridan sog'ilgan sutlar esa seryog'ligi bilan ajralib turadi.

Sirdaryo bo'ylarida yashovchi aholi orasida bir sigirning narxi 10 rubldan 18 rublgacha bo'lib, Farg'onada esa 20 rublgacha baholangan. Marg'ilonda bir chelak sutning narxi esa 75 kopeek bo'lgan.

Middendorf Qo'qonga yaqin yerda joylashgan Qorajiyda tog' yonbag'rida bir cho'pon boyning 600 bosh qoramoli, 50 bosh qo'y va echkisini boqib berganligini ko'rganligini yozadi. Cho'pon har bir qoramol uchun yoz bo'yi boqishga 20 kopeekdan xizmat haqi olgan.

XIX asrning uchinchi choragiga kelib, Farg'ona vodiysida paxta yetishtirishning kuchayishi va chorvachilikning kamayishi oqibatida chorva mollarning narxi ko'tarilib ketadi. Bo'rdoqi sigirlarning narxi 18 rubldan 40 rublgacha bo'lib, ahvol biroz yaxshilanganida ham 30 rubldan past bo'lmagan. Hayvonlarning kamayishiga nafaqat paxta ekin maydonining ko'payishi, balki qishki sovuqlar ham ta'sir qilar edi.

Bu yerda mol go'shti narxi 1 rubl 60 kopeekdan 2 rubl 40 kopeekka bo'lib, mol (yoki qo'y yog'i) yog' narxi esa 3 rubl 20 kopeekdan – 4 rubl 20 kopeekkacha bo'lgan.

Qo'ychilik Osiyo ichkarisida yashovchi ko'chmanchi xalqlarning asosiy tirikchilik vositasi hisoblangan. Chunki qo'y har qanday injiq iqlim sharoitida ham yashab keta oladi. Qadimdan O'rta Osiyo aholisi qo'y go'shtidan boshqa go'shtni ist'emol qilmagan. Shuning uchun bu yerga minglab qo'ylar sotish uchun olib kelinar edi. Har bir qishloqda go'sht sotadigan do'kon mavjud bo'lgan. Qo'y yog'i inson uchun kerak bo'lgan boshqa yog'lar o'rnini to'ldirgan. Vodiyning barcha yerlaridagi bedazorlar va maysazorlarda doimo o'tlab yurgan kichikroq qo'y podasini uchratish mumkin edi. O'rta Osiyo qadimdan o'zining qo'y terisidan tayyorlangan mahsulotlari bilan dong taratgan edi. Demak qo'y ikki maqsad bilan boqilgan: birinchisi go'sht uchun, ikkinchisi esa kiyim-kechak va jundan tayyorlangan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Farg'ona vodiysining go'shtga bo'lgan ehtiyoji mahalliy chorva bilan ta'minlana olmas edi. Go'shtga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun doimo Farg'ona vodiysiga qo'shni viloyatlardan chorva mollari keltirilgan.

Shu davrda, ya'ni XIX asr oxirida Farg'onaga Buxorodan juda katta miqdorda chorva mollari, shu jumladan qo'ylar ham keltirilgan. XIX asr 60-yillarida yetishmagan chorva mollari o'rnini to'ldirish maqsadida yiliga Qozoq cho'llaridan yarim million bosh chorva keltiriladi.

Farg'ona vodiysining qo'shni hududlar bilan chorva mollari ayirboshlashida Chotqol tog'lari orqali o'tadigan dovonlar muhim rol o'ynar edi. Olmaota, To'qmoq va Avliyootadan Namanganga qo'ylar, otlar, shoxli hayvonlar, jun matolar, arqonlar, teri va namatlar keltirilgan.

1879-yil faqatgina Namangan uezdiga 57 959 bosh qo'y keltirilgan. Bundan ko'rishimiz mumkinki, yerli aholining go'sht mahsulotiga bo'lgan ehtiyoji kelirilgan mahsulotlar hisobiga ta'minlangan. Chunki mahalliy sharoit hayvon boqish uchun noqulay edi. Boy odamlarning ham odatda xo'jaligida bitta ot, bir yoki ikkita ho'kiz, 3 yoki 4 bosh sigir va bitta buzoq bo'lgan, xolos.

Aynan Farg'ona vodiysida chorva moli boqish qiyinligi uchun bu yerga keltirilayotgan chorva nihoyatda qimmat bo'lgan. Farg'onada bir qo'yning narxi (birinchi qo'lda) 2½ - 3

rubl atrofida, eng qimmat payti esa ularning narxi 3 – 4½ rublgacha bo‘lgan. Ikki yashar qo‘zining narxi esa 5 rubldan 7 rublgacha bo‘lgan. Qo‘pol qilib aytganda, joyidan 2,5 rublga sotib olingan hayvonlar bu yerda 10,12 ba‘zan esa 20 rublgacha bahoda sotilgan.

Qo‘qon xonligida chorva mollari parvarishlaning qiyinligi, shu bilan birgalikda xon saroyiga go‘sht mahsulotining o‘z vaqtida yetkazib berishni amalga oshirish maqsadida xon va uning oilasiga tegishli yerlarda chorva mollarini parvarishlash uchun maxsus vakolatli shaxslar tayinlangan. Masalan, 1291 (1874-1875) yillarga oid hujjatlardan birida 23 amin va oqsoqolga qarashli bo‘lgan 23 qishloqda “g‘unon” nomi bilan yuritilgan 292 ta qo‘y, “shish-yog‘” deb nomlangan 246 ta qo‘y va 9 ta echki – jami 547 bosh chorva bo‘lganligi haqida ma‘lumot berilgan. Bu davr iqtisodiy jihatdan qiyinchilik yillari bo‘lgani uchun go‘sht yetishmovchiligi yuzaga kelgan va har bir bosh boqilgan (xon qo‘ylaridan booshqasini bu qadar boqish ancha qiyin bo‘lgan) qo‘yning narxi 46 tangadan – 70 tangagacha baholangan. Xonga tegishli bo‘lgan bu chorva mollarining bahosi oqsoqol va aminlarning bergan ma‘lumotlariga ko‘ra, 30 082 tanga hisoblangan.

Qo‘qon xonining har bir qishloqda alohida chorva boquvchilari bo‘lgan. Xonning chorva mollari minglab yoki o‘n minglab bosh bo‘lgan. O‘rta Osiyoda bunday katta boylikka faqatgina Xo‘ja Ahror va Xo‘ja Sa‘dlarning avlodlarigina egalik qilishlari mumkin edi. Quyidagi jadvalda biz xonlik qishloqlarida xon chorva mollarini boquvchilar soni va chorva soni haqidagi ma‘lumot bilan tanishamiz:

No	Chorva mollari joylashgan hudud nomi	Qo‘lida chorva mollari bo‘lgan shaxslar soni	Qo‘ylar soni	Ho‘kizlar soni	Otlar soni
1	Yozyovon	9	485	-	-
2	Xonobod	3	103	28	-
3	Qumariq	30	1092	3	1
4	Orol	7	394	-	-
5	Qoratepa	3	180	-	-
6	Bo‘tqachi	1	66	2	-
7	Axshak	27	1121	-	-
8	Zarkent	12	425	-	-
9	Ramadon	20	782	-	-
10	Garbobo	12	760	4	-
11	Xonariq	12	786	-	-
12	Arabmazor	10	323	-	-
13	Varzak	12	556	-	-
14	Nayza-Qorayog‘och	2	37	-	-
15	Yangisoy	7	220	-	-
16	Xotin-qochar	2	88	-	-
17	Qaqir daryosi bo‘yi	6	276	-	-
18	Pungon	24	1091	-	-
19	Yakkabed	6	347	-	-
20	Qo‘rg‘oncha	7	220	-	-
21	Shahartepa	8	311	-	-
22	Shoh-mirza	2	146	-	-

23	Langar daryosi bo‘yi	5	157	-	-
24	Qora-kaltak	3	106	2	-
25	Do‘rmancha	2	33	-	-
26	Qora-jiyda	5	76	-	-
27	G‘ishtmon	6	171	-	-
28	Qora-qushchi	6	124	-	-
29	O‘qchi, Junbozor, Boltako‘l, Oqbo‘yra, Oqtepa, Ingichka va To‘qboy	18	869	-	-
30	Quva	1	192	-	-
31	Jami:	268 kishi	11537	39	1

Bu faqatgina, xon chorvasini boqqanlar haqidagi bir vasiqa xolos. Bunga o‘xshash xon chorvasini boqqanlar nihoyatda ko‘p bo‘lgan. Masalan, shulardan birida chorva boquvchi 18 kishini va ularning qo‘lidagi 23 700 ming bosh chorva haqida ma‘lumot beriladi. Xon chorvasini boqqanlar, chorva yetilgandan so‘ng uni ko‘tara narxda sotganlar va undan kelgan foyda xon xazinasiga tushgan.

Amin, sarkor va oqsoqollar nazorati ostida xong tegishli bo‘lgan boshqa chovar mollari, ya‘ni qoramol, ho‘kiz, sigir, biya va tuyalarni xon xonadoni, ya‘ni saroyga go‘sh va sut mahsulotlari yetkazib berish uchun boqqanlar.

Xon va uning xonadoniga tegishli bo‘lgan yirik shoxli hayvonlar ham bo‘lgan. Xon xonadoniga tegishli bo‘lgan hayvonlarga maxsus buyruq bilan yem tarqatilgan. Masalan, Muhammad Sodiq sarkor xon chorvasiga yem so‘raganida inoqlar Davlat sag‘irning ruxsati bilan bera olishini, u esa xon ruxsat bermasdan hech narsa bera olmasligini aytgan edi.

Middendorf ma‘lumotiga ko‘ra, Marg‘ilonda ikki haftalik echki bolasi 2,5 rublga sotilgan. Echki suti foydali, lekin u oz sut bergan. Uch-to‘rtta echkidan sog‘ib olingan sut bir sigirdan sotib olingan sutga teng bo‘lar edi. Tog‘ vodiylarida ham echkilarni uchratish mumkin, lekin ulardan asosan qo‘ylarni yetakchisi sifatida foydalanganlar.

Bitta echki bir martada 1½ funt miqdorida jun bera olgan. Undan asosan uy xo‘jaligida foydalanib, olingan junning ¼ qismi toza tivit hisoblangan. Bunday tivitning bir pud 5 rublgacha baholangan.

Middendorf Vodilda yomg‘ir yoqqanida juni ikkiga ayrilgan, o‘rtadagi terisi ko‘rinib qolgan echki haqida ma‘lumot beradi. Uning ma‘lumoticha bunday tipdagi echkilar Kashmirdan keltirilib, ko‘paytirilgan.

3. Xonlikda yer egaligi turlari

Qo‘qon xonligidagi yer egaligi shu davr O‘rta Osiyoda mavjud xonlik va amirlikdan biroz farq qilgan. Umuman Qo‘qon xonligi arxiv materiallari asosan xonlik yerlarini uch kategoriyaga bo‘lish mumkin:

1. Maxsus ishlar uchun ajratilgan yerlar: uning daromadi xon saroyi, xon otliq askarlari uchun sarflangan yerlar;
2. Qo‘riq yerlar;
3. Xon shaxsiy va oila a‘zolari yerlari.

Maxsus ishlar uchun ajratilgan yerlar xoss, xossa¹⁵ yoki miri¹⁶ deb, qo‘riq yerlar – quruq¹⁷, shaxsan xon yoki oila a‘zolariga tegishli yerlar esa xonlik arxiv hujjatlariga ko‘ra, chek¹⁸ deb atalgan.

Qo‘qon xonligidagi hisobot arxivlarida asosan yuqoridagi ikki yer egaligi turi haqida ma‘lumot beriladi. Arxiv hisobotlarida uchinchi yer egaligi haqida juda kam ma‘lumot berilgan.

Maxsus ajratilgan yerlar N.N.Pontusov, A.L.Kun, V.P.Nalivkin asarlarida ma‘lumot berilgan. V.P.Nalivkinning ma‘lumotiga ko‘ra, bu ikki yer egaligi xon xazinasining asosiy qismini tashkil etgan. Xazinaning asosiy qismini tashkil etgan soliqlar zakot hisoblanib, udel sifatida berilgan yer egaligidan tushgan soliqlar bo‘lgan va xos yoki xoslik deb atalgan. Xoslik deb atalgan soliq hokimga emas, balki xon tomonidan tayinlangan maxsus saroy amaldorlariga to‘langan.

Bunday ma‘lumotni N.N.Pontusov ham beradi: “Xiroj yig‘imlari bir necha o‘n qishloqdan (xoslik-qishloq) ikki inoq yiqqan; bu inoqlarning har biriga bozori bo‘lgan va bo‘lmagan (40 xonadondan 50 xonadongacha) bir necha qishloq to‘g‘ri kelgan”. A.L.Kun bu haqida shunday fikr beradi: “Bekliklardan mustaqil bo‘lgan bir qancha qishloqlar bo‘lib, ular xondan boshqa hech kimga bo‘ysunmas edilar, ular xon tomonidan qo‘yilgan sarkorlar tomonidan boshqarilib, sarkorlar sobiq qullar hisoblangan”. Shunday qilib uch muallifning ma‘lumotlariga qaraganda, Qo‘qon xonligida xonga qarashli yerlar, Xudoyorxon zamondoshlarining fikricha, xonga qarashli qishloqlar xoslik deb atalib, bu yerlardan kelgan barcha daromadlar Xon saroyi va qo‘shin uchun sarflangan. Bu qishloqlar xon tomonidan tayinlangan maxsus amaldorlar tomonidan boshqarilgan.

“Udel yerlar” xon oilasiga tegishli yerlar bo‘lib, u yerdagi qishloqlari bilan birga xonga qarashli bo‘lgan. Ularga misol qilib, Yor masjidni ko‘rsatishimiz mumkin.

Nalivkinning ma‘lumoticha Yor masjid Qo‘qondan 4 verst uzoqlikda joylashgan edi. Muhammad Hakimxon to‘ra ma‘lumoticha Yor masjid Qo‘qonning g‘arbida 1 farsax uzoqlikda joylashgan edi.

“Muntaxab at-tavorix” asarida ma‘lumot berilishicha, Yor masjid Qo‘qon xoni Umarxonning ov qiladigan qo‘riq yerlari sifatida eslatilgan. Uning so‘zlariga qaraganda Yor masjidning yer maydoni 4 ming tanob (qariyb 2 ming gektar) ni tashkil etgan. U yerda ko‘l, sholi maydoni, turli xil mevali bog‘lar bo‘lgan. Qo‘qon xonlari bu yerda devorlari gullar bilan bezatilgan baland saroylar barpo etgan edilar. Qamishzorlar o‘rdak, g‘oz, tustovuq va turli yovvoyi qushlarga boy bo‘lgan. Bu yer Qo‘qon xonlarining ov maydoni - shikorgoh bo‘lgan.

XIX asrning 60-70-yillariga oid bo‘lgan ma‘lumotlarga qaraganda, Yor masjid biroz o‘zgarishlar bilan bu davrda ham saqlanib qolgan. Xudoyorxon davrida qo‘riq yerlarni nazorat qilish uchun maxsus lavozim bo‘lib, qo‘riqchi deb atalgan. qo‘riq yerlarda hech kim ruxsatsiz ov qilishi mumkin emas edi. Qo‘riq yerlardan xon xonadoni uchun qamishlar, o‘tinlar tayyorlangan.

Xudoyorxonning uchinchi hukmronligi davrida Yor masjid quyidagi qishloqlar kirgan: Oq masjid, Amirobod, Eshonbobo, Qizil musht, Qirqlar, Sariosiyo. Bu arxiv ma‘lumotlarida

¹⁵ Хосса (араб), хосса (араб-тожикча) – асосий маъноси; “махсус”, “давлатга тегишли” деган маъноларни билдиради.

¹⁶ Мири (араб-тожикча) – асосий маъноси; “зодагонлик”, “хукмдор” деган маъноларни билдиради

¹⁷ Курук (туркча), хориг (мўнгулча) – асосий тушунчаси; “қўрик”, кейинчалик Ўрта Осиёда “ов учун махсус ажратилган яйлов ва чакалакзорлар”ни англатган

¹⁸ Чек (туркча) – асосий маъноси: “чегара”

boshqa qishloqlar bir qatorda Oltiqosh, Arabqul, Barzangi, Ganjiravon, G‘umayli, Dang‘ara, Jadagi, Qoshg‘ar, Qulboy, Mang‘it qishloq, Minglar, Mirboqiy, Nayman, Targ‘ava, Tegirmonboshi, Shukron, Yakkamullalar ham Yor masjid hududiga kirganligi qayd etiladi. 1909-yil Skobelevda nashr qilingan “Farg‘ona viloyati manzilgohlari ro‘yxati”ga ko‘ra, yuqorida qayd etilgan qishloqlar Aravon volostida, bir qismi esa Ganjiravon va Qaynar volostlarida joylashganligi aytib o‘tilgan.

Umarxon vafotidan bir necha o‘n yil keyin Yor masjidda bir qancha yangi qishloqlar qad ko‘targan va shu bilan birgalikda ba‘zi yangi ochilgan yerlar Yor masjidga qo‘shilgan edi.

“Udel” va “toj yerlari” bilan birgalikda daromali xon o‘rdasi uchun olinadigan xonga qarashli shaxsiy yerlar ham bo‘lganki, u yerlar ham soliq to‘lamaydigan mulk yerlaridan farq qilmagan. Bunday yer egaligi turli yo‘llar bilan paydo bo‘lgan: amaldor va turli odamlar yerlarini musodara qilish, jinoyatda ayblanib, xiyonatkor deb e‘lon qilingan uzurpatorlar yerlarini musodara qilish orqali vujudga kelgan. Musulmonqul hokimiyati ag‘darilgandan keyin qipchoqlarning barcha yerlarini musodara qilib, aholiga yarim bahosiga sotgan. Keyinchalik Mallaxon davrida (1858-1862) ularning yerlari qaytarib berilgan. Xudoyorxon turli yo‘llar bilan o‘z yerlarini kengaytirishga uringan: Sirdaryo bo‘ylaridagi qirg‘oq yerlarini o‘zlashtirgan, chorvadorlarning yaylovlarini tortib olish, xususiy yerlarni arzon-garovga sotib olish va hokazo. 1875-yili Xudoyorxonning Qo‘qon xonligidan qochgan paytdagi mulki va sarmoyasi Middendorf ma‘lumoticha, 7 million rublgacha bo‘lgan. Xudoyorxon boyligining asosini shaxsiy yerlari bilan birgalikda, savdogarlar orqali ko‘payotgan pul sarmoyasi, o‘ziga tegishli savdo do‘konlari, hunarmandchilik ustaxonalaridan keladigan ijara haqlari orqali ko‘paygan.

Xudoyorxon va uning o‘g‘illariga tegishli yerlar haqidagi ma‘lumotlar arxivlarda saqlanib qolmagan. Xudoyorxon shaxsiy yerlari haqida faqat Cheki Yor masjid haqidagi vasiqa saqlanib qolgan xolos. Bu atama 1909-yilgi “Farg‘ona aholisini ro‘yxatga olish”da eslatilgan. Bu qishloq Aravon volostidagi G‘umayli QFYda joylashgan. Bu ro‘yxatda yana Cheki Xudoyorxon (Qo‘qon uezdi Beshariq uchastkasi Qudash volosti Yakkatut QFYda) nomli manzil ham eslatilgan. Xonga tegishli bo‘lgan bunday yerlar kam bo‘lmagan. Yor masjiddagi udel yerlaridan olingan donlar alohida, chek yerlaridan olingan donlar alohida hisoblangan. Ro‘yxatga yana Chek Nasriddin-bek va Chek Nasr-iddinbek nomli qishloqlar kirgan. Bu qishloqlar Andijon uezdi Bozorqo‘rg‘on volosti Moygir uchastkasida; Chek Madaminbek qishlog‘i esa Qo‘qon uezdi Bachqir uchastkasida joylashgan edi.

Shubha yo‘qki, bu qishloqlar bir paytlar Xudoyorxonning o‘g‘illari Muhammad Aminbek va Nasriddinbeklarning chek yerlari hisoblangan. 1909-yilgi ro‘yxatga kirgan manzilgohlar oldiga “chek” so‘zi qo‘shilgan qishloqlar soni 50 dan ortiq edi. Qo‘qon va Marg‘ilon uezdlarida, qisman Andijon uezdida, O‘sh volostining bir necha qishloqlari shunday nomlar bilan atalgan. Bunday nomli qishloqlar xon va oila a‘zolariga (Chek Mallaxon – yuqorida aytilganidek) tegishli bo‘lgan. Shu bilan birgalikda saroy amaldorlari va ruhoniylariga tegishli cheklar ham bo‘lgan. Masalan, Marg‘ilon uezdida Chek Iso Avliyo nomli ikki qishloq bo‘lgan. Bizga ma‘lumki, Iso Avliyo Xudoyorxo ishonchli kishisi va maslahatchisi bo‘lgan. Yana quyidagi nomli qishloqlar ham uchraydi: Chek Xolnazar parvonachi, Chek Dasturxonchi, Chek Sharif sarkor, Chek Qozikalon va hokazo.

“Chek” so‘zi qo‘shib ishlatilgan atamalar bilan eslatilgan manzillar bular xon oilasi, saroy amaldorlari va ruhoniylarga tegishli hududlar hisoblangan. Bu hududlarda joylashgan qishloqlar ham yerlar kimga tegishli bo‘lsa u shaxs nomi bilan atalgan.

Cheklarga u yerda yashovchi dehqonlar ham kirgan. Chek egasi chekning butun xo‘jayini hisoblangan. Masalan, Xudoyorxon Muhammad Aminbek cheki amin va oqsoqoliga u yerga ichish va sug‘orish uchun hamda yelim tayyorlash uchun suv berish haqida farmon bergan.

Afsuski, bu tur yerlar haqida ma‘lumotlar saqlanmagan. Shuning uchun ham bunday yerlarni aniqlash qiyinchilik tug‘diradi. Shuni aytish mumkinki, hukmdor tomonidan davlat yer fondidan iqto tariqasida vaqtincha foydalanish maqsadida oila a‘zolari, saroy amaldorlari va turli shaxslarga berilgan.

Shu bilan birgalikda, Qo‘qon xonlari shaxsan o‘zlariga tegishli bo‘lgan bog‘lariga ham ega bo‘lgan. Masalan, Urganjibog‘, Afg‘onbog‘ kabilar. Xudoyorxonning bog‘lari haqida ma‘lumot saqlanmagan. Arxivlarda faqatgina, Muhammad Alixonning bog‘i haqida ma‘lumot saqlanib qolgan. Bu bog‘ Xudoyorxon davrida Yor masjid deb atalgan Oq masjidda joylashgan edi. Bog‘ 11 tanob (5,5 gektar) bo‘lib, asosan uzumzor va mevali daraxtlardan iborat bo‘lgan. Bog‘da hovuz bo‘lib, uning atrofiga teraklar ekilgan edi. Bog‘ning bir qismida qurilish ishlari olib borilgan.

“Udel yerlari”, ya‘ni xon yerlari maxsus tayinlangan amaldorlar orqali boshqarilgan.

Yor masjid hududida xon yerlaridan tashqari, xususiy yer egaligi ham mavjud bo‘lib, bu haqidagi ma‘lumotlar xon arxivlarida bir hujjat saqlanib qolgan bo‘lib, u 1282/1865-1866-yillarga oiddir. Bu vasiqa 1282-1288/1865-1872-yillarda Yor masjiddagi daromad va xarajatga oid edi. Bu ro‘yxat kirish qismida shunday so‘zlar yozilgan: “Yor masjiddagi vasiqadorlar haqida”. Ro‘yxatga umumiy summasi 3521 tillaga¹⁹ teng bo‘lgan 22 kishi kiritilgan. Aslida hudud ancha katta bo‘lib, baholanganidan bir necha yuz tilla qimmat bo‘lgan. Ba‘zi boylar bir necha uchastkalariga egalik qilishgan. Masalan, shahrisabzlik Azimjon boy oltita vasiqaga bo‘lib, uning qiymati 462 tillaga teng edi.

Bu yer egalarining ro‘yxatini nima maqsadda tuzilganligini aytish qiyin. Balki bu ro‘yxat xonning buyrug‘i bilan tuzilib, keyinchalik arzon narxda, ya‘ni vasiqada ko‘rsatilgan narxda yerlarni sotib olish va Yor masjiddagi xon yer fondini ko‘paytirish maqsadida tuzilgan bo‘lishi mumkin.

Arxivlarda Xudoyorxonning Yor masjidda xususiy yer egalaridan yerlarni sotib olish haqidagi ma‘lumot mavjud. Arxivdagi ustuncha shaklida yozilgan rasmiy xatda mansabdor shaxslarning Yor masjidda yerlar masalasidagi mas‘uliyatlari yozilgan. Ma‘lumot 1871-1872-yillarga oiddir. Bu ro‘yxatda G‘umayli, Dang‘ara, Amirobod va Tegirmonboshi qishloqlaridagi noma‘lum shaxslarga pul to‘langanligi va don berilganligi aytilgan.

Xatda quyidagilar aytilgan: “G‘umayli va Dang‘araqishloq fuqarolari pul evaziga yerlarini bo‘shatdilar”. Xatda yer uchun don (jo‘xori, bug‘doy, sholi) va 224 tillalik yo‘ng‘ichqa, 16 tilla pul berilganligi aytilgan. Donning qanchaga baholanganligi aytilmagan, lekin don bozor narxida, ya‘ni yuqori summada baholangan. Qancha yer sotib olinganligi xatda aytilmagan.

Yor masjidda yerlarni sotib olish yilma-yil amalga oshirib borilgan. Arxivda 8 rabiulavval to‘ng‘iz yilida (15-aprel, 1875-yil) tuzilgan yozuv mavjud. Yozuvda quyidagicha kirish so‘zlari mavjud:

“To‘ng‘iz yili 8 rabiul I da Qizil mushtdagi yer uchun besh yuz tilla hisobida g‘alla berildi”.

Ro‘yxatda 46 kishining ismi berilgan, unda o‘ttiz sakkiz yarim uchastka (chek) sotib olinganligi aytilgan. Bir chek taxminan 15 tillaga baholangan. Chunki chek yerlar unchalik

¹⁹ Тилла (тожикча) – олтин танга. Рус пулида 3 рубл 80 копейкка тенг (XIX асрнинг II ярмида). Вазни 4 гр атрофида.

katta bo'lmay, ularning ba'zilariga bir necha kishi egalik qilar edi xolos. Yozuvda qishloqdagi bir necha vaqf yerlarini sotib olinganligi aytilgan; ulardan biri qishloqdagi Dovud xoja eshon masjidiga qarashli bo'lib, ikki yarim chek bo'lgan. Sotib olingan bir chek ikki yetimga tegishli bo'lib, ularning vasiylaridan sotib olingan. Bu yerda bir savol tug'iladi: chek yer maydoni qanchani tashkil etadi? M.Nalivkina va M.S.Andreevlarning tadqiqotlariga ko'ra, Farg'ona vodiysida "chek" atamasi 432-450 metr²ga teng bo'lgan.

Shunga qaramay, dehqonlarning chek yerlari unchalik ko'p bo'lmagan. Shunga yarasha sotib olingan yerlar ham unchalik ko'p bo'lmagan. O'z yerlarini sotib, yersiz qolgan dehqonlar xon yerlarining chorikoriga aylanganlar. Yuqorida aytib o'tganimiz yozuvda ko'pincha yerlar evaziga don (jo'xori, bug'doy, mosh, sholi) berilgani aytilgan. Donlar bozor narxida baholangan. Masalan, o'sha vaqtda bozorda 1 tillaga 3 chorak²⁰ (15 pud) jo'xori, 1 tilla pulga 1 choragu 12 chaksa²¹ (8 pud) mosh, shu pulga 2 choragu 2 chaksa (10,5 pud) sholi, 1 choragu 4 chaksa (5 pud) tozalanmagan paxta berar edi.

Keltirilgan ma'lumotda qovun uchun olingan harbuza puli haqida bo'lim mavjud. Harbuza puli tanobonaning bir ko'rinishi bo'lib, u asosan poliz ekinlaridan, bog'lardan, o'rmonzorlardan, uzum va beda ekinlaridan olingan. Yerni sotib olish vaqtida yerdan olinadigan soliq tanobona hisoblangan, haqini to'lash paytida to'lanishi kerak bo'lgan summadan tanobona summasi chiqarib tashlangan, to'lanishi kerak bo'lgan summaga esa don berilgan. Shunday qilib, asosan davlat yerlari hisoblangan Yor masjidda ham xususiy yer egalari paydo bo'lgan. Ular ko'pincha boylar bo'lib, ularning katta-katta yerlari mavjud bo'lgan. Oddiy dehqonlarning yerlari esa bir necha yuz metr²ni tashkil etgan xolos.

Yor masjidda xususiy yer egalari paydo bo'lishi turlicha bo'lgan. Ba'zi yerlar davlat tomonidan in'om tariqasida, ba'zilar davlat yerlari tarkibida ishlagan dehqonlarga, ba'zilar esa qishloq jamoasi tarafidan xon yerlarini ijaraga olish asnosida paydo bo'lgan.

Yana Qo'qon xonlari tezlikda pul kerak bo'lib qolganida davlat yerlarini xususiy shaxslarga sotganlar. P.P.Ivanovning ma'lumoticha (afsuski manbasi aniq emas), Umarxon Yangiariqni qazdirganida Namangan viloyatidagi sug'orma yerlarning bir qismini qipchoqlarga sotgan edi. Qolgan yerlarni o'zining yaqinlariga kanalni qazishdagi qo'shgan ulushiga ko'ra tarqatgan edi. Yuqorida eslatilganidek, 1852-yilda Xudoyorxon qipchoqlar isyonini bostirib, Musulmonqulni qatl etganidan keyin ularga tegishli yerlarni musodara qilib, yarim bahosiga sotgan edi. Lekin davlat yerlarining asosiy qismi hech kimga sotilmagan, ular asosan xon oila a'zolari o'rtasida bo'lingan edi. Yuqorida aytilganidek Yor masjidda kichik-kichik xususiy yer egalari paydo bo'lishi davlat yerlarining kamayishiga unchalik ta'sir etmagan edi.

Hujjatlarda davlat yerlarining qishloq jamoalariga sotilganligi haqidagi faktlar mavjuddir. Noma'lum shaxsga oid bir hujjatda berilgan ma'lumotga ko'ra, Xudoyorxon Gurgtepa²² aholisini to'plab, davlat yerlarini ijaraga olganlik haqidagi vasiqaga ega bo'lganlarning yerlarini jamoa yerlariga aylantirishga, har bir kishiga qozi orqali alohida-alohida vasiqalar berilishini e'lon qiladi. Qishloqdagi amin va oqsoqollarning fikriga ko'ra, Gurgtepaga ma'lumot berilgan davr (ma'lumot XIX asrning 60-yillariga oid)dan "yuz yigirma yil oldin asos solingan" edi. 90 yil davomida Gurtepaliklar chorikor sifatida mehnat qilib, hosilning 1/3 ini soliq sifatida to'laganlar. Keyinchalik 30 yil oldin qishloq jamoasi Xudoyorxondan

²⁰ Чорак (тожикча) – Қўқон хонлигидаги оғирлик ўлчови, тахминан 4,5- 5 пудга тенг. М.С.Андреев маълумотига кўра, Косон туманида чорак 5 пуд, 13,3 фунтга тенг

²¹ Чакса (тожикча) – Қўқон хонлигидаги оғирлик ўлчов бирлиги, 11,25 фунтга тенг.

²² Гургтепа Худоёрхон даврида Ёр масжиддаги давлат ерларига қарашли ҳудудда жойлашган бир қишлоқ бўлган.

85 tillaga yerlarini sotib olib, jamoa orasida tarqatgan edilar. Shunday qilib, Gurgtepaliklar xususiy yer egalari egalariga aylandilar va xonga 1/5 miqdorida soliq to'laydigan bo'ldilar. Xabardagi ma'lumotga ko'ra, Gurgtepaliklar oldin umumiy bir vasiqaga ega bo'lgan bo'lsalar, keyinchalik xonning buyrug'iga ko'ra, alohida-alohida vasiqaga ega bo'lganliklari tufayli o'z yerlarini erkin oldi-sotti qilishlari mumkin edi. Lekin bunday hodisalar xonlikda yagona emas edi, boshqa hududlarda ham davlat yerlarini xususiylashtirish davom etgan edi.

Lekin Qo'qon xonligi Xudoyorxon davrida "udel yerlari", "qo'riqxonalar" va xonga tegishli shaxsiy yerlar hissasi ko'payib borgan. Xudoyorxon ko'plab qishloq jamoasi yerlarini davlat yerlariga aylantirgan. Xonlikdagi ko'plab xususiy yer egaligi qamishzorlar va turli o'simliklar ko'p o'sadigan asosan daryo va ko'l bo'ylarida joylashgan bo'lib, hukmdorlar ularni "qo'riqxonalar" nomi ostida davlat yerlariga aylantirishga harakat qilgan.

Yor masjidda joylashgan xon yerlari va xususiy yerlarda asosan bug'doy, sholi, oq jo'xori, qisman – mosh, tariq, beda ekilgan. Shu bilan birgalikda bu yerlarda ot uchun kechki pishib yetilmaydigan jo'xori ekilgan. Bu xon yerlarida bog'chalar mavjud bo'lib, u yerlarga asosan qovunlar ekilgan. Bog'i Yor masjid deb atalgan bog'da esa mevali daraxtlar ekilgan.

Xon yerlarini ishlatish uchun ular ijaraga berilgan, shuningdek, ularni ishlatish uchun hashar tashkil etilgan, ba'zi hollarda mardikorlar mehnatidan foydalanilgan.

Xon yerlarini ishlatishda ijara usulining eng keng tarqalgan usuli chorikorlikka berish edi. Ijarachilar va chorikorlar atamalarini izohlash uchun esa xonlik arxivi hujjatlarida ikki termin ishlatilgan: chekchi²³ va koranda²⁴.

Yerlarning bir qismi in'om tariqasida yuqori martabali shaxslar va mansabdorlarga, saroy amaldorlari va harbiylarga berilgan. Xonlik arxivida xon yerlarining shaxslarga va saroy amaldorlariga in'om tariqasida berilganligi to'g'risidagi hujjat saqlanib qolgan. Lekin hujjatda yerning kimga, qancha muddatga, hujjat muallifi, vaqti ko'rsatilmagan. Hujjat Xudoyorxonning uchinchi hukmronligi davriga oiddir.

Hujjatda mansabdor shaxslar, ularning ismlari, ularga qancha urug'lik berilgani, ularning chorikorlari soni keltirilgan. Hujjatda xonlikda mavjud bo'lgan amaldorlar nomlari ham keltirilgan. Qushbegi, saroy soatsozi – soatgar, saroyga tegishli yerlarga mutassaddi, inoq²⁵, rais, dodxoh, xudaychi²⁶, ponsodboshi²⁷, yuzboshilar haqida ma'lumot berilgan.

Materiallar yetarli emasligi tufayli saroy amaldorlariga chek yerlar qanday shart bilan, qancha muddatga berilganligi haqida ma'lumotga ega emasmiz. Shuni aytish mumkinki, soliqlar asosan chorikorlardan undirib olingan. Hujjatlarda in'om tariqasida yer olganlar tanobona va xiroj soliqlaridan ozod qilinganligi ta'kidlangan. Chorikorlar ham xon xazinasiga, ham yer egalari soliq to'laganlar. Bundan ikki maqsad ko'zlangan: birinchisi, xon saroyi amaldorlarini renta hisobiga saqlab turish, ikkinchisi, rentaning bir qismini xon xazinasiga kelib tushishini, xon xazinasining mavjudligini ta'minlash edi.

Lekin barcha saroy amaldorlari ham benefetsiy, ya'ni in'om yerlar olish imkoniyati bo'lmagan. Yer olmagan saroy amaldorlariga xiroj uchun yig'ilgan donli hosildan barot berilgan. Cheklar asosan xonga yaqin bo'lganlar va beklarga berilgan. Beklarning yaqin

²³ Чекчи (туркча) – “чек” сўзидан келиб чиққан, ерни ижарага олган шахс.

²⁴ Коранда (тожикча) – “қайта ишлайдиган” сўзидан келиб чиққан бўлиб, Ўрта Осиёда чорикор маъносида ишлатилган.

²⁵ Ўрта Осиё хонликларида сарой амалдори

²⁶ Худайчи – ҳарбий мансаб, адъютант

²⁷ Понсобоши - ҳарбий амалдор, отряд бошлиғи, беш юз кишилик отряд бошлиғи

odamlariga ham chek yerlar berilgan. Arxivlarda Xudoyorxon o'gay ukasi Sulton Murodbekning yaqin odami bo'lgan Baxti Muhammad qo'rboshi boshqargan "xos" deb atalgan xon yerlariga ekish uchun beda urug'i jo'natish haqida buyruq saqlanib qolgan.

Xondan chek yer olganlar odatda olgan yerlarini ishlash uchun chorikorlarga ijaraga bo'lib berganlar. Ijaraga topshirilgan yerlar ma'lum bir chegaralarga ega bo'lib, berilgan yerlar qattiq nazorat qilingan. Arxivda chek yer olganlar "chekchi" yoki "chekiyon" deb atalgan. Ijaraga yer olganlar asosan qishloq boylari, qishloq ma'muriyati, oqsoqollar, mirzalar, xojalar va boshqa shaxslar bo'lgan. Ijaraga yer olganlar chorikorlarga odatdagidek yerlarni bo'lib berganlar.

Yerlarni ijaraga olish usuli O'rta Osiyo, xususan Farg'ona vodiysida subarenda deb atalib, uning tartibi quyidagicha bo'lgan: odatda boylar yerni hosilni yarmini topshirish sharti bilan ijaraga olganlar, ijaraga olingan yer esa qishloq kambag'allariga hosilning 1/5 yoki 2/5 qismini olib qolish sharti bilan bo'lib berilgan. Arxivlarda chek yerni ijaraga olib ishlovchi chorikorlar korandai-chekchi yoki korandai-chekchiyon nomlari bilan saqlanib qolgan.

Boylar yerlarni pul evaziga ma'lum muddat uchun olib, kambag'allarga bo'lib berganlar. Chorikorlar esa o'z qurollari bilan yerga ishlov berganlar. Mehnat qurollari bo'lmagan chorikorlar esa xonga maxsus iltimosnoma yozib, unga ko'ra, xonning buyrug'i bilan ularning talabi qondirilgan.

Umuman yerlar o'ziga to'q odamlar tomonidan puli to'lab ijaraga olingan yerlar chorikorlarga bo'lib berilgan. Xon yerlarini ishlovchilar esa chekchi yoki korandalar deb atalgan. Masalan, 1290/1873-1874-yillarga oid bir hujjatda xossa yerlarida ishlovchi chekchilar ayni paytda korandalar ham deb atalgan.

Shunday qilib, Qo'qon xonligidagi yer egaligi shakllari O'rta Osiyoda mavjud musulmon davlatlaridagi yer egaligidan butkul farq qilgan. Qo'qon xonligida yerlarning barchasi oliy hukmdor – xonga tegishli bo'lib, aslida mavjud bo'lgan xususiy yer egalari yerga emas, balki undagi imoratlar va olinadigan hosilga egalik qilishlari mumkin edi, xolos.

4. Xonlikda irrigatsiya tizimi

Bizga ma'lumki, ekin yerlarining kengayishi xonlik xazinasining boyishiga olib kelar edi. Bu esa o'z navbatida yangi ariqlarning qazilishiga olib kelar edi.

Qo'qon xonligi mavjud bo'lgan davrda irrigatsiya tizimi ancha rivojlangan. Bu ayniqsa, XIX asrning birinchi yarmida taraqqiy etdi. Bu davrda yerlarni sug'orishni tashkil etish uchun yangi kanallar qazildi.

Middendorf ma'lumotiga ko'ra, Yangiariq 1803-yil Irisqulibek boshchiligida ochilgan. U Norin daryosidan boshlangan bo'lib, quyidagi aholi punktlariga suv yetkazib bergan: 1) Chag'araqoxon; 2) Qish rabot; 3) Uychi; 4) Chortoq; 5) Mutagan; 6) Beshtepa-Chortoq kim; 7) Mastura; 8) Tepa-Shahr-Namangan. Oxirgi aholi manzilgohi Uychi, Chortoq va Xonobod volostlari bo'ysunuvchi Namangan shahriga to'g'ri kelgan.

Yoz davridagi suv taqsimotida yetishmovchilik deyarli bo'lmagan. Faqat Yangiariqning oxirgi qismida ba'zan suv yetishmovchiligi bo'lgan xolos. Yangiariqning Namangangacha yetgan qismida 16 qishloq va 36 qipchoqlarning qishlov yerlariga suv yetkazib beradigan 55 ta ariq ochilgan. Suv taqsimotida asosan bosh mirob va unga bo'ysunuvchi 9 ta mirob xizmat qilgan.

Namangan shahrida esa Yangiariqdan mahalliy aholi uchun 15 ta, rus qishloqlari uchun esa 6 ta; Xonobodda esa 12 qishloqni suv bilan ta'minlash uchun 20 ta, umuman Namangan

va uning atrofidagi yerlarni suv bilan ta'minlash maqsadida Yangiariqdan 96 ta ariq chiqarilgan. Yangiariq Namangan atrofidagi 28 ta qishloq va 39 ta qishlov yerlarini suv bilan ta'minlagan.

Umuman Namangan atrofidagi 129 ta qishloq va 39 ta qishlov yerlari uchun 337 tegirmon suv kerak bo'lgan, lekin bu davrda bu hududlarga 276 tegirmon suv berilgan. Shundan ko'rinadiki, Namangan atroflaridagi manzilgohlar uchun 61 tegirmon suvi yetishmagan. Shunga qaramasdan Yangiariq Xon ariqdek suvga yetarlicha boy bo'lgan.

“Nujum at-tavorix” asari muallifi xabar berishicha, Umarxon O'zgand yaqinida Sirdaryodan Andijon va Marg'ilon yerlarini sug'orishga xizmat qiladigan ariq qazdirgan bo'lib, aynan shu ishi tufayli Shahrixon shahriga asos solingan. Ariqning dastlabki qismi 3 yil davomida qazilgan va keyingi 10 yil ichida ariq uzaytirilgan va kengaytirilgan. Bu ariq Yangiariq nomi bilan mashhurdir. U dastlab Norin daryosidan chiqarilib, Namangan viloyati yerlarini sug'organ. Ariqning bir qism suvi Qirg'izqo'rg'on yaqinida Qoradaryodan olingan. Ariq qazilishiga namanganlik Usta Eshonboy rahbarlik qilgan. V.Nalivkin ma'lumotiga qaraganda, ariq qazish ishi suv yetishmasligi sababli katta yer egalarining qat'iy talabi bilan amalga oshirilgan. Shu bilan birgalikda bu davrda Yangiariqning quyi qismida Norin daryosi suvi bilan to'yingan Xon va Zurbak ariqlari ham qazilgan. Ular kattaligi bilan Yangiariqdan anchagina kichik edi. Middendorf ma'lumotiga ko'ra, bu ariqlar 1803-yilda Irisqulibek boshchiligida qazilgan.

Muhammadalixon davrida Ilamish-mozorda Sirdaryodan 30 kilometrlik (4 farsax) kanal qazdirgan. Kanalning kengligi 12 metr (8-10 quloch), chuqurligi esa taxminan 3 metrga yetar edi. Bu kanal orqali Sirdaryoning chap qirg'oq yerlari sug'orilgan. Kanalning suvi asosan xiroj yerlarida mehnat qilgan odamlarning yerlari uchun ochilgan.

Mulla Niyoz Muhammad Xudoyorxon hukmronligining 11-yilida Chinobodda bir ariq qazdirganligini va bu ariq tugagan yerda Bahorobod nomli qishloqqa asos solganligii haqida ma'lumot beradi.

Middendorf ma'lumotiga ko'ra, Marg'ilon hokimi Ustamboi 1853-yilda Fayzobodda Dovonrabotgacha ariq qazdirib, bu yerlarga 300 ta oilani joylashtirgan. Lekin oradan uch yil o'tgach Ustamboi vafot etadi. Uning vafoti bilan bu yerlarning suv ta'minoti to'xtaydi va aholi bu yerlarni tark etadi.

XIX asrda Farg'ona vodiysida yerlar asosan tabiiy daryo va suv manbalari asosida ishlanar edi: vodiydagi Sirdaryodan qazilgan katta kanallar hali barpo etilmagan edi. XIX asr boshlarida yerlarni sun'iy sug'orishni rivojlantirish maqsadida katta kanallar qazish ishlari boshlandi. XIX asr birinchi yarmida katta kanallar: Yangiariq (Umarxon hukmronligi davrida) va Xonariq (Madalixon hukmronligi davrida) qazildi. XIX asr 60-yillari Xudoyorxon hukmronligining uchinchi davrida Farg'ona vodiysidagi eng katta kanallardan biri Ulug'nahr qazildi.

Yuqorida zikr etilganidek, bu kanalning qurilishiga oid yozma manbalarning kamligi tufayli uning qurilishi tarixini o'rganishda ham turli xatoliklarga yo'l qo'yilgan. Masalan, V.S.Batrakovning yozishicha, kanal qurilishidan maqsad Andijon shahriniig shimoliy qismini sug'orish bo'lib, kanal qurilishi Farg'ona vodiysiniig Rusiya imperiyasi tomonidan zabt etilgunga qadar davom etib, u Yozyovongacha qazilgan, 1875-yili uning faqat yarmi qurilgan. Tarixchi I.Po'latov va A.Mustafoyevlar esa Ulug'nahr kanalining qurilishidan asosiy maqsad xonlikning poytaxti Qo'qonni suv bilan ta'minlash bo'lgani uchun, u shahargacha yetkazilgan, degan fikrni bildiradilar.

Fikrimizcha, kanalning qurilishi Qo‘qon xonligining dehqonchilikka ixtisoslashgan hududi - Farg‘ona vodiysining janubi-sharqiy rayonlarini sug‘orish uchun mo‘ljallangan. Bu hududni sug‘orish ishlari XIX asr ibtidosida boshlangan. Shu o‘rinda bu kanal qurilishiga Qo‘qon xoni Xudoyorxon nechuk katta ahamiyat berdi, degan savol tug‘ilishi, tabiiy.

Bizga ma‘lumki, 1858-1863-yilning may oyigacha xonlik taxti uchun kurashlar davrida ariq qazish ishlari vaqtincha to‘xtab qoladi. 1868-yilga kelib Xudoyorxon o‘z hokimiyatini mustahkamlab oladi. Shundan so‘ng u Kuyganyor qishlog‘idan 6 km quyiroqdagi To‘ng‘izto‘sar (hozirgi Mirobod) qishlog‘idan boshlanuvchi 150 km uzunlikdagi (janubi-g‘arbiy yo‘nalishda) Shahrixon, Qoratepa orqali Devonarobod qishlog‘igacha ariq chiqarishni rejalashtirdi. Kanalning qazish ishlari 1868-yil avgust oyida boshlanadi. Shu tariqa Farg‘ona vodiysi sug‘orma dehqonchiligi tarixiga Ulug‘nahr nomi bilan kirgan kanal qurilishi boshlanadi. Bu, xonlik tarixida Markaziy Farg‘onaning janubi-sharqiy hududidagi yerlarni sug‘orish uchun qo‘yilgan ilk qadam edi. Kanal qurilishida har kuni 4000 odam ishlagan, 1868-yili kanalning 30 km (verst)i qazilib, Shahrixongacha yetkazilgan. 1869-yili esa 25 km uzunlikdagi qismlari qazilib, Ko‘rgan-Toshmat qishlog‘igacha yetkazilgan. Sariqjo‘ga zovuri bilan (Shahrixonning quyida joylashgan) kanal o‘zani kesishganidan so‘ng uning yo‘nalishi janubi-g‘arbga tomon o‘zgargan. buning natijasida yo‘l qo‘yilgan xatoliklar, jumladan o‘zanining nishabi noto‘g‘ri olinganligi tufayli kanal suvi Qoratepa qishlog‘idan nariga o‘tmay qolgan. Shunday qilib, kanalning jami uzunligi 55 km (verst) ga yetkazilib, uning 47 km (verst)ida bevosita suv oqqan. 1871-yilga kelib janub tomondan yangi o‘zan qaziladi. Shu tariqa Ulug‘nahr kanali qurib bitkaziladi. Kanal chuqurligi 10-11 arshin bo‘lib, undan 150 tegirmon suv oqqan (bir arshin - 71 sm.ga, bir tegirmon suv miqdori esa 200 l/sek.ga teng).

Qo‘qon xonligining so‘nggi yillaridagi siyosiy vaziyatning keskinlashuvi tufayli Shahrixonsoydan suv oluvchi qishloqlar aholisi o‘zboshimchalik bilan o‘z qishloqlari suv ta‘minotini yaxshilash maqsadida Ulug‘nahr kanalidan ariqlar chiqarib oladi. Natijada, Ulug‘nahr kanali kutilgan natijani bermaydi, ya‘ni yangi yerlarni o‘zlashgarish, sug‘orish ishlari nihoyasiga yetmay qoladi. Shu bilan birga kanal suvini Marg‘ilon-Namangan yerlariga olib borish uchun kichik ariqlar ochish ishi oxiriga yetkazilmagan. Bunday ishlarni amalga oshirish Kuyik maydonida to‘xtab qoladi. Ulug‘nahr birinchi navbatda xon yerlarini suv bilan ta‘minlagan. Andijon, Marg‘ilon va Namangan oralig‘idagi hududlarda suvning kelishi bilan xon va uning yaqinlari nomlari bilan ataluvchi qator aholi manzilgohlari paydo bo‘ladi.

Kanalning nomlanishi xususida shuni aytish lozimki, Ulug‘nahr so‘zining lug‘aviy ma‘nosi Ulug‘daryo ma‘nosini beradi. Fikrimizcha, kanalning bunday nomlanishi to‘g‘ri, chunki u o‘z davrida eng katta sug‘orish tarmoqlaridan biri bo‘lgan.

Xulosa shuki, XIX asrning ikkinchi yarmida Farg‘ona vodiysida qurib ishga tushirilgan bu yirik suv inshooti, shubhasiz, vodiyning janubi-sharqiy hududlari suv ta‘minotini yaxshilash, yangi yerlarni o‘zlashtirish, shu hududda yashovchi xalqlarning turmush darajasini yaxshilashda o‘z imkoniyati darajasida xizmat qilgan.

Arxivlarda suvdan foydalanish bo‘yicha hujjatlar anchagina saqlanib qolgan. Bularning aksariyati Yor masjididagi xon yerlarini navbatdan tashqari suv bilan ta‘minlanishi haqida edi. Yor masjididagi yerlar asosan buloqlar va tog‘lardan oqib keladigan suvlar hamda koriz tizimi asosida vujudga keladigan suvlar bilan sug‘orilar edi. Shunga qaramay, Yor masjidga berilgan suvlar yetarli bo‘lmagan. Natijada ko‘p hollarda davlat yerlari va xususiy yer egalari o‘rtasida suv masalasida kelishmovchiliklar bo‘lib turar edi. Hudud yerlarini suv

bilan ta'minlash masalasida ko'pincha xonning aralashuvi zarur bo'lar edi. U masalada xonning maxsus farmonlari saqlanib qolgan. Farmonlarga ko'ra, xon yerlari navbatsiz va mo'l suv bilan ta'minlanishi kerak edi.

XIX asr 60-yillariga oid Xudoyorxon farmonlaridan birida (bizningcha, bu farmon oqsoqollarning guvohligida) Yor masjididagi yerlarni navbatsiz suv bilan ta'minlashni buyuradi. Farmonda chek egalarining yerlarini ham navbatsiz suv bilan ta'minlash haqida buyurilgan. Farmon miroblar va muboshir (soliq yig'uvchi)larga yo'naltirilgan. 1291/1874-75-yilga oid xon farmonlaridan birida o'g'li Muhammad Aminbek qarashli chek yerlarini navbatsiz suv bilan ta'minlash haqida buyruq beradi. Qo'qon xonligida ham suvga egalik qilish mavjud bo'lgan. Bu xususan Xudoyorxon hukmronligining birinchi davrida to'liq shakllangan edi. Musulmonqul davrida hukmronlikni qo'lga kiritgan qipchoqlar hosildor yerlar bilan birga o'sha yerdagi suvning ham xo'jayini bo'lib olgan edilar. V.P.Nalivkinning ma'lumotiga ko'ra, "qipchoqlar ariqlarni o'zlarining yerlarini suv bilan ta'minlash maqsadida xususiy mulkiga aylantirib olgan edilar, sartlar suvni o'sha ariqni o'ziniki qilib olgan qipchoqqa to'lov to'lagandan keyingina suv olishi mumkin edi".

A.L.Kun ma'lumoticha, Xudoyorxon hukmronligining oxiriga kelganda tog'dan oqib keladigan suv uchun ham soliq solinadigan bo'ldi. Shubhasiz bu farmon xon xazinasini to'ldirish uchun chiqarilgan edi. Xonlikda davlat va xususiy yerlarni sug'orish uchun to'lanadigan soliq turi nima deb atalishi haqida faqatgina bitta ma'lumot saqlanib qolgan. Bunga ko'ra, xonlikda suv uchun to'lanadigan soliq "haqqi ob" (arabcha-tojikcha) yoki "haqqi al-ashrab" deb atalgan. Bu hujjat aslida Qo'qonqishloqning quyida joylashgan Yavkasak jamoatining xonga yo'llagan arznomasi edi. Arznomada kanalning shimolida joylashgan qishloq aholisi ishonchli vakil qilib tayinlangan Mulla Iso Avliyoga yer uchun haqqi arz va suv uchun haqqi al-ashrab to'lashi kerakligi aytiladi. Bu qishloq aholisi bir yil davomida suvdan tekinga foydalanganlar. Shundan so'ng Mulla Iso Avliyo kanaldan qishloqqa boradigan ariqni berkitadilar va suv uchun to'lov talab qiladilar. Suvsiz qolgan qishloq aholisining chorva va ekinlari nobud bo'ladi. Shu yuzdan qishloq jamoasi xonga suvdan foydalanishga ruxsat berishni so'rab arz yo'llaydilar.

Arizaning orqa sahifasida xon devonxonasi xodimining qisqacha izohi yozilgan. Izohnomada suv haqi bo'lgan xiroj va haqqi ob haqida ma'lumot beriladi. Bu atamadan chiqarilgan xulosaga ko'ra, suv uchun to'lanadigan soliq natura, ya'ni hosilning bir qismini to'lash shaklida bo'lgan. Bu arznomada kanalning nomi Nahri kalon (Ulug'nahr) sifatida eslatiladi. Ariza izohnomasida yana "nisfi xiroj" solig'i haqida ma'lumot beriladi. Nisfi xiroj to'lanadigan xirojning yarmiga teng bo'lgan soliq hisoblangan.

5. Xonlikda soliq va hashar ishlari

O'rta Osiyoda feodal majburiyatlari, renta-soliqlar va turli-tuman jarimalar haqidagi umumiy ma'lumotlar ko'pgina asarlarda uchrab turadi. Lekin majburiyat va soliqning Farg'onada qanday bo'lganligi, ayniqsa, uning turlari va miqdori haqida biron yerda batafsil fikr aytilmagan. "Yorliqlar to'plami"dagi hujjatlar XVI-XIX asrlarda Farg'onada bo'lgan renta-soliqlar to'g'risida ma'lumot beradi. Shuni ham aytish kerakki, bu soliq va majburiyatlarning ko'pchiligi bir vaqtga emas, balki XVI-XVII asrlarga to'g'ri keladi. Hujjatlarda ko'rsatilishicha, shu asrlarda Farg'onada quyidagi soliq va jarimalar atamasi muomalada bo'lgan:

1. Xiroj; 2. Tanobona; 3. Moli bog'ot; 4. Qal'a; 5. Qaroqo'noq; 6. Xonachini, xonajoyi, uyina, uy puli; 7. Oyanda va ravanda; 8. O'n ikki bid'at; 9. Boytun-bottut; 10. Qo'riqboniy;

11. Tircho‘b; 12. Kutvoliy; 13. Doriltoy-dorilg‘on; 14. Sabzi puli; 15. O‘qush; 16. Cherikuyon-cherikamon; 17. Hashar; 18. Begor; 19. Muhrik; 20. Mardikor; 21. Qoh; 22. Zaxira; 23. Tarh; 24. Sobun; 25. Molu jihat; 26. Yasoq; 27. O‘lpon; 28. Inonchgiri; 29. Harbuza puli; 30. G‘o‘za puli; 31) Ko‘knor, ko‘knor puli; 32. Muxassal va muxassilona; 33. Pilla; 34. Isor; 35. Dudiy; 36. Falijot; 37. Madadiy; 38. Salomona; 39. To‘yona; 40. Sadrona; 41. Naqibona; 42. Dinora; 43. Osyobona, juvozxona; 44. Jashn; 45. Mirob, mirobona; 46. Na‘rachi, aytarchi, jarchi; 47. Chodir puli; 48. Savsan; 49. Shukurchi; 50. Yurtchi; 51. Yadachi; 52. To‘shakchi; 53. Chiroqchi; 54. Jonqari; 55. Karnaychi; 56. Tag‘or, moli tag‘or; 57. Darug‘a, darug‘agi; 58. Boj; 59. Barot; 60. Naqorachi; 61. Mirishkor; 62. Xarj; 63. Ulufa; 64. Alaf; 65. Yarg‘u; 66. Muhassali mol; 67. Haqqi tavliyat; 68. Dahi yozdah; 69. Dahi nim; 70. Dahi du; 71. Nimni; 72. Avorizot; 73. Ma‘unoti yurtiy; 74. Sadi du, sadi se, sadi chor; 75. Muhdasot; 76. Xarajot; 77. Ixrojot; 78. Xorijiy; 79. Muqarrariy; 80. Olig‘ot; 81. Amalot; 82. Taklifoti mulki; 83. Jamarg‘ayi yurtiya; 84. Taklifoti devoniy; 85. Takolifi ittifoqiy; 86. Takolifi hukmiy; 87. Takolifi ismiy; 88. Takolifi rasmiy; 89. Takolifi yurtiy; 90. G‘allot va boshqalar²⁸.

Xon yerida ishlovchi ijarachi-chorikorlarda yerdan foydalanganlik uchun ikki xil ko‘rinishdagi xiroj olingan. Ijarachilardan xonlik xazinasida uchun olinadigan xiroj – xiroji podshohi, chorikorlardan olinadigan xiroj esa – xiroji dehqoni deb atalgan. Xiroji dehqoni ba‘zi hollarda xiroji korandai tan deb ham atalgan. Xonlik xazinasida xirojning bunday atalishi haqida ma‘lumot saqlanib qolgan.

Yor masjiddagi xususiy yer egalari olinadigan xiroj miqdori esa hosilning 1/5 ni tashkil etgan.

Xiroj - qadimgi Eronda «xirog» deb atalgan. Arablar esa “g” ni “j” qilib, “xiroj” deb yuritganlar. Xiroj - hosildan olinadigan asosiy er solig‘i bo‘lib, ba‘zan dahi du, nimni terminlari bilan yuritiladi va ularga qo‘shilib keladi. By yerda, albatta, “dahi du” xirojning miqdoridir. Ma‘lumki, sinfiy jamiyatda yer podshoning mulki hisoblangan va aholi undan kelgan daromadning bir qismini feodal hukmdorga topshiradi. Bu - xiroj deb atalgan. Xiroj ikki xil bo‘lgan. Biri “xiroji muvozafo” yoki “xiroji muvazzaf”, ikkinchisi “xiroji muqosama”dir. “Xiroji muvozafo” ekinning turi va olinadigan hosilga qarab to‘lashni vazifa qilib qo‘yadi. “Xiroji muqosama” olingan hosilning miqdori va yerga qarab belgilanib, uning bir qismini tashkil qiladi. Xirojning miqdoriga kelganda, u har yerda turlicha bo‘lib, uning miqdorini feodal hukmdorning o‘zi belgilaydi. Xiroj yerning sharoitiga qarab, hosilning uchdan bir (suls), to‘rt dan bir (rubl) va beshdan bir (xums) qismi olingan. Ko‘p hujjatlarda “dahi du” atamasi eslatib o‘tiladi.

Ijarachilardan olingan soliq miqdori hosilning 1/10 qismini tashkil etgan. Chorikorlardan olinadigan xiroj esa hosilning 1/3 qismini tashkil etgan. Rossiya imperiyasi davrida esa xiroj solig‘ining mohiyati biroz o‘zgargan. Ya‘ni, hosilning 1/5 qismidan yarmigacha ijarachiga berilgan.

Qo‘qon xonligida suvdan foydalanganlik uchun ham soliq to‘langan. Bunga ko‘ra, yana “nisfi xiroj” solig‘i bo‘lib, bu yetishtirilgan hosilning yarmiga teng bo‘lgan soliq hisoblangan. Yana hujjatlarda suv uchun to‘lanadigan soliq “haqqi ob” (arabcha-tojikcha) yoki “haqqi al-ashrab” haqida ham ma‘lumotlar berilgan.

Xon daromadining asosiy qismi davlat yerlaridan keladigan natural soliq bo‘lgan. Bu daromadlar asosan ijaraga berilgan davlat yerlarida va xususiy yerlarda ekilgan donli ekinlar, beda, paxtadan olingan natural soliq hisoblangan.

²⁸ Жувономардиев А. XVI-XIX асрларда Фарғонада йер-сув муносабатлари. Тошкент. Фан. 1965.

Shu bilan birgalikda, xonga qarashli bog‘chalaridan keladigan soliqlar, va nihoyat ijaraga berilgan davlat yerlaridan olinadigan tanbona ham xazinaning bir qismini tashkil etgan.

Davlat yerlarida asosiy ekin turlari sholi va jo‘xori bo‘lgan. Bug‘doy, paxta va boshqa ekinlar nisbatan kamroq yerlarga ekilgan. Buning asosiy sababi, xon saroyida gurunch ko‘p ishlatilgan. Jo‘xori esa asosan chorva mollari uchun ekilgan. Bug‘doy asosan ehtiyoj uchun ekilgan. Xudoyorxon hukmronligining uchinchi davridan tashqi savdo rivojlanishi natijasida qishloq xo‘jaligidagi paxtaning salmog‘i orta boshladi.

XIX asrning 60-yillari oxiriga kelganda Qo‘qon xonligi hududi Rossiya bosqini tufayli ancha qisqaradi. Natijada, Xudoyorxon ma‘muriy bo‘linishni boshqatdan ko‘rib chiqqan. Xonlik hududi 15 ta beklikka bo‘lingan: Qo‘qon shahri va uning atroflari shaxsan xon tomonidan boshqarilgan, shu bilan birgalikda Marg‘ilon, Shahrixon, Andijon, Namangan, So‘x, Mahram, Buloqboshi, Aravon, Baliqchi, Chortoq, Novqat, Kosonsoy, Chust va Bobodarxon bekliklari bo‘lgan. Bundan tashqari, manbalarda Asaka, O‘sh bekliklari ham bo‘lganligi haqida ma‘lumotlar berilgan.

Katta bekliklar boshqaruvi asosan xon oila a‘zolari tomonidan boshqarilgan. Ular o‘zlarining yaqinlari va o‘g‘illari vositasida bekliklarni boshqarganlar. Kichikroq bekliklar esa boshqa qabila boshliqlari tomonidan boshqarilgan. Masalan, Marg‘ilon begi Sulton Murodxon Aravon qishlog‘ini o‘zining yaqinlariga bergan edi. Keyinchalik esa Aravon qishlog‘i tayinlangan amaldor tomonidan mustaqil ravishda boshqarilgan. Xonlikda bekliklar bilan birga sarkorlik ma‘muriy boshqaruvi tashkil etilgan bo‘lib, sarkorlik beklikdan mustaqil bo‘lib, bevosita xonga bo‘ysunar edi. Har bir sarkorlik markazida xonlik xazinasini mavjud bo‘lib, sarkorliklardan yig‘iladigan soliqlarga sarkorlar bevosita mas‘ul bo‘lganlar.

Xonlik xazinasini to‘ldiruvchi eng katta soliq bu donli ekinlardan olinadigan xiroj, poliz ekinlari va bog‘lardan olinadigan tanobona edi. XIX asr 70-yillariga oid adabiyotlarida xonlikda soliqlar asosan ikki xil ko‘rinishda yig‘ib olingan: joylarda xon tomonidan qo‘yilgan beklar vositasida yig‘ib olinar, yoki joylardagi soliq yig‘ish ishlari ijaraga berilgan. Soliq yig‘ishning ikkinchi ko‘rinishi birinchisiga nisbatan kengroq tarqalgan.

Xiroj va tanobona solig‘ini yig‘ish tartibi quyidagi ko‘rinishda amalga oshirilgan: bek xiroj bilan birgalikda tanobona solig‘ini yig‘ish uchun sarkorni mirzasi bilan mas‘ul etib tayinlagan. Soliq yig‘ishdan oldin har bir xonadonning hosili tekshirilgan va qancha soliq to‘lashi mumkinligi aniqlangan. Yig‘ilgan soliqdan soliq yig‘ishda qatnashgan askarlar xarajati uchun olingan va qolgan qismi beklik xazinasiga topshirilgan. Belgilangan summadan ortig‘i bo‘lsa, u ortiqcha summa bek tomonidan shaxsiy xarajati uchun ishlatilgan. Xirojning 20% natura shaklida, qolgani esa asosan pul shaklida olingan.

Tanobona (arabcha-forscha). Bu atama Muhammadalixonning hijriy 1245 (1829-30) yildagi, sayyid Muxammad Xudoyqulixonning hijriy 1282 (1865-66) yilda, Xudoyorxonning hijriy 1285 (1868-69) yilda va Nasriddinbekning hijriy 1292 (1875) yilda bergan farmonlarida uchraydi. Farmonlarda “tanobona”, “bog‘ot va bedazori vajhidan...” deb yozilishiga qaraganda, XIX asrda bu soliq bog‘lar va bedazor yerlardan olingan. Biroq bu soliqning miqdori aniq emas. Tanobona Abdullaxon zamonida (XVI asrda) Buxoroda ham bog‘lardan olingan soliq bo‘lgan. Tanobona xiroj ko‘rinishidan tashqari, butun madaniy ekinlar bilan birgalikda, bog‘lar, xususiy yerlardan, daraxtzorlardan ham olingan. Tanobonaning 80%i xon xazinasiga tushgan. Shu bilan birgalikda, tanobonaning miqdori bir tanobdan 10 tanga, 1 gektardan esa 40 tangani tashkil etgan.

Xudoyorxon davrida butun soliqlar ikkiga bo'lingan: "xossagi" (xonlik) va "beklik". Qo'qon va uning atroflaridagi yerlardan tushadigan soliqlar bevosita xossagi soliqlar bo'lib, sarkorlar tomonidan yig'ilib, xonlik xazinasiga topshirilgan. Bekliklarda esa bevosita bekklik xazinasiga yig'ilgan. XIX asr 70-yillarida yuqorida aytilgan ikki soliqdan tashqari barcha soliqlar xonlik xazinasiga foydasiga olingan. Bular: do'kon puli, saroy puli, omborlar puli, nikoh puli, egasiz mulklardan olinadigan pullar edi.

"Non puli", ya'ni xiroj Toshkent Rossiya tomonidan bosib olingunga qadar bekklik ixtiyoriga ko'ra natura yoki pul shaklida olinar va hosilning asosan 1/5 qismini tashkil etardi. Xudoyorxon hukmronligining so'nggi davrida tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi va xonlik xazinasining pulga ehtiyoji oshishi munosabati bilan xiroj ham pul shaklida olinadigan bo'ldi.

Xirojning bo'linish shakli va miqdori quyidagicha bo'lgan: xirojning 80% asosan xonlik xazinasiga, qolgan 20% bekklik xazinasiga uchun bo'lingan. Har bir tanob yerdan 10 tanga, 1 gektar yerdan esa taxminan 40 tanga xiroj uchun soliq to'langan.

Tanobona solig'i ham qishloq xo'jaligi solig'i bo'lib, dastlab, tanob o'lchovini aniqlab olsak. Tanob 60X60 metr bo'lib, 3600²ni tashkil etgan. Ana shu ko'rsatilgan miqdordagi yerdan tanobona solig'i olingan. Qo'qon xonligi hukmronligining oxirgi yillarida tanob o'lchovi har ikki uch yilda bir marotaba muftiy va xon mirzalari tomonidan o'tkazib turilgan. Tanob solig'i har yili bahor oylarida yig'ib olingan.

Tanobona solig'i miqdori ekin turiga bog'liq bo'lib, asosan quyidagi miqdorda bo'lgan:

1. Beda (yo'ng'ichqa) ekilgan har bir tanob yerdan – 1 rubl (5 tanga);
2. Mevali bog'larning har bir tanobidan - 2 rubl 10 tanga);
3. Terak, qayrag'och ekilgan yerlarning har tanobidan - 50 kopeeyk (tiyin);
4. Uzum ekilgan yerlarning har tanobidan - 1 rubl;
5. Piyoz, sabzi ekilgan yerlarning har bir tanobidan -2 rubl tanobona solig'i olingan.

Tanobona solig'ini aniqlash esa quyidagicha bo'lgan: sarkor muftiy bilan birgalikda bog', bedazorlar va uzumzorlarni kezgan. Ularning birinchisi yerning qanchaligini aniqlasa, ikkinchisi soliqni belgilagan. Sarkor soliqni yig'ishda ikki, uch yoki ko'proq marotaba soliq yig'ilgan. Bu esa xonlikda soliq yig'ish ishda poraxo'rlikning kuchayishiga sabab bo'lgan.

Moli bog'ot (arabcha-forscha). Bu atama Abdulmuhammadxonning hijriy 1011 (1602-1603) yilda sayyid Zohidga va sayyid Muhammad Xudoyquli bahodirning hijriy 1282 (1865-66) yilda, Xudoyorxonning hijriy 1285(1868-69) yilda va Nasriddinbekning hijriy 1292 (1875) yilda sayyid Jalolxo'jaga bergan yorliqlarida uchraydi. "Moli bog'ot" bog'lardan olinadigan soliq, tanobonaning bir qismi bo'lgan.

Soliq yig'uvchi o'ziga topshirilgan qishloq ustidan mutlaq xo'jayin hisoblangan. Ekin ekishdan boshlanib, to uni yig'ib olingunga qadar amlokdor nazorati o'rnatilgan. Dehqon o'zining ekinidan uning ruxsatisiz olishi mumkin bo'lmagan. Masalan, Mamaxon qishlog'idagi xonga qarashli yerlardan bir to'p jo'xori olganligi uchun bir dehqon amlokdor Eshmuhammad tomonidan chala o'lik holatiga kelgunicha kaltaklangan va to'qqiz tanga jarima to'lashga hukm qilingan.

Xonlik xazinasining yana bir muhim manbalaridan biri zakot solig'i hisoblangan. Zakot solig'i asosan chorvadorlardan olingan bo'lib, umumiy mulkning 1/40 qismini tashkil etgan.

Turkiston shahri xonlik xazinasiga uchun har yili zakot solig'i hisobida 35 ming bosh qo'y yetkazib bergan. Bu hududning o'troq aholisi esa zakot uchun 5 ming bosh hayvonni xonlik xazinasiga to'lagan.

Bundan tashqari, zakot savdogarlardan ham olingan. Qoshg'arda savdogarlardan har bir ot uchun (mahsulot turiga qarab) 10 dan 20 tangagacha olingan. Bundan tashqari, O'sh hududi bunday soliqlar olish uchun foydali hudud hisoblangan. Qo'shni davlatlardan bu yerlarga olib kelinadigan har bir arava don uchun 10 dan 13 tangagacha zakot solig'i olingan.

Xonlikda nikohona solig'i ham mavjud bo'lib, uning miqdori quyidagicha bo'lgan: kelindan 10 tanga, kuyovdan esa 5 tanga, meros solig'i esa umumiy mulkning 1/40 qismini tashkil etgan. Ulov puli (ikkinchi nomi harbiy soliq) – har bir oiladan 20 kopeekdan 1 rublgacha olingan. Suv puli esa har bir xirmondan bir pud bug'doy bo'lgan. Maklerlardan xonlik xazinasiga tushadigan soliq miqdori esa yilda 40 000 tangani tashkil etgan. Yana xonlik xazinasiga yilda 6000 tanga nog'orachi, karnaychi, surnaychi, masxaraboz va boshqalardan tushgan. Somon puli esa yerdan olingan umumiy soliqning 1/7 qismini tashkil etgan. Baytal puli esa har ot hisobiga ikki tangadan olingan.

Shunday qilib, Qo'qon xonligida ko'rsatib o'tilgan soliqlarning 90 turi mavjud bo'lsa-da, xonlik xazinasining asosini xiroj, zakot, tanobona, xossagi, moli bog'ot kabi soliqlar tashkil etgan. Qo'qon xonligining Xudoyorxon hukmronligi oxirgi davrida xonlik xazinasini 7,5 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa, pul ko'rinishidagi bir yillik soliq 1,5 mln so'mni tashkil etgan. XIX asrning ikkinchi yarmida xonlik hududining katta qismini ruslar tomonidan bosib olinishi natijasida xazinaga tushadigan soliq tushumi kamayib ketgan. Xudoyorxon esa xazinasining kamayib ketishini istamagan va xazinani avvalgidek to'la turishini hohlagan. Bu esa qo'shimcha soliq turlarining joriy etilishiga, bu esa aholi noroziligining kuchayishiga, xonlikda xalq qo'zg'olonlarining kuchayishiga sabab bo'lgan.

Sharqda, shu jumladan O'rta Osiyoda asrlar davomida mehnatkash aholining feodallar va hukmdorlar uchun mehnat majburiyati mavjud bo'lgan. Mehnat majburiyatidan qishloq va shaharlarda turli xil ko'rinishdagi ishlarni bajarishda foydalanilgan. Yerlarni o'zlashtirish va sug'orish tizimlarini barpo qilishda albatta ko'p ming kishilik qo'l kuchiga ehtiyoj sezilgan. Bu narsa aholini mehnat majburiyatiga jalb qilish orqali bajarilgan. Ba'zan bunday mehnat majburiyati natijasida shahar va qishloqlar huvillab qolar, iqtisodi inqirozga uchrar edi.

Yana bunday ishlarda yirik qurilish ob'ektlarini barpo etishda (yirik ob'ektlar qurilishi va mavsumiy ishlar) foydalanilgan. Farg'ona vodiysida bunday ishlar hashar va mardikor ko'rinishida amalga oshirilgan. "Mardikor" so'zi nafaqat o'z kuchini pulga sotishda, balki hashar ishlarida ham ayni atama ishlatilgan. Bunday hashar ishlariga jalb etilgan odamlar mardikor deb atalgan. Asrlar davomida ommaviy bo'lib bajariladigan foydali ishlar, xususiylar shaxslar yerlarini qayta ishlash, o'z yerlariga ishlov bera olmaydigan xon xoadoniga tegishli yerlardagi mavsumiy ishlar odatda hashar yo'li bilan bajarilgan. Masalan, 1819-yil Namangandagi Eshon boy boshchiligida qazilgan Yangiariqda har bir xonadon vakili 15 kun mobaynida o'z oziq-ovqati va mehnat quroli bilan ishlab berishi kerak bo'lgan.

Kanal qurilishi texnika va odam kuchi tufayli juda qiyin kechgan. Shu bilan birga ba'zan noto'g'ri hisob-kitob tufayli butun sarflangan kuchlar bekorga ketishiga sabab bo'lgan. Bu ishga safarbar etilganlarning noroziligiga sabab bo'lgan. Eshonboy boshchiligidagi rahbarlar isyondan arang qutilib qoladilar.

Qo'qon xonligi Madalixon davrida sug'orish tizimini barpo qilish, saroy, madarasa, masjid, harbiy-himoya tizimini barpo etishda ham mehnat majburiyatidan foydalangan.

Yuqorida aytilganidek yirik harbiy ob'ektlarni barpo etishda ham aholi kuchidan foydalanilgan.

1842-yili Sheralixon Qo‘qon atrofidagi himoya devori qurilishida ham hashar kuchidan foydalangan. Shahar atrofi 20 verst uzunlikdagi paxsa devor bilan o‘rab olingan. Albatta bunday katta hajmdagi ishni minglab odamlar ishtirokisiz bajarib bo‘lmas edi. xon buyrug‘iga ko‘ra, atrofdagi hududlar aholisi shahar mudofaa devori qurib bitirulgunga qadar 40 kun mobaynida ishlab berishlari kerak edi. Lekin Nasrulloxonning to‘satdan bo‘lgan hujumi natijasida shahar devorlari 17 kunda bitirilgan.

Mana shunday hashar ishlaridan yana biri 1264-yili Chimkentda amalga oshirilgan. Chimkent hokimining iltimosi bilan Toshkentdan minglab odamlar minglab mardikorlar shahar devorini qurilishi uchun olib kelingan.

Ulug‘nahr kanalini qazishda ham asosan hashar ishlaridan foydalanilgan. Kanal 1868-1871-yillari Norin va Qoradaryo o‘rtasidagi yerlarni suv bilan ta‘minlash maqsadida qazilgan.

V.Nalivkin Ulug‘nahr kanalini qazishda ishtirok etgan hasharchilar bilan suhbatlashib, u yerdagi ahvol haqida batafsil ma‘lumotlarga ega bo‘lgan. Ana shu yerdagi ma‘lumotlarni solishtirish asosida XIX asr boshida qazilgan Yangiariq qazilishining umumiy manzarasini chiza olgan.

Keyinchalik V.Nalivkinning ko‘rsatishicha, Umarxon, Madalixon va Xudoyorxon davrida mehnat majburiyatining natural ko‘rinishi pul ko‘rinishiga o‘ta boshlagan. Lekin Nalivkin bu yerda haq emas. Chunki, kanala qazilishi uchun qo‘shimcha kuch kerak bo‘lib qolganida, Qorategin, Darboz kabi hududlardan qo‘shimcha kuch keltirilgan va ularga pul to‘langan. Bunday qo‘shimcha ish kuchi kerak bo‘lgan paytda kunlik odamlar yollangan. Masalan, ish yeriga uzoq bo‘lgan, ish kuchi jo‘nata olish imkoniyati bo‘lmagan paytda odamlar o‘zaro pul to‘plab, jo‘natilishi kerak bo‘lgan o‘rniga odam yollaganlar. Shu tariqa Yangiariq va boshqa kanallarning qazilishi xon uchun umuman xarajatsiz tugagan.

Ba‘zan qurilish loyihalarining noto‘g‘ri tanlanishi tufayli ish mo‘ljallanganidek tugamagan. Masalan, qurilish ishlarining mo‘ljallanmaganidek ketishi natijasida Ulug‘nahrning ikkinchi quyi qismidagi Norin daryosining o‘ng qirg‘og‘i va Qoradaryoning chap qirg‘og‘i suvsiz qoladi.

Mardikorga pul to‘lash tanga hisobidan to‘langan. Middendorfnig ta‘kidlashicha, mardikorning bir kunlik ish haqqi 5 kopeekdan 15 kopeekkacha bo‘lgan. Xudoyorxon davriga oid mardikorga to‘lanadigan haq haqida bir vasiqa saqlanib qolgan. Unga ko‘ra, mardikorga to‘lanishi uchun to‘rt oy muddatga 5523 tanga hisoblangan bo‘lsa-da, ularga 6205 tanga to‘langan.

Aslida “mardikor” deganda yollanma mehnat tushunilgan bo‘lsa-da, ko‘p hollarda “mardikor” so‘zi hasharda ishtirok etuvchi ma‘nosi bilan bir xil ma‘noda qo‘llangan.

Xonlar, beklar va to‘ralar yollanma mehnatdan turli ko‘rinishlarda, ya‘ni o‘zlari uchun ajratilgan chek yerlarda majburiy tekin mehnat ko‘rinishida ham foydalanganlar. Hukmdor va uning oilasiga tegishli yerlarda erta bahorda ish boshlangandan to‘ hosil pishib yetilgunga qadar yuzlab qishloqlar ma‘lum bir kunlarda tekin mehnat qilganlar. Ba‘zan ish kuchi yetishmaganda esa mardikorlar yollaganlar.

Qo‘qon xonligida bevosita xonga qarashli yerlarni ishlash uchun hashar tashkil etilgan. Dehqonlar hasharga o‘zlari bilan birga hayvonlari va mehnat qurollari bilan kelishlari kerak bo‘lgan. Hashar qat‘iy ravishda tashkil etilgan bo‘lib, qaysi qishloq aholisi qachon hasharga chiqishlari qat‘iy ravishda belgilab qo‘yilgan. Dehqon bir yilda uch kun hasharga qatnashishlari shart bo‘lgan. Hasharning navbat bilan bo‘lishi ustidan qat‘iy nazorat o‘rnatilgan.

Dehqonlar hasharga maxsus patta bilan chaqirilgan. Patta asosan qishloq amini va oqsoqoli nomiga yozilgan bo'lib, unda dehqonlar mehnat qurollari va hayvonlari bilan kelishlari kerakligi, agar hashar umumiy bo'ladigan bo'lsa, qishloqdan keladigan odamlar soni belgilangan. Qishloq rahbariyati hasharchilarga o'zlari boshchilik qilishlari kerak edi.

Ommaviy hasharlar qat'iy tartibda o'tkazilib, ular hujjatlarda mardikorlar deb ham atalgan. Qishloq oqsoqolidan tashqari hasharchilar ishini tashkil etish uchun xon tomonidan maxsus nazoratchilar qo'yilgan. Hashar ishlariga asosan inoq, sarkor (soliq to'plashga mas'ul amaldor), amlodkorlar boshchilik qilishgan. Hashar ishlari davomida dehqonlarning xususiy xo'kizlari xon ixtiyorida bo'lib, ularni xonlik hisobidan yem va hashak bilan ta'minlangan. Hasharchilarning hayvonlariga mutasaddi xonlik arxivlarida "aukat-i mutassaddi" deb eslatilgan.

Hashardan tashqari, xonlik yerlarida yollanib ishlovchi mardikorlar mehnatidan ham foydalanilgan. Mardikorning bir kunlik mehnat haqi taxminan 1 tanga²⁹, ba'zan undan ko'proq ham bo'lgan.

Yollanib ishlash uchun mardikorlar qishloq oqsoqollari orqali chaqirilgan. Masalan, Marg'ilon begi Sulton Murodekka oid bir arxiv hujjatida Qo'rg'ontepadagi paxta chopig'i uchun mardikor yollanishi haqida yozuv saqlanib qolgan. Bu yozuvga ko'ra, Jo'y Pungon, Jo'q Bozor va Jo'y Ukchidan 20 kishi jo'natilishi kerakligi aytilgan. Hujjatda bir kunlik mehnat haqi 1 miri³⁰ kam 1 tangadan berilishi ta'kidlangan.

Shunday qilib, Qo'qon xonligida yirik yer egaligi xo'jaligi bo'lmagan. Yerlar kichik-kichik uchastkalariga bo'linib, dehqon va chorikorlarga bo'lib berilgan.

Xonlikda hashar yo'li bilan turli ishlar bajarilgan. Masalan, qamishzorlar, yantoqzorlarni tozalash, hosilni tashish, yerlarni haydash, bog'lardagi mavsumiy ishlar (uzumzorlarni ko'mish va ochish, qirqish, bog'larni qirqish va hokazolar).

Masalan, 1284-yilga oid ikkita xon farmoniga ko'ra, 11 qishloqning amin va oqsoqollari aholini hashar ishlariga jalb etishlari kerak edi. Bu qishloqlar G'umayli, Dang'ara, Oltiqush, Tiliming, Mirobod, Qirqlar, Qizilmush, Eshonbobo, Aravon, Dovuchi va Yangiqishloqlar. Bu qishloqlar aholisi Yer masjiddagi to'qayzorlarni qamishlardan tozalashlari kerak edi. Ikkinchi xon farmoniga ko'ra esa Abdunazar eshikog'asi Kalamush, Eshonqishloq va boshqa qishloqlar aholisi bilan birga hashar yo'li bilan qishga yantoq tayyorlashi kerak edi.

Hashar paytida hasharchilar uchun hukumat tomonidan beriladigan oziq-ovqat va mehnat qurollari doimo yetishmas edi. Shahar hududlarida esa hashar shahar binolari va xon, uning oilasiga tegishli zavod va fabrikalarda ishlash orqali amalga oshirilar edi.

Bek va shahzodalarning uylarini tartibga keltirish va boshqa ishlarni amalga oshirish uchun maxsus "ayollar hashari" uyushtirilar edi. Masalan, bunday hashar ishlarini bo'lganligi haqida xon arxivida bir vasiqa saqlanib qolgan. Unga ko'ra, 1284-yilda Said Mavlonbek xazinabon otasiga quyidagi mazmundagi maktub yo'llagan edi: "Mana shu maktubni olib boruvchiga to'quvchilik uchun ayollar hashariga bir bo'lak ko'k choy va bir bo'lak oq-quyruq choyi berib yuborishingizni so'rayman".

Xon va beklar xo'jaligida maxsus ipak tayyorlovchi korxonalar ham bo'lgan. Ularda ayollar shubhasiz hashar ko'rinishida ishlatilgan.

Hashar paytida faqatgina ishchi kuchidagina foydalanish bilan cheklanilmagan. Hashar paytida atrofdagi qishloqlar aholisi mehnat qurollari, arava va otlari bilan ham kelishlari

²⁹ Танга (турк) – кумуш танга, XIX аср иккинчи ярмида Кўкон хонлигида муомалада бўлиб, 20 копейкка тенг бўлган.

³⁰ Мири (араб-тож) – мис танга, танганинг ¼ қисмига тенг, рус пулида 4-5 копейк ҳисобланган.

zarur edi. Masalan, bir hujjatda Yermasjiddagi xon yerlarida ishlash uchun Yangiqo‘rg‘on qishlog‘idan 40 ta, Bordon qishloqdan 5 ta, Chikat puxta qishlog‘idan 5 ta, jami 50 ta qo‘sh keltirilishi kerakligi haqida ma‘lumot berilgan. Bu qo‘sh va qo‘shchilar 3 kun mobaynida xon yerida ishlab berishlari kerak edi.

Aravalari, qo‘shlari va odamlari bilan birga xon yerida uch kun ishlab berganlar soni ba‘zan 10 ming kishiga yetar edi. Xon yeriga ishlash uchun yo‘lda ketgan vaqt bu vaqtga kirmagan. Xon yerida ishlash uchun kleadigan odamlarning qishloqlari bu yerdan o‘nlab, ba‘zilari esa yuzlab vers uzoqlikda joylashgan edi. shuning uchun xon yerida ishlash uchun kelib-ketish vaqti 10 kundan 15 kungacha vaqtlarini olgan. Masalan, shunday bahorgi hasharlardan biri 1291-yil rabiul avval oyining 18-kuni tugagan (1874-yil 4-iyun).

Ba‘zi bir qishloqlar aholisi esa ma‘lum bir imtiyozlarga ega bo‘lgan. Masalan, Chunkat-puxta qishloq aholisi Xo‘jali inoq hurmati uchun 5 ta qo‘sh (omoch) yetkazib berish majburiyatidan ozod etilgan. Ba‘zi qishloqlar aholisi esa hashar o‘rniga pul to‘laganlar. Masalan, Xon keldi qishlog‘i aholisi hashar o‘rniga, 168 tanga pul to‘laganlar.

Shunday qilib, xonlikda hukmdorga qarashli yerlarni boshqarish sarkor orqali bo‘lib, u yerlarni ishlash uchun mardikor (hasharchi) lar jalb etilgan. Bahorda Yermasjiddagi yerlarni ishlash uchun 10000 ta mardikor yollangan.

Shunday qilib, Qo‘qon xonligida qadimdan O‘rta Osiyo aholisi orasida saqlanib qolgan hashar ishlaridan keng foydalanilgan. Xonlik davrida hashar ishlaridan asosan kanallar qazish, saroylar, masjidlar, madrasalar, shahar mudofaa devorlarini qurishda, xon yerida ishlab berish ko‘rinishida foydalanilgan. Hashar ishlarida qatnashish uchun qatnashuvchi albatta mehnat qurollari va oziq-ovqatlari bilan kelishlari kerak bo‘lgan. Ba‘zan esa xonga yaqin bo‘lgan shaxslar hurmati yuzasidan butun qishloq aholisi mehnat majburiyatidan ozod qilingan, ammo buning o‘rniga ma‘lum bir miqdorda pul to‘laganlar.

Tayanch iboralar

Bug‘doy turlari: qayroqi, la‘lmi, bogara, taramog‘i, boshqa ekin turlari, chorvachilik taraqqiyoti, chorva boqadigan hududular, yer egaligi turlari: maxsus ishlar uchun ajratilgan yerlar: uning daromadi xon saroyi, xon otliq askarlari uchun sarflangan yerlar; qo‘riq yerlar; xon shaxsiy va oila a‘zolari yerlari, xossa yerlar, ariqlar, hashar ishlari, soliqlar va majburiyatlar

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Qo‘qon xonligida qishloq xo‘jaligida ekiladigan ekin turlari boshqa hududlardan qanday farq qilgan?
2. Qo‘qon xonligida paxta yetishtirish qachondan rivojlana boshladi?
3. Qo‘qon xonligida chorvachilikda qanday hayvonlar boqilgan?
4. Qo‘qon xonligidagi otlarning boshqa hududlardan farqini aniqlang.
5. Qo‘qon xonligidagi yer egaligining boshqa xonliklardan farqi nimada?
6. Qo‘qon xonligi tarixidagi chek yerlar qanday bo‘lgan?
7. Xon yerlarida ishlovchilar haqida nimalarni bilasiz?
8. Qo‘qon xonligidagi Yangiariqning tarixi haqida nimalarni bilasiz?
9. Qo‘qon xonligidagi irrigatsiya tizimining boshqa xonliklardan farqi nimada?
10. Qo‘qon xonligidagi soliqlarning boshqa xonliklardan farqi nimada?
11. Qo‘qon xonligidagi soliqlarni yig‘ilish tartibi haqida nimalarni bilasiz?

5-mavzu: Qo‘qon xonligida hunarmandchilik taraqqiyoti

Reja

1. Qo‘qon xonligida kulolchilik taraqqiyoti
2. Qo‘qon xonligida naqqoshlik yog‘ochsozlik san‘ati
3. Xonlikda misgarlik va o‘ymakorlik san‘ati
4. Xonlikda to‘qimachlik san‘ati

1. Qo‘qon xonligida kulolchilik taraqqiyoti

O‘zbek hunarmandchiligidagi qadimgi sohalardan biri kulolchilik bo‘lib, Farg‘ona vodiysida Rishton va G‘urumsaroyda rivojlangan. Rishton kulolchiligining XIX asr o‘rtalarigacha bo‘lgan tarixi kam o‘rganilgan sohalardan biridir. Mahalliy xalqning aytishicha, Rishtonning eng qadimgi kulollari Sohibi Hidoya mozoridan uncha uzoq bo‘lmagan Chinnigaron mahallasida yashaganlar. Tarixchilarning guvohlik berishicha, Rishton kulolchiligi XII asrga (ba‘zi manbalarda X asrga) borib taqaladi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, Rishton kulolchiligi bevosita Samarqand kulolchiligi bilan bog‘liq. X asrda bu yerga Buxoro va Samarqanddan kulollar ko‘chib kelib joylashganlar. Boshqa ma‘lumotlarga ko‘ra, Rishton kulollari XIV-XV asrlarda Samarqandga ko‘chib borib, u yerga joylashganlar va Samarqanddagi Dahbed mahallasi nomi ham shu voqea bilan bog‘liq.

Rishtonda kulolchilik rivojlanishi bevosita mahalliy xom ashyo bilan bog‘liqdir. Rishtonlik kulollar kerak bo‘ladigan barcha xom ashyolarni o‘zlari yashagan hudud yaqinlaridan topganlar. Rishtonning o‘zida hoki surx deb atalgan qizil loy mavjud. Rishtonlik kulollarning hisoblashlaricha, ularning mahalliy xom ashyolari shunchalik mukammalki, uni qayta ishlashning keragi yo‘q. Rishton kulollari yuqorida aytganimizdek, kerakli xom ashyoni o‘z yaqin atroflaridan ta‘minlaganlar. Masalan, Chimyonning qizil, Uchqo‘rg‘onning sariq, Toshkent (yoki Angrendan) va O‘shdan oq yoki o‘tga chidamli loyni keltirganlar. Kulolchilik mahsulotlari uchun kerakli bo‘lgan kvarts – oq toshni So‘x yoki G‘urumsaroydan, oq kvarts qumini Shibron yoki Laylak vodiysidan keltirganlar. Angob uchun kerak bo‘ladigan yog‘li qizil loylar asosan Isfara, Angren yoki Qizilqiyadan keltirilgan. Rishton yaqinidagi keramika uchun kerak bo‘ladigan marganetslar Oloy tog‘laridan keltirilgan. Marganetslardan turli xil ranglar tayyorlangan. Rang chiqarish uchun kerak bo‘ladigan palitralar (lojuvardlar) asosan Badaxshon tog‘laridan keltirilgan. O‘sha vaqtlarda keramika mahsulotlari uchun kerak bo‘ladigan ko‘pgina xom ashyolar Erondan keltirilgan, Rishtonda tayyorlangan mahsulotlar esa Rossiyaga eksport qilingan.

Kulolchilik mahsulotlarini tayyorlash juda qiyin va mashaqqatli ish bo‘lib, loy ishlanib bo‘linib, tayyor mahsulot ko‘rinishini olgach, turli xil yelimlar bilan qismlari mustahkamlangan. Xumdonga tushirish uchun tayyor bo‘lgan mahsulot sirti oq angob bilan bo‘yab chiqilgan. Tayyor bo‘lgan mahsulot xumdonga solingan va ikki marta 980-1000⁰da pishirilgan. Kulollar xumdonlar uchun asosan kuli kam chiqadigan saksovul yoki tolni ishlatganlar. Sopol mahsulotni chinniga aylantirish uchun esa yanada kattaroq haroratda pishirish talab qilingan. Chinni mahsulotlarni pishirish uchun esa zirk yoki archa daraxtidan foydalanilgan. XX asrning 50-60-yillarida xumdonlar uchun daraxt o‘rniga solyarka, XX asrning 70-yillaridan esa xumdonlar uchun gazdan foydalanila boshlangan. Rishton kulolchiligi uy hunarmandchiligidan zamonaviy ishlab chiqarishgacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tgandir. XIX asrning oxirida Rishton O‘rta Osiyoning eng yirik kulolchilik mahsulotlarini

ishlab chiqaradigan markazlardan biriga aylangan. Etnograflarning ma'lumot berishlariga qaraganda XIX asr oxiri – XX asr boshlari Rishtonda 80 ta ustaxona bo'lib, unda 300 ga yaqin usta ishlagan. Ustaxona a'zolari asosan oila a'zolaridan iborat bo'lib, usta va bir-ikkita usta yordamchisi bilan ishlagan. Bir mavsumda bitta ustaxona 6-7 oy mobaynida ish yuritgan va 1500 dan 1700 tagacha mahsulot ishlab chiqargan. Har bir usta biror mahsulot yoki mahsulotning biror qismini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan edi. Aynan XIX asrning II yarmida Rishton kulolchiligi tayyorlaydigan mahsulotlariga qarab ikki guruhga bo'linadi. Bularning birinchisi ko'zagarlar, tandirsozlar va yirik kulolchilik mahsulotlarini tayyorlaydiganlar, ikkinchisi esa tovoqchilar, kosasozlar, safedpazlar, chinnipazlar va zardpazlar hisoblangan. Har bir guruhning o'z norasmiy qonunlari bo'lib, u risola deb atalgan va oqsoqol tomonidan boshqarilgan. Umuman Rishton kulolsozlari ishlab chiqargan mahsulotlariga qarab, kosagar kulol, ko'zabar kulol, dagansoz, tog'orasoz, xurmachi, xumchi va hokazolarga bo'lingan.

Rishtonlik ko'zagarlar o'zlarini haqiqiy kulollar hisoblaganlar. Kulollar o'rtasidagi raqobat asosan tovoqchilar va ko'zagarlar o'rtasida bo'lgan.

Har bir guruhning o'z mahallasi bo'lib, zich holda yashaganlar. Masalan, ko'zagarlar mahallasi Ko'zagaron (hozirgi Mir Hasan), tovoqchilar Chinnigaronda yashaganlar. Chinnigaron mahallasi XIX asr o'rtalarigacha Ko'libegon (Robiya beka) deb, yanayam oldinroq esa Qal'ai Poyin deb atalgan. XX asr boshlari Chinnigaron mahallasida 100 ga yaqin hunarmandchilik ustaxonalari bo'lgan.

Bu davrdagi hunarmandchilikning o'ziga xos jihati shu ediki, ular ma'lum bir uyushmalarga a'zo bo'lib, o'zlarining kasbdoshlari manfaatlarini doimo himoya qilib turgan. Rishtonning ham boshqa mahallarida ham hunarmand-kulollar yashaganlar. Kuloloni mahallasi, Dukchion mahallasi va Qoziyon mahallalari bo'lgan. Hunarmandchilik, ya'ni kulolchilikni o'rganish muddati juda qisqa bo'lgan. Kulollar ichida eng uzoq davom etgan o'rganish uslubi tovoqchilarda bo'lgan. Tovoqchilar o'z hunarlarini juda kam hollarda boshqalarga o'rgatganlar. Har bir kulolchilik sohasining o'z ustalari va qosoqollari bo'lgan. Ular ma'lum bir vaqtda to'planib turganlar. Masalan, tovoqchilar yig'ilishida 600 ga yaqin usta to'planib, bu yig'ilishga osh uchun 200 kilogramm gurunch damlangan. Ustalar va shogirdlar ishlash uchun boshqa yerlarga ham ketganlar. Lekin oqsoqollar Rishton kulolchilik sirini boshqalarga o'rgatmaslikni qat'iy nazorat qilganlar.

Ustalar asosan Farg'onaning turli hududlari So'x, Xatirchi, O'ratepa, ba'zan Samarqand va Buxoroga ham borib ishlaganlar. Rishton kulolchilik san'ati butun Farg'ona vodiysida ma'lum va mashhur bo'lgan.

Ko'p hollarda Rishtondan kulolchilik san'atini o'rganish uchun andijonlik, asakalik, konibodomlik, g'ijduvonlik, qarshilik va shahrisabzlik ustalar kelganlar. Ular bu yerda kulolchilik va sopol ustiga rasm chizish-yozish san'atini o'rganganlar.

XIX asr o'rtalarida Rishton kulolchilik maktabi yanada rivojlandi. Bu davrda rishtonlik kulollari aka-uka kulollar Abdujalol va Abdujamillar xizmati tufayli chinni yasashni o'rgandilar. Ular Qoshg'ar va Erondan chinni yasash sirlarini o'rganib kelganlar. Ayniqsa, XIX asrning so'nggida Usto Qolli Abdulla chinni yasashda juda mashhur bo'lgan. Rishtonning kulrang va havorang chinnilari Samarqand, Toshkent va Buxoroga olib borilgan va u yerda mashhur bo'lgan. Rishtonda chinni buyumlarni yasashning boshlanishi bilan Xitoydan chinni mahsulotlarini keltirish to'xtadi. Rishtonda ishlab chiqarilgan chinni buyumlar yolg'on chinni, sopol chinni, toshkan chinni, chinni musulmon nomlari bilan mashhur bo'lgan.

Rishtonning sopol buyumlari shu qadar mashhur bo'lganki, hatto 1900-yil Parijdagi butun dunyo ko'rgazmasida yuqori bahoni olgan va o'z sifati bilan eng sifatli Yevropa kulolchilik buyumlari bilan bellasha olgan.

2. Qo'qon xonligida naqqoshlik yog'ochsozlik san'ati

Badiiy yog'och o'ymakorligi bilan shug'ullangan ustalar mahalliy daraxt turlari – chinor, qayrag'och, yong'oq, archa, tut, tol, terak, olma, jiyda, behi, nokdan xom ashyo sifatida foydalanganlar. Hozirgi kunda esa ko'proq tut, tol, yong'oq ishlatilmoqda.

Badiiy yog'och o'ymakorligida yog'ochni o'yib, kesib, chizib, bo'rttirib (yassi yoki baland) teshib, taxtacha yoki yog'och bo'laklarini bir-biriga ulab (asosan panjarada) gul (naqsh) ishlanadi.

XIX asrning ikkinchi yarmida ikki xil badiiy yog'och o'ymakorlik uslubi mavjud bo'lgan: zaminli va zaminsiz.

Badiiy yog'och o'ymakorligida uch xil naqsh usuli mavjud: islamiy, bog'dodiy, pargori.

Islimiy – o'simliksimon naqsh turi. Bu naqshda tanob, band bargli, kurtakli butalar bir-biri bilan chirmashib ketib, o'simliklarning o'xshashlik tasvirini beradi.

Bog'dodiy – doira, uchburchak, qirrali, yulduzsimon shakllardagi naqsh ishlash usuli. Eshik, javon, sandiqlarni bezashda ishlatilgan.

Pargori – sirkul yordamida ishlangan naqsh (aylanalar) ko'rinishda.

Badiiy yog'och o'ymakor ustalari buyum ustiga naqsh o'yishdan oldin axtasi, ya'ni o'yiladigan naqshning andazasini tayyorlaganlar. Shundan so'ng bu naqshni buyum ustiga ko'chirib, o'yish ishlarini boshlaganlar. Ish jarayonida o'ttizga yaqin asbob ishlatganlar. Naqsh o'yib bo'linib, buyum tayyor bo'lganidan so'ng yuziga rang berib, keyin loklaganlar.

Yog'och panjarani yasash uchun avval randalangan mayda taxtachalar, so'ngra rom tayyorlanadi, keyin chizma bo'yicha tayyorlangan taxtachalar shu rom ichiga qalab yoki yig'ib chiqiladi. Bunday rom yasash uchun ustadan ko'p mehnat va mahorat talab qilinadi. Panjara yasashda hech qanday shirach, mix ishlatilmaydi. Tayoqchalar yig'ib chiqilgandan so'ng to'rt tomonidan yog'och rom bilan mustahkamlanadi.

Yog'ochsozlikdagi rivojlangan tarmoqlardan yana biri yog'ochga bo'yama naqsh solishdir. Yog'ochga bo'yama naqsh soluvchi ustalarni “naqqosh” deb atashgan. Naqqoshning asosiy ish quroli – “naqsh qalamidir”. Naqqosh avval qog'ozga tushirilib, axtasi tayyorlangan. Keyin bezaladigan buyum sirtiga ko'chirilgan. Keyin tempera va moy bo'yoqda bo'yalgan, ko'pincha bronza va kumush qo'shilgan. Shunday qilib, murakkab kompozitsiyali naqshlar chizilgan. Naqshda qizil va yashil bo'yoqlar ko'p ishlatilgan.

“Naqsh” – arabcha so'z bo'lib, tasvir, gul degan ma'nolarni bildiradi. Har xil shakllar, o'simlik, qush, hayvon va boshqa tasvirlar ma'lum bir tartibda takrorlanishidan hosil bo'lgan bezakdir. Naqshlar islamiy (o'simliksimon), girix (gulli girix), ramziy kabi turlarga bo'linadi.

Farg'ona naqshi, Xo'jand, Marg'ilon, Qo'qon, Farg'ona, Andijon, Chust, Quva, Oltiariq va Rishton shaharlarida vujudga kelgan uslublardan iborat. XIX asr va XX asr boshlariga mansub bo'lgan naqshlar ko'plab osori atiqalarda saqlanib qolgan. Qo'qondagi Madalixon dahasi, Dahmai Shohon, Xudoyorxon o'rdasidagi va boshqa naqshlar o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lsa-da, Farg'ona naqshlarida ko'proq Buxoro, Xiva naqshlarining ta'sirini uchratish mumkin. Hattoki, rus naqsh uslublarini ham unda-munda uchrab turadi. Chunki o'sha vaqtlarda usta naqqoshlar boshqa shaharlarga borar edilar yoki buyurtma bo'yicha boshqa

shaharlarga borib, naqsh bilan binolarni bezatar edilar. Chunonchi, Farg‘ona naqshlariga qaracak, pista gul, anor, atirgul, majnuntol, bodomgul va boshqalarni ko‘rishimiz mumkin. Farg‘ona vodiylaridagi naqsh kompozitsiyalarining tabiatga juda yaqinligi Toshkent, Xiva va Samarqand naqshlaridan ajralib turadi. Farg‘ona naqqoshlar chiroyli qilib, ichiga islmiy shakl tushirilgan qizil, yashil bo‘yoqlar bilan turunjni afzal ko‘radi. Farg‘ona naqqoshlik maktabining namoyondalaridan bir Saidmahmud Norqo‘ziyevdir.

Toshkent naqshlari o‘zining nafisligi va ranglarning bir-biriga asta-sekin o‘tishi, aniq bir koloritga qat’iy rioya qilinishi, geometrik va o‘simliksimon naqshlarning ko‘p ishlatilishi bilan ajralib turadi. Naqshlar ko‘pincha yashil grammada ishlanadi. O‘simliksimon naqshlardan oygul, paxta, bofta, uch barg, shukufta, bargli gul va boshqa elementlar aniq stillashtirilgan. Murakkab geometrik naqshlar ishlanadi. Naqqosh ustalardan Jalil Hakimov, Toyir To‘xtaxo‘jayev, Olimjon Qosimjonov, Yoqubjon Raufov, Anvar Ilhomov, Komil Karimov va boshqalar Toshkent naqqoshlik maktabining asoschilaridandir.

Yog‘ochsozlik hunarlariga yana bir murakkab san‘at, ya‘ni musiqiy asboblarni yasash san‘ati ham kiradi. Musiqiy asboblarni yasash uchun mahalliy daraxt turlari ishlatilgan. Musiqiy asbob yasashda eng yaxshi material (xom ashyo) – tut daraxti yog‘ochi hisoblanadi, undan musiqiy asboblarni asosi ishlanadi. Musiqiy asbob yasovchi ustalar o‘zlari yasagan buyumlarni amaliy bezak turlari bilan bezaganlar.

Qo‘qon ustalari quticha, kursi, rom va boshqalarda kalta bo‘rtmali yassi o‘ymani, ya‘ni pargori uslubda ishlatib kelib, arxitekturada eshik, ustunlarga yirik chuqur naqshlar o‘yib o‘zgacha maktab yaratdilar. Bu maktablar o‘ymalarining monumantalligi, yirikligi, chuqurligi, ko‘pqavatlilik bilan farq qiladi. Qo‘qon yog‘och o‘ymakorligi maktabini rivojlantirishda Qodirjon Haydarov va uning shogirdlari katta hissa qo‘shdilar. Ular terak, yong‘oq va buk yog‘och materiallaridan ko‘pincha foydalanadilar. Ustalar o‘yilgan rel’efning faqat yuziga to‘qroq tarng berib keyin loklaydilar.

Marg‘ilon yog‘och o‘ymakorlik maktabi o‘ziga xos milliy ko‘rinishga ega bo‘lib, o‘ymani chuqur zaminli yassi qo‘llaydilar.

Yog‘och o‘ymakorligida ota-bobolarimiz qadimdan har xil yog‘ochlardan turli maqsadda foydalanib kelganlar. Ustalar yog‘ochni o‘yishdan oldin uning o‘ziga xos xususiyatlarini sinchiklab o‘rganganlar. Keyingina yog‘ochga o‘yib naqsh ishlangan. Hamma yog‘ochlar ular olinadigan daraxt turiga qarab ikki guruhga: bargli va nina barglilarga bo‘linadi. Nina bargli daraxtlardan olingan yog‘ochlar qurilishda, duradgorlikda va yog‘och o‘ymakorligida asosiy material hisoblanadi, chunki uning o‘ziga xos afzalliklari bor. Chunonchi tarkibida smolali moddalari bo‘lganligi uchun u tez chirib ketmaydi, bargli daraxtlarga qaraganda ko‘pligi va yengilligi, unga ishlov berish osonligi, tanasi to‘g‘ri, silliq bo‘lgani uchun undan silliq xoda tayyorlash mumkin. Lekin o‘ymakorlikda shumtol, eman, arg‘uvon, terak, chinor, zirk va boshqa daraxt yog‘ochlari ham ishlatiladi. Yog‘och materiallari tabiiy guliga, rangiga, tovlanishiga, hidiga qarab aniqlanadi. O‘zbekistondagi yog‘och o‘ymakor ustalar o‘z ishlari uchun eng yaxshi yong‘oq, qayrag‘och, chinor, tut, archa, terak, o‘rik kabi mahalliy daraxtlarning eng a‘lo navlarini ishlatadilar. Hozirgi ustalar esa boshqa joylardan keltirilgan shamshod, eman, qarag‘ay daraxtlari yog‘ochlarini ishlatadilar.

Farg‘ona vodiysidagi Axsikent, Marg‘ilon (Quva), Namangan, Qo‘qon, Andijon shaharlari qadimdan yirik madaniyat va hunarmandchilik markazlari bo‘lgan. Bu shaharlarning sharqida uyg‘urlar, janubida qirg‘izlar, shimolida esa qozoqlar yashagan. Ular san‘ati va madaniyatining bir-biriga ta‘siri hozirgacha sezilib turadi.

Mo'g'ul hukmronligi davrida shaharlar xarobaga aylandi. Undan keyingi o'zaro feodal urushlar Farg'ona vodiysini iqtisodiy o'sishiga juda katta salbiy ta'sir etdi. XVIII asrda mayda tarqoq feodal shaharlar birlashib, Qo'qon xonligi vujudga keldi. Bu vaqtga kelib, Farg'ona iqtisodiy tomondan yaxshilandi. Farg'ona O'rta Osiyo shaharlari bilan Hindiston, Iroq, Afg'oniston, Rossiya davlatlari bilan savdo-sotiq qildi. Qo'qonda hunarmandchilik juda tez suratlar bilan rivojlandi. O'sha vaqtlarda Qo'qon kandakorlari ishlarini Samarqand, Toshkent, Buxoro va Sharq davlatlarida ko'rish mumkin edi. XVIII-XIX asrlarda Rossiya bilan Qo'qon xonligi o'rtasida savdo-sotiq avjiga chiqdi. Rossiyadan mis plitalari olib kelindi. Natijada Qo'qonda miltiqsozlik maktablari vujudga keldi. Qo'qon va Marg'ilon misgarlik va kandakorlik maktablari paydo bo'ldi. Farg'ona vodiysida mis buyumlariga klassik naqsh turi bo'lgan "islmiy" juda ko'p ishlatilgan. Klassik an'anaviy "islmiy" naqshlarini islmiy naqshlarini bargak, mslimiy gulzor, islmiy madohil, islmiy qo'shbarg, islmiy qo'shband va boshqa turlari bor.

Farg'ona vodiysi klassik naqshlarining o'ziga xosligi shundaki, unda gul, barg, tanob, bandni uyg'unlashib bir butun ajoyib san'at asarini yaratadi. Kompozitsion tomondan qaraganda naqshlar keng va tik, tor, yonga ketgan hoshiyali yo'llardan iborat bo'ladi. Keng hoshiyali yo'llar islmiy, turunj va boshqa shaklli naqsh bilan, tor hoshiyalilari esa gul, nav shingila, majnun barg naqshlari bilan, tik va yon naqshlar o'simliksimon naqshlar bilan uyg'unlashadi. Qo'qon kandakorlarini turunj naqshlari boshqa shaharlarnikidan farq qilib, o'ziga xos originallikka ega.

3. Xonlikda misgarlik va o'ymakorlik san'ati

Farg'ona badiiy zarb san'ati boshqa viloyat badiiy zarb san'atidan naqshlarning mis ustiga chuqurroq kesilganligi va shu naqshlarni aniqligi bilan farq qiladi. Naqshlar sayoz o'yilib, zaminlari esa tor qilib ishlanganligi bilan farqlanadi. XIX asrda kandakorlik maktablari shakllanib yuzlab xalq ustalari yetishib chiqdi. Qo'qon kandakorlik maktabi namoyondalaridan Otaulla Muham Madrajab, Mulla Xoliq, usta Musavvir, Qashg'ariy, Foriq Xoliqov, Sobir Hasanboy, G'ulomjon Foriqovlar, Mashrab, Yo'ldosh Sobirovlar, Qobil, Sodiq, Fozil Otaullayevlar, Rahmatulla, Vahobjon, Mo'min Otayevlar, Lutfulla Fozilov, Oyshaxon, Yusufjon, Oynisa bibi, Sobirabibi, Sharofatxon, Solihabibi, Oyimposhsha, usta Saidmahmud Mulla Rahmatulla va boshqalardir. Kandakorlar qog'ozga chizilgan rasmlardan juda kam foydalanar edilar, chunki ular gul solishni yoddan bilar edilar. Ashlagan naqshlari hech biri takrorlanmas edi. Albatta har bir naqsh kompozitsiyasiga o'zgartirish kiritilar edi. Qo'qon ustalarining naqsh kompozitsiyalarida har xil arxitektura yodgorliklari, miniatyura rasmlar, jonivorlar, sher, yovvoyi echki, baliq, ilon, afsonaviy qushlar aks ettirilar edi. Ular me'morchilik naqshlardan ham foydaainar edilar.

Toshkent XVIII asrning oxirlarida O'rta Osiyoning yirik shaharlaridan biri bo'lib, uning Afg'oniston, Xitoy va Rossiya davlatlari bilan savdo aloqasi juda yaxshi bo'lgan. Rossiyadan temir, mis, kumush sotib olinardi. Toshkentni Rossiya bosib olganidan so'ng u yirik shaharga aylandi. Shaharda hunarmandlar mahallalari barpo bo'ldi. 1966-yildan so'ng degrezlik mahallalari yo'q bo'lib ketdi.

XIX-XX asrlarda toshkent ustalari faqat choydish chiqarmasdan balki, kashkil, satil, oftoba va boshqa idishlar ishlab chiqara boshladilar. Keyinchalik Toshkentga Samarqand, Qo'qon, Xiva va boshqa joylardan ko'plab kandakorlar kela boshladilar.

Toshkent kandakorlik san'ati shakllarining kattaligi, naqshlarning soddaligi va o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Toshkent kandakorlarigida ko'pincha zaminga ishlov berilmay shunday qoldiriladi. Ensiz hoshiyalardan geometrik naqshdan yordamchi sifatida foydalanib, u serjiloligi, rang-barangligi bilan farq qilmaydi. Ensiz yo'llarda oddiy to'g'ri chiziqlar, kirmak, mehrob, zanjara, kapalak, qubba va shu singari naqshlar chiziladi. Enli yo'llarda esa asosan o'simliksimon "islmiy" naqsh (ilon izi) ishlatiladi. Toshkentlik kandakorlar san'at asarlarida tevarak atrofimizni o'rab turgan narsalarni naqsh orqali aks ettiradilar. Masalan, yelpig'ich, tumor, zuluk, belanchak, olmagul, doira va boshqa naqshlar uchraydi. Toshkentda chinni idishga o'xshash mis choynaklar ham ishlab chiqarilar edi. Har bir xonadonda suv tashish va saqlash uchun mis ko'zalar bo'lardi. Badavlat oilalarning mis ko'zalari juda naqshindor bo'lgan.

Toshkentlik usta Mulla Mo'min Omonulla o'g'li (Qo'qondan ko'chib kelgan) "piltalik" – mis choydishi kandakorlikning ajoyib namunasi bo'lib, idishning yuqori qismi murakkab gulli naqshlar bilan bezatilgan. Uning qopqog'i shabaka usulida, ya'ni panjara ko'rinishida ishlangan. Jo'mragi, bo'yi islmiy gulzor, qorni madoxili guli ixtiyor, kafti bargak va guli majnun barg kabi o'simlik naqshi bilan bezatilgan. Usta Mo'min, Abduqori Yusufjon va Zebiniso, Jamila Saidova kabi ustalar Toshkent kandakorlik maktabi vakillaridandir.

XIX asrda Farg'ona vodiysining shahar va qishloqlarida hunarmandchilik keng rivojlangan. Kosiblarning qo'llari bilan yasalgan maishiy buyumlar hozirgi kungacha saqlanib qolib, ular o'zlarining shakllari va naqshining go'zalligi bilan hayratda qoldiradi. Metall buyumlar takomillashgan mutanosiblik va bezakli naqsh bilan ajralib turib, uning ba'zi ko'rinishlari O'rta Osiyoda yashovchi boshqa xalqlarning buyumlarida ham uchraydi.

Misgarlik mahsulotlari har xil ichimliklar uchun idishlar, turli qutichalar, sandiqlar ishlab chiqargan buyumlarga ko'pincha bo'rttirilgan yoki o'yma naqshlar berilgan. Rossiya bosqinidan so'ng misgarlar shakli va qulayligida o'ziga xos samovar ishlab chiqara boshlaganlar. Misgarlarning asosiy xom ashyosi jez, sariq mis bo'lib, ular asosan Rossiyadan keltirilgan. Shuningdek, ish jarayonida ruh, qo'rg'oshin, kislota, nashatir ham kerak bo'lgan. Odatda idishlar qizil misdan yasalgan. O'ymakorlik mis idish tovoqning ajoyib xususiyati bo'lib, asrlar davomida shakllana borgan va kundalik turmushda ishlatish uchun qulay bo'libgina qolmay, har doim ko'zni quvontirgan. Kulol buyumlardan farqli o'laroq keng tarqalmagan o'ymakor mis idish-tovoqlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, Buxoro, Samarqand, Qo'qon, Toshkent va boshqa shaharlar uning markazlari hisoblangan. Ba'zi bir buyumlar silliq qilib yasalgan, boshqalariga naqsh solingan, ba'zilar sariq misdan, boshqalari esa qizil misdan tayyorlangan. Naqsh solingan mis idish-tovoq asosan shaharlarda yashovchi aholining badavlat qatlamlari xonadonlarida ishlatilgan va u xo'jayinning boyligi hisoblangan (negaki, ma'lum hollarda bahosi ancha qimmat bo'lgan idishni osonlikcha sotish mumkin edi; uni qayta eritib, tanga yasaganlar). O'ymakor mis idish uning egasining ancha badavlat ekanligidan dalolat beribgina qolmay, xonadonning bezagi hisoblangan. Farg'ona vodiysining metall buyumlari takomillashgan mutanosiblik va shakllarning siluetlariga ega. Suv va choy idishlari turli ko'rinishlarda tomonlari yassi yoki tanasi noksimon bo'ladi. Bundan tashqari, tanasining shakli bir xil, ko'pgina idishlar bo'g'zi, dastasi, burni, tagligining shakllari bilan ajralib turadi. Yuvinish to'plamlari (dastsho'y va oftoba) o'ziga xos originalligi bilan ajralib turadi, chunki mintaqalarga bog'liq holda ularning shakllari ko'pincha o'zgargan. Masalan, buyumdagi ba'zi shakllar Qo'qon yoki Marg'ilon uchun xosdir. O'zbekistonga yaqin joylashgan ko'pgina mamlakatlar, masalan, Hindiston, Eron, Turkiya, Kavkaz davlatlari kundalik turmushda ishlatiladigan

idishlar shakli shakllanishga ta'sir qilganligi qonuniydir, negaki bularning barchasini burugni zamonlardan beri islom jamiyatining an'analari birlashtirib keladi. Shunga qaramay, har bir xalqning bezak-amaliy san'atida u yoki bu narsani ajratib turadigan o'ziga xos xususiyatlari bor bo'lgan va hozirgacha saqlanib qolgan. Misgar bir vaqtning o'zida ham zarb qiluvchi, ham o'ymakor bo'lib, mis bummyularini boshidan oxirigacha o'zi yasagan. Misol uchun Farg'ona o'lkashunosligi muzeyi zahiralarida saqlanayotgan mis oftobalarni ko'rishimiz mumkin. Farg'ona vodiysi uchun shakli noksimon bo'lgan idish, tanasi shar ko'rinishda bo'lgan idishlar Xiva, Buxoro uchun xarakterlidir. Marg'ilonlik usta Madaliyev yasagan choydisherlar shakl va bezash jihatidan qizqidir. Uning bir qancha buyumlari muzey ko'rgazmalarini bezab, o'zlarining san'atkorona o'yilgan naqshi bilan kishini hayratda qoldiradi.

O'ymakorlik buyumlar naqshlarida ko'pincha o'simlik gullari, islimiy, kam hollarda zoomorf (hayvonlar) va yulduz motiqlari uchraydi. Sharqdagi islom mamlakatlarida odam va hayovnlarni tasvirlash odat tusiga kirmaganligi tufayli, ko'pincha ustalar ularni o'rab turgan atrof-muhitni zoomorf detallar, masalan, chashmi bulbul, "qo'chqaroq", "pushti baliq" kabilar orqali aks ettirganlar. "Zuluk", "kapalak", "ilon izi" singari naqsh gullari keng tarqalgandir. Real hayvon (masalan, ilon) ko'rinishida faqat idishlarning dasta va burunlargina bezatilgan. Naqshlar va kompozitsiyalarning ko'pchiligi qurilish-me'morchilik obrazlari ("Mehrob", "Zanjara", "Madohid") dan olingan. Ishlab chiqarish joyiga ko'ra misgarlik buyumlarining tafovuti ko'rinishi va naqsh sirti bezaklashning chuqurligi va turli uslublaridangina iborat.

Farg'ona viloyat o'lkashunoslik muzeyi zahiralarida shakllangan eski to'plamlarga mansub bir necha buyumlar saqlanib kelmoqda. Bular:

1. Oftoba – qo'qonlik usta Fozil Mullo Otaulla o'g'li yasagan buyum.
2. Noma'lum eronlik sta yasagan tabib ishlatadigan idish.
3. "Shabaqqa" gulli noma'lum usta yasagan oftoba.
4. Noyob naqshli kashkul ("baliq tangasidagi pomidor"), uni yasagan usta ismi ham noma'lum.

Jom – shirinliklar saqlanadigan qopqoqli yumaloq idish. Bu noyob va qiziqarli ko'rgazmalar metall buyumlarning an'anaviy shakllari sirlarini, ular shakllari va siluetlarining kamolotini ochib beradi.

Qo'qon xonligida xon va beklar yuksak mahoratga ega bo'lgan ustalar ishlaydigan hunarmandchilik ustaxonalariga ega bo'lganlar. Bu ustaxonalar "zargarxona" deb atalgan. Hukmdorlarga tegishli bo'lgan zargarxonalarda tayyorlangan buyumlar boshqa ustaxonalarda tayyorlangan buyumlardan bksak sifatligi bilan ajralib turgan. buning sababi, birinchidan, yuksak mahoratga ega bo'lgan zargarlar va asbob-uskunolari bir markazga to'planganligi bo'lsa, ikkinchidan kerakli va sifatli xom ashyo bilan yetarlicha ta'minlanganligi edi. Kerak paytida mahoratli zargarlar vaqtincha yoki doimiy yashash uchun kerakli joyga yashash uchun ketardi. Arxiv materiallaridan ma'lum bo'lishicha, zargarlik mahsulotlari uchun kerakli bo'lgan xom ashyolar zargarlarga o'z vaqtida keragicha yetkazib berilgan. Bezak mahsulotlari sifatida asosan: kumush parchasi, ruh, qalay, qo'rg'oshin, mis, bronza, temir, cho'yan, marjon, aqiqa, achchiq tosh, ganch, sham, angishona, saqich, qayish, paxtadan tayyorlangan dag'al matolar, lok, choy va boshqa narsalar ishlatilgan.

Lekin bu zargarlik mahsulotlari faqat xon xonadoni uchunmi yoki sotish uchun ham ishlab chiqarilganmi? degan savolga javob yo'q.

Qo‘qonda tanga zarb etuvchi ustaxona ham mavjud bo‘lgan. Albatta xon bu tanga saroyidan juda katta foyda olgan. Masalan, yirik boylar o‘z xom ashyosidan tanga zarb ettirishni istasa, buning uchun albatta xonga soliq to‘laganlar. Bu soliq quyidagi ko‘rinishda bo‘lgan: bir yamb uchun 2 tilla, oltin uchun esa 1000 tilladan 30 tillasi xon xazinasiga topshirilishi kerak edi.

Qo‘qondagi Mo‘yi Muborak darvozasi orqasida (u yerda Mo‘yi Muborak deb ataluvchi ariq ham mavjud) Charku qishlog‘ida qog‘oz ishlab chiqarish fabrikasi bo‘lgan. Bu yerda ishlab chiqarilgan qog‘oz nafaqat Qo‘qonda, balki butun O‘rta Osiyoda ham mashhur bo‘lgan. 1871-yil Qo‘qonga kelgan A.Fedchenko bu qog‘oz fabrikasi haqida o‘zining fikrlarini yozib qoldirgan. Lekin qog‘oz tayyorlash texnologiyasini afsuski muallif yozib qoldirmagan. Shu bilan birgalikda bu qog‘oz fabrikasining kimga tegishli ekanligi haqida ham hech qanday ma‘lumot qoldirmagan. Ishlab chiqarilgan qog‘ozlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri bozorda sotilgan va boshqa hududlarga ham eksport qilingan.

Xon va beklarning temirchilik ustaxonalari ham mavjud bo‘lgan. Bu ustaxonalarda asosan otlarga taqa qoqilgan.

Xon va beklar to‘qimachilik ustaxonalariga ham ega bo‘lganlar. Onga tegishli bo‘lgan to‘qimachilik ustaxonalarida asosan xon xonadoniga va askarlarga matolar

4. Xonlikda to‘qimachilik san’ati

to‘qilgan.

Xon oilasi gugurt ishlab chiqaradigan maxsus ustaxonaga ham ega bo‘lgan. Xudoyorxon davrida bu ustaxonaga sarkor Usta Abdulla boshchilik qilgan. Bu ustaxona har yili xondan 400-500 pud o‘tin olib, undan saroyga 100 chayrik (chorak) gugurt ishlab chiqargan. Xonlikda ba‘zi ustalar gugurtni yantoqdan ham tayyorlaganlar. Masalan, Usta Abdulla Nursuxi uzoq vaqtgacha Qora qishloq, Qora-mulla va Qaqir qishloqlarida gugurt uchun yantoq xom ashyosidan foydalangan. U har yili Devon-begjonga 60 chayrik gugurt yetkazib bergan. Yantoqdan gugurt tayyorlash boshqa materiallarga qaraganda arzon bo‘lib, xon xonadoniga har yili gugurt uchun sarflanadigan 1600 tangani tejash imkonini bergan.

Xonlikda amalga oshirilgan yirik qurilish ishlari (madrasa, masjid, bozor, rastalar, saroy, maqbara, davlat va xo‘jalik binolari, shahar atrofidagi bog‘lar va saroylar, o‘rda, zakotxona, bakovulxona, arabxona, mirishkorxona, farroshxona, oshxona, choyxona va boshqalar) yog‘ochlar, pishgan va xom g‘ishtlar, ganch, qamish, bordon va boshqa juda katta miqdordagi qurilish materiallarini talab qilgan. Masalan, xon xonlik maqbarasini ta‘mirlashning o‘ziga 113 025 ta g‘isht, zakotxonani ta‘mirlashga esa 4250 dona g‘isht kerak bo‘lgan.

Xonlik arxivlarida pishiq g‘ishtlar va ganchlarni tayyorlovchi bir qancha xumdonlar haqida ma‘lumot beriladi. G‘isht xumdonlari asosan xon xonadoniga tegishli bo‘lib, ko‘plab shahar va katta qishloqlarda joylashgan. Qo‘qon shahridan tashqari, Namangan viloyatining Yangiariq kanalining chap sohilida xumdon borligi haqida ma‘lumot mavjud. Qo‘qon shahrida mavjud bo‘lgan xumdonlardaning har birida 35 mingtagacha pishgan g‘ishtlar ishlab chiqarilgan. Ularning har biri kerakli xom ashyolar: yoqilg‘i materiallari, xom ashyo va ishchilar bilan ta‘minlangan. Bu ishlar bilan asosan joylardagi amin va sarkorlar shug‘ullangan. Hujjatlarda pishiq g‘ishtning narxlari haqida ham ma‘lumotlar berilgan. Masalan, bir hujjatda har 1000 pishiq g‘ishtning bahosi 57 tilla ekanligi haqida ma‘lumot berilgan. Bunda oluvchi g‘ishtni joyiga o‘zi tashib ketish sharti bilan bo‘lgan baho edi.

Filipp Nazarov Qo‘qonga kelgan paytda (1813-1814-yillar) shaharda atigi uchta bino pishgan g‘ishtdan qurilgan bo‘lsa, 56 yildan keyin shaharning ko‘plab binolari pishiq g‘ishtdan barpo qilinganligi rus tarixchilari tomonidan e‘tirof etilgan.

O‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarixida xalq amaliy san‘ati turlari boy va rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib ommaviy qismini tashkil etadi. O‘zbek diyorida vujudga kelib, gullab yashnagan san‘at turlari bemisl va betakrorligi bilan dunyoga mashhurdir. Xalq amaliy san‘ati kishilarning ma‘naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini boyitadi. Ana shunday san‘at turlaridan biri bo‘lgan, asrlar osha o‘zbek ayolining milliyligini, husn-latofatini, olam rang-barangligini o‘zida jilolantirib kelayotgan xonatlas haqida fikr yuritmoqchimiz.

Atlas – arabchasiga tuksiz, silliq – o‘rishi ham, arqog‘i ham tabiiy ipakdan to‘qiladigan, o‘rishi abr usulida rang-barang naqshlar bilan bezatiladigan bir yuzlama mayin mato. O‘zbek atlaslari rang-barang gullarga boy, bu gullar bir-biri bilan uyg‘unlashib, matoda yaxlit to‘qilgan eng go‘zal bir naqshni yaratadi. Atlasning tabiiy ipakdan to‘qilgan eng a‘lo navi sakkiztepkili dastgohda to‘qiladi. Abrbandchilarning nozik san‘ati, takrorlanmas nusxalar yaratishdagi mashaqqatli mehnati har qancha tahsinga loyiq. Abrbandchilik ko‘hna kasblardan bo‘lib uning tarixi ko‘p asrlarga borib taqaladi.

Atlasni dastlab to‘qib chiqargan usta, undagi naqshlarni quyosh botishi paytidagi ufqda taram-taram bulutlarning turlicha tovlanishidan olgan, degan rivoyatlar bor. “Abr” so‘zi forscha bo‘lib, bulut ma‘nosiga to‘g‘ri keladi.

Zamonlar o‘zgarib, ipak matolarning kelib chiqishiga, ularning ishlanishiga, uslubiga yangi hukmdor chor Rossiyasi tomonidan qiziqish kuchayib ketdi. Ipak matolar O‘rta Osiyo shaharlarida doimo urf bo‘lib kelgan. Qadimdan o‘zbek matolarining badiiy bezaklari o‘ziga xosligi bilan ajralib turgan. Ular O‘rta Osiyo chegaralardan tashqari ham ma‘lum va mashhur bo‘lgan. XIX asr o‘rtalari va XX asr boshlarida qog‘oz matolar ishlab chiqarish susayib ketdi. O‘rta Osiyoga Rossiya, Angliya, Turkiya, Erondan keltirilayotgan chit matolar ancha xirdorgir bo‘lib, mahalliy qog‘oz matolarni surib chiqara boshladi. Shoyi matolar ishlab chiqarishda XIX asrning 60-70-yillari gurkirash davri bo‘lib, favqulodda mukammallikka erishdi. Moskva va boshqa shaharlar fabrikalarining shoyi mahsulotlari bilan muvaffaqiyatli raqobatlasha boshladi. Qadimdan ipakchilik va ipak gazlamalar to‘qish butun Turkistonda tarqalgan va yuksak darajaga ko‘tarilgan. O‘zbek jomaboflari an‘anaviy ipak gazlamalar va yarim ipak gazlamalar to‘qib, undan asosan boy tabaqalarga kiyim-kechaklar tikilgan.

Yarim pak gazlama – adras (o‘rishi ipak, arqog‘i ip) XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida juda urf bo‘lgan. Ana shu davrda chiqqan Buxoro adراسi juda mashhur bo‘lib, Xiva, Toshkent, Turkiston, Qashqar, Afg‘oniston va qo‘shni Dashtdagi ko‘chmanchi elatlarga sotilgan. Adras va shoyi to‘qishda Samarqand va Marg‘ilon juda tanilgan. Adras va shoyi to‘qishda Samarqand va Marg‘ilon juda tanilgan. Mahalliy ustalar tola va ipak ipidan asosan atlas ishlab chiqarishgan. XVIII asr oxiri va XX asr boshlarida ishlab chiqarilgan abrli gazlamalar juda ensiz, ranglari ham oq-qora, qizil, binafsha kabi ranglardan foydalanilgan. Atlaslar to‘rt tepki deb atalgan. Keyinchalik XIX asr oxiri, XX asr o‘rtalariga kelib, ipak matolarga naqsh chizib, gul solish rasm bo‘lgan va uning ranglari ham kamalak ranglari singari turli-tuman bo‘lgan. Atlasimiz endi sakkiz tepki, deb atala boshlandi.

Gilam to‘qish san‘ati xalq amaliy bezak san‘atining keng tarqalgan turi bo‘lib, ko‘p asrlik milliy an‘ana va uzoq tarixga ega. Gilam to‘qish badiiy to‘qish hunariga kiradi. U qadimdan ayollar orasida keng tarqalgan hunar sifatida mashhurdir. Gilam to‘qish san‘ati ayniqsa

chorvachilik bilan shug'ullanadigan ko'chmanchi xalqlar orasida tarqalgan. Gilam qadim zamondan beri xona ichini bezatish, issiq saqlash, tovushni kamaytirish uchun xizmat qiladi. Gilam asosan polga yoki bo'yra ustiga to'shaladi, xonani bezatish uchun devorga osiladi va o'tov ichiga o'raladi. Bu san'at juda qadim zamonlardan beri rivojlanganligini yozma tarixiy manbalar va arxeologik topilmalar isbotlab berdi. Arxeologik topilmalar natijasida Xorazmda miloddan avvalgi I ming yillikka mansub gilamlar topilganligi tasdiqlanadi. Qadimda Ossuriya, Bobil, Midiyada keyinroq esa Eron, Hindiston Turkiyada to'qilgan gilamlar mashhur bo'lgan.

XVIII-XIX asr boshlarida ayniqsa, Buxoro va Qo'qon xonliklarida gilam to'qish san'ati tez suratlar bilan rivojlandi. Bunda gilam tayyorlash o'zining naqshi, yuqori sifatli to'qilishi, bo'yalish texnikasi bilan ajralib turadi.

XX asr boshlarida Qo'qon, Samarqand, Andijon, Buxoro, O'rta Osiyoning gilam to'qib sotish markazi hisoblangan. Lekin XX asr boshlarida bu yerlarda gilam to'qish san'atining rivojlanishi pasayib ketdi.

O'zbekiston gilam to'qish maktabi asosan ikki – Samarqand va Andijon katta guruhlariga bo'linadi. Andijon gilamlari o'zining chidamliligi, pishiqligi, aniq qizil-ko'k koloriti bilan farq qiladi. Farg'ona, Qoraqalpoq gilamlari asosan ikki xil, ya'ni qizil va to'q ko'k gammada to'qiladi. O'zbek gilamlarining chetiga ko'pincha ruta o'rtasiga turunj yoki doira naqshi ishlanadi.

To'qima gilamda – gilamning guli to'qiladi. O'zbekistonda hududida patli va patsiz (palos) gilamlar to'qiladi.

Tikma gilam – tayyor buyumga guli tikiladigan gilam.

Bosma gilam – guli bo'yab bosiladigan gilam.

Xiva, Andijon, Urgut, Qarshi va boshqa joylarda to'qima gilamlar tayyorlanadi. Ular o'zining o'simliksimon, geometrik naqshi, bejirimligi, tabiiyligi va sifati bilan mashhurdir. Gilamdo'zlik eng rivojlangan hudud bu Turkmanistondir.

Gilamlar o'tmishda yer bag'irlab, tiq holatda o'rnatilgan pastak sodda dastgohda to'qilar edi. Keyinchalik to'quv dastgohlari ancha mukammalashdi. Bu dastgohlarning tuquvchi ayollar yonma-yon o'tirib birdaniga to'qiydigan keng g'altkali xillari yasaldi. Qo'lda gilam to'qish juda qiyin, masalan, yaxshi mutaxassis 1 m² patli gilam to'qish uchun 20-25 kun sarf qiladi. Shuning uchun qo'lda to'qilgan gilamlar qimmat turadi. Gilamlar ikki xil kalta patli (3-7 mm) va uzuni patli (8-17 mm) qilib to'qiladi. Turkmanlar gilam to'qishda tuya tiviti, qo'y juni, paxta tolasi va ipak ishlatadilar. O'zbeklar tuya tiviti, qo'y juni va paxta ishlatadilar.

XIX asrning oxirgacha gilam to'qishda o'simliklardan tayyorlanadigan bo'yoqlar ishlatiladi. Keyin esa anilin bo'yoqlardan foydalanila boshlandi. Pat gilam to'qish ancha murakkab bo'lib, unda arqoqdan tashqari nax degan ip ham ishlatiladi. Keyinchalik pat gilamlar maxsus dastgohli korxonalarda to'qiladigan bo'ldi. Pat gilamlar naqsh yoki gulni sanama iroqiga o'xshatib rangli iplarni nusxasiga qarab terish asosida to'qiladi. Naqsh yaratishda bandlarini hisobi aniq bo'lishi hamda bir qator band bog'lab chiqilgach arqoq o'tkazilib taroq bilan bostiriladi. Shundan so'ng patlar qaychi bilan teksilanib chiqiladi. Gilam to'quvchi ayolning 1 dm² yuzasida 600-1030 tacha pat bog'lashi lozim. Qo'lda to'qilgan gilamlar o'lchami bo'yicha uch turga bo'linadi. Kichik (3 m² gacha), o'rtacha (3m² dan 6 m² gacha) va katta (6 m² va undan katta) gilamlar.

Gilamdo'zlik ayollar hunari sifatida mashhur bo'lib, erkaklar bu hunar bilan shug'ullanmaganlar. Gilam to'qish juda murakkab ish. Tajribali gilamdo'z usta gilam

to‘qishni yoshlik paytlaridanoq o‘rgan boshlab 16-17 yilda haqiqiy usta bo‘lib yetishgan. 7-9 yoshdagi qizlar charxda ip yigirishni o‘rganib, 11-14 yoshida esa gilam to‘qishda ustaga shogird bo‘lgan. Bu yoshda ular bo‘yoqlash ishlariga qatnashmaydilar. 20-25 yoshda to‘qishni yaxshi o‘rganadilar. 30-35 yoshlarida esa tajribali, har xil gilamlarni mustaqil to‘qiy oladigan bo‘ladilar. O‘zbekiston hududida ko‘pincha yuk tashish uchun xurjun gilamlar to‘qishgan.

Xurjun – yuk tashish uchun mo‘ljallangan gilamga o‘xshab to‘qilgan qo‘shaloq xalta. U jun, paxta ipidan to‘qiladi. Xurjunni ot, eshak, xachir, tuya ustiga ba’zida odamlar yelkasiga tashlab yuradi. Unga har xil buyumlar, oziq-ovqatlar solinadi. U O‘rta Osiyo, Kavkaz xalqlari o‘rtasida keng tarqalgan. Turkman xurjunlari juda chiroyli va sifatli to‘qilishi bilan ajralib turadi. Xurjunlar ko‘pincha geometrik naqshli qilib to‘qiladi. Gilam o‘rnida sholcha ham ishlatiladi.

Sholcha – qadimdan echki, tuya, qo‘y juni, paxta va sun‘iy toladan to‘qiladi. Sholcha polga, yerga to‘shaladi. Sholcha O‘rta Osiyo hamda Qozog‘istonda keng tarqalgan.

Kigiz bosish san‘ati qadim zamonlardan beri rivojlanib kelayotgan xalq amaliy san‘ati turlaridan biri. O‘zbekiston hududining qaysi joyida chorvachilik bilan shug‘ullangan bo‘lsa, shu yerda kigiz bosish kasbi keng tarqalgan. Bu san‘at turi O‘rta Osiyo va Qozog‘istonda qadimdan rivojlanib kelgan. Ota-bobolarimiz kigizni yerga bo‘yra ustiga solishgan, o‘tovlarni o‘rashgan, qalpoq, piyma va boshqalarda ishlatishgan. Ayrim hollarda guldor, chiroyli kigizlar badiiy buyum sifatida ishlatilgan. Kigiz oq, qizil, qora, guldor va gulsiz bo‘ladi. O‘zbekistonda kigiz bosishning o‘ziga xos tomonlari bo‘lib, kigiz bosish quyidagi texnologiyada bajariladi. Kigiz qo‘yning kuzgi junidan yoki echki junidan tayyorlanadi. Jun titib tozalanadi, yuvib quritiladi. Shundan so‘ng maxsus savag‘ichlar yordamida yaxshilab savalanadi, ya‘ni titiladi. Bu jarayondan so‘ng jun rangi va sifatiga ko‘ra yuzlik, oraliqqa, tanlab ajratiladi, yuziga maxsus rang bilan bo‘yyalgan mayin junlardan naqshlar ishlanadi. Kigizlarga shox, romb, yulduz, bulut va oddiy geometrik naqshlar ishlanadi. Bosiladigan kigiz hajmiga moslab qamish qolip tayyorlanadi. Kigizni tayyorlashda chiy yuziga yuzlik undan so‘ng oraliq jun tashlanadi. So‘ngra ustidan qaynoq suv quyiladi. Oraliq jun yayratiladi va yana suv quyiladi. Maxsus chiy sholcha yoki qalinroq matoga o‘raladi, arqon bilan mahkam bog‘lab, ustidan tez-tez qaynoq suv sepib dumalatiladi. Arqon yechiladi va kigizni chiydan ajratib olini yana ustidan qaynoq suv sepiladiyu kigiz o‘rtasidan arqon bilan o‘rab, uch-to‘rt kishi o‘tirib uni dumalatib uqalaydi, bilaklaydi. Agar suvi qolmagan bo‘lsa suv beriladi va va ikki uchini biriktirib bog‘lab bir yoki ikki yoniga taxta qo‘yib ishqalab tekislab chiqiladi. Hozir kigizlar maxsus mashinalar yordamida tayyorlanyapti.

O‘zbek xalqi qadimdan o‘zining nafosatga boy, asrlar davomida shakllangan va sayqal topgan xalq amaliy san‘ati bilan dunyoga mashhurdir. Shu san‘atning noyob turlaridan biri savat to‘qish san‘atidir. Savat to‘qish o‘zbek xalqining azaliy hunari bo‘lib ota-bobolarimiz qadimdan tomorqa va hovli atroflarini shox-shabbalardan qilingan maxsus to‘siq qo‘ralar bilan o‘rab kelganlar. Har xil novdalardan turli-tuman savatlar to‘qishgan. Ularning har biri shakli va ishlatish joyiga qarab turli nomlar bilan yuritilgan. Masalan, kajava savat, non savat, elama savat, qoshiqdon savat, uzum savat, guldor savat, dasturxon savat, to‘r savat, bosma savat va boshqalar. Qadimdan savat to‘quvchilarning maxsus do‘koni bo‘lib, u yerda turli-tuman savatlar sotishgan. Savatlar har xil shakl va hajmda, turli maqsadlarga mo‘ljallangan bo‘ladi. Yirik novdalardan to‘qilgan savatlar qadimdan qurilishda tuproq,

tosh, ganch, qum, g'isht tashishlarda ishlatilib kelingan. Nozik novdalardan to'qilganlari esa meva-cheva, non va boshqa narsalar solishda ishlatiladi.

Kajava savatlar – qadimiy savat turlaridan bo'lib, o'z shakli va hajmiga ega bo'ladi. Bu savatlar qadimdan bo'za, yog', sharbat kabi suyuqliklar saqlanadigan chirpit shishalar uchun to'qilgan.

Guldor savat – gulga o'xshatib tut, terak, tol va boshqalarning novdalaridan to'qilgan savat. Guldor savatlar qadimdan rivojlanib kelayotgan bo'lib, uni to'qish usuli juda qiyin bo'lganligi sababli bu ish bilan juda kam odamlar shug'ullangan. Bularga non savat, kajava savat, qoshiqdon savat, elama savat va boshqalar kiradi.

Qadimdan savat to'qishda tut, terak, tol, turang'il, yulg'un novdalari bug'doypoya, qamish va boshqa materiallarni ishlatib kelganlar. Ayniqsa qora tolning novdasidan to'qilgan savatlar juda chidamli hisoblangan. Savatlar terak, majnuntol, turong'il, ligustrum va tolning bir yoshli tekis novdalaridan to'qiladi. Bu novdalar egiluvchan hamda chidamlidir. Savat to'qish uchun novdalarning qirqib olishning o'z muddati va o'ziga xos saqlash texnologiyasi bor. Savatchi avval sentyabr va oktyabr oylarida chiviqlarni yig'ib oladi, chunki shu oylarda chiviqlar yaxshi pishib yetilgan, chidamliligi yaxshi bo'ladi. Chiviqlar qirqib kelingandan so'ng, uni salqin joyda saqlab mustahkamligini oshirish uchun vaqti-vaqti bilan suv sepib turilgan. Shunda chiviqlar yaxshi bukilib, sinmaydigan bo'lgan. Hozir bu soha mutaxassislari juda kamayib ketgan. Mayda savatlar, ya'ni gul savat, chok savat, chovli boshqalarni mustahkam nozik mayda chiviqlardan zich qilib to'qiydi.

Bo'yrachilik – bo'yra to'qish kasbi, tojikcha – bo'yrafofi O'rta Osiyoda qadimdan rivojlanib kelatyotgan xalq amaliy san'ati turi. Bo'yra bu yaxshi pishigan qamishni pachoqlab po'stini tozalab to'qilgan buyum, uni gilam, namat (kigiz), palos tagidan solishgan. Bo'yra to'qiydigan mutaxassislar bo'yrachilar deb yuritiladi. Bo'yra palos, gilam va namatlarni tuproq va zaxdan saqlagan, undan to'y va marosimlarda, mevalarni qishda saqlashda, quritishda foydalanilgan. U qop o'rnida ham ishlatilgan. Derazalarni qorong'ulatishda parda o'rnida, musulmonlar urf odati bo'yicha dafn marosimida ham bo'yradan foydalanishgan. Qadimda qurilishda bo'yra juda ko'p ishlatilgan, imorat tomini yopishda (lo'mboz bosishda) ham ishlatilgan. Shaharlarda qamish kam bo'lgani uchun bo'yrachilar shahar tashqarisidagi to'qayzorlardan qamishni o'rib kelishgan. Qamish kech kuzda to'qaylardan o'roqda o'rilgan. Chunki qamish pishgan vaqtida tanasi juda qattiq bo'lganda o'riladi va bog' qilib boylanadi. Bog'langan qamishlarni uyga olib kelib qo'lda yaxshilab tozalanadi. Tekis yerga qamishni tashlab belkurak tayoqchasi uchiga og'ir o'rnatilgan asbobda urib pachoqlanadi. Keyin qamish orasi yorib ajratiladi. Uni bo'yra to'qishga tayyorlanadi. Yorib ajratishda ishchi qo'lqop kiyib ishlaydi. Aks holda qo'lni kesib yuborishi mumkin. Bo'yraning asosan ayollar to'qishgan. Yerga qamishlarni ko'ndalang tashlab soch o'rgandek qilib to'qiladi. Bo'yra to'qib bo'linganidan so'ng uni qirqib tekislanadi va qamish boshlarini bir-biriga kiygazilib to'qiladi. Bo'yra sochilib ketmasligi uchun mahkam qilib bukib to'qiladi. Bo'yralar turli xil nomlar bilan yuritiladi. Qurilishda uy tomini yopishda "bordon" ishlatiladi.

Bordon – bu bo'yraning bir turi bo'lib qamishni tozalamasdan to'qilgani uchun u faqat tomni yopishda ishlatiladi.

Qazo bo'yra – musulmonlarning urf-odati bo'yicha dafn marosimida ishlatiladi, odam bo'yi uzunligida bo'ladi. O'lchamiga ko'ra "chor gaz" 5-6 m² va 1,6 m² lisi "se gaz" bo'ladi. Har yili erkaklar qamishni o'rib kelganlaridan "o'ryonpayg'ambar"ga atab, keyin

qo‘y so‘yib, qur‘on o‘qiganlar. Shundan so‘nggina ishni boshlab yuborganlar. Bo‘yrachilar bu an‘anani asrlar bo‘yicha davom ettirib kelganlar.

Qo‘qon xoni Abdurahimbiy 1718-yili Samarqanddan Qo‘qonda qog‘oz ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish maqsadida bir nechta hunarmandni olib keladi. Shu bilan birgalikda hukmdor to‘rtta hunarmandni (Abdurahmon, Sulaymonqul, Egamnazar, Arslonqul) Qoshg‘ar va Xo‘tonga qog‘oz ishlab chiqarish sirlarini o‘rganish uchun jo‘natadi. U yerga borib, hunar o‘rgangan hunarmandlar Qo‘qonga qog‘oz ishlab chiqarish sirini tarqatmasliklari uchun vatanlariga qaytarmaydilar. Keyinchalik ular u yerdan qochib, o‘sha davrda Qo‘qondagi qog‘oz ishlab chiqarish markaziga joylashadilar va u yerda yashab qoladilar.

Shahardagi Ulkansoy (Qo‘qon) arig‘i bu yerda qog‘oz ishlab chiqarishga sabab bo‘lgan. Chunki qog‘oz ishlab chiqarish uchun suv bilan bog‘liq edi. Qo‘qon XVIII-XX asrlar davomida sifatli qog‘oz ishlab chiqarish markaziga aylanadi. 1725-1726-yillarda hozirgi Davronbek mahallasida dastlabki objuvoz ish boshlagan.

Shu bilan birgalikda Abdurahimbiy Samarqanddan qog‘oz ishlab chiqaruvchi ustalarni asirga oladi va Xo‘tonlik ustalar bilan birgalikda qog‘oz ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yadi. Xo‘tondan kelgan ustalar qog‘ozni asosan qamish formasida tayyorlaganlar. Shuning uchun qog‘oz qalin bo‘lgan. Samarqandlik ustalar esa ot yoli formasida qog‘oz tayyorlaganliklari uchun ularning qog‘ozlari yupqa bo‘lgan.

Saroyda devon va ipak qog‘oz ishlatilgan. Oddiy aholi esa ipak qog‘ozdan foydalanganlar. O‘rta hol aholi esa asosan rasmiy qog‘ozlar ishlatilgan. Undan majlislarda, madrasalarda, yozuvchilar, shoirlar, kotiblar foydalanganlar. Ammo o‘rta hol aholi foydalanadigan qog‘ozga talab u qadar katta bo‘lmagan. Qog‘oz ishlab chiqarishning rivojlanishi Xudoyorxon davriga to‘g‘ri keladi. Markaziy Osiyo bozorlarida asosan shu qog‘oz savdosi juda keng tarqalgan. Muhammadalixon davrida ipak qog‘oz ishlab chiqarish kuchaygan, shu bilan birgalikda bu davrda hattotlik rivojlangan va hatto Muhammadalixon o‘o‘zi ham hattotlik bilan shug‘ullangan.

Qog‘oz ishlab chiqarishga usta boshchilik qilgan. Usta bir shogirdni 7-8 yil davomida tayyorlagan. Shogird o‘z mustaqil ish boshlagunga qadar sarmoya to‘plagan. Shogirdning ish haqi “sinkor” deb atalgan. Ish haqi haftalik bo‘lib, har payshanba kuni ish haqi tarqatilgan. Shogird dastlabki 2-3 yilda tekinga ishlagan. Qog‘oz tayyorlash uchun objuvozda 6 kishi ishlagan. Agar ustaning o‘g‘illari bo‘lsa, shogirdlaridan tashqari, farzandlari ham ishlagan.

Usta shogirdiga “faxriy” usta maqomini berish uchun uni imtihon qilgan. Shogird mustaqil ravishda qog‘oz tayyorlash jarayonini usta kuzatib turar edi. Imtihon paytida tayyorlanayotgan qog‘oz quyqasi nordonroq bo‘lsa, uning tayyorlanish jarayoni yaxshi ketayotgan bo‘lar edi. Shogirdga fotiha berish vaqtida boshqa ustalar va shogirdlar ham taklif etilgan. ziyofat paytida shogirdning otasi ustaga kiyim-kechak, pul va kamar bergan. Ustadan boshqa mehmonlarga esa yaktak va do‘ppi tarqatilgan. Ziyofat so‘nggida usta Qur‘ondan tilovat o‘qib, shogirdiga oq fotiha bergan va unga kamar taqib qo‘ygan. Bu marosim aholi o‘rtasida “kamarbasta” deb atalgan.

Qo‘qon atrofidagi ko‘plab mahallalarda qog‘oz ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan edi. So‘x tumanidagi Qal‘acha va Tul qishloqlarida, Isfara tumanidagi Chorkuh qal‘asi atrofida ham qog‘oz ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Bulardan tashqari, hozirgi Uchko‘prik tumanida qog‘oz ishlab chiqarishga moslashgan objuvozlar mavjud bo‘lgan.

Qog'oz ishlab chiqarishga moslashgan objuvozlar asosan ikki xil maqsadda ishlatilgan: 1) objuvozlar yozda qog'oz ishlab chiqarishga xizmat qilgan bo'lsa, 2) qishda esa sholi oqlangan.

Qo'qonda qog'oz ishlab chiqaradigan korxonada Mo'yi Muborak nomli joyda joylashgan bo'lib, bitta usta bir kunda 300 varaq qog'oz ishlab chiqargan. 24 ta qog'ozdan iborat qog'ozlarning bir dastasi bozorda 15 kopeekdan, murakashlar qo'lidan o'tgan qog'ozlar esa 20-30 kopeekdan sotilgan.

Tayanch iboralar

Kulolchilik, Rishton kulolchiligi, kulolchilik sexlari, naqqoshlik, uning turlari, yog'ochsozlik, Fag'ona yog'ochsozligining boshqa hududlardan farqi, hunarmandchilik turlari, o'ymakorlik, misgarlik, uning turlari, to'qimachilik, gilamdo'zlik va namatsozlik.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Rishton kulolchiligi haqida nimalarni bilasiz?
2. Farg'ona naqqoshlik san'ati va uning turlari haqida nimalarni bilasiz?
3. Farg'ona yog'ochsozligining boshqa hududlardan farqi nimada?
4. Farg'ona yog'ochsozligida asosan qanday daraxtlardan foydalanilgan?
5. Farg'ona misgarligining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
6. Farg'ona o'ymakorligi o'ziga xos xususiyatlari mavjud?
7. Farg'ona to'qimachilligining boshqa hududlardan farqi nimada?
8. Gilam to'quvchiligi xonlikda qay darajada rivojlangan?
9. Nima uchun Marg'ilonda mato to'qish qadimdan rivojlangan?
10. Qo'qon xonligida oddiy aholi uchun qanday uy buyumlari to'qilgan?

6-mavzu: Qo‘qon xonligi ma‘muriy-hududiy boshqaruvi Reja

- 1. Qo‘qon xonligi ma‘muriy bo‘linishi**
- 2. Qo‘qon xonligida markaziy boshqaruv va uning o‘ziga xos xususiyati**
- 3. Xonlik mahalliy boshqaruvining asosiy funksiyasi va uning davlat siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o‘rni**

1. Qo‘qon xonligi ma‘muriy bo‘linishi
--

XVIII asr boshi Farg‘ona vodiysida Chodak xojalari hukmronlik qilgan bo‘lsalar-da, ularning boshqaruv tizimiga oid hech qanday ma‘lumotlar qolmagan. 1709-yilda asos solingan Qo‘qon xonligi hukmdorlari XVIII asr mobaynida

siyosiy mavqelarini kuchaytirib, boshqaruv tizimini shakllantirib bordilar.

Farg‘ona vodiysining markaziy qismida tashkil topgan yangi davlat hududiga uning birinchi hukmdori Shohruxbiy (1709-1721) tomonidan Namangan, Marg‘ilon va Andijon to‘lik kiritilgan edi. Shohruxbiy vafotidan so‘ng taxtga o‘tirgan Abdurahimbiy (1721-1733) Xo‘jand viloyatini to‘liq xonlik tarkibiga kiritishga muvaffaq bo‘ldi. Vaqtincha bo‘lsa-da, Buxoro xonligining viloyatlari bo‘lgan Jizzax, Samarqand va Kattaqo‘rg‘on ham Qo‘qon hukmdori tomonidan egallandi.

1753-yil taxt tepasiga kelgan Erdonabiy davlatning sharqiy qismidagi O‘sh va O‘zganni o‘z davlati tarkibiga kiritdi. Norbo‘tabiy hukmronligiga kelib esa Andijon, Marg‘ilon va Farg‘ona vodiysining deyarli barcha qismi Qo‘qon xonligi hududi hisoblandi.

XIX asr boshlariga qadar xonlik tarkibida Marg‘ilon, Andijon, Namangan, Xo‘jand kabi yirik viloyatlar bilan bir qatorda Chust, Isfara, Konibodom singari hududiy jihatdan kichik viloyatlar ham bo‘lgan va ularni ham viloyatlar kabi hokimlar boshqargan. Buni Norbo‘tabiy hukmronligi davrida Olimxonning To‘raqo‘rg‘on hokimligini o‘g‘li Olimxonga berganligi haqidagi Xakimxon To‘raning ma‘lumoti ham tasdiqlaydi.

Norbutabiyning o‘g‘li Olimxon (1798-1810) tomonidan mustaqil Toshkent bekligining bosib olinishi xonlik hududining yanada kengayishiga, tashqi savdo aloqalarining rivojlanib, davlatning siyosiy mavqei ko‘tarilishiga keng imkoniyatlar ochdi. Bu imkoniyatlardan Olimxondan so‘ng taxtga o‘tirgan Umarxon (1810 - 1822) to‘lik foydalanishga erishdi. U Rossiya bilan savdo aloqalarini yo‘lga qo‘yib, Turkiya davlati bilan ham diplomatik munosabatlar olib bordi. Umarxon davrida Qo‘qon xonligining davlat tuzumi, davlat ishlarini yurgizish qonun-qoidalari, diniy ishlar tartibga keltirilib, mamlakat chegaralari aniqlab olinadi. Endi Qo‘qon davlatining chegarasi shimolda Turkiston va Dashti Qipchoqqacha, g‘arbda Samarqandgacha, janubda Ko‘histon hamda Ko‘lob, Hisor va Shahrisabz gacha, sharqda esa Sharqiy Turkistongacha yetardi.

Muhammad Alixon (1822-1842) ham amakisi Olimxon va otasi Umarxon singari faoliyat yuritib, qisqa muddat bo‘lsa-da, Qorategin, Ko‘lob, Darvozni Qo‘qonga bo‘ysundirishga muvaffaq bo‘ldi.

XIX asrning 40-yillariga kelganda xonlik tarkibiga quyidagi viloyatlar kirgan: Marg‘ilon, Andijon, Shahrison, Namangan, Xo‘jand, Chust, Isfara, O‘ratepa, Qurama, Toshkent va Turkiston. Madalixon davrida Qo‘qon xonligining maydoni 5 ming kv.km.ga, aholisi esa 2 million kishiga yetgan.

XIX asrning 50 - yillariga qadar Qo‘qon xonligi shimolda Rossiyaning Sibir okrugi, sharqda Sharqiy Turkiston, g‘arbda Buxoro amirligi va Xiva xonligi, janubda esa Qorategin, Darvoz, Ko‘lob viloyatlari bilan chegaradosh edi.

Xonlik tarixini yoritishga xizmat qiluvchi manba va hujjatlarda davlatning ma‘muriy bo‘linishi haqida ko‘plab ma‘lumotlar uchraydi. Ularda xonlik ma‘muriy jihatdan viloyatlarga ajratilib, idora etilganligini tasdiqlovchi ma‘lumotlar talaygina. Biroq bu ma‘lumotlarning ko‘pligiga qaramasdan, XX asr ikkinchi yarmida olib borilgan tadqiqotlarda xonlik beklklarga ajratilgan va idora etilgan, deb ko‘rsatiladi. Jumladan, A.Hasanov Qo‘qon xonligi davrida Qirg‘izistondagi xalq harakatlariga bag‘ishlangan asarida Qo‘qon xonligini ma‘muriy jihatdan beklklarga bo‘lingan, deb qayd etadi. I.Qosimov ham o‘z tadqiqotida shunday fikrni tarafdori bo‘lib, xonlik: “ma‘muriy jihatdan beklklarga bo‘lib idora etilgan” - deb yozadi. Bu o‘rinda mazkur tadqiqotchilarning yuqoridagi fikrlarini inkor qilmagan holda uning Qo‘qon xonligining barcha davrlari uchun to‘g‘ri kelmasligini ta‘kidlab o‘tish lozim. Fikrimizcha, bu tadqiqotchilar xonlikning beklklarga bo‘lib idora qilinganligi xususidagi fikrlarini XIX asrning 70-yillarida Qo‘qonda bo‘lgan A.Kunning ma‘lumotlariga asoslangan holda ilgari surishgan. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, A.Kunning xonlikning ma‘muriy bo‘linishi va uning beklklarga bo‘lib boshqarilishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlari davlatning 1872-1875 yillardagi holatiga to‘g‘ri keladi.

XIX asrning 40-yillariga oid manbalarni o‘rganish natijasida xonlikning asosiy ma‘muriy-hududiy bo‘linishi viloyatlar bo‘lganligini tasdiqlaydi. Viloyatlar sarkorliklar, oqsoqolliklar va aminliklarga bo‘lingan.

XIX asrning ikkinchi yarmida chop etilgan asarlarda ham xonlikning ma‘muriy bo‘linishi va uni tashkil etgan ma‘muriy birlik - turli viloyatlar haqida ma‘lumotlar qayd etilgan. Xususan, ularda yuqorida ko‘rsatilgan viloyatlarning faqat yorliqlari va ularning joylashgan o‘rni haqida muhim ma‘lumotlar beriladi.

Ularga ko‘ra, xonlikning yirik viloyati Farg‘ona bo‘lib, u hududiy jihatdan Sirdaryoning chap qirg‘og‘i bilan Qorategin o‘rtasida joylashgan yerlarni qamrab olgan edi.

Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan Namangan va boshqa shaharlar hududini qamrab olgan yerlar xonlikning yana bir yirik viloyatini tashkil qilgan.

Shuningdek, ayrim ma‘lumotlar bu davrda xonlik tarkibida Xo‘jand va O‘ratepa alohida-alohida viloyat bo‘lganligini tasdiqlaydi.

Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi Xo‘jand va Toshkent o‘rtasida joylashgan yerlar, alohida Qurama viloyati hududini tashkil etganligi ko‘rsatib o‘tiladi. Bu davrda xonlikning yirik ma‘muriy birligi Toshkent viloyati bo‘lib, bu viloyat ham rus manbalarida qayd etib o‘tiladi.

Bedbaq dala cho‘lida joylashgan Turkiston xonlikning shimoliy viloyati hisoblangan.

Billur tog‘ining sharqiy etaklarida yashovchi qozoqlar, Billur tog‘ining g‘arbiy etaklarida joylashgan Qorategin, Hisor, Badaxshon, Darvoz, Ko‘lob va Sho‘g‘non ham 1833-1834-yillarda vaqtincha xonlik tarkibiga kiritilgan.

Qo‘qon xonligining eng katta hududini Toshkent viloyati qamrab olgan bo‘lib, mazkur viloyat tarkibiga bir nechta yirik shaharlar, qal‘alar, ma‘muriy birliklar birlashtirilgan edi. Ushbu viloyatga tegishli bo‘lgan ma‘muriy birliklar jumlasiga asosan xonlikning shimoliy hududida joylashgan qal‘alar - Avliyo Ota, Soliqo‘rg‘on, Marki, Itkechuv, Oqsuv, Pishpak va To‘qmoq hamda Issiqko‘lning atrofidagi hududlarni kiritish mumkin.

Xonlikning hududiy jihatdan katta viloyatlari Andijon va Namangan bo‘lib, qirg‘izlar yashagan juda katta yerlar ularga bo‘ysungan. Jumladan, A.Hasanovning ko‘rsatishicha, Norin daryosining o‘rta oqimidagi Qurtka va o‘rta oqimining shimoliy qismida joylashgan asosan qirg‘izlar yashaydigan Jung‘ol, To‘g‘uz To‘ra hududlari Andijon viloyatining tarkibida bo‘lgan. Qirg‘izlarning janubiy o‘lkalari bo‘lgan Bo‘stonterak va Toshqo‘rg‘on Marg‘ilon viloyati tarkibiga kirgan bo‘lsa, Ketmontepa va Talas hududi Namangan viloyatiga tegishli bo‘lgan. V.Ploskix va A.Hasanovning tadqiqotlaridan ma‘lum bo‘ladiki, Farg‘ona vodiysi ichida joylashgan viloyatlarga vodiyning tashqarisida joylashgan ma‘muriy hududlarni ham idora etish huquqi berilgan edi. Xonlik hududining bu tarzda ma‘muriy birliklarga bo‘linishi boshqaruv tizimida bir qator qiyinchiliklarni tug‘dirishi tabiiy edi. Chunki yuqorida ko‘rsatilgan hududlar viloyatlar markazidan ancha olisda bo‘lganligi bois viloyat boshqaruvchilarining bu hududlardagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy holatni nazorat etishlarini qiyinlashtirgan. Bundan tashqari, Qo‘qon xonlarining ma‘muriy hududiy bo‘linishni shunday tarzda tashkil etish, mamlakatdagi boshqa etnik guruh vakillarining markaziy hokimiyat tobeligini saqlab turishni ko‘zlagan, deyish mumkin.

O‘rta Osiyoda shakllangan an‘anaga muvofiq Qo‘qon xonligida ham turli viloyatlarni ma‘muriy boshqarish ayrim olingan markazlardan turib amalga oshirilgan.

Viloyatlar	Ma‘muriy markazi
Marg‘ilon	Yormozor
Andijon	Andijon
Namangan	To‘raqo‘rg‘on
Xo‘jand	Xo‘jand
Chust	Chust
Isfara	Isfara
O‘ratepa	O‘ratepa
Qurama	Kirovchi
Toshkent	Toshkent
Turkiston	Turkiston

XIX asrning 40-yillaridan so‘ng xonlikning markaziy hokimiyatida yuzaga kelgan guruhbozliklar, hokimiyat uchun to‘xtovsiz davom etgan kurashlar natijasida mamlakatning ma‘muriy bo‘linishida ma‘lum o‘zgarishlar yuz berganligini kuzatish mumkin. Jumladan, bu davrda viloyatlar tarkibida alohida kichik hokimliklar tashkil etildi. Xonlik ma‘muriy-boshqaruv tizimida yirik bo‘lgan viloyatning mayda bo‘laklarga bo‘lib berilishini bu davrda mamlakatda yuzaga kelgan siyosiy vaziyatning murakkabligi, markazlashgan davlat salohiyatining susayib borishi hamda turli siyosiy kuchlar va amaldorlarni hokimiyat bilan ta‘minlash maqsadida amalga oshirilgan tadbir edi.

Bu holatni tasdiqlovchi ko‘plab tarixiy ma‘lumotlar XIX asrning manbalarida saqlanib qolgan. Ulardan biri bo‘lgan “Tarixi Aliquli Amirlashkar” asarida “Mallaxon... Balig‘chi hukumatini Shodmonxo‘ja mingboshiga va Chimyon hukumatini Amirlashkari marhumga (Alimquliga) berdi va ishlar saranjom bo‘ldi”, - deb qayd etadi. Bu ma‘lumotdan ko‘rinadiki, Andijon viloyatiga qarashli Baliqchi, Marg‘ilon viloyatiga qarashli Chimyon alohida kichik ma‘muriy birlik sifatida ajratilgan. Bu davrda boshqa viloyatlar tarkibida ham shunday kichik ma‘muriy birliklar mavjud edi. Bunga Xo‘jand viloyati tarkibidagi Konibodom hamda Nov, Toshkent viloyati tarkibidagi Chinoz, Chimkent kabi kichik birliklarni ko‘rsatish mumkin.

O‘z vaqtida V.V.Nalivkin Qo‘qon xonligidagi ma‘muriy-hududiy bo‘linish haqida shunday ma‘lumot bergan edi: “...xonlik ma‘muriy jihatdan hokim (ba‘zan sarkarda) boshqaradigan viloyatlarga bo‘lingan. Har bir viloyat beklar boshqaradigan beklklarga bo‘lingan”. Lekin rus olimlarining bunday ma‘lumotlari mahalliy manbalarda uchramaydi.

XIX asrning 60-yillaridan boshlab ruslarning xonlik hududiga shiddat bilan bostirib kelishi natijasida mamlakat hududining kattagina qismi qo‘ldan ketadi. Ayniqsa, 1865-yilda mamlakat hayotida muhim o‘rin tutgan Toshkent viloyatining ruslar tarafidan bosib olinishi, nafaqat mamlakatning ma‘muriy va hududiy birligiga, balki siyosiy hayotiga ham salbiy ta‘sir o‘tkazdi. Hokimiyat tepasiga uchinchi marta kelgan Xudoyorxon erkinligini butunlay ruslar qo‘liga topshirib qo‘ydi. Xudoyorxon qo‘lida faqatgina Farg‘ona vodiysi hududigina qoldi. Yuzaga kelgan bunday sharoitda xon mamlakat ma‘muriy bo‘linishini qaytadan ko‘rib chiqadi va xonlik hududi beklklarga bo‘linadi.

Qo‘qon shahri va viloyati bevosita xonning o‘zi tomonidan boshqarilgan. Bulardan tashqari xonlik hududi Xudoyorxon tomonidan quyidagi beklklarga bo‘lingan: Marg‘ilon, Shahrixon, Andijon, Namangan, So‘x, Mahram, Buloqboshi, Aravon, Baliqchi, Chortoq, Navkat, Koson, Chust va Bobodarxon. O‘zgand esa mustaqil beklk sifatida faoliyat ko‘rsatgan.

Yuqoridagi beklklarning dastlabki yettita yirik beklki bevosita xonning vorislari tomonidan boshqarilgan. Ushbu yettita beklkka bek sifatida xonning o‘g‘illari yoki qarindoshlari tayinlangan. Bek o‘z o‘g‘illariga beklklarni boshqarish uchun bo‘lib bergan.

Beklklarni xonga bo‘lgan vassaligi xon beklkda bo‘lgan davrda barcha shartlarini bajarish, unga had‘yalar berish, urush paytida o‘z askarlari bilan qatnashishdan iborat bo‘lgan. Ichki boshqaruvda beklar o‘lim jazosi berishdan boshqa barcha ishlarda mustaqil edilar.

Shunday qilib, XIX asrning 40-yillarigacha xonlik viloyatlarga, viloyatlar esa oqsoqollik va aminliklarga bo‘lingan. Shu davrdan boshlab markaziy hokimiyatga qarshi kuchlarni qirqish maqsadida yarim mustaqil hokimlik sifatida beklklar tashkil etilgan.

Xonlikning quyi boshqaruvida bir katta qishloq yoki bir necha kichik qishloqlarni birlashtirgan oqsoqolliklar katta rol o‘ynagan. Oqsoqollikni amin yoki oqsoqollar boshqargan, alohida holatlarda esa sarkorlar tayinlangan. Sarkorlar xonlikning shimoliy hududlarida soliq yig‘ish ishlariga boshchilik qilar, umuman sarkorlar beklklarning eng yaqin maslahatchilari bo‘lib, bekning muhim topshiriqlarini bajargan. Sarkorlar sobiq qullardan tayinlanib, soliqlarni yig‘ish ularningasosiy vazifasi hisoblangan.

Qo‘qon xonligining ma‘muriy - hududiy chegarasi taxt tepasiga kelgan hukmdorlarning olib borgan ichki va tashqi siyosati natijasida XIX asrning 40 - yillariga qadar kengayib bordi. Shu davr oralig‘ida xonlik hududi viloyatlarga, viloyatlar esa sarkorlik va oqsoqolliklarga ajratib idora etildi. Biroq, XIX asrning 40-yillaridan so‘ng davlatning ma‘muriy bo‘linishida ayrim o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Endilikda viloyatlar beklklarga, beklklar esa o‘z navbatida sarkorlik va oqsoqolliklarga bo‘lindi. Mamlakat ma‘muriy-hududiy bo‘linishidagi bu o‘zgarishlarni Qo‘qon hukmdorlarining o‘ziga yaqin amaldorlarni hokimiyat bilan ta‘minlash maqsadida amalga oshirgan tadbiri deb talqin etish mumkin.

**2. Qo‘qon xonligida
markaziy boshqaruv
va uning o‘ziga xos
xususiyati**

Davlat o‘zining ichki va tashqi siyosati, jamiyat bilan olib boruvchi aloqalarini asrlar davomida shakllanib, mukammallashib borgan murakkab boshqaruv organiga tayanib amalga oshirgan. Bu organ O‘rta Osiyo xonliklarida hukmdorlarning huzuridagi Oliy kengash bo‘lib, tarixiy

manbalarda u «maslahat», «xos majlis», «mashvarat», «majlisi sultoniyy» kabi soʻzlar bilan ifoda qilinadi.

Bunday vaziyat Qoʻqon xonligi boshqaruviga ham xos edi. «Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin» asarida Abdulkarimbiy huzurida kengash mavjud boʻlganligi tasdiqlanib, bu kengashda “umaro va fuzalolar pinhoniyy maslahat” qilishlari va muayyan masalalar yuzasidan qaror chiqarishlari haqida xabar beriladi.

Fuqarolarning moddiy va maʼnaviy ehtiyojlarini qondirish, davlatning salohiyatini koʻtarib, har jihatdan taraqqiy ettirish, xorijiy yoki qoʻshni mamlakatlar bilan iqtisodiy va siyosiy diplomatik munosabatlar oʻrnatish davlatchilikning muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Xukmdorlar davlat boshqaruvida ijobiy islohotlar olib borishga intilganlar. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-maʼrifiy hayot va davlatning tashqi aloqalari masalalarida salohiyatli mansabdorlarning maslahatlari hukmdorlar uchun muhim ahamiyat kasb etgan. Qoʻqon hukmdorlari huzuridagi kengashning faoliyati xususida, yaʼni, unda qanday masalalar koʻrilgan, degan savolga ham mahalliy muarrixlar asarlarida mavjud bir qancha maʼlumotlarga suyangan holda baʼzi aniqliklarni kiritish mumkin. “Tarixi Turkiston” asarida shunday maʼlumot keltiriladi: “(Olimxon) koʻp ulamo va fuzalolardin oʻrdaga taklif aylab, majlisi xos barpo aylab, qoʻshin voqiyoti va dushman ahvolotini va ul dushmanning dafʼi va Fargʻonaning osoyishtaligi va raiyaning besaranjom boʻlmasligi va xifzi mamlakat xususidagi maslahatni botariqa iltimosi arz qilgan...”.

Qoʻqon xonligidagi Oliy kengashning tarkibi haqida soʻz borar ekan, uning tarkibiga markaziy davlat boshqaruvidagi barcha mansabdorlar aʼzo etib kiritilganligini alohida taʼkidlamoq lozim. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Qoʻqon xonligining bosh vaziri boʻlgan mingboshi hamda oliy diniy mansabdor - shayxulislom kengashning doimiy aʼzosi boʻlgan. Shuningdek, xonlikning bosh qozisi, yaʼni qozikalon va harbiy ishlar boʻyicha ikki sudbua - qozi askar ham kengashda ishtirok etgan. XIX asrning 30-yillariga kelib markaziy davlat boshqaruvida muhim vazifalar qatoriga kirgan dasturxonchi va risolachi ham kengash aʼzosi boʻlgan.

Xudoyorxon hukmronligining birinchi davrida Kengash tarkibi toʻrtta qipchoqdan iborat boʻlgan. XIX asrning 60-yillariga kelib kengash kengaytirilib, markaziy davlat boshqaruvidagi 12 kishidan iborat mansabdorlar kengash tarkibiga kiritiladi.

Yangi xon hokimiyatga kelganida Kengash tarkibi oʻzgargan. Kengash tarkibidagi biror aʼzo biror viloyatga hokim etib tayinlanganida uning boʻsh qolgan oʻrniga yuqori saroy amaldorlaridan bir egallagan. Dunyoviy amallarni bajaruvchi amaldorlar “umaro”, diniy masalalarni hal qiluvchi amaldorlar esa “ulamo” deb atalgan.

Qoʻqon xonligida davlatning boshqaruv tizimiga turli shaxslarni mansabdor etib tayinlash, ularning bu mansablarga tayinlanish vaqtida oʻtkazilgan marosim va udumlar ham oʻzbek davlatchiligining qadimiy anʼanalari bilan bogʻliqligini taʼkidlab oʻtish lozim. Davlat boshqaruvida muhim oʻrin tutgan udumlardan biri oliy hukmdorni tayinlash, yaʼni “xon koʻtarish” marosimi boʻlib, bu marosim oʻziga xos xususiyatlarga ega edi.

“Xon koʻtarish” marosimi aniq bir tartiblar asosida va doirasida amalga oshirilgan.

Qoʻqon xonligida, boshqa Oʻrta Osiyo xonliklaridagi kabi, hukmron doiradagi mansabdorlar ushbu marosimda yangi hukmdorga oʻz itoatkorliklarini bildirib, bayʼat (qasamyod – R.A.) qilishgan, soʻngra uni oq kigizga oʻtqazib koʻtarishgan. Marosimdan soʻng yangi xon xalqqa eʼlon qilingan.

Ushbu marosim haqida “Tarixi Turkiston” asarida muhim maʼlumotlar mavjud. Asar muallifining yozishicha, Umarxonni (1810-1822) taxtga oʻtkazish marosimi quyidagicha

kechgan: “Umarxonni o‘zbek xonlari rasmicha oq namadga solib, qorilar “Anna fattahna” surasini o‘qib, ko‘tarib, Farg‘ona taxtiga o‘tqazib, tamomi jam bo‘lgan haloyiqlar tahniyat va muborakbod ovozasini arshu a‘log‘a yetkurubdurlar”.

Xonlikda eng oliy unvon “Xon” unvoni bo‘lib, uning hukumati cheklanmagan. Farmon berish va uning bajarilishini nazorat etish salohiyatlari uning qo‘lida edi. Ming qabilasidan bo‘lmish hokimlar Shahrizabz, Urgut, Mog‘iyon, Urmetan viloyatlari va beklklarida hukm surganlar. Olimxon davrigacha (1798 y.) Ming qabilasining rahbarlari unvoni “biy” edi. Olimxon 1805-yili birinchi bo‘lib “xon” e‘lon qildi. Umarxon (1810-1822-yy) o‘zini 1818-yili “amir ul-mo‘minin” deb e‘lon qilib, diniy boshliq bo‘lib ham oldi. Uning vorisi Muhammad Alixon esa yana “xon” taxtiga ko‘tarildi. Xon avlodlarini xonzoda, amirzoda, mirzoda, shahzoda, to‘ra deb aytardilar. Xonlikdagi davlat nizomi mutlaq yakkahokimlik bo‘lib, faqat ma‘lum tarixiy davrlarda uning salohiyati va qudrati cheklab qo‘yilgan edi. Bunday hol Musulmonqulning mingboshi va otaliq bo‘lgan davrida (Xudoyorxonning zamonida 1842-1852-yy), Alimqulining (aslida Aliquli – ta‘kid bizniki A.R.) amirlashkarlik va vazirlik davrida (Sulton Saidxon xon bo‘lgan vaqt 1863-1865- yy) ro‘y bergan. Xonning kuchi va qudrati ma‘lum iqtisodiy asoslarga va ijtimoiy guruhlarga tayanardi. Xon eng katta mulkdor sifatida xonlikdagi hamma yer, suv va quruqliklar, ko‘lu anhorlarga egalik qilib, ulardan zakot va xiroj shaklida daromad olib, xazinani to‘ldirardi. Shuning hisobidan hamda boshqa soliqlardan u o‘zining saroyi, qo‘shini va ma‘muriyat amaldorlarini tutardi.

Xon mutlaq hokim sifatida o‘zining saroy-o‘rdasiga sohib bo‘lib, quyidagi unvon va mansablar joriy etilgan edi:

Mingboshi – xonlikdagi bosh vazir hisoblangan. Mingboshi “...bu mansab egasi davlatning butun ichki ishlarini boshqarar..., ayni paytda tashqi siyosat masalalarida xonning bosh maslahatchisi edi”, shu bilan birgalikda, “...voenniy ministrlk qatorida bo‘lub, ondin boshqa hukumatning hamma ishig‘a mudoxalasi, chunonchi xorijiya, doxiliya ishlariga tamom daxli bo‘ladur”.

Mingboshilik lavozimi ilk marta 1810-yil Umarxon tarafidan joriy etilgan. Xonlikda ilk mingboshi etib Gulshoh Marg‘iloniy tayinlangan. Norbo‘tabiy davrida esa bosh vazir lavozimi qushbegi hisoblangan.

Muhim mansablardan biri qushbegi bo‘lib, uning vazifasi xonning doimiy maslahatchisi hisoblangan. O‘rni kelganda qushbegi birorta viloyatga hokim qilib jo‘natilishi mumkin edi. Qushbegi mansabidan keyingi o‘rinda *parvonachi* turgan bo‘lib, uning egasi oliy hukmdor tomonidan berilgan yorliq va inoyatnomalarni o‘z egalariga yetkazuvchi mansabdor edi. Ayrim hollarda parvonachi qushbegi lavozimini egallashi ham mumkin edi. Shuningdek, parvonachi mansabidagi kishilar ham viloyat hokimi vazifasiga tayinlangan

Qo‘qon xonligi markaziy boshqaruvida iqtisodiy masalalar bo‘yicha mas‘ul amaldor - *devonbegi* ham muhim o‘rin tutgan. Devonbegi xon devoni boshlig‘i bo‘lib, qo‘l ostida bir necha mirzolar faoliyat yuritgan. Mamlakat xazinasiga tushadigan mablag‘lar va ularning sarf - xarajati devonbegi nazoratida bo‘lib, ular maxsus kirim - chiqim daftarlarida qayd qilib borilgan. Xonlik devonxonasida vaqf erlari, machit va madrasalarga tegishli kirim - chiqim yozuvlari, xonga hadya qilingan sovg‘alar hisoboti hamda muhim statistik ma‘lumotlar qayd etilgan daftarlar saqlangan.

Xon saroyida mavjud mansablar quyidagilardan iborat edi:

Shig‘ovul – xonlikda chet el elchilari kutib olish, ularni joylashtirish, kerak bo‘lgan paytda o‘zi ham elchi bo‘lishi mumkin edi. Shig‘ovulning ikkinchi nomi udaychi

(hidoyatchi) deb atalgan. Uning vazifasi xon (amir) huzuriga elchilar, da'vat etilgan amaldorlar va boshqalarni olib kiradigan mansabdor.

Dasturxonchi – o'z lavozimi doirasidan tashqari, xonlikdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynagan.

Mehtar – moliyaviy ishlar bo'yicha devonbining yordamchisi, shu bilan birga mehtarning mavqeidagi inoq va otaliq lavozimlari ham mavjud bo'lgan.

XIX asrning 50-yillariga kelib xonlikning markaziy boshqaruvida ba'zi o'zgarishlar yuz berdi. Sulton Sayidxon Aliquli amirlashkar tarafidan amalga oshirilgan o'zgarishga ko'ra, devonbining ishini mirzaboshi bajargan.

Otaliq – taxt egasi yoki vorisining ota o'rnidagi maslahatchisi Yu murabbiysi (regent). U(lar) davlatda eng kuchli bo'lgan qabila boshliqlari va yoki ijtimoiy tabaqa vakillaridan tayinlangan.

Miroxur – xon (amir) saroyidagi otlar va otxonalarga javobgar amaldor.

Jilov – amir (xon) uzangisidagi nadim, mahram.

Jarchi – jar solib xon (amir) farmonlari va amrlarini xalqqa baland ovoz bilan e'lon qiladigan shaxs.

Mahram – xos soqchi, xodim va xizmatkor.

Xonlik markaziy hokimiyatidagi diniy mansablar quyidagilardan iborat edi:

Shayx ul-islom – dindorlarning eng oliy unvonlaridan bo'lib, Umarxon tomonidan 1818-yili joriy etildi. Birinchi shayx ul-islom Ma'sumxon to'ra. Keyinchalik Zokirxo'ja eshon, Sulaymonxo'ja eshonlarning bu unvonga sohib bo'lganliklari bizga ma'lumdir.

Naqib – sayyidlar va xojalarga beriladigan faxriy unvon. Naqiblar o'zlarini Muhammad payg'ambarning avlodlaridan deb hisoblaydigan sayyidlar jamoalari rahbarlarining lavozimi. Hukmron doiralari naqiblar orqali sayyidlar jamoalari bilan muomala qilganlar. Naqiblik lavozimi avloddan-avlodga o'tgan. Naqiblar xonning eng yaqin maslahatchilaridan bo'lib, safarlarda unga hamroh bo'lgan. Rasmiy qabul marosimlarida xonning so'l tomonida birinchi o'rinda o'tirgan.

Shu bilan birga saroyda inoqi kalon, qo'shbegi jilov, miri shikor, eshik og'aboshi, xonsolar, tunqator, mahramboshi, miroxur kabi mansablar ham faoliyat ko'rsatgan.

Xo'ja kalon – katta xo'ja. Xo'jalar vaqfi va mulklarini nazorat etuvchi amaldor. Sayyid va xo'jalardan tayinlanardi. Ba'zan xo'ja kalon vazifasini sudurlar ham bajargan. Shu bilan birgalikda, o'roqi kalon va fayziy mansablari ham vaqf mulklarining mutassadilaridan hisoblangan.

Xalifa – o'rinbosar. Qo'qonda naqshbandiya, qalandariya, jaxriya tariqatlarining rahbarlari. Mashhur xalifalardan Muhammad Karim, Domullo Safo, Hazrati Sohibzoda (Miyon Xalil Sohib), Hazrati Eshonxo'jani tilga olish mumkindir.

A'lam – faqih olimi va shariat qoidalarining bilimdoni.

Shunday qilib, XVIII asr boshlarida asos solingan Qo'qon xonligida davlat boshqaruvi o'ziga xos xususiyatga ega edi. umuman Qo'qon xonligida davlat boshqaruvi rivojlanishini uch bosqichga bo'lish mumkin: 1) 1709-1800-yillar, bu davrda xonlik davlat boshqaruvining shakllanishi davri; 2) 1800-1842-yillar, bu davrda xonlik davlat boshqaruvining shakllanish bosqichi yakunlandi va rivojlanishning yuqori nuqtasiga yetgan; 3) 1842-1876-yillar, bu davrda markaziy hokimiyat bilan mahalliy hokimiyat o'rtasida kurashning kuchayishi va xonlik davlat boshqaruvining inqirozga uchrashi davri hisoblanadi.

3. Xonlik mahalliy boshqaruvining asosiy funksiyasi va uning davlat siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rnini

O'zbek xalqi davlatchiligi tarixi O'rta Osiyo hududida turli davrlarda mavjud bo'lgan davlatlar o'zining ichki va tashqi siyosatini murakkab boshqaruv tizimiga asoslanib amalga oshirganligini ko'rsatadi. Bu jarayonda markaziy boshqaruv tizimi bilan bir qatorda mahalliy boshqaruv tizimi ham muhim rol o'ynagan. Qo'qon xonligi mahalliy boshqaruv tizimining ayrim jihatlari xonlik tarixi bo'yicha yaratilgan ba'zi tadqiqotlarda o'z aksini topgan.

Xonlikning ma'muriy - hududiy birligi viloyatlar, o'z navbatida bekliklarga bo'lingan edi. Xonlikdagi mahalliy boshqaruv apparati viloyatlar markazida joylashgan. Mahalliy boshqaruv tizimi ham markaziy boshqaruv tizimi singari ijro organi bo'lib, oliy hukmdor nomidan berilgan, mamlakatning ichki va tashqi holatini mustahkamlashga qaratilgan topshiriqlarni bajarardi. Jumladan, u viloyatlardagi aholining turmush tarzini bir maromda ushlab turish, ularning huquq va majburiyatlari ustidan nazoratni amalga oshirish, harbiy kuchlarni safarbar etish, soliqlarni to'plash, davlat bilan aholi o'rtasidagi munosabatlarni amalga oshiruvchi organ sifatida viloyatlarda ijtimoiy himoya siyosatini olib borishga mas'ul edi.

Viloyat boshlig'i xon tomonidan tayinlanadigan - hokim hisoblangan. Ba'zi hollarda viloyat boshqarish otaliq, qushbegi, devonbegi, parvonachi, xazinachi, dodxohlarga berilishi mumkin edi. Viloyat hokimi ba'zi hollarda "bek" bilan ham eslatilgan. Agar viloyat hokimi xon oilasidan bo'lmasa u "hokim" deyilgan, viloyat hokimi xon oilasidan bo'lsa u holda uni "bek" deb ataganlar.

Xonlik viloyatlari ichida Toshkent o'ziga xos xususiyatga ega bo'lganligi uchun Muhammad Alixon davrida viloyatni boshqarish uchun maxsus "beklarbegi" unvoni ta'sis etilgan.

Viloyat hokimining yordamchisi sifatida sarkorlar, mirzaboshi va botirboshilar faoliyat ko'rsatgan.

Joylardagi ijtimoiy va diniy masalalar bilan esa muftiy, qozi, a'lam, rais (muhtasib)lar shug'ullangan.

Xonlikda Toshkent, Namangan va Andijon hududlarida yashovchi qirg'iz va qozoqlarni boshqarish uchun maxsus dodxoh mansabi joriy etilgan. Dodxoh mansabi shaxsan xon tomonidan tayinlangan. Ular asosan yaqindagi qal'a yoki mustahkamlangan punktlarda yashaganlar.

O'troq aholi uchun eng quyi ma'muriy-hududiy boshqaruv oqsoqollik va aminlik hisoblangan. Ularni tegishli ravishda oqsoqol va aminlar boshqargan. Ba'zi joylarda mahalliy o'troq aholini boshqarish mirob va imom-xatiblarga berilgan.

Qo'qon xonligida ham boshqa musulmon davlatlardagi kabi ma'muriy boshqaruv harbiy va diniy boshqaruv bilan aralashib ketgan edi. Masalan, mingboshi, parvonachi, devonbegi, dodxoh va boshqa mansablar ayni paytda harbiy mansablar ham hisoblangan. Bunday holat O'rta Osiyo davlatlaridagi ma'muriy boshqaruvdagi zaif xalqa hisoblangan.

Tayanch iboralar

Ma'muriy boshqaruv, hudud kengaytirish siyosati, viloyatlar, bekliklar, oqsoqollik, ma'muriy boshqaruvdagi mansablar: markaziy va mahalliy mansablar, harbiy, ma'muriy va diniy boshqaruv.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Qo‘qon xonligidagi ma‘muriy boshqaruv haqida manbalarda qanday ma‘lumotlar berilgan?
2. Qo‘qon xonligidagi tarixshunosligida ma‘muriy boshqaruv haqida qanday fikrlar berilgan?
3. Qo‘qon xonligi beklklarga bo‘lib boshqarilgan degan fikr qaysi davrga oid?
4. Qo‘qon xonligida viloyatlarning hududiy joylashuvi qanday bo‘lgan?
5. Xonlikda markaziy boshqaruvdagi mansablar haqida nimalarni bilasiz?
6. Xonlikdagi Oliy Kengashning vakolatlari qanday bo‘lgan?
7. Xonlikda hukmdorni taxtga o‘tqazish marosimi qanday bo‘lgan?
8. Xonlikda mingboshining maqomi qanday bo‘lgan?
9. Xonlikdagi mahalliy mansablar haqida nimalarni bilasiz?

7-mavzu: Qo‘qon xonligida harbiy ish Reja

- 1. Qo‘qon xonligida harbiy ishlarning umumiy tavsifi**
- 2. Xonlikda harbiy boshqaruv va qo‘shin tarkibi**
- 3. Qo‘qon xonligida harbiy ta‘minot**

1. Qo‘qon xonligida harbiy ishlarning umumiy tavsifi

XVIII asr boshidagi qiyin bir vaziyatda siyosiy hokimiyat Ming qabilasi vakillari qo‘liga o‘tadi. 1710-yilda ushbu qabilaning birinchi vakili Shohruhbiy ibn Ashur Muhammad (1710-1721) qo‘liga o‘tadi va ming qabilasining hukmronligi boshlandi. Mahalliy manbalarga

ko‘ra, dastlabki hukmdorlar faol ichki siyosat olib borish bilan birga, o‘zlarining hududlarini kengaytirish uchun mudofaaga asosiy e‘tiborni qaratdilar. Masalan, sulolaning ilk vakili Shohruhbiy mamlakat harbiy holatini yaxshilash uchun qo‘shindagi vazifalar va amallarni ko‘paytirib, imkon boricha harbiy qurol va aslahalar bilan ta‘minlashga harakat qildi.

O‘rta Osiyoda XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asr boshlarida xonliklarning ichki va tashqi siyosatida, o‘zaro munosabatlarida harbiy qo‘shin muhim ahamiyat kasb etgan. Avvalo, shuni ta‘kidlash kerakki, XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib xonliklardagi qo‘shin asosan nomuntazam xarakterga ega bo‘lgan, ular ichki va tashqi xavfni bartaraf etishga qodir emas edi. Bu holatdan to‘g‘ri xulosa chiqargan ayrim hukmdorlar o‘z qo‘shinlarining muntazam qismlarini tashkil etishga harakat qildilar. Natijada XIX asr boshlarida O‘rta Osiyo xonliklari qo‘shini muntazam va nomuntazam qismlardan tashkil topgan harbiy kuchga aylandi.

Ming qabilasi ilk vakillari davridayoq qo‘shinni kuchaytirishga asosiy e‘tiborni qaratganlar. Abdurahimbiy otasi qoldirgan rasm va qonunlarni davom ettirib, mamlakat harbiy salohiyatini yanada kuchaytirishga asosiy e‘tiborni qaratdi. Qo‘shin tartibi va ishiga, harbiy asbob va jihozlar bilan lashkarni ta‘minlashga yanada ko‘proq ahamiyat berdi. Buxorodagi ichki kurashlarning avj olganligidan foydalangan Abdurahimbiy hokimiyatni mustahkamlash maqsadida 20 000 kishilik qo‘shin tuzgan va 1725-yil bu qo‘shin bilan Xo‘jandga yurish qilib, u yerni egallagan. Bir yil o‘tgach, ushbu qo‘shin yordamida O‘ratepa va Samarqandni egallagan. Samarqand egallangach, Buxoro xoni bilan tuzilgan shartnomaga binoan Samarqand va Kattaqo‘rg‘on Farg‘ona tarkibiga kiritiladi.

Davlatchilik asoslarini mustahkamlash Abdulkarimbiy ibn Shohruhbiy (1733-1750) davriga to‘g‘ri keladi. Aynan uning davrida mamlakat markazini mustahkamlash maqsadida poytaxt Tepaqo‘rg‘ondan Qo‘qonga ko‘chirilib, shahar atrofi devor bilan o‘raladi. Shaharga kirish va chiqishni nazorat qilish uchun to‘rtta darvoza quriladi. Bular: Qatag‘on, Marg‘ilon, Toshkent va Haydarbek darvozalari edi. Hatto shahar ichida askarlari uchun garnizon ham qurilganligi haqida manbalarda ma‘lumot berilgan.

Abdulkarimbiy davri keskin siyosiy voqealar bilan ajralib turadi. Bu davrda O‘rta Osiyoni bosib olish uchun harakat qilayotgan bir necha kuchli davlatlar o‘rtasida raqobat ketayotgan edi. 1740-1741-yillarda Eron shohi Nodirshoh afsharning Xiva va Buxoroga yurishi, ikkinchi tomondan Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyoni bosib olish uchun harakat boshlashi, uchinchidan, Xitoy imperiyasi tomonidan Jung‘orlar davlati tugatilishi natijasida qalmiqlarning XVIII asr o‘rtalarida Farg‘ona vodiysiga bostirib kelishi yosh davlat oldiga qiyin ishini hal qilish vazifasini qo‘yadi. Qisqa vaqt ichida Qo‘qon xonligining muhim

punktlari hisoblangan O'sh, Andijon, Marg'ilon qalmiqlar nazorati ostiga o'tadi. Qo'qonning o'zi ham qalmiqlar hujumi xavfi ostida qoladi. Chunki bu paytda Farg'ona hukumatining harbiy salohiyati u qadar kuchli bo'lmay, qo'shin asosan tog'li tojiklar, qalmoqlar va afg'onlardan tuzilgan edi. Shunga qaramasdan, oxirgi vaziyatda birlashgan kuchlar qalmiqlarni mamlakat hududidan quvib chiqarishga muvaffaq bo'ladi.

Shunday qilib, tashqi xavf mamlakat harbiy kuchlarini kuchaytirishni taqozo qiladi. Abdulkarimbiyning vorisi Erdonabiy davrida ham mamlakat siyosiy hayotini mustahkamlash davom etadi. Mamlakat hududi kengaytiriladi. Erdonabiy davrida Isfara va O'ratepa qo'shib olinadi.

1758-yil Sin imperiyasi O'rta Osiyoning boshqa xonlari vositachiligida hududda ta'sirini kuchaytirishga harakat qilgan. Shu yili Erdonabiy Xitoy vassaligini tan olishga majbur bo'lgan. 1762-yilda Xitoy imperatori Syan-Lun O'rta O'rda xoni Abdulmambet va sulton Ablaylarni ilgari istagini qaytaradi. U Turkiston va Samarqandga yurish qilishini, bahorda qozoq hukmdorlaridan harbiy yurish uchun "odam, ot, arava va qo'ylar"ni tayyorlab qo'yishni talab qiladi. Erdonabiy, O'ratepa va Xo'jand hokimi Fozilbiy hamda qirg'iz sultonlari buni bilib qolib, o'sha vaqtda kuchli hokimlardan biri bo'lgan Afg'oniston hukmdori Ahmadshoh bilan ittifoq tuzadi. Garchi bu ittifoq amaliy ahamiyatga ega bo'lmasa-da, Xitoy hukumatini Toshkent, Sayram, So'zoq va Turkistonni bosib olish fikridan qaytishiga sabab bo'ladi.

Erdonabiyning vorislari Norbo'tabiy va Olimxon davrida davlatni markazlashtirish va harbiy sohani kuchaytirishga e'tibor berilgan. Ayniqsa, Olimxon davrida mustaqil hokimliklarni bo'ysundirish uchun o'tkazilgan harbiy islohot alohida ahamiyatga egadir. Olimxon markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun kurashda birinchi navbatda tog'li tojiklardan shaxsiy gvardiyani shakllantiradi. Olimxon bu ishini hukmronligining dastlabki yillaridayoq boshlagan va 1805-yilga kelganda o'qotar qurollar bilan qurollangan 10 000 kishilik shaxsiy armiyasini shakllantiradi. Bu tuzilgan muntazam qo'shin keyinchalik mamlakat boshqaruvida hukmdorning tayanchiga aylangan muntazam qo'shin doimiy tarzda shakllantirilib borilgan. Dastlab qo'shin o'tliq va piyodalar bo'linmasidan iborat bo'lgan. Bundan tashqari, qo'shin tarkibidan saralab olingan askarlardan iborat galabotirlar va merganlar bo'linmasi deb atalgan maxsus guruhlar tashkil etilgan. Shunday qilib, Olimxon davrida armiya ikki qismga ajratilgan bo'lib, tog'li tojiklardan tuzilgan qo'shin turi "galabahodur" yoki sipohi jadid deb nomlanib, ming kishilik qo'shin boshlig'i mirihazora va yuzlik qo'shin boshlig'i esa sada deb atalgan. Qo'shin turi bir-biridan ajralib turishi uchun esa ular maxsus kiyim hamda bayroq bilan ta'minlangan. An'anaviy qo'shin turi esa qadimiya deb atalgan. Qo'shinning muntazam maosh bilan ta'minlanishi yo'lga qo'yilgan. Aynan mana shu qo'shinning tuzilishi Olimxonga Angren, Toshkent, Chimkent va Turkiston hududlarini qo'shib olishini ta'minladi. Ushbu hududlarning xonlik tarkibiga kiritilishi esa Rossiya bilan savdo aloqalarini yo'lga qo'yilishida muhim rol o'ynadi.

Umarxon davrida ham qo'shin xonlikning davlat hokimiyatini mustahkamlashda asosiy rolni o'ynagan. Xon akasi davrida tashkil etilgan 20 ming kishilik yangi qo'shin turini tarqatib yuboradi va qo'shin boshqatdan tuzadi. Bu davr markaziy hokimiyat kuchayishi bilan birgalikda davlat hokimiyatini tartibga solish, xo'jalik-iqtisodiy sohada turli tabaqalar, davlat hokimiyatida ruhoniylar ta'sirining kuchayishi bilan xarakterlanadi. Qo'shinning yanada kuchaytirilishi xonlik hududlarining shimolda Turkiston va Qozog'iston cho'llarigacha, g'arbda Samarqandgacha, janubda Ko'histon va Ko'lobgacha,

sharqda esa Sharqiy Turkistongacha kengaytirish imkoniyatini beradi. Umarxon davrida qo‘shin soni 40 ming kishiga yetgan va hukmdor “amir ul-umaro” degan unvonni olgan.

Madalixon davrida ham faol tashqi siyosat olib borish davom ettirildi. Oldin Buxoro amirligiga qarashli bo‘lgan Qorategin, Darboz, Ko‘lob viloyatlari vaqtincha bo‘lsa-da Qo‘qon xonligiga bo‘ysundirildi. Muvaffaqiyatli harbiy harakatlardan natijasida qoshg‘arliklarning Xitoy hokimiyatidan chiqib, Qo‘qon xonligi hokimiyati ostiga o‘tishiga, u yerlardan soliq yig‘ishni Katta va O‘rta O‘rdalardan Qo‘qon xonligi ixtiyoriga o‘tishiga sabab bo‘ldi. Keltirilgan faktlar hududda davlat hokimiyatni mustahkamlanganligi va ta‘sirining oshganligini ko‘rsatadi.

Xonlikda harbiy hokimiyatni bunday mustahkamlanishiga 1842-yilda Buxoro tomonidan bosib olinishi natijasida chek qo‘yildi.

1842-1845-yillarda hukmronlik qilgan Sheralixon dastlab poytaxt mudofaa devorini mustahkamlashdan boshlagan. Manbalarga ko‘ra, shahar mudofaa devori 18 kunda qurilib bitkazilgan. Bundan tashqari, Sheralixon vodiydagi ruhoniylar bilan juda yaqin munosabatda bo‘lib, ushbu sinfning Sheralixonni qo‘llab-quvvatlashiga sabab bo‘ladi. Mashhur ulamolardan Azimxo‘ja eshon Marg‘inoniyning butun Farg‘ona vodiysi ruhoniylariga chaqirig‘iga binoan Marg‘ilonda 2000 o‘qchi mudofaa uchun yig‘ildi. Buxoro amirining bosqini natijasida xonlikdagi butun harbiy soha inqirozga uchraga edi. Taxtga chiqqan Sheralixon qo‘shinni qaytadan tashkil etishga majbur bo‘lgan. Doimiy qo‘shinni darhol tashkil etish qiyin bo‘lganligi sababli, Sheralixon yordamchi bo‘linmalar orqali xonlik harbiy holatini yaxshilashga harakat qilgan. Bu haqda manbalarda quyidagicha ma‘lumot berilgan: “Sheralixon “Qil quyruq” degan bir qoida joriy qilgan ekan, ya‘ni ot mingan kishidan qolmay urushga borur ekan, qil quyruq ul vaqtda chiqqan ekan”. Shunday qilib, Sheralixon davrida qo‘shinga jalb qilinuvchi yordamchi bo‘linmalar “qora qozon” va “qoracherik” tarkibiga safarbar qilish ma‘lum bir tartibga keltirilib, yangi nomuntazam bo‘linma “qilquyruqqa” asos solingan.

Xonlikda umumiy qo‘shin muntazam va nomuntazam qismlardan tashkil topgan. Muntazam qo‘shin xonlikda umumiy nom “askariya” atamasi bilan, nomuntazam qo‘shin esa, “qilquyruq”, “qorakaltak” va xonlikning yirik ma‘muriy-hududiy birligi bo‘lgan Toshkentda esa “qoraqozon” deb atalgan. XIX asr rus mualliflari T.Burnashev va M.Pospelovlarning ko‘rsatishlaricha, qoraqozonlar Qo‘qon qo‘shinining o‘ziga xos qismi bo‘lib, ular o‘z tug‘iga ega bo‘lgan. Qoraqozonlar har bir oiladan olingan. Doimo harbiy harakatlarga tayyor turishi lozim bo‘lgan qoraqozonlar o‘zlarining harbiy boshliqlari uylarida yashaganlar. Harbiy xizmatdan tashqari, o‘z boshliqlarining yerlariga ishlov berishlari, bog‘lariga qarashlari, chorva mollarini boqishda va boshqa ishlarni bajarishda yordam berishlari kerak edi. Qoraqozonlarning harbiy xizmatlari taqdirlanib turilgan, ular turli soliqlardan ozod qilingan. Ularga bo‘sh vaqtlarida o‘z ishlari bilan shug‘ullanishga ruxsat berilgan. Qoraqozonlar asosan dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlarning vakillari edilar. Ular davlat tarafidan qurol-yarog‘ bilan ta‘minlanib turilgan.

Xonlikda ichki va tashqi xavfga qarshi qo‘shinni mustahkamlash Xudoyorxonning birinchi (1845-1858) va keyingi hukmronligi davrida ham davom etgan. Xudoyorxon davrida piyoda askarlar “sallot” deb atalib, qo‘shinni mustahkamlash uchun “...sallotlari (askarlari) sonini juda ko‘paytirdi va yaxshi to‘plarni mavjud qilib, yaxshi miltiqlarni Islombuldan oldirib keldi. Yaxshi ustalarni topib kelib, o‘shanday miltiq va to‘pponchalarni ko‘paytirgan edi”.

Xudoyorxon qo‘shinni mustahkamlash uchun boy xonadonlarning farzandlarini harbiy ishga jalb etish maqsadida ularni otliq askarlar safiga qabul qilish tadbirini qo‘llagan. Boyvachchalarning ro‘yxati asosan qishloq yerlarida tuzilgan. Bunday ro‘yxatlarning birida Chorbog‘, Oq tut, Navkand, Qo‘shqo‘noq, Beshariq, Yangiqishloq, Xo‘qand qishloq kabi 78 ta qishloqning boyvachchalari sanab o‘tilgan bo‘lsa, boshqa birida esa Yangiqishloq, Kallamush, Aravon, Pahlavontosh, Qiyali kabi 85 ta qishloqning boyvachchalari ko‘rsatilgan.

Hukmdorlarning qo‘shinni mustahkamlash uchun harakat qilishlari natijasida Qo‘qon va Toshkentda to‘p quyuvchi ustaxonalar, Namanganda miltiq ishlab chiqaruvchi zavod, Andijonda esa yevropacha namunadagi miltiqlarni ta‘mirlovchi ustaxona faoliyat olib borgan.

Sulton Sayidxon davrida ham qo‘shin kuchaytirish ishiga katta e‘tibor berilgan. Sulton Sayidxon qo‘shinni kuchaytirish uchun o‘z elchisi vositachiligida turk sultoni Abdulazizdan to‘rtta zambarak (to‘p), to‘pponchalar, shu jumladan, har bir mavqedagi harbiylar kiyimidan bir nusxadan jo‘natishni so‘raydi.

Shunday qilib, Qo‘qon xonlarining har biri o‘z hukmronligi davrida otliq va piyoda qo‘shinlarini mustahkamlashga harakat qilgan. Shu bilan birgalikda, faol tashqi siyosat olib borish va chegaralarni mustahkamlash uchun xonlik chegaralarida qal‘alarni qurishni kuchaytirilgan. Xonlikda mavjid qal‘alar o‘zining joylashgan o‘rni va maqomiga ko‘ra uch turga bo‘lingan:

1. Xonlikning muhim ma‘muriy markazida joylashgan yirik qal‘alar, bularga Toshkent, Marg‘ilon, Qo‘qon, Andijon, Namangandagi yirik qal‘alar kiradi.

2. Mahalliy boshqaruv markazida joylashgan o‘rtacha kattalikdagi qal‘alar, bularga Turkiston, Chimkent, Avliyoota, O‘ratepa, Xo‘jand, Oqmachitdagi qal‘alar kiradi.

3. Ma‘muriy markazlarni birlashtiruvchi yo‘llarda joylashgan kichik qal‘alar, bularga Julek, So‘zoq, Kerovchi, To‘qmoq, Daraut, Qo‘rg‘on, Oqsuv, Merka, Chortoq, To‘ytepadagi qal‘alar kiradi.

Bunday qal‘alar nafaqat Qo‘qon xonligi chegaralarini mustahkamlagan, balki mahalliy va tranzit savdo, xo‘jalik va iqtisodiy hayotning rivojlanishida ham muhim rol o‘ynagan. Qal‘alar mustahkamligiga katta e‘tibor berilgan. Masalan, 1275 (1858-1859)-yilda Langar qal‘asi qayta ta‘mirlanib, mustahkamlangan. Pishpek qal‘asi manbalarda “...xonlikning sharqdagi kaliti” hisoblangan. Qal‘alardagi askarlar soni bir necha o‘ndan bir necha yuzgacha bo‘lgan. Harbiy holat paytida ularning soni bir necha mingga yetishi mumkin edi. Qal‘alar Qo‘qon va Toshkentda ishlab chiqarilgan turli kalibrdagi to‘plar bilan qurollangan.

Minglar sulolasi vakillari hududlarini kengaytirish va mustahkamlashda yaxshi tashkillangan qo‘shinga tayanganlar. Xonlar bilan birgalikda, harbiy sarkardalar ham qo‘shinni mustahkamlashga o‘z hissalarini qo‘shganlar. Shunday sarkardalardan biri Aliquli amirlashkar edi. Aliquli amirlashkar Toshkent mudofaasi arafasida ishonchli boshliqlarni lavozimlarga tayinlashdan tashqari, rus bosqinchlariga qarshi kurash uchun askar yig‘ish, yetarlicha qurol-yarog‘ tayyorlash ishlari bilan tinimsiz shug‘ullangan. Shu bilan birgalikda shahar qamali paytida 60 ta zambarak quydirgan va bir necha ming miltiq tayyorlatgan. Hatto o‘zining boyligini xonlik qo‘shinlari qurollantirishga sarflagan.

Lekin so‘nggi davrda xonlikda avj olgan taxt uchun kurashlar xonlik harbiy salohiyatini susayishiga sabab bo‘lgan. XIX asrning 50-yillaridan boshlab birin-ketin xonlik qal‘a va shaharlari rus bosqinchilari tarafidan bosib olina boshlagan. 1876-yilga kelganda esa xonlik butunlay tugatilib, uning o‘rniga Farg‘ona viloyati tashkil etildi.

2. Xonlikda harbiy boshqaruv va qo'shin tarkibi

Qo'qon xonligida harbiy boshqaruv harbiy-ierarxik shaklda bo'lib, buning o'ziga xos salbiy va ijobiy jihatlari ham mavjud edi. Bu tizimning eng yuqori pog'onasida tabiiy ravishda oliy hukmdor turar edi. U qo'shinning

rasman oliy qo'mondoni sanalsa-da, ko'p hollarda amalda qo'shinga boshchilik qilish boshqa amaldorlar orqali amalga oshirilgan.

Yozma manbalarda yuqori, o'rta va quyi mansablar haqida ma'lumotlar berilgan. Yuqori darajadagi harbiy mansablarga – mingboshi, amirlashkar, qushbegi, botirboshi, qal'aboshi, qo'rboshi, yovar, to'pchiboshi, to'qsoba, ponsodboshilar kirgan.

Mingboshi – mo'g'ullar istilosi davridan mavjud (ularda: timchi), ming nafar askarning boshlig'i. Ma'mur sifatida ming nafar otliq askar beradigan mulkning hokimi. Harbiy yurishlar vaqtida qo'shinni boshqarib, lashkarboshi unvonini olardi. Bu unvonning egasi vazirlikka da'vo qilardi. Qo'qon xonligida mingboshi amali Sheralixon davrida (1842-1845) yuqori darajadagi vazifaga aylanib ketgan. Mashhur mingboshilar Muhammad Yusuf, Shodiboy, Musulmonquli qipchoq, Muhammad Diyor, Mullo Xolbek, Mirzo Ahmad, Niyoz Muhammad, Alimquli (Aliquli), Abdurahmon Musulmonqul o'g'li va boshqalar bo'lganlar.

Amirlashkar - 1) Qo'qon xonligidagi harbiy qo'mondonning nomlanishi, Muhammad Alixon davrida Haqquli amirlashkarga barcha qo'shinlar bo'ysungan; 2) 1870-yilda Yoqubbek davlatidagi har birida 5 tadan yuzboshi bo'ysungan 3 ponsoddan iborat harbiy bo'linma boshlig'i.

Botirboshi - botir va bahodirlar boshlig'i. Besh yuz nafardan ko'p dasta yoki to'pga boshchilik qilardi. Viloyatlardagi botirboshi harbiy va qo'shin ishlariga mas'ul edi, ya'ni viloyatlarda xonlikka oid harbiy ishlar boshlig'i hisoblangan. Botirboshi ba'zan qurilish hamda sug'orish (ariq qazish) ishlariga ham boshchilik qilar edi. Xonlikdagi Ulug' nahr arig'i Otabek botirboshi sarkorligi ostida amalga oshirilgan edi.

Qushbegi - harbiy qo'shinning boshlig'i yurish va jang vaqtlarida berilib, uning egasi mingboshilik unvonini olishga da'vogarlik qilardi (Buxoroda eng oliy mansabdor shaxslardan hisoblanardi). Qushbegi mansabiga ko'tarilgan zot viloyatga ham hokim bo'lishi mumkin bo'lgan. Umarxon davrida Rajab qushbegi, Muhammad Alixon davrida Muhammad Sharif qushbegi, keyinchalik xonlik tarixida Shodmon Xo'ja qushbegi (mingboshi), Mirzo Ahmad qushbegi (keyinchalik mingboshi mansabiga ko'tarilgan) ma'lum o'rinni egallaganlar. Xonlikda 3000 kishilik qo'shin boshlig'i hisoblangan.

Voli (noib, o'rinbosar) - viloyat va tumanlarda xonning o'rinbosari. Viloyatlarda lashkar unga itoat etardi va u viloyatning harbiy-ma'muriy ishlariga boshchilik qilardi.

Qal'abon (kutvol) - Qo'qon xonligining chegaralarida joylashgan qal'a va istehkomlarning hokimi bo'lib, shu tumanda yashovchi aholining ijtimoiy-iqtisodiy masalalari bilan ham shug'ullangan. Harbiy maqsadga ko'ra, qal'abon vazifasiga dodxohdan qushbegigacha bo'lgan shaxslar tayinlanardi. Lekin mahalliy manbalar ma'lumotiga qaraganda, ba'zan xon nomaqbul kishini o'zidan chetlatish uchun ham uzoqdagi qal'alarga ularni hokim qilib yuborardi. Qanoatshoh otaliq Mallaxon davrida Turkiston o'lkasiga shunday surgunda bo'lib qaytgan edi. Qal'abonga sarxang va harbiy qal'alarni ta'mirlovchi injenerlar bo'ysunar edi.

Qo'rboshi – qo'rxona, ya'ni qurol-aslaha, yaroq, to'p yasash ishxonalarining boshlig'i. Xon va mingboshiga itoat qilardi. Xudoyorxonning so'nggi xonlik davrida (1865-1875-yy.) Qo'rboshi qo'rxona, miltiqxona, to'pxona (ishxonai to'pxona)larga boshchilik qilib, xom

ashyo topib kelishdan tortib, to tayyor mahsulot ishlab chiqarish va ularni xon qaroriga binoan tarqatib berish jarayonigacha javobgar edi. Masalan, Baxti Muhammad qo'rboshi boshchiligida yevro'pacha qurollar (miltiqi farangi), to'plar, jazoillar va ularning o'qlari, o'q qutilari (jildsandig'i to'p va tirkash), to'p aravalari va qurol-aslahalarning ehtiyot qismlari ishlab chiqarilardi. Ba'zan aholini o'g'ri va qaroqchilardan himoya qiladigan qo'riqchilar boshlig'i ham hisoblangan.

Yovar - soqchilarning boshlig'i. Dastasi yuz nafar askardan iborat edi. Yovar o'z dastasi yoki to'pining hisob-kitobi, yillik xarajatini xazinadan olib berardi. Yovarlari xon devonining hujjatlarida g'allagir (g'alla oluvchi), javgir (bug'doy oluvchi) va sarpo oluvchi sifatida qayd etilgan. Ba'zan yovar biror ariq (jo'y) yoki anhorga ham sohib bo'lib, xizmati uchun "mirobona" haq olgan. Ba'zi hujjatlarda yovar to'pchilar dastasining boshlig'i hamda qurol yasovchilar ustaxonasining sardori sifatida tasvirlangan. Mahalliy manbalardan "Tarixi Aliquli amirlashkar" asarida Xayr Muhammad yovar amirlashkar shaxsiy dastasining boshlig'i sifatida tilga olingan.

To'pchiboshi - to'pchilar boshlig'i.

To'qsabo - o'zlarining tug'iga ega bo'lgan harbiy dastaning boshlig'i (Buxoroda VII darajali mansabdor).

Ponsodboshi - besh yuz nafar askardan iborat guruhning rahbari. Ba'zan 1000 kishilik qo'shinga ham boshchilik qilishi mumkin edi.

Xonlikda shaxsiy gvardiyani tarbiyalashga ham alohida e'tibor berilgan. Mahalliy manbalarga ko'ra, shaxsiy gvardiyaga olinadigan askarlar yoshligidan maxsus tarbiyalangan. Shaxsiy gvardiyaning boshlig'i esa xonning yaqinlaridan biri bo'lgan. Shaxsiy gvardiyadagi askarlar soni esa 400 tadan iborat bo'lgan.

H.Bobobekov xonlikda birinchidan yettinchi darajagacha bo'lgan yuqori harbiy mansablarga o'zbeklardan tayinlangan, deb ma'lumot bergan bo'lsa-da, aslida bunday bo'lmagan. Mingboshilik lavozimiga ko'tarilgan Musulmonqul qipchoq, Shodiqul tojik bo'lgan.

Xonlikda harbiy sohaning jinoyat ishlari va diniy jihatlarini qozi-askar nomli mansabli shaxs tomonidan nazorat qilingan. Harbiy yurishlar paytida qozi-askarning mavqei oshgan va harbiy harakatlar bo'lgan hududdagi fuqarolarga oid jinoiy ishlar ham hukmdorning buyrug'i bilan qozi-askar tomonidan bajarilgan.

Xonlik harbiy sohasi tuzilishi esa quyidagicha bo'lgan: kavaleriya (sipohiyalar), artilleriya (to'pchilar), infanteriya (sarbozlar). Qo'shinda galabotir va merganlar soni esa ozroq bo'lgan. Qo'shinning asosiy qismini esa otliq qo'shin tashkil etgan. F.Nazarovning ma'lumot berishicha, XIX asr boshlarida qo'shinda 20000 tagacha otliq qo'shin bo'lgan.

O'rta Osiyo xonliklarida harbiy harakatlarni rejalashtirish, harbiy kuchlarni jang maydonida to'g'ri taqsimlash ishi naqiblar zimmasiga yuklatilgan edi. O'ziga xos shtab boshlig'i sifatidagi bu shaxs XVIII asr oxirida Buxoroda bitilgan manba ma'lumotlariga ko'ra, harbiy yurishlar paytida qo'shinning tuzilishi, qurollanishi va joylashuvi, uning harakatlanishi va jang harakatlarini olib borishi borasida yetarli darajada bilimga ega bo'lib, u qo'shinning avangardi³¹ va ar'ergadi³², uning o'ng va so'l markazi va pistirmalari haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lgan.

O'rta Osiyoda harbiy ishni tashkil etish borasida bir qator an'analar mavjud bo'lgan. Chunonchi, harakatlanayotgan qo'shin bilan birga, aniqrog'i ular ketidan turli

³¹ Авангард – харбий ҳаракат вақтида асосий кучларнинг энг олдида турувчи ёки борувчи қисм, бўлинма

³² Аръергад – асосий кучларнинг орқасидаги харбий қисмлар

hunarmandlar, savdogarlarning yurishi va o'z faoliyatlari bilan qo'shin ehtiyojlarini qondirib borish an'anasi shular jumlasidan edi. Masalan, qo'shin bilan birga novvoylar askarlar uchun non yopib berganlar, kosiblar to'zigan oyoq kiyimlarini ta'mirlaganlar. Taqachilar esa otlarni yangitdan taqalab berganlar.

XIX asr boshlaridan boshlab xonlikda artilleriya paydo bo'lgan. Dastlabki to'plar cho'yan yoki temirdan quyilgan. Ularning shakli har xil bo'lib, kalta falkonet (kichik kalibrli qadimiy to'p)ga o'xshardi. Har bir zambarakni 6 ta ot tashigan. Cho'yan yoki temirdan quyilgan to'plar keyinchalik mis to'plar bilan almashtirilgan. Garchi xonlikda artilleriya XIX asr boshlarida paydo bo'lgan bo'lsa-da, artilleriyaning rasman shakllanishi Xudoyorxon davriga to'g'ri keladi.

XIX asrning 60-70-yillariga oid hujjatlarda qayd etilishicha, Qo'qonda miltiqsozlik ustaxonasi - "kamonxona" uchun po'lat, qalay, mayda ko'mir, yelim, cho'yan, temir, bo'yoqlar ajratilgan. Qo'qonlik ustalar hatto yevropacha miltiq "kamon-i farangi"ni ishlab chiqarish uchun ustaxonaga temir, po'lat, cho'yan va ko'mir ajratish lozimligi ko'rsatib o'tilgan. Bunday ustaxonalarga miltiqlarning qayishi - "band-i kamon" uchun xom teri yetkazib berilar edi. Xuddi shu tarzda to'p ishlab chiqaruvchi ustaxona-to'pxonalar va to'plarning yadrosi ishlab chiqaruvchi ustaxonalar - "korxonai tir-i tubrizan" ham davlatning tasarrufida bo'lgan. Bu ustaxonalarga davlat tomonidan to'p quyish uchun ko'mir, po'lat, aravalarga to'plarni o'rnatish uchun kerakli moslamalarni yasash uchun esa, temir va charm, porox solish uchun ko'mir, po'lat, aravalarga to'plarni o'rnatish uchun kerakli moslamalarni yasash uchun esa, qop, kigiz, bulardan tashqari, ip, g'altaklari, lazur³³, yelim va boshqalar yetkazib berilgan. Shuningdek, to'plarni bo'yash uchun mum, zig'ir yog'i, o'simlik yelimi, havo rang bo'yoq, to'plarning ustiga yopish uchun charm va boshqalar yetkazib berilgan. To'plar tashiladigan maxsus aravalalar tayyorlash uchun zarur xom ashyolar - charm, kigiz, bo'yoqlar, aravalarning g'ildiragini moylash uchun turli yog'lar yetkazib turilgan.

Miltiq ishlab chiqaruvchi hunarmandlar "kamonsoz", "miltiqsoz" deb atalgan. Miltiq ishlab chiqaruvchi ustaxonalarda mehnat qilgan bunday hunarmandlarga katta e'tibor qaratilgan. Bunday ustaxonalarda ishlovchi ustalarning qo'shimcha daromadlari soliqlardan ozod qilingan.

Porox mahalliy xalq tilida "doru" deb atalgan va porox ishlab chiqaruvchi ustalar esa "dorukash" deb atalgan.

Harbiy harakatlar davomida muntazam qo'shinning turli qismlari zimmasiga bir qancha vazifalar yuklatilgan edi. Harbiy harakatlar paytida sarbozlarning vazifasi artilleriyaning himoya qilishdan iborat bo'lgan.

Xonliklarda harbiy harakatlarni muvaffaqiyatli olib borishda tajovuz qilgan tomon ham, o'zini himoya qilgan tomon ham turli kurash usullaridan foydalangan. Ular sirasiga muxolif kuchlardan himoyalaniq maqsadida aholi yashaydigan manzillar atrofiga xandaqlar qazish va ularni suv bilan to'ldirishni kiritish mumkin.

Xonliklardagi jang olib borish san'ati haqida ma'lumotlar juda oz saqlanib qolgan. Saqlanib qolgan oz sonli ma'lumotlarga ko'ra, odatda jangni otliq qo'shinlar boshlab berganlar. Ularning ortidan barcha askarlar dushman tomon o'z yurishini boshlagan va ularning ortidan esa otliq askarlar hujumga o'tganlar. Otliq askarlarning qo'shinda mavjudligi va ularning hujumi g'alabani tezlashtirishga xizmat qilgan. Chunki

³³ Ляпуть-лазурь – хаворанг бӯёк

chekinayotgan va har tomonga qochayotgan tomonni otlig askarlar ta'qib va taslim etishi oson ko'char edi.

Urush vaqtida xizmatga qurol ko'tarib yurishga layoqatli barcha erkaklar harbiylikka chaqirilgan. Harbiy xizmatga ko'pincha kuz oylarida chaqirilgan. Oiladagi yakka boquvchi shaxs esa askarlikka olinmagan. Shu bilan birga xonlikda yordamchi harbiy bo'linmalar ham bo'lgan. Bular, qoraqozon, qoracherik va qilquyruq kabi nomlar bilan atalgan. Yordamchi harbiy bo'linmalar favqulodda holatlarda xonlikka bo'ysungan hududlar aholisidan chaqirilgan.

Qo'qon xonligida boshqa xonliklarga o'xshab harbiy sohadagi shaxslar mutaxassislashmagan. Ya'ni, harbiy soha iqtidoriga qarab emas, hukmdorga yaqinligiga qarab tayinlanishi, otadan o'g'ilga meros bo'lib o'tishi va fuqaroviy mansablarni harbiy sohadan ajratilmaganligi doimiy ravishda inqirozga olib kelgan sabablari edi. Shu bilan birgalikda harbiylar doimiy ravishda o'z salohiyatlarini oshirmas, zamonaviy harbiy manevrlarni amalga oshirmas edilar. Bularning barchasi XIX asrda xonlikning rus qo'shinlaridan mag'lubiyatga uchrashi sabablari edi.

**3. Qo'qon xonligida
harbiy soha ta'minoti
va harbiy sohaning
o'ziga xos
xususiyatlari**

Xonlik hududlarini kengaytirish va himoya qilish uchun tashkil etilgan doimiy va mavsumiy qo'shin ta'minoti uchun xonlik xazinasining ma'lum bir qismi ajratilgan.

Harbiy sohani tashkil etish va uni ta'minlash uchun maxsus daftarlar yuritilgan. "Tarixi Turkiston" asarida Olimxonning tojik, afg'on va eronliklardan iborat 1700 qo'shinni tashkil etganligi, "...olorning hammasiga sarupo, asbu yaroq berib, podshohlik daftariga nomlarini yozib,

vazifa tayin qilib, ul yangi askarlarni o'rda va ark atrofiga posbonlikka tayin aylabdur". Bundan ko'rinadiki, xonlikda shaxsiy gvardiya ilk bor Olimxon davrida tashkil etilgan.

Qo'shin ta'minotiga ham alohida e'tibor berilgan. Harbiy yurish paytida askarlar o'z otlari bilan urushga qatnashar edilar. Otlari bo'lmaganlar esa otlarni ijaraga olganlar. Bunday qo'shinda doim ham intizomga rioya qilinmas edi. Yurishlarda qatnashgan askarlar oziq-ovqat tugab qolishi natijasida tezda tarqalib ketish hollari ham bo'lar edi. Uzoq davom etgan yurishlar vaqtida askarlar egar-jabdug'i, kiyim-boshi, qurol-aslahasini non va oti uchun yemga almashtirish hollari ham sodir bo'lib turgan.

Xonliklarda harbiy xizmat muddati cheklanmagan edi. Askarlar mamlakatda tinchlik hukm surgan paytlarda o'z oilalarida yashab, hunarmandchilik va savdo bilan shug'ullanganlar, yerga ishlov berganlar.

Oddiy askar har kuni ikkitadan non, bayramlarda esa alohida sovg'a berilgan. Uning oylik maoshi esa 3 tilla bo'lgan, lekin oylik maosh doimo vaqtida berilmagani uchun oyiga 2 tilla qo'shimcha kompensatsiya berilgan. 1851-yilgi ma'lumotga qaraganda oddiy askarning rus rublidagi maoshi 43 rubl bo'lgan. Bundan tashqari, oddiy askarlar bir yilda ikki qop arpa, bahorda 4 tadan yozlik to'p, ko'ylak, etik, salla, do'ppi, belbog', qishda esa issiq chopon, oshlangan po'stin, etik, issiq shapka va ot berilardi. Qurollardan qilich, nayza, miltiq berilgan. Miltiq hammaga emas, faqat otishni bilganlarga tanlab berilgan, umuman, qo'qonliklarning qurol-aslahasi juda quyi darajada bo'lgan.

Xon harbiy yurishlar paytida maxsus farmon chiqarib, yurish uchun qo'shin to'plagan. Ponsodlar o'zlariga bo'ysungan yuzboshi, ellikboshi va o'n boshilar vositachiligida harbiy yurishga qatnashganlar.

Qo'shin belgilangan joyga ketayotganida ortidan savdogarlar kelgan. Joylarda maxsus savdo ishlari tashkil etilgan. Askarlar harbiy yurish paytida oziq-ovqatni natura shaklida olmaganlar. Shuning uchun harbiy yurishlar paytida askarlarga qo'shimcha 3-4 tangadan haq olganlar. Yordamchi bo'linmalarining ta'minoti davlat tarafidan bo'lmagan. Ularning yurishdan oladigan daromadi harbiy o'lja va talon-tarojdan kelgan.

Xonlikda harbiy askarlar soni doim ham bir xilda bo'lmagan. XIX asrning 50-yillaridagi bir yurish paytida harbiy chaqiriqqa 50000 kishi to'plangan bo'lsa, boshqa bir paytda esa bor-yo'g'i 2500 kishi to'plangan xolos.

Joylardagi qal'alarda ham qal'aning katta-kichikligiga qarab askarlar soni har xil bo'lgan. Masalan, Qo'qonda 6000, Toshkentda 2000, Pishpakda 800, Turkiston va Avliyootada 600, Kerovchi va Markida 400, boshqa qal'alarda esa 50 tadan 250 tagacha askar saqlangan.

Qo'qon xonligida qo'shin ta'minoti xonlik xazinasini hisobidan amalga oshirilgan. Qo'shinga qurol-yarog' yetkazib berishni davlat o'z zimmasiga olgan edi. Qo'qon xonlari askarlar turmush darajasi va ta'minotini yaxshilash maqsadida turli vositalardan foydalanganlar. Harbiy harakatlar vaqtida qo'lga kiritilgan o'ljalari ham askarlarga taqsimlab berilgan. Bundan tashqari, askarlar kundalik ehtiyojlari uchun kiyim-bosh va oziq-ovqat mahsulotlari ajratilgan. Askarlarga oylik maosh berish bilan bir qatorda, ularning ekin maydonlari soliqlardan ozod etilgan. Ayrim hududlarda askarlarga foydalanish uchun kichik yer maydonlari ham ajratilgan.

Xonlikda hukmdorlar qo'shinni oziq-ovqat bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratganlar. Qo'qon xonligida mamlakatdagi viloyatlar turli harbiy qismlarning ta'minoti uchun javobgar edilar. Xususan, Shahrixondagi qishloqlar Umarxon davridagi Qo'qon okrugi harbiylarining ehtiyojini qondirish uchun g'alla yetkazib berganlar. XIX asrning 60-70-yillariga kelib Rossiya bilan harbiy harakatlar oqibatida soni va talabi oshgan qo'shinning bug'doyga bo'lgan ehtiyojini Shahrixon atrofidagi qishloqlar qondira olmagan. Natijada Qo'qon okrugining ehtiyojini qondirish uchun 210 ta qishloq ahli zimmasiga yuklatilgan.

Sarbozlar va to'pchilarning kiyim-boshi qizil, qora va sariq rangli movutdan tikilgan ustki kiyim-kamzul, ok klenkor shim va qorako'ldan tikilgan qalpoqdan iborat bo'lgan. Keyinchalik qo'shin orasida echki terisidan tikilgan ancha pishiq va chidamli shimlarni kiyish urf bo'lgan. Oddiy askarlar ham, qo'shin rahbariyati ham xazinadan yangi kamzullar, shim va qalpoqlar olganlar. Askarlarga yurish oldidan bir juft etik berilgan.

Muntazam qo'shin safiga safarbar qilingan va chegara qal'alarda xizmat qiluvchi askarlarga to'y va dafn marosimlarini o'tkazish uchun pul, mato va oziq-ovqat mahsulotlari berilgan. Yaralangan, bemor askarlarni davolanishi uchun mablag' ajratilgan. Biroq, bu tadbirlar markazlashgan holda amalga oshirilgan. Ko'p hollarda esa yuqoridagi tartib-qoidalardan chetlashishi holatlari kuzatilgan. Davlat tomonidan harbiylarning vafot etgan oila a'zolarini dafn etish borasida ham bir qator tadbirlar amalga oshirilgan. 1871-1872-yillarda Gadoy-botir ismli shaxsning o'lgan xotinini dafn etish uchun mato (kafanlik) berilgan. Ushbu ma'lumot xonlik harbiylari haqida ikki xulosa chiqarishga asos bo'ladi: 1) xonlar o'z harbiylari oila a'zolari vafot etgan taqdirda ularni ta'minlashga harakat qilganlar; 2) xonlikdagi harbiy askarlarning oilaviy turmushi nochor bo'lgan. Askar oila a'zolaridan birortasi vafot etsa, ba'zan ularni dafn etishga oddiy oq mato ham topilmas edi. Ko'p hollarda bunday ehtiyojlar davlat tomonidan qondirilgan.

Xonlikda harbiy ko'rik yilda ikki marta o'tkazilgan. Harbiylarga ko'rik arafasida yangi kiyim-bosh va qo'shimcha yuzboshilarga 2, ellikboshilarga 1,5, oddiy askarlarga esa 1 tilladan qo'shimcha maosh berilgan.

Harbiylarning oliy hukmdor - xon tomonidan ko'rikdan o'tkazib turilganini Qo'qon xonligiga oid arxiv hujjatlarida ham kuzatishimiz mumkin. 1873-yilga oid bir hujjatda ayon bo'lishicha, ko'rikdan o'tkazilgan qo'shin maxsus ko'rik daftarlari - "daftar-i ko'rik"ka qayd etib borilgan. Bunday tadbirlarda harbiylarning qurol-aslahasi, otlari ko'zdan kechirilgan. Jumladan, shu yilning may oyiga oid bir hujjatda qayd etilishicha, Mulla Umarbek dodxoh ismli shaxs ostidagi harbiylar ko'rikdan o'tkazilib, asosiy e'tibor ularning qurol-yarog'lari va otlariga qaratilgan.

Qo'shin askarlari tinchlik paytida dehqonchilik bilan shug'ullanganlar va harbiy bo'lganliklari uchun ma'lum bir imtiyozlarga ega bo'lganlar. Masalan, Sulton Murodbekka jo'natilgan yana bir yorliqda Normuhammad ponsodboshi boshchiligidagi Abdurahmon yuzboshi qo'li ostidagi Karimquli, Muhammad Iso, Muhammad Muso, Muhammad Qosimlar qovun va beda ekan mulk yerlari merosiy mulk yoki sotib olingan mulk bo'lsa xiroj va tanobonadan ozod qilinishi kerakligi aytilgan. Donli ekinlardan olingan hosilning 10 choragigacha, beda ekilgan yerlarning esa 4 tanobigacha soliqdan ozod qilingan.

Ba'zi hollarda harbiylarning ayrim mansabdor shaxslari ot bilan ta'minlangan. Qo'qon xonlari arxiviga tegishli hujjatlarning birida "botir, panjaboshi, dahboshilarga ot berilgani, otlarning qaysi nasldan ekanligi ko'rsatib o'tilgan". Ba'zi hollarda esa askarlar soliqning yarmini to'laganlar. Harbiylar yashagan hududlardagi bunday soliqdan ozod etilgan yerlar tarxonlik yerlari deb atalgan va xonlikning deyarli barcha hududlarida mavjud bo'lgan. Askarlarning xon askarlari yoki beklik askarlari bo'lishidan qat'iy nazar bunday huquqqa ega bo'lganlar.

O'rta Osiyo xonliklarida harbiylarni taqdirlash borasidagi an'analarga ko'ra, janglarda alohida xizmat ko'rsatgan harbiylar, harbiy mansab va unvon egalari ma'lum miqdorda pul, yer, mol-mulk va qimmatbaho buyumlar bilan tadqirlanganlar.

Xonliklarda qo'shinning sog'lig'ini ta'minlash borasida ham bir qator ishlar amalga oshirilgan. Bu o'rinda qayd etib o'tish kerakki, harakatdagi qo'shinning talofot ko'rgan askarlariga tibbiy yordam markazlashgan tarzda amalga oshirilgan. Harbiy harakatlar chog'ida sog'lig'iga zarar yetgan askarlarga davolanish uchun xon xazinasidan ma'lum miqdorda pul ajratilgan.

Tarkibi sifat jihatidan yaxshilangan qo'shinning taktik tayyorgarligiga ham jiddiy e'tibor berilib, chet ellik harbiy mutaxassislar jalb qilindi. Garchi islohotlar o'z davriga nisbatan kechikkan va yaxshi natijalarni bermagan bo'lsa-da, hokimiyatning markazlashuviga ko'maklashgan, mamlakat harbiy qudratini sifat jihatdan yangi darajaga ko'targan omillardan biri bo'ldi. Shunga qaramay, xonlik harbiy sohasida qo'llanilgan qurol-yarog'lar yevropacha namunalardan orqada qolgan bo'lib, zamon talablariga javob bermas edi. Xonlikda mavjud qurol-yarog' ishlab chiqaruvchi ustaxona va zavodlar ham yetarli darajada mahsulot ishlab chiqara olmas edi.

Qo'qonda bir necha harbiy mansab egalari ular xizmat qiladigan dasta (polk) va to'p (yuzlik) rahbariga 8 kunlik ta'til berilar edi. Oddiy askarlarga jang bo'lmagan paytda imkoniyatga qarab, har 10 kishidan bir kishiga ta'tillar berilar edi.

Qo'qon qo'shinida mavjud bo'lgan karnaychilar, surnaychi, nog'orachi, naychi, do'lchi va boshqalardan iborat qo'shin sozandalari guruhi mavjud bo'lgan. Ularning sozlarini chalishlari mamlakat hukmdorlarining harbiy yurishi boshlanganidan darak berar,

qo‘shinning harakati g‘alabalarini tantanavor tusda aholiga bildirishga xizmat qilar edi. masalan, karnaynchi chalish orqali ozandalar harbiy harakatlar davomida qo‘shinni to‘planishga chorlaganlar. Ularga nog‘orachilar va surnaychilar jo‘r bo‘lishgan. Qo‘shin turli qismlarining o‘z sozandalari bo‘lgan. Jumladan, XIX asrga oid ma‘lumotlarning ko‘rsatishicha, Qo‘qonda sarbozlar qismida - “nog‘orachi sarboz”lar bo‘lgan. Shuningdek, Qo‘qon sarbozlarining harbiy tuzilmalarida juda katta nog‘ora-do‘llar ham bo‘lgan. Bunday musiqa asbobiga maxsus do‘lcho‘plar bilan urilib, sado chiqarilgan.

Harbiy orkestrning musiqa asboblariga bo‘lgan ehtiyoji markaziy hokimiyat tomonidan qondirilgan. XIX asrga oid “Qo‘qon xonlari arxivi”ga oid hujjatlarning birida harbiy orkestr – “nakaraxona” uchun do‘lcho‘plar, nay uchun pul ajratilgani haqida so‘z borsa, boshqa bir hujjatda esa sarbozlar nog‘orachilari (“nog‘orachi sarboz”ga) nog‘oralar uchun teri (“parda-i nakara”), nog‘ora cho‘plari (“nakarachub”) berilgani qayd etiladi. Ushbu hujjatlarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, markazlashgan qo‘shin huzuridagi orkestrdan tashqari, yuz kishilik harbiy bo‘linmalarda ham o‘z sozandalari bo‘lgan. Hujjatlardan birida Qo‘qon qo‘shinidagi sarbozlar bo‘linmalarining yuzlik qismlariga do‘llar uchun echki terilari – (“parda-i sarka”) va nog‘oralar berish lozimligi qayd etib o‘tiladi.

Shu bilan birga Qo‘qon xonligida mamlakatning mudofaa qobiliyatiga salbiy ta‘sir qilgan omillar mavjud edi. Xonlikdagi harbiy ish va qo‘shin tarixi tahlili quyidagi omillarni davlat harbiy qudratiga salbiy ta‘sir ko‘rsatganligini ta‘kidlashga imkon beradi:

- harbiy boshqaruvda an‘anaviy, sodda uslubning saqlanib qolganligi. Bu davrda harbiy kuchlar mahalliy an‘analarga asoslangan holda boshqarilar edi. Xonlikda Yevropa davlatlari va Rossiyadagi singari maxsus harbiy mahkamalar va murakkab boshqaruv uslubi mavjud emasdi. Ko‘p hollarda markaziy va mahalliy boshqaruv tizimida muhim o‘rin egallagan amaldorlar harbiy sohada tajribali bo‘lmasalar-da, ular ma‘lum mansab va amallarga ega bo‘lganlar. Bu esa xonlik harbiy kuchlarining rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan;

- bu davrda xonlikda rivojlangan mamlakatlarda faoliyat ko‘rsatgan harbiylar tayyorlaydigan alohida zamonaviy oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarining mavjud emasligi;

- an‘anaviy harbiy tayyorgarlikning betartib tarzda amalga oshirilishi hamda uning qisqa muddatda bo‘lganligi;

- harbiy boshliqlarni tayinlash va harbiy boshqaruv O‘rta Osiyo xonliklarida saqlanib qolgan an‘analarga asoslanganligi. Tayinlovda merosiylikning saqlanib qolganligi iqtidorli sarkardalar yetishib chiqishiga to‘sqinlik qilar edi. Shu bilan birga harbiy mansablarning ma‘muriy mansablardan ajratilmaganligi;

- harbiy sarkardalar va viloyat hokimlarning katta imtiyozga ega ekanliklari. Harbiy sarkardalarning o‘z maxsus bo‘linmalarga egaligi va viloyat hokimlari o‘z hududlaridan to‘plangan qo‘shin ta‘minotiga mas‘ul ekanliklari, ko‘p hollarda markaziy hokimiyatga bo‘ysunmaslikka harakat qilishlariga, markaziy hokimiyatga qarshi guruhlar shakllanishiga;

- qo‘shinni qurol-yarog‘ bilan ta‘minlashda, mahalliy ustaxonlarda tayyorlangan, zamondan orqada qolgan qurollardan foydalanganligi, qurol, xususan, to‘plar ishlab chiqaruvchi maxsus, ixtisoslashgan zamonaviy yirik korxonalarining mavjud emasligi va harbiy sohada zamonaviy fan-texnika yutuqlaridan foydalanmaganligi;

- hokimiyatda, ayniqsa, XIX asrning 40-50-yillarida tez-tez almashinuvi natijasida qo‘shin ta‘minotidagi yetishmovchiliklar, o‘zaro urushlar va hokimiyat uchun kurashda tajribali sarkarda, askarlarning halok bo‘lishi hamda muntazam qo‘shinga nisbatan

yordamchi harbiy bo‘linmalar sonining ortib ketganligi kabi omillar ham mamlakat harbiy qudratiga putur yetkazgan.

Oliy hukmdorlar tomonidan harbiy ish va qo‘shinga qanchalik e‘tibor berilmasin, bu bilan xonlik chigal ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tugundan xalos bo‘lolmadi. Oqibatda esa Rossiya tajovuziga bardosh bera olmagan Qo‘qon xonligi davlat sifatida faoliyat yuritishdan mahrum qilindi va tugatildi.

Tayanch iboralar

Muntazam qo‘shin, navkariya, bahodir, mergan, qilquyruq, jadidi askariya, “amir ul-umaro”, yordamchi harbiy bo‘linmalar, “qorakaltak”, “qoraqozon”, sallot, o‘t ochar qurollar, harbiy qal‘alar, minboshi, amirilashkar, botirboshi, qushbegi, voli, qal‘abon, qo‘rboshi, yovar, mo‘pchiboshi, mo‘qsabo, ponsodboshi, “kamonxon”, “band-i kamon”, “dorukash”, harbiylar maoshi, harbiy intizom, harbiy ta‘minot.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Qo‘qon xonligidagi dastlabki muntazam qo‘shin qachon tuzilgan?
2. Olimxon davrida o‘tkazilgan harbiy islohotlar haqida nimalarni bilasiz?
3. Umarxon davrida harbiy soha taraqqiyoti haqida nimalarni bilasiz?
4. Sheralixon harbiy sohani qanday tashkil etgan?
5. Xudoyorxon davrida qo‘shinni qurollantirish darajasi qanday bo‘lgan?
6. Xonlik mudofaasida harbiy qal‘alarining o‘eni qanday bo‘lgan?
7. Xonlikda hqrbiy mansablar ta‘rifi qaysi manbada keltirilgan?
8. Xonlikda harbiy qurollar ishlab chiqarish qay darajada taraqqiy etgan?
9. Xonlikda harbiy ta‘minot qay darajada yo‘lga qo‘yilgan?
10. Xonlikda harbiy soha inqirozi sabablarini aniqlang?

8-mavzu: Qo‘qon xonligi tashqi iqtisodiy va diplomatik aloqalari Reja

1. Qo‘qon xonligining chet davlatlar bilan iqtisodiy aloqalari
2. Qo‘qon xonligining chet davlatlar bilan diplomatik aloqalari

1. Qo‘qon xonligining chet davlatlar bilan iqtisodiy aloqalari

Qo‘qon xonligining dastlabki davrlarida xonlikda pul oz bo‘lganligi sababli, mahsulotlar narxi arzon bo‘lgan. Toshkentning Rossiya tomonidan bosib olinmasidan oldin Qo‘qon Hindiston, Tibet, Buxoro, Afg‘oniston va Rossiya bilan savdo qiladigan yirik punkt bo‘lgan. XVII-XVIII asrlarda Toshkentga kelgan Pospelov va Burnashevlar bu yerdagi savdo haqida ma‘lumot berganlar. Ular bu erda savdoning kam taraqqiy etganligini, bo‘lganda ham o‘zlari ishlab chiqargan mahsulot bilan emas, balki, chet el tovarldari bilan savdo qilishlarini aytib o‘tganlar. Lekin Qo‘qon xonligi tarixining oxiriga kelganda xonlikning savdo ahamiyati oshdi. Ayniqsa, Xudoyorxon hukmronligi davrida (1862-1863) xonlikka boshqa mamlakatlardan juda ko‘p mahsulotlar keltirilgan, bu erdan juda ko‘p tovarlar eksport qilingan. Bu yerda savdo ishlari shunchalik murakkablashib ketdiki, odamlar bir-birlariga mehr-oqibatni unuttildilar, pulni bir-birlaridan qizg‘anish avj oldi, ota-o‘g‘ilga dushman bo‘ldi deb yozadi “Tasnifi G‘arib” muallifi.

Qo‘qon xonligi Hindiston bilan ham yaxshi savdo aloqalarini yo‘lga qo‘ygan. Shu o‘rinda bu savdo aloqalari Hindistonning shimoliy qismi bilangina bo‘lganligini ham ta‘kidlab o‘tishni joiz deb topdik.

Qo‘qonning Hindiston bilan bo‘lgan savdosida asosan xonlikning shahar va qishloqlaridagi hind mahallalarida istiqomat qiluvchi sudxo‘r savdogarlarning roli katta bo‘lgan. Umuman Qo‘qon savdogarlarining Shimoliy Hindiston bilan faqat Buxoro va Samarqand orqaligina emas, balki butun Markaziy Osiyoga tarqalgan hind koloniyalari orqali ham aloqa qilishlariga imkoniyat bor edi. Qo‘qonning Hindiston bilan bo‘lgan savdosida asosan xonlikning shahar va qishloqlaridagi hind mahallalarida istiqomat qiluvchi sudxo‘r savdogarlarning roli katta bo‘lgan. “Bulardan tashqari,- deb yozadi Rasulzoda – Qo‘qon xonliging ko‘p shahar va qishloqlarida hindlar yashaydigan mahallalar ham bor edi, ularning nomlari shu kungacha saqlanib qolgan. Farg‘ona viloyatida ko‘plab hind koloniyalari mavjud edi”. Qo‘qon karvonsaroylarida Hindiston, Tibet, Qoshg‘ar, Buxoro, Afg‘oniston va Rossiyadan olib kelingan tovarlar ayirboshlanar edi (barter usuli bilan). Ular bevosita o‘z yurtlaridan asosan indigo, ip gazlamalar, Kashmir ro‘mollari, salla uchun oq surp, shakar, turli xil attorlik mollari, murch va boshqa mahsulotlar olib kelingan. Hindistonning O‘rta Osiyo xonliklari bilan olib borgan savdo aloqalari haqida H. Bobobekov o‘zining “Qo‘qon tarixi” asarida shunday ma‘lumot beradi: “Masalan, bu ma‘lumotlarga qaraganda, butun O‘rta Osiyoga Buxoro, Qo‘qon, Toshkent va Qashg‘arga Qobul orqali asosan 10000 dan 15000 tuyagacha tovar yuborilar edi”. Albatta bu ma‘lumotlarda keltirilgan raqamlarga e‘tibor beradigan bo‘lsak, Qo‘qon xonligiga Hindistondan juda katta miqdorda mahsulotlar keltirilganligini ko‘rishimiz mumkin.

O‘z navbatida Qo‘qondan Hindistonga asosan ipak gazlamalar, ipak, otlar, nashavand moddalar olib borilgan. O‘rta Osiyoning otlari savdoning katta foyda keltiradigan manbalaridan biri edi. Shular bilan bir qatorda Hindistonga har yili 20 lak (1 lak 100 ming) oltin olib chiqilar edi.

XIX asrning o'rtalariga qadar Qo'qonning Hindiston bilan savdosi asosan Buxoro va Samarqand orqali olib borilar edi. XIX asrdan boshlab esa vaziyat boshqa tomonga qarab o'zgarib boshlagani hech kimga sir emas. Chunki shu davrda dunyoning eng kuchli metropoliyasi hisoblangan Angliya va shitob bilan rivojlanib borayotgan Rossiya imperiyasi manfaatlari O'rta Osiyo masalasida to'qnash kelib qoladi. Buyuk Britaniya o'zining mustamlakalari sistemasini kengaytirish va iqtisodiy yanada oshirish maqsadida hamda moddiy xom-ashyo bazasini oshirish uchun O'rta Osiyo bozorlarini egallashga intila boshlaydi. Rossiya ham o'z navbatida, ya'ni xom-ashyo bazasiga ega bo'lish, shuningdek, o'z hududini mustamlakalar hisobiga kengaytirib olish maqsadida sharqqa tomon intilayotgan edi. Rossiya Buyuk Britaniyaga qarshi o'zining janubiy chegaralarini mustahkamlash maqsadida O'rta Osiyoga tomon intila boshladi. Va albatta u ham bu ishni O'rta Osiyo bozorlarini egallashdan boshlagan. 1839 yilgi O'rta Osiyo masalasida eng keskin to'qnashuvdan keyin Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoni uzil kesil ishg'ol qilishga kirishadi va shu asrning uchinchi choragida o'z maqsadiga uzil-kesil erishadi.

Xuddi shu davrdan boshlab, Qo'qon-Hindiston savdo aloqalari ham yangicha xarakter kasb eta boshlaydi. Endi O'rta Osiyo va Hindiston savdo munosabatlari Rossiya nazorati va vasiylikida bo'ladigan bo'ldi. O'rta Osiyoda chorizmning siyosiy nazorati o'rnatilgach, Rossiya bilan do'stona aloqada bo'lish uchun hind elchixonalari ochila boshlaydi. Jumladan, Kashmir elchixonasi ham o'z navbatida Rus hukumati bilan foydali savdo aloqalarini olib bordilar. Buning sababi, agar Qo'qon Rossiyaga tobe bo'lsa, Toshkent (ya'ni, Qo'qon xonligi nazarda tutilyapti) bilan savdo qilish osonlashar edi.

Bu davrda Hindistondan Qo'qon xonligiga asosan moy, ingliz manufaktura mahsulotlari va Kashmir shoyisi olib kelingan. Bizga ma'lumki, bu paytgacha choy Qo'qon xonligiga Xitoydan keltirilgan (Bu haqda malakaviy ishimizning navbatdagi paragrafida so'z yuritimiz). Garchi choyning vatani Xitoy bo'lsada, Hindiston Buyuk Britaniya imperiyasi tomonidan bosib olinganidan keyin, bu yerda inglizlar choy plantatsiyalarini tashkil etdilar. Choy ishlab chiqarish esa inglizlar tomonidan jahon bozorini egallashda asosiy rol o'ynadi. Choy plantatsiyalarning ko'plab tashkil etilishi oqibatida hind choyini Xitoynikiga nisbatan tannarxini arzonlashishiga olib kelgan. Bundan tashqari, hind choyini Qo'qonga olib kelish nisbatan arzon bo'lgan. shu o'rinda xalq orasida mavjud choy haqidagi fikrlarga e'tibor qaratsak. Nuroniy otaxon va onaxonlarimizning gaplariga ko'ra Hindistondan olib kelingan choyning ko'plab olib keltirilishi oqibatida aholining choyga bo'lgan ehtiyoji to'laroq qondirila boshlangan, ya'ni boy, o'rtahol va kambag'allar uchun maxsus choy navlari keltirila boshlangan. Masalan, "taxtachoy" faqat kambag'allar tabaqasi uchun mo'ljallangan choy hisoblangan.

Yuqorida keltirilgan misollarni "Ocherki vnutrenney trgovli Kirgizskoy stepi" nomli maqola tasdiqlaydi. Unda yozilishicha "avvallari Qo'qon va Buxorodan Hindistonga 1000 tuyada ipak olib borilardi, ammo hozir ularning narxi tushib ketganligi tufayli u yerga ipak juda kam olib borilmoqda. Hindistonga nasha kontrabanda (yashirin holatda) orqali olib borilardi, u asosan Qo'qon xonligi tomonidan sotilardi, u yerga esa o'z navbatida Qoshg'ar va Yorkentdan keltirilardi edi". Hindiston va O'rta Osiyo o'rtasidagi savdo balansi tenglashishi asosan u erga har yili 12 lak (1 lak – 100000 tilla) oltin ketirishi orqali bo'lar edi. Ipak yuki narxi 400 chervon, echki (juni) yuki esa 25 chervon edi. Bir pud nasha esa 50 rubl edi.

Qo‘qon-Hindiston savdo aloqalari yana Qo‘qon xonligining ko‘plab shaharlarida, shu jumladan, Qo‘qonda ham oxirgi paytlarda hindlarning yashab savdo va sudxo‘rlik bilan shug‘ullanishlarida ham namoyon bo‘ladi.

Qadimgi O‘rta Osiyo va Xitoy aloqalari siyosiy-iqtisodiy va madaniy hayot rivojiga samarali ta‘sir ko‘rsatdi. Xususan, O‘rta Osiyodan Xitoyga shisha buyumlar ishlab chiqarish, turli harbiy qurol-yarog‘lar (dubulg‘a, hushtaksimov ovoz chiqarib uchuvchi o‘q-yoy) yasash va boshqa texnologik yangiliklar kirib bordi. Farg‘onadan Xitoyga va butun Uzoq Sharqqa uzumchilik va beda yetishtirish, shuningdek "samoviy" otlar olib borildi.

Xuddi shu tariqa Xitoy bilan savdo aloqalari Qo‘qon xonligi davrida ham amalga oshirilgan va rivojlantirilgan.

Jumladan Qo‘qon xonligi ham Xitoy bilan bir qadar savdo aloqalarini o‘rnatdi. Qo‘qon xonligi Rossiyaning Sharqiy Turkiston va Xitoy bilan bo‘lgan savdosida vositachilik rolini o‘ynagan. Chunki Xitoy Rossiya bilan savdo munosabatlarini o‘rnatmagan va shu bilan bir vaqtda Sharqiy Turkiston savdo aloqalarini o‘rnatish uchun Rossiyaga ruxsat bermagan edi. Troitsk shahriga Qo‘qon xonligi orqali Xitoy va Sharqiy Turkistondan 1000 ta tuyada har xil guldor matolar, qog‘oz matolar, chinni, choy, ipak, ip matolar, shoyi, kumush yombisi, paxta xom ashyosi, uzum, o‘rik, tariq, gilam va boshqa narsalar olib ketilgan. Qo‘qon xonligining Xitoy bilan olib borgan aloqalari haqida faktlarga ega boshqa manbalarga asoslangan holda shuni aytish mumkinki, Qo‘qon asosan shu davrda Xitoy qalam rovida bo‘lgan Qoshg‘ar va G‘ulja bilan savdo o‘rnatgan.

XIX asrda Rossiya Qo‘qonning asosiy savdo sherigi bo‘lib qoldi. Qo‘qondan boshanadigan ikki savdo yo‘lidan biri Toshkent-Turkiston yo‘li bo‘lib, u Turkistonda uchga bo‘linar edi. Bittasi, Orskka, ikkinchisi Troitskka, uchinchisi Topolskka borar edi; boshqa savdo yo‘li esa Samarqand, Buxoro, Xiva va Aktyubinskka eltar edi. Bu yo‘llar Qo‘qonning Rossiya bilan puxta savdo aloqasini ta‘minlardi va Qo‘qon amalda, aytish mumkinki, XIX asrda rus savdosi tufayli mustaqil davlatga aylandi.

Farg‘ona vodiysining Qo‘qon, Andijon, Namangan kabi shaharlari bilan Sibir o‘rtasidagi savdo aloqalari uzoq vaqtlarni o‘z ichiga oladi. Bu shaharlarning savdogarlari ham Sibirda buxoroliklar nomi bilan yuritilgan bo‘lib, ayrim arxiv hujjatlaridagina ularning nomi alohida qayd qilingan. Jumladan, G‘arbiy Sibir general-gubernatorining 1827 yilgi hisobotiga doir hujjatlarda Tarada yashovchi buxoroliklarning Qo‘qon bilan qadimdan aloqa qilib kelayotganligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Qo‘qon xonligi Sibir liniyalari bilan savdoni kuchayirish uchun Rossiya bilan elchilik munosabatlarini o‘rnatishga harakat qilgan. O‘z navbatida rus hukumati ham Qo‘qon xonligi ilan elchilik munosabatlarini o‘rnatishga harakat qilgan. Ular 1810-yildayoq O‘rta Juz qozoqlari sultonining o‘g‘lini Qo‘qonga yuborib, Sibirga elchi yuborilishini xonga taklif qilgan edi.

Ayrim ma‘lumotlarga qaraganda, 1811-yilda Sibirdan tarjimon kollej registratori Mamedyarov boshchiligida kazak otryadi Qo‘qonga kelgan. Afsuski, bularning nima uchun Qo‘qonga kelganligi haqida ma‘lumotlar yo‘q. Aftidan, kazak harbiy otryadi Qo‘qonga rus elchilarini kuzatib borgan Rus davlatining elchilari Qo‘qon xonligida" elchilik munosabatlarini yo‘lga qo‘yish va savdoni kuchaytirish vazifasi bilan kelgan bo‘lsa kerak. Chunki 1812-yilda Umarxon o‘zining Shokirbek nomli elchisini Peterburgga yuborgan. Bu elchining kelishiga Sibir liniyasi boshlig‘ining hatti-harakati sabab bo‘lganligi arxiv hujjatlarida qayd qilingan. Bu haqda 1812-yilda stats maslahatchi va kavalyer Vergin Semipalatinsk chegara bojxona boshlig‘iga quyidagicha xabar bergan edi: «Tashqi savdo

mahkamasinvg menga xabar berishicha, o'tgan bir yil ichida Sibir liniyasi boshlig'i tomonidan Osiyo xalqlari bilan savdo aloqalarini kengaytirishga oid ko'rilgan choralar natijasida Qo'qon hukmdori Umar Sibirda o'z fuqarolari uchun erkin savdo ochtirish maqsadida saroyga elchi goborgan va imperator hazratlari iltifot bilan Qo'qoning taklifini qabul qilib, ularning savdo karvonini avliyo Pyotr qal'asida (Petropavlovsk – B.G.) hamda Irtish liniyasidagi Koryakovsk krepostida qabul qilib olishni va odatdagi boj qonun-qoidalariga rioya qilishni buyurdilar».

Binobarin, rus hukumati Qo'qon xonligining o'zaro savdoni kuchaytirish taklifini mamnuniyat bilan qabul qildi va savdoni kuchaytirish tadbirlarini belgiladi. Bu to'g'rida Semipalatinsk bojxona boshlig'iga maxsus ko'rsatma berildi. Uida qo'qonlik savdogarlarga nisbatan xushmuomalada bo'lish lozimligi uqtirib o'tildi. Aks holda bojxona xodimlarining qattiq javobgarlikka tortilishi qayd qilingan-di: "...bojxona amaldorlari yoki xizmatchilar ularga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lmasalar yoki haqorat qilsalar, - deyiladi ko'rsatmada, - bu xalq (qo'qonliklar — R.A.) o'z-o'zidan biz bilan aloqa qilmay qo'yadi".

Qo'qon xonligi Sibir bilan aloqani kuchaytirishdan qanchalik manfaatdor bo'lsa, rus hukumati ham shunchalik manfaatdor edi. Yuqoridagi Qo'qon elchilari Petropavlovsk, Omsk va Semipalatinskda yashovchi toshkentliklar, umuman, Qo'qon xonligi savdogarlarining uylariga harbiy kishilar qo'yishni rus hukumatidan so'radi. Rus hukumati bunga ijobiy javob bergan.

2. Qo'qon xonligining chet davlatlar bilan diplomatik aloqalari

1805-yil Rossiyada Turkistonga kelgan Nerpin ismli shaxsning ish yurituvchisi Mojaytdinov rahbarligida kelgan savdo karvoniga Olimxon ruslar bilan savdo va diplomatik aloqalar o'rnatishni bildiradi. Shu sabab bilan Sulton Bukayga xat yozib, savdo karvonini hamrohligida Qo'qonga olib kelishini so'raydi. Lekin sulton Bukay Toshkentning mustaqilligi sababli bu ishning imkoni yo'qligini, shuning uchun Toshkent hokimi va Qo'qon o'rtasida do'stlik munosabati o'rnatilishini taklif qiladi.

Bu haqda ma'lumot olgan rus hukumati savdo vaziri graf Rumyantsev Sibir general-gubernatoriga Qo'qon bilan savdo aloqalari yo'lga qo'yilishi haqida ko'rsatma beradi. Aynan mana shu sabab Toshkentning Qo'qon tomonidan bosib olinishining asosiy sababidir.

Olimxon 1805-yildayoq Toshkent va uning atroflarini bosib olishga urinishi bejiz emasdi. Umuman 1805-yilgacha Rossiya va qo'qon o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilgan emasdi. 1810-yili rus hukumati elchi-tarjimon Mamadiyorov boshchiligida Qo'qonga elchi ha'yatini jo'natadi. Elchilar 18-may kuni Qo'qonga yetib keladilar. 20-may kuni esa Umarxon qabulida bo'ladilar. Elchi xonga Glazenepning xatini topshiradi. Xatda xondan elchilarni qabul qilishni, ikki davlat o'rtasida savdo aloqalari mustahkamlansa ikki tomonga ham foyda bo'lishi, aholi turmush darajasi yaxshilanishi va sanoat ham rivojlanishi ta'kidlangan edi.

Umarxon bu taklifga rozi bo'ladi va elchilarni shahardagi eng yaxshi uylarga joylashtiradi. Elchi Mamadiyorov Qo'qonda 18-maydan 8-iyungacha bo'ladi. Umarxon elchilar birga ikki bekni Rossiyaga elchi sifatida jo'natadi. Bu elchilar Rahmatullo devonbegi Qo'shbotir o'g'li va Shukur otaliq Oltibosar o'g'li edi. Umarxon elchilar bilan birga ikki davlat o'rtasida hanuzgacha elchilik aloqalari o'rnatilmaganligi, ikki o'rtada

do'stlik munosabatlarini o'rnatish maqsadida elchilar yuborayotganligi haqidagi xatini ham jo'natadi.

Qo'qonlik elchilar Sankt-Peterburgada yaxshi qabul qilinadilar. Lekin yo'lda kelayotganlarida biri yo'lda kasal bo'lib vafot etadi, ikkinchisi esa Petropavlovsk qal'asida bir qochqin tomonidan o'ldiriladi. Bu esa yangi boshlanayotgan elchilik munosabatlarini uzilib qolishiga sabab bo'ladi.

Bu voqealardan xabar topgan Umarxon Omsk qal'asining boshlig'i general-leytenant Glazenepga xat yuborib, undan o'zining qattiq norozi ekanligini, o'ldirilgan elchi uchun xun pulini talab qiladi. Ayni paytda Rossiya hududida elchi va savdogarlarning xavfsizligini ta'minlash lozimligini ta'kidlab, Rossiyaga tobe qipchoqlar qo'qonlik savdogarlarni talayotganliklarini, ularga amaliy va moddiy yordam berish lozimligini aytadi.

Bunga javoban, Glazenepning topshirig'iga binoan 1813-yili Filipp Nazarovni Umaxon talabiga binoan jo'natadi. Filipp Nazarov Qo'qonga kelib xon bilan uchrashadi va nizo bartaraf etiladi.

Qo'qon xonligidan 1815, 1822, 1824, 1825, 1828, 1829-yillari Qo'qondan Rossiyaga elchilar xon maktubini olib borganlar, lekin bu tashriflar natijasi haligacha to'liq o'rganilmagan.

O'z iqtisodiy va siyosiy manfaatlari yo'lida Qo'qon xonligi bilan aloqalarni yaxshilashni istagan Rossiya hukumati bu mamlakat haqida to'la ma'lumotga ega bo'lish uchun elchilarga maxfiy topshiriqlar berib, u yerdagi siyosiy ahvol, vaziyat haqida ma'lumotlar yig'ib borar edi.

1822-yili Qo'qon xoni Muhammad Alixon davrida Rossiyaga yuborilgan elchilar rus hukumati tomonidan qabul qilinmagan. Lekin bu elchilikning qabul qilinmaganligi haqidagi sabablar ma'lum emas.

1824-yil iyul oyida Muhammad Alixon G'aniyat Xo'ja Zulfiqorov va Xonkeldi Boboxonovlarni elchi sifatida Sibir liniyasiga yuborib, birgalikda qaroqchilarga qarshi kurash olib borishni va savdogarlarga qulay sharoit yaratishni taklif qiladi. Sibir liniyasi bu taklifni qo'llab-quvvatlaydi.

1825-yili Madalixon Sultonbek Soatbekovni elchi sifatida Sankt-Peterburgga jo'natadi. Sultonbek Soatbekov Qo'qon xoni uch yil burungi elchining qabul qilinmaganligi, yo'llardagi savdo karvonlarining talanishidan norozi ekanligi haqidagi talablarini olib boradi. Lekin Sultonbek Soatbekovning elchiligi haqidagi batafsil ma'lumotlar o'rganilmagan.

1827-yili Madalixon K.Fozilbekovni elchi sifatida Rossiyaga jo'natadi. Elchilikning maqsadi ikki o'rtadagi diplomatik va savdo aloqalarini yanada rivojlantirish bilan bog'liq edi. Xon xatida Qo'qon-Xitoy o'rtasidagi o'zaro aloqalarni to'xtab qolganligi sababli xonlikda choga talab oshib ketganligi uchun Rossiya orqali ko'proq choy keltirish taklif qilingan edi. K.Fozilbekov yana Nikolay I taxtga o'tirish munosabati bilan xon imperatorni tabriklash uchun maxsus elchilarni tayyorlayotganligi haqidagi xabarni ham bildiradi.

1828-yili Madalixon Sankt-Peterburgga elchilar hay'atini jo'natadi. Bu elchilar Rossiya poytaxtida yaxo'i qabul qilinadilar. Elchilar 8 kishidan iborat bo'lib, ular Aleksandrning vafoti munosabati bilan ta'ziya bildirish va Nikolay I ning taxtga chiqishini tabriklab, Madalixonning taxtga chiqqanligini bildirish bo'lgan. Elchilar xonning rus podshosi nomiga yozgan yorlig'i asosida har ikkala davlat o'rtasidagi savdo va diplomatik munosabatlarni rivojlantirish, Rossiya bilan xonlikning qozoq cho'llari bo'ylab chegaralarini aniqlash masalalari yuzasidan muzokaralar olib borib, qat'iy qarorga kelganliklarini bayon qiladilar.

1828-yilgi elchilikka Tursunhoji va Mirqurbonlar boshchilik qilgan bo‘lib, bu elchilik natijasida Rossiya va Qo‘qon o‘rtasidagi bidplomatik munosabatlar tiklanadi.

Chunki, XIX asrning 20-yillari ikkinchi yarmida Qo‘qon va Xitoy o‘rtasidagi munosabatlar buzilgan bo‘lib, Rossiyaning Xitoy bilan munosabatlari yaxshi edi. Agar Rossiya Qo‘qonga moddiy yordam beradigan bo‘lsa, Rossiya-Xitoy munosabatlari uzilib qolishi mumkin edi. Shuning uchun munosabatlar susayib, Qo‘qonga Rossiyada elchilar yuborilishi vaqtincha to‘xtatilgan edi.

1829-yili Madalixon yana bir elchilikni Rossiyaga jo‘natadi. Lekin elchilikka kimlar boshchilik qilgani haqidagi ma‘lumot saqlanib qolmagan. Elchilikka berilgan yorliqda ikkala davlat o‘rtasidagi savdo aloqalarini yanada rivojlantirishni ta‘kidlash bilan birgalikda, “har ikkala davlat fuqarolaridan ayrim shaxslar ba‘zi bir sabablarga ko‘ra, u yoki bu tomonga ko‘chib o‘tishni istasalar, bunga to‘sqinlik qilmaslik” masalasi haqida edi. Elchilar bilan birga Qo‘qonga xorunjiy Potanin ham kelgan. Xorunjiy Potaninning Qo‘qonga kelishi sababi, birinchidan elchilarni xonlikka beshikast qaytib kelishlarini ta‘minlash va shu bilan birgalikda xonlik haqidagi josuslik ma‘lumotlarini to‘plash edi.

1831-yili hoji Mirqurbon ismli kishi Madalixon tomonidan elchi sifatida Rossiyaga jo‘natiladi. Elchi bilan birgalikda, yorliq, sovg‘alar va ikkita fil jo‘natiladi. Lekin rus hukumati Rossiya-Xitoy munosabatlarini buzmaslik maqsadida karantin bahonasida qo‘qonlik elchilar orqali xonga keyinroq javob berishni aytib, Tobolskdan qaytarib yuboradi. Elchilarning qaytarib yuborilishi haqida tarixchilar turlicha fikr bildirganlar.

Aslida voqea shunday bo‘lgan edi: general-mayor Bronevskiy elchilarni aldab ularning maqsadini bilib oladi. Unga ko‘ra, Qo‘qon xoni elchilar orqali Xitoyga qarshi kurashda yordam sifatida bir nechta artilleriyani rus ofitserlari bilan birga so‘ragan edi. Xitoy bilan munosabatlarni buzmaslik maqsadida elchilar poytaxtga qo‘yilmaydi. Elchilar ikkita xitoylik asir ham keltirgan edilar. Rus hukumati poytaxtda vabo kasalligi tarqalganligini bahona qiladi va ikki xitoylik asirni olib qolib, elchilarni qaytarib yuborishga harakat qilinadi.

Lekin elchi vaboni tugashini ikki yil bo‘lsada kutib turishini, filni va ikki xitoylik asirni topshirmasligini, o‘z hukmdori buyrug‘ini bajarishi lozimligini ta‘kidlaydi. Xon yorlig‘ida Qo‘qon xonligi va Xitoy o‘rtasida nizo chiqib urushga tayyorgarlik ko‘rilayotganligi, Rossiyaning kuchli qo‘shni davlat ekanligi inobatga olinib, undan tegishli maslahatlar so‘ralgani bayon etilgan edi.

Elchilik natijasiz tugagan bo‘lsada, Rossiya uchun katta foyda keltirdi. Birinchidan, Xitoy hukumati elchilikning qabul qilinmaganligi uchun rus hukumatiga o‘z minnatdorchiligini bildirgan bo‘lsa, ikkinchidan Qo‘qon-Xitoy urushi rus savdogarlariga katta foyda keltirayotgan edi.

Sheralixon 1844-yil 3-iyulda Niyozmuhammad Ne‘mat boshliq diplomatik elchilarni Semipalatinskka jo‘natadi. Ularga 1841-1842-yillarda Muhammad Xalil boshchiligidagi diplomatik elchilar boshlagan ishni davom ettirishlari topshirilgan. Omsk general-gubernatori Gorchakov javob maktubida Qo‘qon xonining do‘stlikni mustahkamlashga intilishini yuqori baholab, to‘la qo‘llab-quvvatlashini bayon etgan.

Gorchakov Niyozmuhammadning 500 kumush rubliga teng sovg‘alarini qabul qilib, elchilarni Semipalatinsk orqali o‘z yurtlariga kuzatib qo‘ygan.

Qo‘qon xonligi 1847-yil mufti Abdulla mulla Ashur o‘g‘li boshchiligidagi elchilarini Rossiyaga jo‘natadi. Elchilikning asosiy maqsadi ikki davlat o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlash maqsadida savdo karvonlarini rivojlantirish istagini bildirganligi, savdo

karvonlari yo‘llaridagi xavfsizlik uchun birgalikda kurash zarurligini, har ikki tomondan chegaralarni buzilishiga yo‘l qo‘ymaslikni, shu bilan birgalikda, rus hukumatidan Sirdaryoning quyi oqimida qal’alar qurilishini to‘xtatishni iltimos qilish edi. Elchilikka javoban Musulmonqul nomiga hamda Xudoyorxon nomiga yozilgan yorliqlarida rus hukumati Sirdaryoning quyi oqimida Raim qo‘rg‘oni Qo‘qon xonligiga qarshi yomon niyat bilan emas, balki Rossiya fuqaroligidagi qozoqlarni himoya qilish, Sirdaryoning quyi oqimlarida tinchlikni saqlash, savdo karvonlarini qaroqchilardan himoya qilish maqsadida qurilganligini bayon etgan.

Xudoyorxon 1853-yili o‘z elchisi Yuldashboy Mirzajonovni elchi sifatida Rossiyaga jo‘natadi. Elchi iyul oyida Omskka yetib keladi. Elchilikning maqsadi ikki o‘rtadagi do‘stlik aloqalarini mustahkamlash, xonlikda zulm o‘tkazayotgan qipchoqlarni jazolanganligini va tinchlik o‘rnatilganligi haqidagi ma‘lumotni yetkazishdan iborat edi. Shu bilan birga elchilik Sirdaryo bo‘yidagi xonlik qal’alariga rus askarlari hujum qilayotganligi haqida arz qilish ham topshirilgan edi.

Rossiya hukumatiga yoqimsiz taklif bilan kelganligi uchun elchilik yorlig‘i qabul qilinadi, lekin elchilar sovg‘alari bilan ortiga qaytarib yuboriladi.

Ma‘lumki, 1853-yili ruslar Oqmasjidni bosib oladilar. Shundan so‘ng Rossiya hukumati Qo‘qon xonligiga nisbatan ochiqdan-ochiq mustamlakachilik siyosatini olib boradi.

1858-yili Qo‘qon xoni Xivaga elchi yuborib, ruslarning bosqinchilik harakatiga qarshi yordam so‘raydi. Lekin Xiva hukumati bunga rad javobini beradi.

Rus hukumati Qo‘qon bilan do‘stlik aloqalarini so‘zda tan olsa-da, amalda qirg‘iz, qozoq va o‘zbeklar o‘rtasidagi do‘stlik munosabatlarini o‘rnatilishiga qarshi edi. Ularning asl maqsadini Sibir korpusining general-infanteriyi G.Gosfordning 1856-yil 12-oktyabrda yoshgan maktubidan bilib olishimiz mumkin: “... birinchi navbatda Oloyorti o‘lkasidagi qozoqlarni bo‘ysundirib, yovvoyi, toshbag‘ir qirg‘izlarni o‘zimizga bog‘lab, ularning qo‘qonliklarga qarshiligini qo‘llab-quvvatlashimiz kerak”.

1858-yili Qo‘qon xonligida bir necha yirik qo‘zg‘olonlar bo‘lib o‘tadi. Ayniqsa, qozoqlar qo‘zg‘oloni Qo‘qon-Rossiya munosabatlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Chunki, qozoqlar Qo‘qon xonidan norozi bo‘lib, rus hukumati tasarrufiga o‘tib ketmoqchi bo‘ladilar, bir ko‘pchiligi o‘tib ketadilar ham. Shu munosabat bilan chegaradosh rus ma‘muriyati nomiga Toshkent va Turkiston hokimlari xatlar bilan murojaatlar qilishgan. Bu xatlarda rus ma‘muriyatidan Qo‘qon xoni ichki ishlariga aralashmaslikni, qozoqlarning ruslar tasarrufidagi yerlarga o‘tib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik va o‘tib ketganlarini Qo‘qon xonligiga qaytarish so‘ralgan edi. Ammo rus hukumati turli bahonalar bilan talablarni bajarmasdi.

1859-yili Nikolay I farmoyishiga ko‘ra, Chu daryosining yuqori qismidagi yerlarni bosib olish va bunga oldindan tayyorgarlik ko‘rish boshlanadi. Nikolay I, harbiy ishlar vaziri Dolgorukov, graf Perovskiy, general-infentariy G.Gosfordlar ishtirok etgan maxfiy yig‘ilishda To‘qmoq, Pishpak, Avliyoota, Suzoq, Turkiston va unga qarashli bo‘lgan atrofdagi yerlarni qo‘shib Sirdaryogacha bo‘lgan hududlarni bosib olishga qaror qilinadi. Katta obro‘ga ega, xalqning ishonchini qozongan Mallaxonning taxtga tepasiga kelganidan xavfsiragan rus hukumati yuqoridagi bosqinni “uzog‘i bilan bir yil ichida 1860-yildan 1861-yilgacha bajarilishi shart” deb ko‘rsatilgan edi.

Mallaxon davrida ruslarning Qo‘qon xonligiga qarashli yerlarni bosib olish siyosati olib borilgan bo‘lsa-da, qo‘qonliklar rus hukumati bilan diplomatik aloqalarni tiklashga harakat qilganligini ko‘rish mumkin.

1861-yil dekabr oyining oxirida Mallaxon Xiva xoniga bir elchilik jo‘natadi. Elchilikning asosiy sababi ruslarga qarshi birgalikda harakat qilish edi. Faqat Xiva xoni mamlakatdagi tartibsizliklar munosabati bilan Mallaxonni qo‘llashdan bosh tortadi.

1862-yil o‘rtalarida Xivaga yana Qo‘qondan podsho Rossiyasiga qarshi ittifoq tuzish taklifi bilan elchilik keladi. Xiva xoni qo‘qonliklarga nafaqat yordam berishdan bosh tortdi, umuman qo‘qonliklarning Rossiyaga qarshi kurashmaslikni maslahat beradi.

Qo‘qon xonligi va Sharqiy Turkiston o‘rtasidagi munosabatlari bevosita qo‘qonliklar va xitoyliklar o‘rtasidagi munosabatga bog‘liq edi.

XVIII asr o‘rtalarida Xitoy qo‘shinlari Sharqiy Turkistonni bosib oladilar. Qoshg‘ardan quvg‘in qilingan xojalar yurtiga qaytmasliklari uchun Qo‘qon saroyida maxsus kuzatuv ostida yashashlari kerak edi. Buning evaziga Xitoy har yili Qo‘qon xoniga 1000 yombi kumush to‘lash majburiyatini olgan edi. Shunga qaramasdan, xojalar xondan yashirincha yoki kelishilgan holda Qoshg‘arga hokimiyatlarini qayta tiklash uchun qaytishga muvaffaq bo‘ladi. Bizga ma‘lumki, bu kurashning natijasi Qo‘qon va Xitoy o‘rtasida 1832-yilgi Pekin shartnomasining tuzilishi bilan tugallangan. Madalixonning elchisi Olimbek (ba‘zi manbalarda A‘lam pochcha deya eslatiladi – *ta’kid bizniki muallif*) bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq, Qo‘qon xoni Oqsuv, Uch-Turfan, Qoshg‘ar, Yangi-Hisor, Yorkent va Xo‘tan shaharlarida musulmon savdogarlaridan boj olish huquqini oladi.

Ushbu shartnoma asosan Sharqiy Turkiston orqali amalga oshiriladigan savdo ishlarini ancha mo‘tadillashtirgan.

XIX asrning birinchi yarmida qo‘qonliklar va qoshg‘arliklar o‘rtasidagi savdo ishlari ancha jonlangan. Shu bilan birgalikda Qoshg‘ar masalasida Qo‘qon-Xitoy o‘rtasidagi munosabat tobora yomonlashib borayotgan edi. Sharqiy Turkiston aholisi esa xitoyliklar boshqaruvidan ozod bo‘lishga va mustaqil davlat bo‘lishga harakat qilar edilar.

Qo‘qon xonlari Usmoniy sultonlari bilan ham diplomatik munosabatlar o‘rnatishga harakat qilar edilar. 1820-yili Umarxon Istanbulga Mir Qurbon boshchiligida diplomatik missiya jo‘natgan. Elchilik ha‘yatining javoban sulton ham o‘z elchilarini Qo‘qonga jo‘natadi. Bu elchilikdan so‘ng ham bir necha marotaba o‘zaro elchilik aloqalari davom etgan. O‘zaro elchilikda tomonlarni qiziqtirgan bir qancha masalalar muhokama qilingan. Muzokara qilingan masalalar ichida eng ahamiyatlisi Usmoniyler hududi orqali Makkaga hajga boradigan hojilarning xavfsizligi masalasi edi.

Rossiyaning O‘rta Osiyoga qiziqishi Angliya bilan munosabatlarini keskinlashuviga sabab bo‘ldi. Inglizlar O‘rta Osiyo bozoridan rus savdogarlarini siqib chiqarish va ularni yanada janubga siljishlariga qarshi chiqish edi. Angliyaliklar qanday qilib bo‘lmasin ruslarni Afg‘onistonga kirishlarini hohlamas edilar. Angliya hukumati bu davlatlarni bosib olishga harakat qilar, ayniqsa ichki kurashlar natijasida zaiflashib qolgan Qo‘qon xonligini bosib olishga intilishi aniq edi.

Qobul, Qandahor va Peshavor kabi shaharlar qadimdan Sharqning muhim savdo punktlari edi. Hind mahsulotlari bu shaharlar orqali Eron va O‘rta Osiyoga, bu yerdan esa G‘arbga jo‘natilar edi. katta miqdordagi rus tovarlari Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligi savdogarlari orqali Afg‘onistonga keltirilar edi.

Qo‘qon xonligi podsho Rossiyasi bilan munosabatlarni yaxshilashdan doimo manfaatdor bo‘lgan.

XIX asrning birinchi yarmida o‘zaro iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish bilan birgalikda ushbu hududlarni bosib olish harakatlarini ham boshladi. Buning oldini olish, Afg‘oniston va Hindistonda erkin harakat qilish, O‘rta Osiyo bozorlarini qo‘ldan chiqarmaslik uchun

Angliya hukumati Rossiyaga qarshi O'rta Osiyo davlatlarini birlashtirish harakatini boshladi.

Angliya hukumati har qanday yo'l bilan bo'lsada rus harbiylarining O'rta Osiyo ichki hududlariga kirishlariga xalaqit berishga harakat qilgan. Shuning uchun ular O'rta Osiyo hukmdorlariga mudofaalarini mustahkamlashda yordam berganlar. 1855-yil Angliya va Qo'qon o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq, hind sipohiylarining Qo'qon xoni askarlari safida xizmat qilishlariga ruxsat beradi.

G'arb davlatlari, ayniqsa Angliya Rossiya hukumatining Qo'qon xonligiga qarshi harakatlaridan norozi bo'lgan. G'arb diplomatlarini tinchlantirish uchun rus hukumati vaqtincha bo'lsa-da, O'rta Osiyoga qarshi harbiy harakatlarini to'xtatib turishga majbur bo'lgan.

Qo'qon va Hindiston o'rtasidagi diplomatik aloqalar asosan XIX asrning birinchi yarmidan boshlangan. Ushbu diplomatik aloqalarning boshlanishi naqshbandiya-mujaddidiya tariqatining vakillaridan biri Miyon Xalil Sohibzodaning nomi bilan bog'liq. Diplomatik aloqalar taxminan 1825-yili Muhammad Alixon tashabbusi bilan boshlangan. Shu yili xon Hindistonga Miyon Xalil Sohibzodaning Qo'qonga kelib yashashligi uchun elchi jo'natgan. Sohibzoda esa 1826-yili Qo'qonga kelgan.

Qo'qondan Hindistonga dastlabki elchilik 1835-1836-yillari jo'yboriy shayxlaridan Muhammad Zohid xo'ja jo'natiladi. Ushbu elchilikning asosiy maqsadi harbiy tizimni mustahkamlash uchun Hindistondan yevropacha ta'lim ko'rgan mutaxassislarni so'rash edi. Ushbu harbiy mutaxassislar 1836-yili Qo'qonga kelib ish boshlaganlar.

Turk sultoni Mahmud II Qo'qon xonligi elchilariga Hindiston orqali Angliya bilan munosabatlarni yaxshilashni taklif etgan.

1854-yili Hindistonga Qo'qon xoni Xudoyorxon tomonidan Shahzoda Muhammad Sulton boshchiligida navbatdagi diplomatik missiya yuborilgan. Missiyaning asosiy maqsadi xonlikni harbiy qudratini oshirish uchun Hindistondan ximik, metall bilan ishlaydigan mutaxassis hamda harbiy injenerlar yuborilishi so'ralgan.

Hindistonga navbatdagi elchilik 1864-yili jo'natilgan. Bu yili Qo'qondan ikki shaharga, ya'ni, Toshxo'ja sudur Kashmirga, Mulla Hojibek esa Lohurga jo'natilgan. Missiyalarning asosiy maqsadi Rossiya imperiyasining bosqinchilik yurishlariga qarshi harakat olib borishga qaratilgan edi. mazkur diplomatik missiyalarga javoban 1865-yilda G'ulom Rabboniy ismli elchi Peshavordan Qo'qonga yuboriladi. Bu davrda Qo'qon xonligidagi murakkab vaziyat tufayli elchi bir qancha muddat Buxoroda yashab turishga majbur bo'ladi. 1867-yili esa Qo'qonga kelgan.

Ma'lumotlardan ko'rinadiki, ikki davlat o'rtasidagi elchilik aloqalariga diniy ulamolar asosiy rol o'ynaganlar. O'zaro elchiliklardan asosan ikki maqsad ko'zlangan: 1. O'rta Osiyoda naqshbandiya-mujaddidin tariqatining yoyilishi; 2. Rossiya imperiyasidan himoyalaniq maqsadida harbiy yordam so'rash.

Tayanch iboralar

Savdo aloqalari, tovar-pul munosabatlari, savdo vositalari, savdo mahkamalari, bojxona, diplomatik aloqa, elchi, elchilik hayati.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Qo'qon xonligining Hindiston bilan savdo aloqalari haqida nimalarni bilasiz?
2. Qachondan Qo'qon-Hindiston savdo munosabatlari yangicha ahamiyat kasb eta boshladi?
3. Qo'qon xonligining Rossiya bilan savdo aloqalari qachondan rivojlana boshlagan?

4. Qo‘qon xonligining Rossiya bilan savdo aloqalaridagi asosiy vositalarini aniqlang.
5. Qo‘qon xonligining Rossiya bilan diplomatik aloqalari qachondan rivojlana boshlagan?
6. Qo‘qon xonligining Rossiya bilan diplomatik aloqalari qachongacha do‘stona davom etgan?
7. Filipp Nazarov elchiligi haqida nimalarni bilasiz?
8. Qo‘qon xonligining Rossiya bilan diplomatik aloqalari Madalixon davrida qanday bo‘lgan?
9. Xonlikning Xitoy bilan diplomatik aloqalari qay darajada bo‘lgan?
10. Xonlikning O‘rta Osiyo xonliklari bilan diplomatik aloqalari qay darajada bo‘lgan?

9-mavzu: Qo‘qon xonligida madaniy hayot

Reja

1. Qo‘qon xonligida madaniy hayot taraqqiysi

2. Qo‘qon xonligida maorif tizimi

1. Qo‘qon xonligida madaniy hayot taraqqiysi

Qo‘qon xonligida o‘ziga xos adabiy muhit vujudga kelganligini o‘sha davrda yaratilgan ko‘pgina asarlardan bilib olishimiz mumkin. Xonlik mavjud bo‘lga davrda uning hududida qator muarrixlar, shoirlar va boshqa ijodkorlar yashagan va o‘z faoliyatini olib borgan. Qo‘qon shahri xonlik poytaxti bo‘lish bilan birga madaniy markaz ham hisoblangan. Bu yerda bir qancha iste‘dodli tarixnavis, shoir va shoirlar yashab, ijod qilganlar. Ularning aksariyati qo‘qonliklar edi. Bular o‘zlariga xos adabiy muhit yaratgan. Xonlikda yashagan ijodkorlarni asosan ikki guruhga bo‘lish mumkin. Birinchisi saroy shoirlari bo‘lib, ular xon va uning atrofida qilgan maqtab asarlar yaratganlar. Ikkinchi guruhga mansub ijodkorlar esa barchani xalqparvarlikka chaqirib, oddiy aholining turmushi og‘irligini, o‘zaro urushlarni, xudbinlikni, yolg‘on va yomonlikni qoralab asarlar yozganlar.

Ammo shuni e‘tiborga olish kerakki, ikkala oqimda ham qobiliyatli shoir va shoirlar ko‘p edi. Qo‘qon xonligida yashagan va ijod qilgan shoir hamda shoiralardan Akmal, Amiriy (Amir Umarxon), Boqixonto‘ra, Gulxaniy, Yoriy Ho‘qandiy, Zavqiy, Zoriy, Maxjub, Maxmur, Muqimiy, Muxtazib, Mushrif, Muhayir, Muhammad Yunus Toib, Muhiy, Muhsiniy, Nasimiy, Nizomiy, Ho‘qandiy, Nodir, Nozil, Pisandiy, Rojij, Sadoiy, Umidiy, Furqat, Shuhrat, Anbar otin, Bahri otin, Dilshod, Zebuniso, Zinnat, Karomatoy, Nodira, Saidabonu, To‘ti qiz, Uvaysiy, Fazilatbonu, Fidoiya, Hafiza otin, Xayriniso kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

Qo‘qon xonligida ijod qilgan shoirlardan biri Akmal Domullo Shermuhammaddir.. U o‘z davrining ilg‘or fikrli kishisi bo‘lgan. Fazliy Namangoniy “Majmuat ush-shuaro” tazkirasida Akmal she‘riyatiga yuqori baho beradi. Vozex esa Akmalning adabiyot ahllari orasida ancha obro‘ga ega bo‘lganligini yozadi. Akmal o‘zbek tilida yozgan she‘rlarini bir devonga, tojik tilida yozgan she‘rlarini boshqa bir devonga to‘plagan. U o‘z asarlarida xalqning og‘ir hayotini achinish bilan yozgan, qoloq turmush tarzini tanqid qilgan hamda xalqni mahrifatga undagan.

Qo‘qon ijodkorlari ichida eng ko‘zga ko‘ringanlaridan biri Amiriy (1787-1822 yy) hisoblanadi. Amiriy tahaddusi bilan ijod qilgan Umarxon o‘zini falsafiy va lirik g‘azallari bilan boshqalardaya ajralib turgan. Uning g‘azallariga zamondoshlari juda yukori baho berganlar. Amiriy o‘zbek va fors (tojik) tillarida ijod qilgan. Umarxon davrida Qo‘qon adabiy muhiti shakllandi. Arab va fors tillardagi kitoblar o‘zbek tiliga tarjima qilindi, Qur‘on, diniy va mumtoz asarlar iste‘dodli xattotlar tomonidan bezatilib ko‘chiriladi.

Amiriyning she‘rlari devonga to‘plangan, ayrim asarlari esa ko‘plab bayozlarga kirgan. Umarxonning topshirig‘i bilan Fazliy va Mushrif tomonidan “Majmuat ush-shuaro” to‘plami tuziladi, bu to‘plam Toshkentda 1902-yilda bosilgan.

Gulxaniy Muhammad Sharifning hayoti va ijodi haqida Fazliy Namangoniyning “Majmuat ush-shuaro”, Qori Rahmatullo Vozex Buxoriyning “Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-ashob”, Avaz Muhammad Attorning “Tarixi jahonnomoyi” asarida, muallifi noma‘lum bo‘lgan “Tarixi Xo‘qand” kabi asarlarda ma‘lumot berilgan.

Gulxaniy Namangan va Qo‘qon shaharlarida yashab, go‘laxlik qilgan, she‘r va masallar yozgan. U Qo‘qon xoni Olimxon (1800-1810) saroyida navkar bo‘lgan va urushlarda botirlik namunasini ko‘rsatgan. Uning qahramonliklari xon tomonidan taqdirlanmaganligi uchun qashshoqlikda kun kechirgan. U o‘zi mustaqil mutoala yo‘li bilan mumtoz asarlarni o‘rganadi. Umarxon davrida saroy shoirlari davrasiga jalb qilinadi. Garchi saroyda xizmat qilsada, u mehnatkash omma ruhini ifodalovchi she‘rlar yozgan. O‘zbek va tojik tillarida Gulxaniy, Jur‘at taxalluslari bilan ijod qilgan. Uning bizgacha bir necha g‘azal, hajviyalari hamda “Zarbulmasal” (“Yapaloqqush hikoyasi”) nasriy asari yetib kelgan.

Gulxaniy o‘zining zo‘r iste‘dodi, tajribasi, turmushga haqqoniy qaray bilishi tufayli xalq yozuvchisi sifatida ko‘ringan. Uning adabiy ijodiyoti xon va feodallarni maqtagan saroy shoirlarining serhasham, jimjimador, “usti yaltiroq, ichi qaltiroq” poeziyasidan farq qilgan. Shuning uchun uni saroy shoirlari yoqtirmaganlar, she‘rlarini kamsitganlar. Ammo Gulxaniyning Umarxonga payrov qilib yozgan g‘azallari saroy ahliga mahqul bo‘lsa-da, uning qashshoqlikni, real hayotni, ezuvchi guruhlarining fosh qilinishi yoqmagan. Gulxaniy hayotni sevgan, o‘zini boshdalardan past bilmagan, insoniy fazilatini yerga urmagan, hukmdorlarga xushomadgo‘ylik qilmagan. Uning yirik hajmli mashhur asari “Zarbulmasal”dir. Unda xalq maqollari, qisman shoirning o‘zi yaratgan maqolasimon hikmatli so‘zlar, qisman masal va rivoyatlar to‘plangan. Ular tematik va epik jihatdan bir-biriga bog‘lanib, yagona bir syujetni tashkil etgan.

XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshidagi o‘zbek she‘riyatining ko‘zga ko‘ringan namoyandalaridan qo‘qonlik ajoyib shoir G‘oziyni ko‘rsatib o‘tish kerak. Juda ko‘p g‘azallar yozgan bu shoir o‘zining asarlarida feodallarni fosh qilib tashladi, insonni va insonning qadr-qimmatini yuksak darajada baholadi.

Maxmur - shoir Shermuhammad Akmalning o‘g‘li. U (XVIII asr oxiri – 1844) Qo‘qondagi “Madrasai Mir”da tahsil ko‘rgan. Umarxon qo‘shinida sipohiylik qilgan. Maxmur yoshligidan Sa‘diy, Hofiz, Jomiy, Navoiy merosini chuqur o‘rgangan. Iqtisodiy muhtojlikda kun kechirgan Maxmur oilasining ochligi, hatto bolalarining ba‘zan yeyishga noni yo‘qligini alam bilan yozadi. Maxmur o‘z asarlarida xalqning g‘oyatda ayanchli turmushini, mamlakatdagi vayronagarchilikni kuylaydi. Shoir zamonani qoralab, zulmga nisbatan keskin norozilik bildirsa ham, lekin undan qutulish yo‘lini topolmaydi. “Hapalak”, “Tahrifi viloyati Kurama” kabi she‘rlarida shu nomdagi qishloqning vayrona manzarasi, undagi aholining ayanchli turmushi tasvirlangan. Maxmurning hajviy she‘rlar devoni saqlangan, unda 69 asar to‘plangan, lirik asarlari esa bayozlarda uchraydi.

Talantli demokrat shoir Maxmur o‘zining hajviy asarlarida feodal tuzumining adolatsizligiga qarshi xalq ommasining noroziligini ifodaladi, amaldorlarning yomonliklarini va ta‘magirliklarini fosh qilib tashladi. Maxmur asarlarida shoirning mehnatkash xalqqa bo‘lgan chuqur muhabbati, mazlumlarga mehribonligi va xayrixohligi yaqqol ifodalangan.

XVII asr oxiri — XIX asr boshida Qo‘qon xonligida Nizomiy Ho‘qandiy, (uning “Majmu-at ul-maqosid” (“Maqsadlar majmuayui”) nomli kitob, 300 ga yaqin gazal va muxammaslardan iborat she‘rlari yetib kelgan), Nodir (Uning Nodiraga bag‘ishlaigan, 7 mustaqil she‘riy hikoadan tashkil topgan “Haft gulshan” dostoni yetib kelgan), Nozil Avaz Muhammad (1788-1876, Uning asarlarida zamon illatlari, hukmdorlardan shikoyat ifodalangan), Pisandiy Avazmuhammad Yormuhammad o‘g‘li (1816-1918 yillarda yashagan. Uning “Muhamma-si Pisandiy”, “Muhit haqida hajv”, “Sahdixon qozi hajvi” va boshqa asarlari ma‘lum.), Rojiiy Sulaymonqul usta Suyarqul o‘g‘li (1871-1924 yillar.

Shoirning insoniylik va didaktik qarashlari, davrning ijtimoiy masalalariga munosabati uning 880 misradan iborat she'r, 400 dan ortiq maqol va hikmatli so'zlarini o'z ichiga olgai "Zarb ul-masal" asarida ifodasini topgan. Rojiiy xattot sifatida Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" va "Hamsat ul-mutahayyirin" asarlarini ko'chirgan) kabi qator shoirlar ham yashab ijod qilganlarki, ularning adabiy mehrosi hozirgi kunda ham o'z qadrini yo'qotgani yo'q.

Nodira Qo'qon adabiy muhitining yirik nomyondalaridan biri. Nodira faqat o'zbek tilidagina emas, balki fors-tojik tilida, ham "Maknuna", "Komila" taxallusida she'rlar, gazallar bitgan.

1822-yilda Umarxon to'satdan vafot etgach, mamlakatni boshqarish tashvishlari Nodirabegimga qoladi. Chunki o'g'li Muhammad Alixon yosh edi. Nodira mamlakat xo'jaligini yaxshilash, madaniy hayotni jonlashtirish bo'yicha muhim tadbirlarni amalga oshirdi. Davlat poytaxn Qo'qonda madra salar qurdirdi, karvonsaroylar soldirdi, rastalar, yo'llar, ko'priklar barpo ettirdi. Bu xayrli ishlar xalq o'rtasida Nodirabegimning obro'e'tiborini yanada oshirdi.

Nodirabegimning eng oliyjanob va e'tiborga loyiq tad birlaridan biri shu bo'ldiki, u o'z atrofiga zamonasining qobiliyatli va ijod egalari bo'lmish shoirlarini to'pladi va ularga homiylik qildi. Uvaysiy, Maxzuna, Mushtariy va boshqalar uning eng yaqin maslakdoshi va maslahatgo'ylari edilar,

Nodira o'zi yashagan feodal tuzumining qattiq la'natlaydi va bu jamiyatdan o'zbek xotin-qizlarning og'ir qimmatli hayotiga dardkash bir siymo sifatida talqin qiladi. O'zi saroyda yashasa ham o'zini baxtiyor hisoblamadi. Nodira insoniylikni, ezgulikni ulug'laydi, hayotbaxsh orzu-umidlarni tarannum etdi.

1842-yilda Nodira hayotida katta fojea yuz berdi. Buxoro amiri Nasrulloxon Qo'qonni bosib oldi va Nodirabegimni, shariatni buzganlikda ayblab, uni qatl qildi. Nodira feodal jaholatning qurboni bo'ldi. Bizning zamonda Nodirabegim nomida bir qaicha maktab va ko'chalar mavjud. Asarlari boshqa tillarga tarjima etilib, chop qilinmoqda. Turob To'la "Quvvat, qahqaha" p'esasini, K.Yormatov "Odamlar orasida" (Nodirabegim) filmini yaratdi.

Xulosa tarzida shuni aytish mumkinki, Qo'qon xonligida Nodirabegimdan tashqari yana Anbar otin, Dilshodi Barno, Zebuniso, Zinnat, Mohzoda Begim, Mahzuna, Mushtariy, Nozuk Xonim, Uvaysiy kabi progressiv ruhda ijod qilgan shoirlar ham yashab o'tgan. Ular o'z asarlarida sof muhabbatni, sadoqat, mehr-shafqat, muruvvat, insoniylik, mazlumlar xayrixohlik kabi ilg'or g'oyalarni targ'ib qildilar, insoniy qadr-qimmatni ulug'ladilar. Yuqoridagi ijodkorlar haqida Dilshodning quyidagi gaplarini keltirib o'tish maqsadga muvofiq bo'lar edi: "Qo'qon shoirlar shahridir. ... Bu katta shaharda 440 mahalla bor deyidilar va har birida shoirlar bor. ... Xo'ja Kalon To'ra mahallasida mendan tashqari yana Mahzani, Turobi va Bahori taxallusli shoirlar va Fidoiy ismli shoira yashardilar".

Qo'qon adabiy muhitida maqtasa arzigulik ijodkorlarni yetishib chiqqan. Ularning adabiy merosi hozirgi kun yoshlari uchun ulkan ma'naviyat gulshani, she'riyat bo'stoni vazifasini o'tasishi shubhasizdir.

Xonlikdagi hamma maktablar diniy maktablar edi. Tabiiy, gumanitar fanlar unchalik o'rgatilmay edi. Lekin shunday bo'lsa-da, xonlikda ta'lim-tarbiya ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Madrsalarda diniy ilmlar, grammatika, mantiq, aljabr, xandasa hamda hisob amallari o'rgatilgan. Bu davrda o'z davrning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayoti tasvirlangan ko'plab asarlar yaratilgan.

2. Qo‘qon xonligida maorif tizimi

XIX asr boshlarida Qo‘qon xonligida boshlangan ilmiy, madaniy-adabiy muhitning shakllanishi va rivojlanishida bevosita xonlikdagi maktab va madrasalarning o‘rni ahamiyatga molikdir. Ular xalqni ma‘rifatli qilish, an‘anaviy ta‘limni va madaniy-ma‘naviy hayotni yuksaltirishda katta rol o‘ynagan. “Turkiston general-gubernatorligi arxiv ma‘lumotlar va imperiya ma‘murlarining fikricha, XIX asrda mahalliy maktablar ikki xil bo‘lgan. Birinchisi quyi maktablar bo‘lib, masjidlarda faoliyat yuritgan. Ikkinchisi yuqori maktablar, faqat shaharlarda, katta qishloqlarda ish olib borgan“. Aksariyat tadqiqotchilar maktablarning favoliyat xarakteriga ko‘ra jamoat, xususiy, shahar va qishloq maktablariga bo‘lganlar. Xususan maktablar odatda o‘ziga to‘q oilalar tomonidan o‘z farzandlari ta‘limi uchun tashkil etilgan.

Xonlik poytaxtida maktablar boshqa shaharlarga qaraganda ko‘p bo‘lgan. Qo‘qon shahrida 51 ta madrasa, 260 ta maktab faoliyat olib borgan. Ularning aksariyati o‘z faoliyatini 1876-yilga qadar boshlagan. Xuddi shuningdek, Andijno shahri va uezdida 28 ta madrasa va 169 ta maktab mavjud bo‘lgan. Ro‘yxatga olingan 169 ta maktabdan 117 tasi xonlik davrida, ya‘ni 1801-1876-yillarda ochilgan bo‘lsa, qolgan 52 tasi XIX asrdan ilgari va Qo‘qon xonligi Rossiya tomonidan bosib olingandan keyingi yillariga oid hisoblanadi.

Xonlikda maktablar o‘quvchilar soniga ko‘ra uch turkumga bo‘lingan. Birinchisi 10 tagacha, ikkinchisi 10-15 tagacha, uchinchisi esa 15-25 tagacha o‘quvchi ta‘lim oladigan maktablarga bo‘lingan. Maktablarda yosh, balog‘atga yetmagan o‘g‘il bolalar va qizlarni domulla yoki otinoyi istisno tarzida birga o‘qitgan. Odatda otinoyilar qizlarni o‘z xonadonlarida o‘qitgan. Bunday qizlar maktabi imperiya mustamlakachiligi boshqaruvi davrida ham mavjud bo‘lgan. Lekin ularni hisobga olish qiyin bo‘lgan va shu sababli bunday maktablar rasmiy hisobotlarga kirmay qolgan.

Maktab, qorixonalarining vaqfnomalari madrasalarnikiga nisbatan kam bo‘lgan. Qo‘qon xonligi Qo‘qon bekligidagi maktablarda o‘quv, ta‘lim-tarbiya ishlarini yo‘lga qo‘yishda vaqf mulki va daromadining o‘rni katta bo‘lgan. Vaqf mulki maktab daromadining moddiy bazasi hisoblangan. Vaqf mulki bor maktablarda o‘qituvchi maoshi, maktab binosini ta‘mirlash ishlar vaqf hisobidan amalga oshirilgan.

Maktablarda o‘qituvchiga bolalarni o‘qitgani uchun haq to‘lash tartibi har xil bo‘lgan. O‘qituvchiga haq to‘lashning qat‘iy belgilangan me‘yori bo‘lmagan. Maktabga ajratilgan mulk egasi – voqif ham ko‘p hollarda o‘zi mutavvali bo‘lib, maktablar faoliyatini nazorat qilish vakolatini olishga harakat qilgan. Masalan, 1290-yil jumodil avval oyida (1873-yil iyun-iyul) Andijondagi Devonaboy madrasasi maktabiga Dalvarzin mavzeidagi 1,5 tanob yer va shu nomdagi ariqda joylashgan objuvozni vaqf qilgan Obilboy Murod so‘fi o‘g‘li maktabdor hech bir darsni qoldirmasagina o‘z ulushini olishini shart qilib qo‘ygan.

Madrasa va masjidlarda asosan diniy ilmga e‘tibor berilgan bo‘lib, dunyoviy fanlar qisman o‘qitilar edi. Butun musulmon Sharqidagidek madrasalar oliy va o‘rta maxsus ta‘lim beruvchi maskan, maktablar esa faqat o‘rta maxsus bilim berish o‘chog‘i hisoblangan. Maktablardagi o‘qish dasturida yozuv bo‘yicha savod chiqarish hamda islom ruhida dastlabki bilimlar berilardi.

Madrasalardagi o‘qish asosan diniy yo‘nalishda bo‘lishi bilan birga, unda arab grammatikasi, metafizika, fiqh, fizika, logika, ritorika (notiqlik), arifmetikaning to‘rt usuli, algebra va geometriyadan boshlang‘ich bilimlar berilgan.

Madrasalardagi o‘qish asosan diniy yo‘nalishda bo‘lishi bilan birga, unda arab grammatikasi, metafizika, fiqh, fizika, logika, ritorika (notiqlik), arifmetikaning to‘rt usuli, algebra va geometriyadan boshlang‘ich bilimlar berilgan. Madrasalar faoliyati va o‘qish uchun mablag‘ vaqf yerlaridan olingan daromadlar hisobidan bo‘lgan. Madrasani bitirgan toliblar qozilik vazifasi, qoziga yordamchi, masjidga imom, bir qismi esa mudarrislik (o‘qituvchilik) qilishgan.

Qo‘qon shahrida bir necha o‘quv muassasalari: madrasalar, maktablar, daloilxonalar va qorixonalar mavjud edi. Maktablar machitlar qoshida va xususiy uylarda tashkil etilgan. Xonlik tugatilishi arafasida 261 ta musulmon masjidlari, ular qoshida 149 ta maktabxona mavjud bo‘lgan. Xonlar o‘rdasida xonzoda va zodagonlarning bolalarini o‘qitish uchun maxsus maktablar, bundan tashqari o‘ziga to‘q oilalar uchun oddiy maktablarga qaraganda sharoiti yaxshi bo‘lgan maktablar ham bor edi. 12 ta xususiy uylarda tashkil etilgan maktablardan 4 tasi Sulton Murodxonga qarashli bo‘lgan.

Qo‘qon xonligida ta‘lim tizimi oilalarda boshlanib, keyinchalik maktab va madrasalarda davom etgan. Bolalar bu maskanlardan tashqari, qorixonalar, xonaqoh, tariqatlar pirlari huzurlarida ham o‘qib, bilim olganlar. Ota-onalar bolalari 6 yoshga yetgach, ba’zida esa undan ham yosh maktabga berishgan. Maktablarda yosh bo‘yicha kurslar kam bo‘lgan. Maktablar aksariyat hollarda mahalla masjidlari qoshida tashkil qilinib, o‘qitish uslubi eskicha tartibda edi. Maktablarda o‘qitish o‘ziga to‘q oilalar farzandlari uchun yakka holda bo‘lib, bola iqtidoriga qarab, sinfdan-sinfga ko‘chirilgan. Yilning istalgan paytida maktabga berish mumkin bo‘lgan. Maktablarda sinfdan sinfga ko‘chirish o‘quvchining iqtidoriga va o‘qituvchining mahoratiga, ya’ni qanday dars berishiga qarab ham amalga oshirilgan. Ba’zida bir kursdan ikkinchisiga o‘tish uchun 3-5 yil vaqt kerak bo‘lgan.

Maktablarda bir yilgacha harflar o‘rgatilgan, qachonki bolalar to‘liq o‘qiydigan bo‘lgach, so‘ngra yozish o‘rgatilgan. Maktablarda ko‘rgazmali qurollar bo‘lmagan. Asosan arab va fors tillaridagi kitoblardan jumladan, Qur‘on kitobidan parchalar yod olingan. O‘z ona tilida darsliklar kamligi sababli yoki sharoiti og‘ir bo‘lgan o‘quvchilarning maktabdan ketib qolish hollari ham tez-tez uchrab turgan.

Qizlar asosan uylarda, ota-onalari huzurida yoki qizlarning maktabi hisoblangan, otinoyilarning maktablarida tahsil olganlar.

Umarxon taxtga o‘tirgandan so‘ng ayollar huquqlari ma’lum ma’noda himoya qilina boshladi. Bunda Umarxonning rafiqasi, mashhur shoira Nodirabegimning xizmatlari e’tiborlidir. U ayollarning o‘qish yozishni o‘rganishlari uchun madrasalarda dars tashkil etib, otinoyilarning saboq berishini yo‘lga qo‘ygan. Bu xayrli ishga yana bir mashhur shoira Jahon otin Uvaysiy ham o‘zining beqiyos hissasini qo‘shgan.

Turkiston o‘lkasida maktabxonalar bilan birga yana boshqa musulmon diniy maktablari – qorixona va daloilxonalar ham mavjud bo‘lgan.

Qorixonalar masjid qoshidagi maktablar bo‘lib, bolalar u yerda Qur‘on oyatlarini yod olgach, maxsus imtihondan so‘ng bitirib chiqishar, aholi bunday kishilarni “qorilar” deb nomlashgan. Qorixonada o‘qituvchi kishini qori domla deb atashgan. Qorilarga yakka-yakka tartibda ta‘lim berilgan, buning uchun 3-4 yil vaqt sarflangan. Qorixonalar ham madrasa kabi vaqf daromadi hisobiga qurilgan va saqlangan. Uning binosi madrasadan kam farq qilgan, ammo, bir oz kichikroq bo‘lgan. Qorixonalardagi hujralarning soni uning binosiga qarab har xil bo‘lgan. Masalan, Qo‘qon shahridagi Sulaymon xo‘ja Eshon qorixonasining 3 ta hujrasi bo‘lsa, Xolif Oltmish qorixonasida 11 ta hujra bo‘lgan.

Adabiyot bo'yicha talabalar Jaloliddin Rumi, Fariddin Attor, Hofiz Sheroziy, Mirzo Abdulqodir Bedil, Alisher Navoiy, Fuzuliy va boshqa ko'plab mashhur shoirlarning g'azal va devonlarini fors-tojik va o'zbek tillarida qunt bilan o'rganganlar.

Madrasada ilmiy hisob o'qitishdan ko'zlangan maqsadlardan biri meros taqsimlashning ilmiy va amaliy nazariyasini biluvchi mutaxassislar tayyorlashdan iborat bo'lgan. Bunday mutaxassislar "Faroizxon" (meros bo'luvchi) nomi bilan atalgan.

Madrasalarda o'qitilayotgan ilmning to'liq tizimi XI-XII asrlardayoq shakllangan bo'lib, uni quyidagi ilmiy guruhlar tashkil etgan:

1. Arab tili grammatikasi – sarfi, (morfologiya), naxvi (sintaksis), etimologiya, arabcha notiqlik, Qur'onni o'qish ilmi va ilmiy munozara madaniyati.

2. Ilohiyot va qonunshunoslik: Qur'on tafsiri, hadis, fiqh, diniy aqidalar, meros taqsimoti haqida ta'limot, qonunshunoslik asoslari.

3. Falsafa mantiq, riyoziyot, jug'rofiya, astronomiya, tibbiyot, kimyo va tabiiy fanlar.

Darslar haftaning muayyan kunlarida olib borilgan. Madrasa tahsili 21 sentyabrdan to 21 martga qadar, ya'ni 6 oy davom etgan. Mana shu 6 oyda 180 soat dars o'tilar edi. Navro'z arafasida xonning ta'til haqidagi farmoni chiqqach, o'qish tugatilgan va talabalar 6 oy davomida ta'tilda bo'lganlar.

Qo'qon xonligi boshqaruvi yillarida madrasalarning umumiy sonini aniqlash haqidagi ma'lumotlar yo'q. Tarixiy asarlarda ham xonlik shaharlaridagi madrasalarning umumiy soni bilan bog'liq aniq ma'lumotni olish qiyin. Asarlarda mualliflar u yoki bu shaharlardagi madrasalarni tilga olib o'tganlar. Tarixchi olim Sh.Vohidov Qo'qon xonligi tarixnavisligiga bag'ishlangan tadqiqotlarida mahalliy tarixiy asarlarva boshqa turkum manbalardagi ma'lumotlarning qiyosiy tahlili asosida XIX asr o'rtalarida Qo'qon xonligining o'zida 350 dan ortiq madrasa mavjud bo'lgani haqida yozadi. Tabiiyki, bu madrasalarning aksariyati xonlik shaharlari, qisman yirik qishloqlari hissasiga to'g'ri keladi. Masalan, mamlakat poytaxti qo'qon shahri 540 ta mahalladan tashkil topgan bo'lib, XIX asrning birinchi yarmida 15 ta yirik madrasa faoliyat ko'rsatgan. XVIII asrning ikkinchi yarmidan XIX asrning 70-yillariga qadar Qo'qon shahrida qurilib, ishga tushirilgan madrasalar mavjud bo'lgan.

Qo'qon xonligidagi madrasalar asosan uch turga bo'lingan: bular xon madrasalari, eshon madrasalari va mulkdorlar qurdirgan madrasalardir. Albatta, ularning nima maqsadda qurilgani keyinchalik faoliyat ko'lamiga va taqdiriga katta ta'sir ko'rsatgan. Ta'kidlash joizki, madrasalarni turkumlashda ularning yuzaga kelish shart-sharoitlarini ham hisobga olish zarur. Masalan, ayrim madrasalar jome' masjidlarda talabalarga darslar tashkil etish maqsadida qo'shimcha hujralarning ochilishi bilan ham yuzaga kelgan.

Madrasalar faoliyatida mudarrisning salohiyati katta ahamiyat kasb etgan. O'rta Osiyoning boshqa mintaqalarida bo'lganidek, Qo'qon xonligida ham madrasa mudarrislari davlat va jamiyatning ko'zga ko'ringan, madaniy-ma'naviy muhit rivojiga hamda malakat ijtimoiy-siyosiy hayotiga katta hissa qo'shgan faol shaxslar bo'lganlar. Ularning aksariyati diniy mansab egalari bo'lish birga birga madrasalarda talabalarga saboq berish bilan ham mashg'ul bo'lganlar. Katta mavqega ega bo'lgan poytaxt madrasalari mudarrisi odatda xon tomonidan, bekliklardagi katta madrasalar mudarrisi esa joylardagi hokimlar tomonidan tayinlangan va bu xususda maxsus yorliqlar chiqarilgan. Ko'p hollarda kuchli bilimmgga ega bo'lgan mudarrislar a'lam, muftiy, qozilik amallariga ko'tarilgan. Mavjud tarixiy hujjatlarga qaraganda, bunday vaqtda ularning madrasalardagi mudarrislik maqomi ularning hohishiga qarab saqlab qolingan. Masalan, 1864-yilda Sulton Saidxon tomonidan Domulla

Mansurxo‘janing Qo‘qon raisiga mansabiga tayinlangani haqidagi yorliqda uning yangi lavozimga o‘tishiga qaramay, avvalgi a‘lamlilik va mudarrislik vazifalarining saqlanib qolishi haqida eslatib o‘tiladi.

Madrasalarga mudarrislar diniy ilmlarni yaxshi egallagan, zehni o‘tkir shaxslar orasidan tanlab olingan. Ularning bir vaqtning o‘zida diniy mansablarda xizmat qilishi va ayni vaqtda diniy ilmlarda asarlar yozganliklari haqida ma‘lumotlar yetarlicha topilgan.

Qo‘qon xonligidagi madrasalar ta‘limi ham qo‘shni xonliklardan deyarli farq qilmagan holda – adno (quyi), avsat (o‘rta) va a‘lo (yuqori) bosqichlarda olib borilgan. Madrasalardagi har bir bosqichda qancha muddat o‘qish qat‘iy belgilanmagan. Bu ko‘proq talabaning qobiliyatiga va mudarrisga bog‘liq bo‘lgan. Talaba har bir bosqich uchun belgilangan asarlarni qanday o‘zlashtirganiga qarab, bosqichdan-bosqichga o‘tkazilgan. Odatda har bir bosqichda 3-4 yil o‘qilgan. Ba‘zan turli sababga ko‘ra, 10 yillab bir bosqichda qolib ketgan talabalar ham bo‘lgan. Bitirganlarga diplom yoki guvohnoma berilmas edi. Faqat qozilik va devonxona lavozimlariga da‘vogar bo‘lganlar imtihon qilinib, so‘ng nomzodlik guvohonomasi berilgan.

Barcha madrasalarda darslik va o‘quv qo‘llanmalar o‘quvchilarga musulmon xalqlari uchun ilmiy til arab tilida, odob-axloqqa oid kitoblar esa fors tilida o‘qitilgan, turkiy tilda ularga izoh berilgani bois asosiy e‘tibor arab-fors tillarini mukammal o‘rganishga qaratilgan. Agar madrasa ta‘limdagi uch bosqich davomida o‘qitilgan darsliklarning sohalari (grammatika, tafsir, fiqh, aqoid, mantiq va boshqalar) ko‘lami tahlil qilinganda o‘qitish tizimi “anchayin pasaygan” deya ta‘rif beriluvchi XIX asr madrasalarida tilga olingan o‘rta asr musulmon Sharqida mashhur mualliflarning ko‘plab asarlari bilan ta‘minlanishi masalasi e‘tiborni tortadi.

Poytaxt Qo‘qondagi madrasalar bekliklardagi yoki qishloqlardagi madrasalardan faqatgina hashamatli binolari bilan emas, o‘qitish saviyasi, ta‘limi sifati bilan ham ajralib turgan va bu farqni rus ma‘murlari ham ta‘kidlab o‘tganlar. V.P.Nalivkinning e‘tirof etishicha, Qo‘qon va Marg‘ilondagi madrasalar alohida ajralib turgan. Xususan, XIX asrning 70-80-yillariga kelib Qo‘qon shahridagi madrasalar musulmon universitetlari sifatida Buxoro bilan raqobatlasha oladigan darajaga yetgan. Talabalar faqat Turkiston o‘lkasidan emas, balki Buxoro hududlaridan ham kela boshlagan.

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib shuni ta‘kidlash mumkinki, XVIII-XIX asr boshida yuzaga kelgan Qo‘qon xonligidagi madrasalar faoliyati ham ana shu davrlarda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jarayonlar hamda madaniy-ma‘naviy hayotda yuz berayotgan o‘zgarishlar bilan hamohang edi. Olimxon (1798-1810 yy) va Umarxon (1810-1822 yy) boshqaruvi yillarida mamlakatda markazlashtirish siyosatining yakuniga yetkazilishi va oliy hokimiyatning qaror topishi mamlakatning turg‘unlik davridan deyarli barcha sohalarida rivojlanish davriga o‘tishiga turtki berdi. Garchi, oldingi asrlardagidek aniq va tabiiy fanlar, kitobat san‘ati yuksak darajaga rivoj topmasada, adabiyot, me‘morchilik, amaliy san‘atning bir qator sohalarida o‘ziga xos o‘sish yuz berdi.

Tayanch iboralar

Shoirilar, “Majmuat ush-shuaro”, Amiriy, Nodira, maorif tizimi, maktab, madrasa, avsat, adno, quyi, metafizika, fiqh, fizika, logika, ritorika (notiqlik), arifmetikaning to‘rt usuli, algebra va geometriya, maktab va madrasalar tarkibi, maktab va madrasalarda o‘qish usuli, qorixonalar.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Qo‘qon xonligida madaniy soha taraqqiysi qaysi hukmdor davrida rivojlangan?

2. Qo‘qon xonligida ijod qilgan Gulxaniy haqida nimalarni bilasiz?
3. Nodira haqida nimalarni bilasiz?
4. Qo‘qon xonligida madrasalar faoliyati qanday yo‘lga qo‘yilgan?
5. Qo‘qon xonligida madrasalarning qanday turlari mavjud?
6. Qo‘qon xonligida madrasalar qanday fanlar o‘qitilgan?
7. Qo‘qon xonligida maktablar faoliyati qanday yo‘lga qo‘yilgan?
8. Qorixonalar nima?

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

I. Manbalar

1. Муҳаммад Яхёхон. Туркистон хонлари тарихи//Ватан газетаси. 1994. 10-17 август
2. Мирза Алим ибн Мирза Рахим Ташканди. Ансаб ас-салатин ва таворих ал-хавакин. Ташкент. 2007
3. Мирзо Олим Махдумхожа. Тарихи Туркистон. Тошкент. “Янги аср авлоди”. 2008
4. Мирзо Олим Мушриф. Ансаб ус – салотин ва таворихи ал-хавакин//Мирзоолим Мушриф. Қўқон тарихи. Тошкент. Ғ.Ғулом. 1995
5. Мулла Олим Махдумхожа. Тарихи Туркистон. Қарши. Насаф. 1992
6. Мулла Олим Махдумхожа. Тарихи Туркистон. Тошкент. Янги аср авлоди. 2008
7. Мулло Мусо Сайрабий. Тарихи Хамидий. Нашрга тайёрловчи Анвар Бойтўра. Миллатлар Нашриёти. Урумчи. 1986
8. Муҳаммад Азиз Марғилоний. Тарихи Азизий. Тошкент. Маънавият. 1999
9. Муҳаммадҳакимхон Тўра. Мунтахаб ат-таворих. Тошкент. Янги аср авлоди. 2010
10. Худоёрхонзода. Анжум ат-таворих. Тошкент. 2014.
11. Исҳоқхон Ибрат. Фарғона Тарихи, Т. 1991

II. Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбек давлатчилиги тарихида Фарғона водийси. Фарғона. 2004
2. Бабаджанов Б.М. Кокандское ханство: власть, политика, религия. Тошкент-Токио. 2010
3. Бобобеков Х. Қўқон тарихи. Тошкент. 1996
4. Булатов С. Ўзбек халқ амалий санъати. Тошкент: Меҳнат, 1991
5. Воҳидов Ш. Қўқон хонлигида тарихнавислик. Тошкент. Академнашр. 2010
6. Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т. Шарқ. 2001.
7. История Узбекистана, Т.3. Т., 1993
8. Қосимов А. Қўқон хонлиги тарихи очерклари. Наманган. 1994
9. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Туркистон чор мустамлакачилиги даврида. Тошкент. Шарқ: 2000.
10. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1-китоб. Тошкент. Шарқ. 2000
11. Шамсутдинов Р. Каримов Ш. Убайдуллаев Ў. Ватан тарихи. (XVI-XIX аср бошлари). Тошкент. 2011
12. История Узбекистана (XVI – первая половина XIX века). Ташкент. Фан. 2012.
13. Бейсембиев Т.К. Кокандская историография. Исследование по источниковедению Средней Азии XVIII-XIX веков. Алматы. 2009.
14. Юсупов Ш. Хуфия қатламлар. Тошкент. Маънавият. 1999.
15. Исабоева Г. XIX асрда Қўқон хонлигида маданий ҳаёт. Тошкент. 2012.
16. Arslonzoda R. Manbashunoslik: ma'ruzalar matni. Farg'ona, 2003

17. Ишқувватов В.Т. Қўқон-Россия дипломатик муносабатлар тарихшунослиги. Тошкент. 2009.

III. Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Азимов И. Ўзбекистоннинг нақшу нигоралари. Тошкент, 1987
2. Анна Леонидовна Троицкая Материалы по истории Кокандского ханства XIX в (по документам архива кокандских ханов). Москва. Наука. 1969
3. Бартольд В.В. Коканд/Соч. Москва. Наука. 1965.
4. Бейсембиев Т. Легенда о происхождении Кокандских ханов как источник по истории идеологии в Средней Азии//Казахстан, Средняя и Центральная Азия в XVI-XIX вв. Алма-Ата., 1987
5. Зиёев Ҳ. Ўрта Осиё ва Сибирь. XVI-XIX асрлар. Тошкент. ФАН. 1962
6. Зияев Х. Экономические связи Средней Азии с Сибирью в XVI-XIX вв. Ташкент. ФАН. 1983
7. Ишанханов С.Х. Каталог монет Коканда XVIII-XIX вв. Ташкент. ФАН. 1976
8. Кодзаева Л. Керамика Риштана. Ташкент. 1998
9. Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити. Т. Фан. 1961
10. Лунин. Б.В. История Узбекистана в источниках. Ташкент. Фан. 1990
11. Миддендорф А. Очерки Ферганской долины. СПб. 1882
12. Набиев Р. Из истории Кокандского ханства. Ташкент. Фан. 1973
13. Наливкин В. Краткая история Кокандского ханства. Казань. 1886
14. Плоских В.М. Киргизии и Кокандское ханство. - Фрунзе. 1977
15. Суприн. И. Истории Риштанской керамики//Народное слово. 2006, 27 июнь.
16. Троицкая А.Д. Каталог архива Кокандских ханов XIX века. - М: Наука. 1969
17. Ўзбекистон ССР тарихи. Тошкент, 1974
18. Фарғона ўлкашунослиги. Фарғона. 1996
19. Филипп Назаров. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. Москва. Наука. 1968
20. Хасанов А.Х. Народные движения в Киргизии в период Кокандского ханства. М., 1968

IV. Ilmiy-amaliy anjuman materiallari

1. Фарғона водийси янги тадқиқотларда. Биринчи китоб. Фарғона. 2009
2. Фарғона водийси янги тадқиқотларда. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Андижон. 2015.
3. Фарғона водийси янги тадқиқотларда. Иккинчи китоб. Фарғона. 2012.
4. Фарғона водийси янги тадқиқотларда. Учинчи китоб. Фарғона. 2014.

V. Davriy matbuot materiallari

1. Fan va turmush. 1995. №3-4.
2. Жамият ва бошқарув. 2009. 4-сон.
3. Фан ва турмуш, 2001. №3

4. Халқ таълими журнали. 1993, №8-9
5. Мозийдан садо. 2008. № 3

VI. Disertatsiya avtoreferatlar

1. Алихожиев М.О. Қўқон хонлиги маданий ҳаётида мактаб ва мадрасалар ўрни. Тарих.фан.ном. ...автореферат. Тошкент Миллий университети. 2012
2. Бўриев О., Султонов Ў. Тошкентнинг XIX асрдаги маънавий-маърифий ҳаёти тарихидан (Муҳаммад Солиххўжанинг “Тарихи жадидаи Тошканд” асари асосида)//Тошкент 2007-йилда Ислом маданияти пойтахти. Тошкент коллекцияларида ислом кўлёмалари. 2007
3. Турсунов Б. Военное дело и войско в Кокандском ханстве: положение, управление, традиции. Автореферат. Ташкент. 2006.
4. Махмудов Ш. Система административного управления в Кокандском ханстве (1709-1876 гг.). Автореферат. Ташкент. 2007.

MUNDARIJA

	sahifa
Qo‘qon xonligining tashkil topishi.....	5
XIX asrning birinchi yarmida Qo‘qon xonligi siyosiy taraqqiyoti.....	19
XIX asrning o‘rtalari va ikkinchi yarmida Qo‘qon xonligi. Xonlikning tugatilishi.....	39
Qo‘qon xonligida qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti.....	59
Qo‘qon xonligida hunarmandchilik taraqqiyoti.....	85
Qo‘qon xonligi ma‘muriy-hududiy boshqaruvi.....	99
Qo‘qon xonligi harbiy holati.....	108
Qo‘qon xonligi tashqi iqtisodiy va diplomatik aloqalari.....	120
Qo‘qon xonligida madaniy hayot.....	130

144,1,142,3,140,5,138,7,136,9,134,11,132,13,130,15,128,17,126,19,124,21,122,23,120,25,118,27,116,29,114,31,112,33,110,35,108,37,106,39,104,41,102,43,100,45,98,47,96,49,94,51,92,53,90,55,88,57,86,59,84,61,82,63,80,65,78,67,76,69,74,71

72,73,70,75,68,77,66,79,64,81,62,83,60,85,58,87,56,89,54,91,52,93,50,95,48,97,46,99,44,101,42,103,40,105,38,107,36,109,34,111,32,113,30,115,28,117,26,119,24,121,22,123,20,125,18,127,16,129,14,131,12,133,10,135,8,137,6,139,4,141,2,143